

AMIR TEMURNI YOD ETIB



Bo'riboy Ahmedov



24
198

BO'RIBOY AHMEDOV

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

	Количество предъявленных выдач
	10,041,28

200.0 1 1 1 1

AMIR TEMURNI


- 1753 -

Scand

The logo for the FBI Laboratory, featuring the letters "FBI" in a stylized font above the word "LABORATORY".

O'zbekiston Respublikasi
«FAN» nashriyoti
Toshkent—2018

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasini



Illi og'iz eslatma.....

Birinchchi qism

Ilmiy-ommabop maqolalar

Amir Temurning davlatni idora qilish siyosati (<i>Dastlabki mulohazalar</i>)	7
Tarixiy manbalari tilga kirganda	26
«Temur tuzuklari» — tarixiy manba sifatida	33
Nabur — ijtimoiy zaratut (<i>Aloqa tarixidan</i>)	46
O'zbek qavmlari	50
Qadimiy qonunlarimiz	56

Sahifalovchi *Akbar Qo'nishhev*

Ikkinchi qism

Publitsistik maqolalar

Abadiyutga daxldor inson	63
Amir Temurni yaxshi o'rganaylik	77
Ishanduring o'chini Spitamendan olasizmi?	79
Istom — adolatli va pok ta'llimot	88
Tarixni soxtalashitirib bo'lmaydi	91
Tong qorong'isida	98
Im-fan xalq va mamlakatga xizmat qilsin	106
Hammumiz uchun dasturlulamal	110
Haq-huquqimizni tan olsinlar	114

Uchinchi qism

Suhbatlar

Amirning qilichi qayerda?	117
Bizkim — mulki Turon..	119
Mungu ustivor haqiqat...	125
Miliy tarbiya sarchashmalari	131
Nomi abadiy o'chmas shaxs	136
Sibiga ketmagan o'zbek	142
— Tarix va kelajak	153
Nurli sahifalar	165

Tarix — haqiqat onasi	170
Temurning ulkan xizmatlari.....	176
Temurshunoslikni qaysi yo'nalishda rivojlantirish kerak?	179
Teran tomirlar	184
O'tmishi o'zagimizdir	186
O'tmishi yo'qning kelajagi yo'q	191
Hamma narsaga egamiz, ammo.....	191

To'rtingchi qism

(9 tabʼatani qoʼshti
sankashini tare)

Amir Temurga maktublar

Amir Temurga maktublar.....	206
Birinchchi maktub	207
Ikkinchchi maktub	211
Uchinchchi maktub.....	218
To'rtinchchi maktub	225
Beshinchchi maktub	235
Oltinchchi maktub	241
Yettinchchi maktub	246
Sakkizinchchi maktub	254
To'qqizinchchi maktub	256
Jahon mehrobida paydo Alisher	262

Beshinchchi qism

(10 tabʼatani qoʼshti
sankashini tare)

Yangi tadqiqot

Temur va Qamariddin.....	273
<i>Birinchi bob</i> . Chig'atoy ulusi (XIII—XIV asrning 30-yillari)	289
<i>Ikkinchchi bob</i> . Chig'atoy ulusi o'zaro feodal kurash iskanjasida (XIV asrning 40—50-yillari)	313
<i>Uchinchi bob</i> . XIV asrning ikkinchi yarmida Mo'g'uliston davlati. Tug'luq Temurxonning isttiochlik yurishi	329
<i>To'rtinchchi bob</i> . Temur va Qamariddin.....	347
<i>Beshinchchi bob</i> . Mo'g'uliston XV asrda.	
Chig'atoiyalar bilan temuriylar munosabati	359
Xulosa.....	388

Qatag'on qurboni bo'lgan otam Ahmadxon

Tojxo'jayevning porloq xotirasiga bag'ishlayman

Muallif

Muzkur to'planga 1988—1994-yillar mobaynida vaqtli matbuot mifutulurida e'lon qilingan ilmiy-ommabop, publisistik maqolalar kiritildi. To'plamda, shuningdek, suhbatlar, Amir Temurga maktabular, «Temur va Qamariddin» nomli yangi tadqiqotga o'rinn berildi.

Ma'lumki, olimlarning kitoblari keng xalq onmasiga hamma vaqt ham yetib bormaydi, chunki ular juda kam nusxada, ming ko'p ho'lgunda ikki-uch ming nusxada chop etiladi. Bu birinchidan, Ik-

inchidan esa kitoblar ilmiy bo'lgani sababli juda kam odam o'qiydi. Shu bois ayrim olimlar, shular qatori biz ham, keyingi yillarda ko'proq ilmiy-ommabop asarlar yozadigan, maqolarimizni sodda va ischammashtirib, vacqli matbuot — gazeta va jurnallarning sahi-

liarida etalon qiladigan bo'lib qoldik. Bilgan odamga bu juda qulay yo'li ekan. Chunki shunday qilinganda, kashfiyoting tezroq yerug'lik ko'rat va u tez funsatda onmalashar ekan. Darhaqiqat, onmalash-

omugun, xalq va mamlakatga foydasi tegmaydigan ilmnинг kimga longi bor, o'zi? Xullas, ushbularni hisobga olib, ko'pdan beri, im-

lon qadar maqolalarimizni vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilib kelayapmiz. Qarangki, ular shu paytgacha yig'ilib, anchagina bo'lib qolgan ekan, biz o'g'lim Muzaffar ikkimiz (u ham bo'lajak sharqihunos) ulardan muhim-muhimlarini, to'g'risi, ikkimizga muhim ko'ringanlarini tanlab oldik.

Turli ifoda uslubiyatlarida yozilgan yozishmalarda biz bu

tan ihmiy faoliyatimiz davomida mashg'ul bo'lib ketayotgan to'rt minzu; o'zbek xalqining kelib chiqishi; Markaziy Osiyo xalqlari ning qadimiy tarixi va madaniyati; arab, fors va turkiy tillarda bilti-

gan tarixga oid qo'lyozma asarlarni o'rganish; Amir Temur va uning ovodlari hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, Temuriylar davri ta-

xi va madaniyatini o'rganish muammolari bilan bog'iq massalalar

IKKI OG'IZ ESLATMA

yuzasidan bildirgan tahliliq qarashlarimiz, mulohazalarimiz, milliy mustaqilligimizni mustahkamlash, o'zligimizni anglash, xalqimiz aymiqsa, yosh avlod ongida milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini uyg'otish, miliy istiqlol mafkurasini shakllantirish xususida fikrlarimiz o'z aksini topgan.

To'planda, ayniqsa, adiblar va jurnalistlar bilan bo'lgan subbatlarga alohida e'tibor berilgan. Bundan tashqari, javobsiz qolgan savollar, ya'ni oliv o'quv yurtlarining talabalari bilan bo'lgan uehrashuvlarda tushgan, lekin vaqt taqozosi bilan javob berishi imkon bo'lmagan savollar va ularga keyinchalik vaqti matbuot sahfalarini orqali berilgan javoblar ham majmuamizda bor.

Subbatlarimiz tarix va taqdир haqida. Bu borada shu kunlarda respublikamizda olib borilayotgan xayrli ishlar, shuning bilan birga bu masalada yo'l qo'yilayotgan ayrim xato va kamchiliklar borasi da ham so'z boradi. Alisher Navoiy ijodini o'rganish va targ'ib etish davr talabiga aylangan kezlar, navoiyshunoslar birdan ko'payib ketganday, hozir Amir Temur, Ulug'bek, Bobur, Sulton Husayn Boyqaro haqida u yer-bu yerdan ko'chirib yozayotganlar urug'lab ketdi. Haqiqiy asl asarlar turib, tarixiy manbalalar va ilmiylikdan yiroq xalq og'zaki ijodi namunalariiga yaqin Salohiddin Qorining «Temurnomavi», Nabijon Mahmudning «Amir Temurning tarjimasi», holiga o'xshagan naql-u rivoyatlarga asoslanib yozilgan asarlar han nashr qilmoqda.

Ba'zi olimlar esa Amir Temur shaxsi, hayoti, avlodlari xususida aqlga sig'maydigan mubolag'alar o'ylab topishyaptiki, ularning mutlaqo zid kelishimi isbothash zaruriyati tug'ildi.

Xullas, mazkur to'plamga kirgan maqola va subbatlar tariximiz va madaniyatimizni chuoqrroq haqqoniy o'rganishga bir turki bo'larmikin degan umiddamiz. Chunki o'tmish va ko'hna tarixni yaxshi bilmay turib bugunimizni ham, kelajaginiini ham teran angolmaymiz.

Amir Temurning davalatini idora sivosati
(Dastlabki mulohazzalar)

11. MIY-OMMABOP MAQOLALAR

AMIR TEMURNING DAVLATNI IDORA QILISH SIVOSATI

(Dastlabki mulohazzalar)

I

Amir Temur, o'z davri va zamonasiga ko'ra markazlashgan yillarda davlatga asos soldi va bu bilan xalqiga, yurtiga beqiyos xizmat qildi. Buni anglab yetish uchun Amir Temur katta siyosat maydoniga kirib kelmasdan burun mamlakatdagi mayjud ijtimoiy-siyosiy shaharini ko'z oldimizga keltirsak, shuning o'zi kifoya. Xo'sh, o'sha yerdagi ahvol qanday edi? Chig'atoyxon avlodidan bo'lgan humodshirinxon (1326—1334) o'Idirilgandan keyin ulusda beqarorlik kuchaydi. Buni shundan ham bisa bo'ladiki, yigirma besh yil nomaynida mamlakat taxida o'ndan ortiq xon saltanat qurib o'tirildi, lekin bitontasi ham tobora kuchayib borayotgan feudal tarqoqlikka burhum berishtiga qodir bo'lmadi. Beqarorlik oqibatida tarixda chiq'utoy ulusi nomi bilan mashhur bo'lgan ulkan bir mamlakat o'nga yaqin mustaqilbekliklarga bo'linib ketdi. Masalan, Kesh viloyatida Hoji barlos o'zini hokim deb e'lon qildi, Xo'jand va unga qurashchi yerdarda amir Boyazid jalor mustaqillik da'vo qilib chiqdi. Hulx va unga tobe bo'lgan yerdarda O'lijoy Bug'o suldus, Shihing'on viloyatida nayman umoqiga mansub bo'lgan Muhammad Abo'ju Aperdi, Xuttalon bilan Arhang saroyida amir Kayxusrav bilan Ulijoyu Aperdi, Samarqandga qarashli Totkand bilan Saripulda Xizr Yulovuriy mustaqillik bayrog'ini ko'tarib chiqdilar. Hirot hukumani esa marhum amir ul-umaro Qazag' onning uddaburro nabirasi o'ziga Husayn egallab oldi. Qo'yingki, bu parchalanish ulusni o'ziga urush-talash girdobiga uloqtirdi. Johil, urushqoq beklar, amirlar

sati xususida bilgan-uqqanlarimizni aytmoqchimiz, xolos. Bizning bu haqdagi fikrimiz Amir Temur davlati haqidagi dastlabki mulo hazalardir.

Har qanday davlat o'z faoliyatida ma'lum ijtimoiy guruhga taynadi, hokimiyatni qo'lga olgandan keyin esa o'sha ijtimoiy guruhning maqsad va manfaatlarini himoya qiladi. Temur va temuriyul davlati ham bundan mustasno emas, albatta. U ham aslida, mohiyati bilan, mol-mulk egalarining davlati bo'lgan...

Temur siyosatdon va mohir arbob edi. U o'zidan avval o'tgan hukmdorlardan farqli o'taroq davlat va mamlakatni boshqarishda bireyoki ikki tabaqaga emas, balki ahollining barcha tabaqalatiga suyanadi. Mana o'sha tabaqalar: 1) sayyidlar (payg'ambar avlod), ulamo, mashoyix, fozi kishilar, ya'ni ziyolilar; 2) ishning ko'zini bilgan donishmand kishilar; 3) xudojo'y, darvesh, qalandarlar; 4) no'yonlar (xonzodalar, turman, ya'ni 10 ming kishilik qo'shin boshliqlari) va mingboshilar, ya'ni harbiy kishilar; 5) sipoh va raiyat, ya'ni askarlari va avom un-nos; 6) maxsus, ya'ni ishonchli kishilar; 7) vazirlar va sarkotiblar; 8) hakimlar va tabiblar, munajjimlar va muhandislar; 9) tafsir va hadis olimlari; 10) ahlı sanoat (hunarmandlar, kosiblar); 11) so'fiylar, 12) tujor (savdogar) va sayyoohlari. «Saltanatim qonun-qoidalari, — deydi Amir Temur o'z «Tuzuklari»da, — shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim. Shu o'n ikkita toifani saltanatim osmoning o'n ikki burji va davlatim korxonasing o'n ikki oyи deb hisobladim». Amir Temur birinchchi toifadan diniy, huquqiy va ahly masalalarni o'rgandi. «Ular saroyimga doimo kelib-ketib, majislarini bezab turishdi», — deb ta'kidlaydi u. Ikkinchi toifaga Temurbek dono kishilar, ehtiyojkor arbolar, sergak va oxirini o'ylab, uzoqni ko'rib ish tutuvchi odamlarni qo'shadi. «Ularning suhbatlaridan, ishlaridan naf' olib, tajriba hosil qillardim», — deb aytadi Amir Temur. Uchinchchi toifaga, asosan, xudojo'y kishilar kiritilgan. Ular haqida majislarda, to'ylarda, jang maydonida ko'p barakotlar topdim», — deydi jahongir. To'rtinchchi toifaga amirlar, sarhanglar hamda sipohsolorlar, ya'ni harbiy boshliqlar kiritilgan va podshohi olam yaqin maslahatchilar, suyanchig'i bo'iganlar. «Sipohiygirlik ish-

lardi ulongo tayunib, ulardan kengash tilar edim», — deydi hazrat Sohibqiron. Beshinchchi toifaga kingra sipoh va raiyat toj-u taxting qurondi, ularning boshini siladi. Uning sipoh va raiyat xususida aytmona bu gaplari o'ta ibrachtirdi: «Ularning har ikkalasiga bir ko'z tushon qoradim. Sipohiylarimni hamisha jingga tayyor holda tutdim, o'stik huqurini so'rattirmay vaqtida berardim. Sipoh birlan raiyatni shunday tutdimki, bironasi ikkinchisidan ustunlik qilib, bir-biriga dog'atlik qilishmadidi. Sipohiylarni o'z martabalari va darajalariga qarab shunday tutdimki, haddidan tashqari biron qadam qo'yolmas edi he. Ularning martabalalarini ko'p ko'tarib hovliqturdim va tushirib yuborib ko'ngillarini cho kirmadim. Qaysi biri ko'zga ko'rinarli hujor sizmat ko'rsatlar ekan, in'om berib, boshqalardan ortiq hurmatindim. Kinning aqli va shijoatini imtihon tarozusida tortib ko'rib, hujqolardan ortiq topsam, uni tarbiya qilib amirlik darajasigacha ko'rdim».

Amir Temur o'z yonidagi ishongan kishilar — ya'nikin, mahrami arorlari bilan har ishni kengashib olardi. Ulardan dilidagini se'if tuncusdi. «Ular bilan sirdoshlik qilib, yashirin ishlar, maxfiy shilomi ularga topshirdim», — deb aytadi hazrati Sohibqiron. Shu hujra mahrumi asrorlar oltinchi toifaga kiritilgan. Yettinchi toifadan voqealar, sarkotiblar va devon munshiylari o'rın olgan. Amir Temur ulonga munifikat ko'zgusi sifatida e'tibor beradi. Tuzuklarini davom ettilib, «Chunki ular kunda el-u ulus orasida bo'layotgan voqealar ni, sipoh-u raiyatning turish-turmushini menga bildirib turar edilar. Hujra davlat xaznasi, sipoh va raiyatga oid ishlarni tartibga solib yuridilar. Saltanat mulkiga tushgan rahmalarni berkittishning zarur chora-tubdirlarini ko'rdilar. Saltanatim korxonasi xaznasing kirim va chiqimiga oid ishlarni to'g'ri olib bordilar. Hamma vaqt mamlikating to'kinchiligi va obodonchiligi uchun harakat qilishardi», — deb humratini bildiradi.

Amir Temur hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarni (ankizinchchi toifa) ham davlat tayanchi hisoblab, ularning saltanat korxonasi rivojiga beqiyos xizmat qilishini teran anglagan. «Hakim-

lar va tabiblar bilan ittifoqda, — deb davom etadi u, — bermorlari davolatardim. Munajimlardan sayyoralarining qutlug' va qutsiz kuni, ularning harakati va aylanishini aniqlab olardim. Muhandislar bilan ittifoqda oliv imoratlar bino qilib, bog'-u bo'stonlarning tarhini (toiyhasini) chizzirdim». To'qeqizinchiloi toifadagilar muhandislari (hadis olimlari) va rivoyat aytuvchilar (tarixshunoslar) bo'lib, Amir Temur bu toifani ham o'ziga yaqin tutgan, ul zakovat va bilimlari dan foydalangan. Buyuk Amir mazkur e'zozli kishilar haqida bun day deydi: «Payg'ambarlar va valiyalar haqidagi qissalarni, avval o'tgan podshohlar to'g'risidagi xabarlarini, ularning saltanat taxti qanday yetishganliklarini, davlatlarining qanday sabablarga ko'n zavol topganligini ulardan so'rab bilardim. Har kaysisiming qissa lari va xabarları, ishlari va so'zlarini eshitib tajribam ortdi. Olamdu bo'layottan voqealarni ulardan eshitardim va olam ahvoldidan xabur topardim».

Mashoyix, so'fiylar va oriflar (o'ninchiloi toifa) ham hazrat Sobiqironga musohib edilar. Amir Temur davlat va sipoziygirlik ishlardan forig' bo'lgan paytlarda ularning subbattalaridan bahra topardi. «Ularning xizmatlarida bo'tib, ular birtan subbattar qurdim va oxirat foydalarini oldim. Ullardan Tangri taoloning so'zlarimi eshitib, karomatlar ko'rdim, favqulodda xoriq odatlarini mushohada etdim ya'ni kosibularning hurmatini ham (o'n birinchi toifa) baland tutishga intilgan. Chunki sipoh uchun kerak bo'lgan quroq-yarog' va kiyim-kechak o'sha ahli humarning qadoq qo'llari bilan yaratildi. Buyuk Amir savdo-sotiqqa, ayniqsa, xorijiy mamlakatlar bilan olib boriladigan savdo-sotiqqa, uning tarraqqisiga alohida rag'bat berardi. Savdo-sotiqning rivoji raiyatning farovonligi va mamlakatning obodonligiga xizmat qiladi deb ta'kidlardi. Shu sabab savdogarlarini (o'n ikkinchi toifa) qo'llab-quvvatlashdi. «Tuzuklar»da bu haqda mana bularmi o'qiyimiz: «Har bir mamlakatga va diyorga savdogaritar va karvonbosmilar tayinladimki, ular qayerga borishmasin, Xitoygami, Xo'tan bilan Chin-mochingami. Hindistongami, Misr-u Shom yoki Farangistonami, ularning nafis matolari va munosib tuhifalaridan

ketunindan. O'sha mamlakatlarda istiqomat qiluvchi kishilarning hal ahevoll, turish-turmushi haqida menga xabar olib kelsinlar. Har halda muonlikat hukmdorining o'z xalqiga qanday muomala va munosib shahola ekonligini aniqlasınlar».

Aniq Temur el-yurtmi o'z tasarrufida va itoatida tutish uchun o'n ikki nuvoq tudi: 1) Podshoh bir so'zlik bo'lishi va aytgan so'ziga aniqligi, belgilangan har bir ishini bilib qilishi lozim; 2) har ishda adolatposha bo'lishi, atrofida ham shunday kigshtlarni tutnshi shart; 3) ne ishniki qilar bo'lsa o'zi hukm chiqarsin; 4) biror ishga aniqligi u qoror qilar ekan, qarorida qattiq tutsin; 5) uning amr-u farmoni homoni uchun vojib bo'lsin; 6) podshohlik ishlarini biron boshqa ishnomga ishonib berib qo'ymasin; 7) ne ish qilmoqchi bo'lsa, boshqalar bilan kengashsin, lekin maslahatning foydalisisini olsin; 8) salmonat, ruyat va sipoh ishlarida yaxshi-yomon gaplar eshitisa, haqiqat qilib, shohimasdan, mulhaza bilan hukm chiqarsin; 9) sipoh va raiyat olibdu o'zini haybatli va jiddiy tutsinki, hech kim bo'yin tovlash va qop qaytarishga jur'at etolmasin; 10) raiyat, xazina, lashkar va adionot podshohning hukmi ostidadir, u buni doimo esda tutmog'i lug'omi. 11) saltanatni idora qilishda boshhqani o'ziga sherik qilmasligi korak; 12) ahli kengashdan ogoh va hushyor bo'lishi zarur, chunki uho ko'pincha ayb axtaradilar va uni tashqariga tashiydilar.

«Ushbu o'n ikki narsani o'zinga shior qilib olganligim uchun, deydi hazrat Sobiqiron, — to'la mustaqillik bilan saltanat taxtida o'ttindim. O'z tajribamdan sinab bildimki, agar qaysi bir podshoh shu o'n ikki narsaga ega bo'lmash qolur».

II

Mamlakat va raiyatning turmushi, uning farovonligi yoki og'ir shuvolga tushib qolishi ko'p jihatdan markaziy davlat tizimi va uning ishlari olib borishiga bog'liq. Amir Temur buni to'g'ri anglatdi. Avvalimbor markaziy davlat tizimini ixcham va ishchan qilib tuzdi va bu ishlida u songa emas, balki sifatga e'tibor berdi. Davlat muassasalariga imoni va insofi, diyonatlari va tashabbuskor odamlarni o'tqizdi.

Toj-u taxt va saltanat taqdiri ko'p jihatdan vazirlarning farosil to'g'riligi, qanday ish yuritishi, qolaversa, sa'y-harakati va g'ayni ga bog'liq. Amir Temur ulardan insof, to'g'rilik va savob bilan ishu tish, rishvat (poraxo'rlik)dan xoli bo'lishni talab qildi. Amir Temurning fikricha, vazir to'rt sifatga ega bo'ishi kerak. Bular: 1) aslita toza naslik; 2) aql-u farosatilik; 3) raiyat va sipoh ahvoldan boxabarlik; 4) sabr-toqatilik va tinchliksevarlik. Binobarin, shu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilargina hazrat Amir farmoni bilan va zirlik mansabiga tayin etilgan, mamlakat ishlari, raiyat va sipohni ixtiyori ularning qo'liga topshirilgan. Bu borada Sohibqiron qatl yulosaiga ega bo'iganlar: mana shu to'rt sifatga ega bo'lgan vazir gina «davlat ishlarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asl-u naslining tozaligini ko'rsatib, ajoyib bir tarzda ado eta oladi. Olgulik yerdan olib, bergulik yerga beradi.. Dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi... Birovdan yomonlik ko'rgan bo'lsa, unga nisbatan eshitmaydi. Agar birovdan yomonlik ko'rgan bo'lsa, unga nisbatan shunday muomala qiladiki, u oxiri yomonligidan qaytadi...»

Va yana buzuqi, qora niyat, zoti past odamlarni hukumat ishlari ga yaqinlashtirmaslik kerak deb ogohlantiradi hazrat Sohibqiron. Shuning bilan birga, u vazirlarni — to'g'riso'z, sof ko'ngil, adolatpesha va sadoqatli vazirlarni ehtiyyot qilish zarur deb uqidiradi. U xususan, bunday deydi: «Agar ular o'z faoliyati davrida, hatto saltanatni yiqitish qasida davlatga xiyonat qilgan bo'lsalar ham,ularni o'ldirishga shoshmasinlar, balki awal (uning haqida) xabar beruvchilarning o'zları kimligi, da' volarining rost-yolg'onligini mahak toshiga (contining sofi yoki soxtaligini aniqlab beruvchi qora tusli bir tosh) urib tekshirib ko'rsinlar. Chunki ko'p hollarda hasadchilar va g'iybatchilar yoki ko'rolmay, yo ta'magirlik bilan yolg'on to'qib, uni chinday qilib, yasab chiqaradilar va yovuz maqsadlariga yetishadilar. Davlat ichida talaygina, olchoq, yomen odamlar borki, davlat dushmanlarini yaxshilab, uning uchun jon fido qiluvchilarni turli makr-hiyul bilan xarob qiladilar. Ularning maqsadlari saltanat qo'rg'oniga rahmu solishdir». Shu bilan birga, Amir Temur mansabini suiste'mol qilib davlat va xalq haqiga xiyonat qilgan vazirlarga shafqatsiz edi. 1404-

III konurqanda bo'lgan Ispaniya qiroli Henry III (1390—1407) ning elchisi Lui Gonsales de Klavixo Amir Temurning 1404-yil g'urkibor kuni o'z mansabini suiste'mol qilib, davlatga xiyonat qilish vazir xoja Muhammad Dovudni xalq ko'zi oldida jazolagani hajida guyohlik beradi. «U, — deb yozadi Klavixo, — Samarqand impolyusdu eng katta odam edi. Temurbek bundan olti yil-u o'n bir oy avval uni alkald (vazir) etib tayinlab ketgan edi. Ubo'lsa shu vaqt u huda munabini suiste'mol qildi».

Amir Temur tuzgan markaziy davlat tizimiga kelsak, uni bor-qo'lli yetti vazir: 1) mamlakat va raiyat vaziri, 2) sipoh vaziri, 3) moliva ishlari vaziri, 4) saltanat ishlarini yurituvchi vazir; be-alinchi, oltinchi, yettinchi vazirlar — sarhad vazirlari boshqarardi. Lati ularning kim va nimalig'i, ya'ni zimmasiga qanday vazifalar qutqolqonligi aniq ma'lum emas. «Tuzuklar»da aytilishicha, bu in h vazir surhadlar vaziri deb atalgan va tobe mamlakatlarga tegishli ishlari bilan mashq'ul bo'lganlar. Xususan, «ular mazkur yerlardagi moliyaviy muomalalarni va keladigan daromadlarni boshqarishsin», deyilgan. Balkim vaziri a'zam qaramog'ida shu ishlar bilan shug'ulxonadigan uch vazirdan iborat hay'at bo'lgandir? «Zafarnomonda devoni adi, devoni quzzot, devoni mansab degan atamalar inayaydi. Devoni adl va devoni quzzot, o'z-o'zidan ko'rinish turibdi, adlyu ishlari bilan shug'ullangan. Demak, beshinchchi vazir adliya hujdilardan xabardor bo'lib turish, mansabdolarning faoliyatini ko'natish ishlari zimmasiya yukatilgan maxsus devoni bo'lsa kerak. Shunday muassasa G'aznaviyilar, Somoniylar va Xorazmshohlar davlatida ham bo'lgan va devoni mushrif deb atalgan. Shubhaisiz, humny devon Temur va Temuriylar davlatida ham bo'lgan, albat-ta Demak, oltinchi vazir Devoni mansab tepasida turgan. Yana shu ham mu'lumki, o'rta asr feudal davlatlari faoliyatida, (Amir Temur davlati bundan mustasno emas, albatta) mamlakattaro sawdo va sechilik munosabatlari ham alohida o'r'in tutgan. Mazkur yumush-juga mas'ul bo'lgan muassasa Devoni rasoil (Elchilik devoni) yoki

Devoni insho deb atalgan. Demak, vazirlardan biri, yettinchiisi shu muassasaga rahbarlik qilgan. Shunday bo'iganida Amir Temur devlatidagi devonlar va ularning tepasida turgent vazirlar quyidagilardir. **Birinchisi vaziri a'zam** (Bosh vazir) deb ham atalib, saltanatning muhim ishlariiga mutasaddiylik qilgan. Boshqa so'z bilan aytganda, kundalik joriy ishlar, raiyatning hol-ahvoli, viloyat va o'lkolaridan olib turiladigan hosil, soliq, kirim-chiqim ishlarini boshqarishi kabi muhim ishlar vaziri a'zamning zimmasida bo'igan. Xazina va el-yurtning farovonligini ta'minlash ham unga vazifa qilib yurklatigan. Vaziri a'zam faqat oly hukmdor (podshoh, xon) oldida mas'ul bo'igan.

Ikkinchisi vazir sipoziylarning maosh va tanholarini (ularning maoshi uchum ajratib berilgan yer-suv) tasarruf etgan. Boshqa so'z bilan aytganda, sipozning ta'minoti va uning umumiyligi ahvoliniz nazorat qilib turish ikkinchi vazirning zimmasida bo'igan.

Uchinchi vazirning zimmasiiga surv va mulklarni boshqarish, yaylov va o'tloqlarni nazorat qilish boj va zakotdan tushgan daromad hisob-kitobini olish vazifasi yuklatilgan.

To'rtinchisi vazir tamom davlat muassasalarining kirim-chiqimlari, xazinadan olib saflanayotgan xarajatlarni tasarruf qilib turgan. **Beshinchisi vazir** adliya vaziri bo'lib, devoni quzzot (qozilar devoni)ga rahbarlik qilgan. Bu devon — devoni adl deb ham atalgan.

Oltinchisi vazir, yuqorida qayd etilganidek, Devoni mushrifiga rahbarlik qilgan.

Yettinchisi vazir esa xorijiy mamlakatlar bilan bo'ladigan munosabatlarga mutasaddiylik qilgan.

Tarixiy manbalarda aytilishicha, davlat muassasalarida amin, arzbegi, bakkavulbosni, bitikchi, daftardor, dorug'a, qutvol, omil, otaliq, majlisnavis, munshiy, muftiy, muhandis, muhosil, muxtasib, filbon, sadr, sadr a'zam, sohib devon, tovochi, farrosh, faqih, xabarqarit, xazinador, xonsolor, shayxulislom, yurtchi, qozi kalon, qozi askat, quishchi kabi katta-kichik mansabdorlar xizmat qilishgan. Shulardan ba'zilarining vazifalariga qisqa tarzda to'xtalib o'tamiz.

Arzbegi — podshoh huzuriga aitz-dod bilan keluvchilar haqida, muassasaga rahbarlik qilgan. Shunday bo'iganida Amir Temur dev-

latidagi devonlar va ularning tepasida turgent vazirlar quyidagilardir.

Birinchisi vaziri a'zam (Bosh vazir) deb ham atalib, saltanatning muhim ishlariiga mutasaddiylik qilgan. Boshqa so'z bilan ayt-

ganda, kundalik joriy ishlar, raiyatning hol-ahvoli, viloyat va o'lkolaridan olib turiladigan hosil, soliq, kirim-chiqim ishlarini boshqarishi kabi muhim ishlar vaziri a'zamning zimmasida bo'igan. Xazina va el-yurtning farovonligini ta'minlash ham unga vazifa qilib yurklatigan. Vaziri a'zam faqat oly hukmdor (podshoh, xon) oldida mas'ul bo'igan.

A'zam — fiqh va shariat qonunlarini puxta bilgan olim; maslahchi.

Bahovolboshi — saroy oshpazlarning boshlig'i.

Muhibbi — kotib, devon xizmatchisi, munshiy deb ham atalgan.

Hukmdor — moliya mahkamasasi xizmatchisi, kirim-chiqim va qilib turuvchi kichik mansabdor.

Bevonbegi — hukumat devonlarining boshlig'i.

Fazchi — oly hukmdorning farmonlari va podshohlikda (xuning, unroydu) yuz berib turadigan muhim voqealarini xalqqa e'lon qilib turuvchi kichik mansabdor.

Dorog'i — shahar hokimi; shaxna deb ham atalgan.

Rahbar — podshoh va shahzodalarining otlariga egar uruvchi hukmdor.

Qutvol — qal'a boshlig'i.

Qutvol — mahalliy hokim; soliq undirish ishlariiga rahbarlik qilishi.

Qutvol — shahzoda va xonzodalarning tarbiyachisi.

Majlisnavis — Oly hukmdorning kengash va mashvaratlari.

Mujtosib — soliq va o'pon yig'uvchi kichik mansabdor.

Muftiy — faqihlar (musulmon qonunshunoslar) boshlig'i. Shuning qonunlari asosida qat'iy hukm chiqaruvchi oly mansabdor.

Munab — jihatdan qozi kalondan yuqori vazir, maxsus talmiym vazir.

Murov — podishoh otxonasi xizmatchilar teпасида турган ишмабдор.

Mushrif — давлат назоратчилини.

Moxosib — soliq va o'pon yig'uvchi kichik mansabdor.

Muftiy — faqihlar (musulmon qonunshunoslar) boshlig'i. Shuning qonunlari asosida qat'iy hukm chiqaruvchi oly mansabdor.

Munab — jihatdan qozi kalondan yuqori vazir, maxsus talmiym vazir.

Muxtasib — mo'min-musulmonlar tomonidan shariat qonuni qoidalarinining bajarilishi, bozorda narx-navo va tosh-u tarozularning to'g'ri yoki egriliginiz nazorat qilib turuvchi mansabdar.

Munshiy — kotib, sarkotib; podshoh (xon)ning shaxsiy kothi bo'ljish gallarni xolislik bilan laftarga qayd etib borgan. Undan mayda bo'lgan gaplarni pinhon tutish talab qilingan.

Muhandis — geometriya ilmmni yaxshi bilgan olim; binolning tarhini tuzib beruvchi mutaxassis; quruvchi-injener.

Naqib — qo'shinni jang oldidan o'rinalashtiruvchi man-sabdon Filbon — podshoh ixtiyorida bo'lgan jangovar fillarni tasarruf qilib turuvchi xizmatkorlar boshlig'i.

Sadr a'zam — sayyidlar va diniy arooblargacha suyurg'ol (toj) taxt va saltanat oldida ko'rsatilgan katta xizmat evaziga berilgancha maxsus in'om; yer-suv, mol-mulk) tariqasida berilgan yerlar; shuningdek, vaqflarni taftish qilib, vacfi-vaqgi bilan oly hukmdorning arziga yetkazib turish zimmasida bo'lgan oly mansabdar.

Sohib devon — hukumat devonining boshlig'i, vaziri a'zam. **Tavochi** — oly hukmdorning amri bilan harbiy yurishlar oldindan viloyatlarga borib lashkar to'plab kelish va uning boshqa maxsus topshiriqlarini (harbiy yurishlar vaqtida qo'shirlarni o'rinalashtirish hukm) ijro etilishini nazorat qilish; imorat, nahr va boshqa qurilishlarda ish taqsimlab berish va h.k.) ijro etiwchi harbiy mansabdar.

Farrosh — podshoh (xon) xonalarini supurib-sidiruvchi, gilan, to'shak va boshqa keraksizlarni to'shovchi xizmatkor. **Faqih** — fiqh (musulmon qonunchiligi) ilmining bilimdoni huquqshunos olim.

Xabargir — boshqa mamlakatlarda, shuningdek, dushman tarafida ahvol haqida ma'lumot olib keluvchi.

Xazinador — podshoh (xon) va davlat xazinasini (xazoriy omira atalgan) tasarruf etib turuvchi mansabdar.

Konsolor — saroy dashturxonchisi.

Chuhraboshi — podshoh (xon) va shahzodalarining shaxsiy qo'riqchilarini boshlig'i.

Hayotshalon — musulmon janosaming boshlig'i.

Vorteli — harbiy yurishlar payida qo'nib o'tiladigan manzillar.

Qur'haton — mamlakat qozisi.

Shuras qozisi — fuqaro o'rtaсидаги келишмовчиллик ва тортishuvchi choyoviy qonunlar asosida hal qilgan mansabdar.

Shariat qozisi — shariat qonunlariga asoslanib ish yuritgan manzabdar.

Qo'rashar — sipohiyalar o'rtaсидада чиқиб турадиган келишмовчиллик va тортishuvlarni qonun asosida hal qituvchi mansabdar; haliy asylga.

Qo'rishi boshi — quroq-aslahha ombori boshlig'i.

Qo'rishi boshi — podshoh va shahzodalarining quroq-aslahasini ko'rsal yuruchilar boshlig'i.

Qorovolbegi — podshohning ov hayvonlarni tasarruf qilib turgan qurashchalar (qushchilar) o'rasi qo'riqchilarini boshlig'i.

Divlatni idora qilishda, xususan, qo'shirlarni boshqarishda ummonning xizmati benihoyat katta bo'lgan. Avvalambor shuni aytish kerakki, amirlar, asosan, harbiy kishilar bo'lishegan. Ular Amir Temur devlatiga tobe bo'lgan tuman va nohiyalarda istiqomat qilib turishni qo'roq aymoq (qabila)dan o'n ikkitasi, ya'ni barlos, arg'in, jibot, tulkichi, duldoj, mo'g'ul, suldus, tug'oy, qipchoq, orlot, totor, qurashchalar va boshqatar orasidan saylab olingan. Amirlik rutbasi dastlobi Amir Temur harbiy-siyosiy faoliyatining ilk davrida uning bishishini yuzasi — yuzboshi, yana boshqa yuztasi — mingboshi, ul-umaro — beklarbegi, bittasi — amir ul-umaro (amirlar boshlig'i) va etibani tuyinlangan. Qolgan 18 rutba bizning fikri ojizimizcha, uning (o'rdu)ning o'zida xizmatda bo'lgan oly mansabdorlarga emondon, muhror, xazinador)ga berilgan bo'lishi mumkin. Amirlik o'ndan o'n ikki kishiga birinchi, ikkinchi, uchinchi, o'ninchisi,

o'n birinchi, o'n ikkinchi darajali amir degan faxriy unvon berilg'on

O'n ikkinchi darajali amir, odatda, amir ul-umaroga noib bo'lgan

O'n ikki amirning har biriga bittadan bayroq va bittadan nog'ora, bi-

tuman (o'n ming kishilik) qo'shin, tug' va chortug' berilgan. To'n

nafar beklarbegining har biriga bittadan bayroq, nog'ora, chorug'

burg'u (karnayga o'xhash musiqa asbobi) berilgan. Jang va xizmat

da o'zini ko'rsatgan, boshqalarga o'mrak bo'lurlik ish qilgan amirlar

rag'batlantririgan. Masalan, jang maydonida shijoat va bahodirk

namunalarini ko'rsatgan amirlarga uch imtiyozi: 1) tug', nog'ora va

bahodirk rutbasi; 2) davlat kengashlariga hemalol kirish huquqi va

3) biron sarhadning noiblig'i in'om etilgan.

Amir Temur o'zining ulkan imperiyasini ulus-ulus qilib idon qildi. Movarounnahrdan boshqa barcha o'ka va mamlakatlarni u to'rt ulusga bo'ldi: Kobul, G'azni va Qandahorni, Sind daryosiga chuo bo'igan yerlarni 12 ming kishilik qo'shin bilan to'ng'ich o'g'li amirzoda Jahongirga berdi. Uning vafotidan (1376) keyin esa, u viloyatlariga Balx mamlakatini ham qo'shib, Jahongirning o'g'li Pirmuhammadga in'om qildi. Sohibqiron ikkinchi o'g'li Umarshayx mirzoga Farg'ona o'ikasini, so'ngra 1393-yili Fors viloyatini berdi. Shuningdek, unga 10 ming kishilik qo'shin ixtiyorini ham berdi. Uchinchiligi amirzoda Mironshoh 1380-yili 10 ming kishilik qo'shin bilan Xuroson mamlakatiga tayinlandi. 1383-yili esa unga G'arbiy Iroq vi Ozarbayjoni (markazi Tabriz) ulus qilib berdi. Xurosonga esa kenja o'g'li amirzoda Shohruxnaytay qildi va 8 ming kishilik qo'shin bilan Hirotg'a jo'natdi. Ulus hukmdorlari, sirdidan qaraganda, mustaqil hukmdorga o'xshardilar. Ularning o'z devonlari, xazinasi va qo'shini bo'igan. Lekin aslida ulusning inon-ixtiyori to'laligicha shahzodalar qo'tida emas edi. Birinchidan, ular ulusning muhim ishlari otasi va markaziy hukumat bilan kengashib qilishardi. Ikkinchidan, Amir Temur ularning yonida o'zining ishonchli odamlarini tutdi. Undan tashqari, ulus hokimlari xirojning bir qismini markaziy davlat xazinasiga jo'natib turishi va zatur bo'lib qolganda otasi yoniga qo'shin bilan borib xizmat qilishga majbur edilar.

III. O'zbek imperiyasi tafsiloti
Hozir yuqorida davlat, asosan, to'rt omilga: raiyat, xazina, qo'shin va qazanishda tayanimishini eslatib o'tgan edik. Saltanat xususidagi bor qizimi oydir. Indi boshqa omillarga: raiyat, xazina va qo'shin manziliga qo'shishga to'xtalib o'tamiz.

Futahda biron ta davlat xazinasiz kun kechirimagekan, hozirda ham shunday. Hu hummaga ma'lum haqiqat.

Kopoi xazinadan boshlaylik. U, asosan, xalqdan to'planadigan shaxs qilib, bo'ysundirilgan shahar va mamlakatlardan undiriladi. Bu qilib (moli omon), davlat yerlari hamda boshqqa mulkdan kechirilgan daromud hisobiga to'ldirilgan. Shu sababdan podshohlar xususini, uning to'kin-sochinlig'i xususida doimo qayg'urib kelganini «Xozinoning kamayib qolishi, — deyiladi «Tuzuklar»da, — qaydoladigan turqolib ketishiga sabab bo'ladi». Yana shuni ham aytilish kerakki, nutqiqat lashkarning turish-turmushi, balki davlat xizmatchi-himongi turish-turmushi ham xazinaga bog'liq. Shuning uchun xizmatchi g'ariblashishi, o'z navbatida, saltanatning zaiflashuviga qarabda o'shu zamonalarda aholidan xiroj (mol), moli jihod, tag'or, uning o'irojot, boj, sari humor, xoma shumor, alafa (ulufa), shilon puli, poeklak, sovurin kabi soliq va jarimalar undirilgan.

Kunjan olsak, u asosiy daromad solig'i bo'lib, ayrim hollarda yashashishga hosilning o'ndan biri, ko'p hollarda esa uchdan bir qismini taakkili etgan. Moli jihod — naqd pul yoki mahsulot bilan to'planadigan soliq; tag'or — harbiy yurishlar vaqtida aholidan to'planadigan soliq; boj — bir mamlakatdan ikkinchisiga, ayrim hollarda yashashishga — viloyatga o'tishda savdo qiluvchilardan undiriladigan yil'li hujun solik; ixrojot — saroy xarakatlari uchun aholidan to'planadigan soliq; boj — bir mamlakatdan ikkinchisiga, ayrim hollarda yashashishga — viloyatga o'tishda savdo qiluvchilardan undiriladigan yil'li hujun solik; ixrojot — jon boshidan olinadigan soliq — jon solig'i; xizmat shumor — har bir xonadondan yig'iladigan solik; qo'malg'a — qe'chilar — har bir xonadondan yig'iladigan solik; qo'malg'a — qe'chilar va choparlarga qo'noq berish majburiyati: shiton puli — pudohohilar va amirlarning ovqati uchun xonaboshidan to'planadigan

soliq; peshkash — podshoh, amirzodalar va oly martabali kishilari qilinadigan hadya; sovurin — oly martabali kishilarga hadya qilinadun badavlat aholidan to'planadigan yig'im.

Sipoh masalasiga kelsak, toj-u taxt oldida uning xizmati nihoye bor berdi; chunki uning hukumatga sadoqat bilan xizmat qilishi ko'jihatdan shunga bog'liq. Shuning uchun birinchi galda sipohiylarning maoshi o'z vaqtida berib turildi. Hazrat Sohibqiron harbiy yurt oldidan olti oylik maoshni bирyo'la to'lashni mutasaddi mansabdu landan talab qidi. Undan tashqari, har bir sipohiyga jang oldida maxsus sovg'alar (ukulkalar) ularshtirildi. Sipohiylar to'planadi o'ljadan ham bahramand qilindi. Masalan, sipohning maoshi qovuqdag'i miqdorda belgilangan: oddiy sipohiyga, o'z vazifasini o'rn latib bajarish sharti bilan, mingan otining bahosi miqdorida; bishdirlarg'a ikki-uch ot bahosi miqdorida; o'nboshilarga o'n ot bulon miqdorida; yuzboshilarga — o'nboshilarniga qaraganda ikki buobar ortiq; mingboshilarga yuzboshilardan uch barobar ortiq miqdorda belgilangan.

Sipohiylar (qo'shin) xususida yana shuni ham aytish kerak! Amir Temur yaxshi qurollangan va o'regatilgan kuchi armiyaga awo soldi. Uning armiyasi, o'rda doimiy xizmatda turgan qurchi, qorovul, navkarlar va maxsus cherik (gvardiya)dan tashqari, asosan lashkardan, ya'ni faqat yurish oldidan ulus va yurtlardan to'plab olish kelmadigan askardan iborat bo'lgan. «Yurish vaqtida, — deyiladi «Tuzuklarda, — har bir ulus va tuman amiri har chodirlirkdan bo'ltiq, har ikki olachuq (chayla)dan bir otliq, har bir uydan bir otliq askar ajratib, o'zları bilan binga olib kelsinlar». Darhaqiqat, harbircha qaqirilganlarning har biri egar-jabduq va zarur urush anjomlarini o'zi bilan birga olib kelgan Masalan, har o'n sakkiz kishi bir chodil olib kelishi, har bir sipohiy ikki ot, bir kamon, bir sadog (o'qdon) o'q, bir qilich, arra, bigiz, bir qop, juvolduz, bolta, o'nta igna, orqaga osiladigan charm xalqa olib kelishi shart bo'lgan.

Sipohiyga har bir jangdan so'ng ajrim berilgan, agar sipohiy urushda xatoga yo'l qo'ysa, maoshi o'ndan birga kamaytilrilgan

— akademicheskaya, jurnalik ko'rsatganlarning martabasi ko'tarilgan. — qurashchilik shiqishidn o'zini ko'rsatgan bahodirlarni, — birinchi marta-
si bo'lib — o'nboshi, ikkinchi martaba botirlik qilsa — yuzboshi,
mung'ibotirlikda esa mingboshi qilib tayinlasinlar», — deyiladi
mung'ibotirlikda.

Ushbu qolgan va shu sababdan harbiy xizmatdan ozod qilin-
magan — o'zini bir sipohiy xizmatda yurib qarilik yoshiba yetar-
di. — deyil u, — uni ulufadan mahrum etmaslik va martabasidan
mung'ibotirlik lozim. Hech bir sipohiyning xizmati nazardan chetda
ishimli, chunki ular davlat xizmatida bo'lib, boqiy hayotlarini
ning daryo naqqi uchun ayamaganliklarining o'zi in'om va moddiy
naqqi bo'lishga haqli va loyiqidin».

Lekin omm bo'lganda ham, saltanatning ustuvorligi ko'p jihat-
ning qolqo, uning saltanatga sodiq xizmat qilishiha bog'liq. Dav-
ling horini ham, yo'g'ini ham o'sha raiyat, ya'ni qora xalq hal-
ishi, shuning uchun Amir Temur sipohiy bilan raiyatga bir ko'z
qondi, idolat va insof bilan ish turib, qora xalqni ham o'zidan
mal haftaliga hurakkat qildi. Biz buni hazrat Sohibqironning soliq
niyomatiga yuqol ko'ramiz. «Tuzuklarda aytilishicha, xiroj olimadi-
gan yar soy, odinda, (suv manbalariga yaqin-yinoqligi, hosildor yoki
kundonilgini hisobga olib) uch darajaga bo'lingan. Birinchi daraja
u hujudho hosilning to'ridan bir qismi, ikkinchi darajali yerlardan
itti sayov (ikki eshak yuki), uchinchisi darajali maydonidan bir xar-
vor miqdorida xiroj olimishi belgilangan. «Agar raiyat bu yo'sinda
mung'ibotirlik rozi bo'lmasa, u holda bir xarvor bug'doyiga bes
mung'ibotirlik kumush, bir xarvor arpasiga ikki yarim misqol kumush
mung'ibotirlik narx qo'yisnilar», — deyiladi «Tuzuklarda». Va yana hosil
mung'ibotirlik yig'ishitirilmasdan turib raiyatdan mol-u jihat talab qilmaslik
ning umumun, soliqni birdan emas, uch qismga bo'lib olish lozim»
deyil atishidi ukdiriladi.

Amir Temur hukumatni yangi yer ochgan va tashlandiq yertar-
ni olib qolqan ziroatchilarga (dehqonlarga) alohida imtiyozlar ber-
gani hu haqda «Tuzuklarda mana bularni o'qiyimiz: «Kinki biron

sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, xud biron xarob bo'lib yotgan yermi obod qilsa, birinchi yili unda hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z rozligi bilan bergut ni olsinlar, uchinchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'ilib Umuman, Amir Temur kalontarlar va soliq yig'uvchilarni bu ishlis insof va adolatga, qonunga xilof ish tutmaslikka chaqiradi va xususda mansabdorlarni qattiq ogohlantiradi. «Raiyatdan mol-siq olishda, — deb aytadi u, — ularni og'ir ahvolga solishdan suqish zarur, chunki raiyatni xonavayron qilish xazinaning g'ariblilik ishiga olib kedadi. Xazinaning g'arib bo'lib qolishi esa sipochniq tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqalib ketishi esa, o'navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi». Mehnatdorlar Aslida savdogar — kerak toifa, chunki u aholining mushkulini oson qiladi. Oddiy xalqning qo'li yetmaydirgan, turnush uchun o'ta zarur bo'lgan tovari ni uzoz yurtlardan olib kelib hojat chiqradi. Imonli savdogarlar molini insof bilan sotadi. Lekin shundeq savdogarlar ham borki — baxiga qarshi, ular ko'pchilikni tasbili qiladi — hazrati Alisher Navoiyning so'zi bilan aytganda, «ulfanining do'konida insofdan boshqa barcha mol mavjuddir, ular bina arzimi yuzga sotmoqdan ming bor maqtanadilar, mingga tengni yuqaga olmoqdan zarracha uyalmaydilar... Aldash ularning hunaridori Navoiy ularni xiyonatchi deb ataydi. Amir Temur ham bunday/un yomon ko'rgan, ularga shafqat qilmagan. Klavixo bunday guvohlik beradi: «O'sha kuni (1404-yil 9-oktyabr. — B. A.) Temurbek ayin qassoblarni, u Samarqandda bo'Imagan yillari, go'shtni ortiq narxdosotganlari uchun, javobgar qilishni buyurdi. So'ng molini ortiq bulloqo'yib sotgan ba'zi mahsido'z va etikdo'zlar ham jazzoga tortildi».

Amir Temur bosha mamlakatlar bilan elchilik va savdo munasabatlarini yaxshi yo'iga qo'yishga ham alohida e'tibor berdi. Sohibqiron va uning vorislari davrida Temuriylar davlatini Mo'g'uliston, Xitoy, Hindiston, Oltin O'rda, Misr, Turkiya va hurovojlandi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, uning satoyi

hamma yaqt o'sha mamlakatlardan kelgan elchilar bilan, karvonsa-tilg va hororolr esa mollar bilan liq to'la edi. Bunga Amir Temur, kimochi va boshqa temuriylarning xorijiy davlat boshliqlari bishin illi hujum yozishmalari shohiddir. Bu maktublarning ayrimlari turli hujumyaning milliy kutubxonasi, Angliyaning Britaniya mire-yidi. Turkiyuning Fotih Sulaymon kutubxonasi, shuningdek, hujum qo'lyozma va majmualarda saqlamoqda. Men yosh sharqdilari olimlumi o'sha hujatlarini o'rganishga, Amir Temur davlatining tashqi siyosatini tadqiq etishga chaqirardim. Chunki bu — katta qoni bir jop. Amir Temur saltanatni boshqarishda kengash-mashhur va maslahatga alohida e'tibor bergan. Kengash — bu yaqin, hujumli odamlar bilan muhim davlat ishlari yuzasidan qilinadigan mukobot, yig'ilish; mashvarat esa mashhoiyx, ulamo, fuzalo, vuzaq, umoro va boshqa arkoni davlatni to'plab qilinadigan yig'ilish. Hazrat Sohibqiron butun umri mobayinida har ishda yaqin odamini, shoni davlat va mamlakat a'yonlari bilan kengashib ish tutdi. Shundek hujung qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo'li ha'li, — deydi u, — aqli raso va hushyor kishilardan kengash-unlik ishlarining to'qqiz ulushimi, — deydi u, — kengash, tadbir va moshkurnat bilan, qolgan bir ulushimi qilich bilan hal qildim».

Amir Temur bu xususda yana bir muhim gapni aytadi: «Tajribam-hui mu'ham bo'ldiki, kengash ikki turli bo'lur: biri til uchida aytildi, ikkinchisi yurakdan chiqqani. Til uchida aytigannini (shuncha) qilishni, akoni davlatning barchasi ishtirot ergan.

Anje Temurning davlatini idora qilish siyosati haqidagi fikr aytildi, hujum davalat ishlari, masalan, kimnidir oliy mansabga ko'tarish bo'lganda, umuman, davlat ahamiyatiga molik muhim massaliq qurolloxydu hal qilinar edi. Unda barcha amirlar, ulus va viloyat boshchilari, akoni davlatning barchasi ishtirot ergan.

Amir Temurning davlatini idora qilish siyosati haqidagi fikr aytildi, hujum davalat ishlari, masalan, kimnidir oliy mansabga ko'tarish bo'lganda, umuman, davlat ahamiyatiga molik muhim massaliq qurolloxydu hal qilinar edi. Unda barcha amirlar, ulus va viloyat boshchilari, akoni davlatning barchasi ishtirot ergan.

xolos. Amir Temur davlati va hazrat Sohibqironning davlat siyosati juda ko'p katta-katta ilmiy asarlarga mavzu bo'lgulik, kesil fikr — oldinda.

TARIXIY MANBALAR TILGA KIRGANDA

Binoni poydevorsiz tiklash mumkin bo'limganidek, manbo' tarixni ham, xoh u uzoq o'tmish, xoh yangi zamон tarixi bo'lgan yaratish qiyim. Ayniqsa, o'tmish haqidа biron asar yozish mushuk chunki, oradan ancha vaqt o'tgan, qolaversa, uzoq o'tmish voqe'ha qida juda kam axborot saqlanib qo'yan. Qolaversa, tarixiy munezbaning turlari ham ko'p. Ular turli narsalardan (suyak, tosh, temav va boshqalar) yasalgan qurol-aslahalar, uy-ro'zg'or buyumlar zeb-ziynat ashayolari, qadimgi odamlarning turar joylari, sug' o'ng va mudofaa inshootlarining qoldiqlari, nihoyat, tosh, papirus, temav bog'liq tarixiy masalalarni yechib bo'imaydi...

Alalkusus, O'zbek xalqining kelib chiqishi va shakllanish tarixi masalasini olib ko'raylik. Bu masala ko'pdan beri ilmiy jamro'ylikning e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Bu haqda yirik tarixchilarning (N. A. Aristov, A. Y. Yakubovskiy, P. P. Ivanov, A. A. Semenov, H. Vamberi, G. Kovors, M. P. Pelyo, M. A. Chapliyka va boshqalar) ozmi-ko'pmi fikrlari bo'lsa-da, lekin hozirda qat'iy bir ilmiy fikr aytilganicha yo'q. Uni yechish uchun o'tmish dan qolgan barcha yodgorliklarni, arxeologik topilmalarni, qadimiy afsonalar va qissalarni, shuningdek, turli tilarda bitilgan va bizning zamonamizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklarni ham qunt bilin atroflichcha o'rganish talab qilindi. Buning uchun yetuk arxeologlarningdek, sharq tillari hamda qo'lyozma manbalarni yaxshi biladigan olimlarning haqiqiy bir uyushmasini tuzishga to'g'ri keladi.

O'rta Osiyo, zamini ko'hna o'lkalarning, qadimiy millatning beshigidir. Shu muqaddas beshikda o'zbek xalqining tarixi ham bor. Xorazmda, O'zbekistonning janubiy hududlarda, shuningdej,

Shah (Fishkent) va Farg'on'a vohalarida olib borilgan arxeologik qazishlari va kazishishlar O'zbekistonda miloddan avval, aniqrog'i, 6 ming yilliklar orasida odam yashaganligini ko'rsatdi. Arindiq dinolarmiz ularning ijtimoiy va madaniy hayotiga oid bir qurʼangorliklarni ochdilar. Respublikamiz janubidagi Ko'hitang-ting lavdati g'orlarda, Samarqand yaqinida joylashgan Ilonsoy, Ilopis, Fushkent viloyatiga qarashli Xo'jakent qishlog'ida, shuning kuni Lang'on'a vohasidagi Falaktosh manzilida topilgan toshga o'g'ilishlangan ov manzaralari, ko'hna Xorazmda (Jonsbos qal'a va boshqalar) topilgan suyak va toshdan ishlangan qurol-aslahalar, uydu va zeb-ziynat buyumlari shular jumlasidandir. Topilmalarning qazishlari umumiy xulosa chiqarishga yordam beradi. Moniki shunday ekan, bu yodgorliklar o'zbek xalqining kelib chiqishi shakllanish tarixini o'rganishda ham muhim manbalardan biri vazifani o'nydi.

Aynalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o'zbek xalqining ajallori bo'lgan qadimiy qabila yoki elatlari haqidagi ma'lumotlar menjul norchlarda aniq bir joyda, ma'lum bir bobda keltirilмаган, balki botun sur' bo'ylab «sochilib» yotibdi. Demak, butun asarni usulidan oxirigacha qunt bilan o'qib chiqish va bu ma'lumotlarni boshqa terganduy bittalab terib olishga to'g'ri keladi. Ikkinchidan, mi'mi lumotlar mukammal bo'lmay, juda-juda qisqadir. Uchinchi dan son, bit muallifning keltirgan ma'lumoti ikkinchi bir asarda inhomidjan ma'lumotga tamoman zid bo'lish hollari ham uchraydi. Eshak, bir emas, balki o'nlab asarlarni diqqat bilan o'qib chiqish, uchida belgiligan ma'lumotlarni bir-biriga solishtirish va ularni tanqili moqtaf nazar bilan o'rganishga to'g'ri keladi.

Kha'lunki, qadimdan Amudaryo (uning qadimiy turkiycha nomi Chor) va Sirdaryo (qadimiy nomi Xashrat)¹ oralig'ida va uning donolliy hunda shimoli-sharrq tarafidagi yerlarda istiqomat qilgan shah, muassegetlar, toxarlar (xitoy manbalarida yuechji), kanguy-

¹ Qadimgi yuzon olimlari va yozuvchilari o'z tiliga moslashtirib, bularning birini

lar, uzzlar hamda usunlar o'zbek, turkman, qozoq va qirg'iz xalqlarining ajodlaridir. Qadimgi Eron manbalarida, Mug' qal'asi (Tokijistonning Aymy tumani)dan topilgan so'g'd tilidagi hujjalarda, shuningdek, Qayumars, Jamshid, Siyovush, Afrosiyob, Kayxusrov haqidagi afsonalarda, Amorg va Sparetra, To'maris, Shiroq qissalarda bular haqida ma'lumotlar mayjud.

Qadimgi yunon manbalarida, xususan, Gerodot (miloddan avvalgi V asr), Strabon (miloddan avalgi I asr), Efor (miloddan avvalgi 405—330-yillar), Dionisiy (milodning II asri) kabi tarixchi va geograf olimlarining asarlarida saklar hamda massagetlar haqida, xususan, ularning aniq yashagan joylari, urfodati va turmushi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, Eforming «Umumiy tarix» deb atalgan 30 jiddlik asarida mana bularmi o'qiyimiz: «Qo'yboqar saklar — skiflar tarkibiga kiruvchi qabilalardan. Ular odil ko'chib manchilar toifasidan bo'lib, don yetishtiriladigan Osiyoda istiqomat qilganlar... Saklar bir joydan ikkinchi bir joyga aravalarda ko'chib yuradilar va biya suvi bilan tirikchilik o'tkazadilar...» Yoki Klavdiy Elliamming ko'p jiddlik «Har xil hikoyatlar» asarida keltirilgan quyidagi ma'lumotga e'tibor beraylik: «Saklardan biron shaxs bir qizga uylanmoqchi bo'lsa, avvalo, u bilan musobaqalashishi zarur. Bordi-yu bu kurashda yengilgudek bo'lsa, yigit tamoman uning ixtiyoriga o'tadi, astiri va quliga aylanadi. Yigit faqat g'olib kelgan taqdirdagina qizni xotinlikka olishi mumkin». Qadimgi Yunon va Rim olimlarining asarlarida shunga o'xshash ma'lumotlarni ko'plab uchratish mumkin. Strabonning 17 kitobdan iborat «Geografiya» asarida, shuningdek, miloddan avvalgi I asr oxiri va milodning boshlarida o'tgan Pompey Trogning 44 jiddan iborat «Ummiy tarix»ida («Filippin tarixi» deb ham ataladi) saklar va massagetlarning umuman qaysi xalqqa mansubligi, ular yashagan hudud haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlar uchratamiz. «Kaspiy dengizi (uning sharqiy qismi)dan boshlab — skiflarning katta qismi, — deb yozadi Strabon, — daylar (daylar va derbiklar, asosan, hozirgi Qoraqum o'mida istiqomat qilganlar. — B. A.), ulardan sharqda yashovchi qismlari esa massagetlar va saklar deb ataladi...» Skiflar xususida Pompey Trog

ildirigan mana bu mulohazalar ham diqqatga sazovor. «Skiflarning humma vaqt eng qadimiy qabila deb hisoblab kelganlar. Qadimiylikda ular misriklardan qolishmaydilar».

Sharq manbalarini olib ko'raylik. Otashparastlarning (bu dimiy o'tiqod miloddan avvalgi VI asrda Balx va O'rta Osiyoda yuzaga kelgan) muqaddas kitobi «Avesto»da Ahamoniylar (millodan avvalgi 559—330-yillar) va Sosoniylar (milodning 224—651-yillari) asosatiga tushib qolgan mamlakatlar va xalqlar, shuningdek, O'rta Osiyohi, sharq manbalaridan Amudaryo bilan Sirdaryo oraliq'ida, Xorazm va Farg'onada, shuningdek, mazkur sarhadlarga tutash o'lkalarda yashagan xalqlar umumiy nom bilan «turk», ularning mamlakati esli «Turon» atalib kelgan. «Avesto»da bayon etilgan ma'lumotlarga o'xshash xabarlar sosoniyalar hukmronligi davrida yaratilgan «Xavdynamak» («Llohiyнома») asarida ham keltirilgan. To'g'ri, bu mifur bizning zamonamizgacha yetib kelmagan. Uning Ibn Muqaffa' (757-yilda o'ldirilgan) tomonidan qilingan arabcha tarjimasi ham muqlamagan. Lekin mazkur asar Ibn al-Qutayba (889-yilda vafot etgan) hamda Tabariy (838—923)arning asarlariga manba bo'lgan. Xususan, Tabariy «Xvadynamak»ning ma'lum qismlarini deyarli o'zgarishsiz o'z kitobiga kiritgan.

O'rta Osyo xalqlarning qadimiy tarixi, xususan, mamlakatning nrob istilosи arafasidagi ahvoli, shuningdek, uning VII—IX asarlari dog'i tarixi arab, fors va turkiy tillarda yozilgan yana bir qator asarlarda ham bayon etilgan. Umar al-Voqidiy (747—823)ning «Kitobi mag'oziy» («Urushlar haqida kitob»), Ahmad ibn Vadih al-Ya'qubiy (892 yilda vafot etgan)ning ikki jiddlik «Tariix» kitobi, nomi yuqorida zikr etilgan Tabariyning «Tariix ar-rasul va-l-muluk va-l-xulfo» («Payg'ambar, podsholar va xalifalar tarixi»), Ibn Miskawayx (1030-yilda vafot etgan)ning «Kitob tajorib ul-umam» («Xalqlar boshiga tushgan imtihon»); Abulqosim Firdavsiy (932 yoki 936—1020)ning buyuk «Shohnomoya»si, Abu Nasr Muhammad Utbiy (961—1036)ning «Tarixi Yaminiy» («Sulton Maximud G'aznaviy tarixi»), Abu Said Abdulhay Gardiziy (XI asr)ning «Zayn ul-ax-

«Majmu' at-tavorix» farg'onaliq muarrix Sayfidin Axsikatiy qahangiga mansub bo'lib, XVI asrda yozilgan. Mazkur asarda, asosan, larg'ona Kosonida nash'-u namo topgan mashhur shayxlarining tarjumiysi holi va hayotidan bahs yuritiladi. Lekin unda xalq og'zaki jiddi va tarixiy-elshunoslik ma'lumotlari ham oz emas.

Asarda quyidagi 92 o'zbek qavmining ro'yxati keltirilgani g'oyat muhimdir: ming, yuz, qirq, jalor, saroy, qo'ng'iroq, olchn, arg'in, huyma, qipchoq, qalmoq, chaqmoq, qig'iz, qarliq, turk, turkman, boyovut, burlayn, shamarchiq (samarchiq), qabasha, nujin, kelachi, kilamish, burat, ubrat (uyrat), qiyot, kitoy, qang'i, uryuz, jumalachi, kuchi, o'tarchi, fulodchi, jiyit, juyit, chulchit, turmovut, uymovut, orlot, kerint, o'ng'ut, tang'ut, mang'it, jalovut, mamasit, markit, bur-

kut, qiyot, quralash, o'g'lon, qari, arab, ilachi, juburg'on, qishliq, giray, do'rmon, tobin, tama, ramadan, uyshun, baday, hafiz, avrichi jurot, totor, yurg'a, botosh, qavchin, tuboyi, tilav, kordori, sayhiyot, qirg'in, shirin, o'g'lon, chimboy, chexilkas, uyg'ur, amor, yoh, targ'il, turgoq, tayit, ko'hat, fohir, kujaliq, savron (savron), dan, jot, kimot, shijoat, avg'on («Материалы по истории киргизов Киргизии», вып., I. Москва, 1973, с. 110—113).

«Tuhfat ut-tavorix-i xoniyy»

(«Xomming tarixdan tuhfasi»)

Qo'qonlik muarrix mulla Avaz Muhammad Attor (XIX asr) qalil mig'a mansub bo'lmish ushbu asar ham o'zbek xalqining etnik tarix va tarkibini o'rGANISHDA muhim ahamiyat kasb etadi. Asar ikki jild dan iborat bo'lib, birinchisi jildi («Tarix-i jahonnumo») — «Jahong'ko'zgu bo'luvchi tarix» deb ataladi)da dunyoning «yaratilishi»da to Buxoro amiri Muzaffar (1860—1885)gacha bo'lgan davr ichidagi kechgan voqealarni o'z ichiga oladi. U, asosan, turli manbalarga suyanib yozilgan. Ikkinci jildi «Tuhfat ut-tavorix-i xoniyy» mustaqimmatga ega bo'lib, unda Qo'qon xonligi tarixi bayon etiladi.

Biz uchun muhimiunda 92 o'zbek qavmining ro'yxati keltirilgan Ular quyidagicha: ming, qirg'iz, yuz, qirq, o'ng, o'ngkajot, jaloi, qo'ng'irot, olchin, arg'in, saroy, nayman, qipchoq, chaqmoq, burloq simichiq (samarchiq), bulotjib, qatag'on, qilachi, kenagas, buyrak, uyrost, qiyot, xitoy, qong'li, avar, jubalochi, to'ychi, buyut, jiyili chilchut, buyot, o'ymovut, arloy, kerait, o'ngut, tang'ut, mang'il, choljut, masit, markit, burkut, qiyot, qurolos, o'kalan, qari, arab, ilochi, juburg'on, qishliq, giroy, turkman, do'rmon, tobin, tama, ramadan, mitan, uyshun, buriya, hafiz, uyurchi (avirchi), tuyrat, bidoy, banosh, totor, bojinq (boshqird), suldus, azok, qalmoq, qoraqlapoq, sanuvodon, tuboyi, tilov, girodi, sahtiyon, qarqin, shirin, o'g'lon, qurlot, bag'lom, chimboy, chilikas, uyg'ur, arnamor, yobu, torg'il, turg'on, ko'hat, mojor, qujalik, savron, bahrin («Материалы по истории киргизов и Киргизии», вып., I. Москва, 1973, с. 210—213).

«Nasabnomayi o'zbak» «O'zbeklarning nasab kitobi»

Nasabnomayi o'zbak (4 bet)dan iborat bu asar bir qator boshqa kitoblar: naqshbandiya tariqatining ko'zga ko'ringan namoyandalari idon Mahdumi A'zam Kosoniy (1462—1542)ning «Tanbeh as-sahib», «Risolayi zikri», «Silsilat as-siddiqin», «Risolayi batixiya», «Mir'ot us-safot», «Me'roj ul-oshiqin» va boshqa asarlar bilan bir maqovada jamlangan. Majmua Nizomiddin ibn domla Shoh Said mahdum tarafidan 1896—97-yillari tuzilgan.

O'lyozma so'zboshisida aytilishicha, o'zbeklarning birinchi ajddodi Ibrohim alayhissalom va uning zavjayı muhitarimalari Olibi Sora bo'lganlar. Ularning 92 avlodni xalifa Abu Bakr Siddiq (612—634)ning otalari bilan birgalikda Turkistondan Arabistonga borib qolib, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom (570—632)ning g'ayridinlar bilan qilgan urushlarida ishtirok etganlar va o'sha urushlarda mardlik namunalarini ko'rsatganlar. Shuning uchun ham payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom doimo: «Turklar — mening asoim», — deb aytar ekanlar. «Hamma o'zbeklar, — deb oyiladi so'z boshisida, — o'sha 92 qavmdan tarqalgan».

«Nasabnomayi o'zbak»da ana shu 92 urug' — qabila quyida jori turtibda berilgan: ming, yuz, qirq, o'zbak, o'nkajot, jaloir, saroy, qo'ng'irot, olchin, arg'in, nayman, qipchoq, chaqmoq, azaq, qalmoq, torliq, tudak, burloq, samarchiq, qipchoq, kelachi, kinakash, buyrak, urot, qiyot, xitoy, tunqli, o'zulovchi, qo'ychi, o'taji (o'tar-chi), bulatchi, tuyrat (ijiyut), jot, chilchut, buvmovut, uymovut, orlot, kerot, o'ng'ut, tang'ut, mang'it, chilikas, masit, markit, burkut, qurlas, o'kalan, qari, arab, ilachi, juburg'an, tishlik, keray, turkman,

do'rmon, tobin, tama, ramadon, mo'ytan, uyshin, badayi, hafiz
qirg'iz, major, ko'chilik, sovran (savron), bahrin, uyris, jubra

biday, totor, tabash, michqir, suldus, tuboyi, tilov, kirdor, biktiy
qorqin, shirin, o'g'lon, qurlot, bag'lon, chinboy, chehlikas, uyg'ul
agar, yobu, torg'il, turgak, ko'hat (O'ZFASHI qo'lyozmasi, inv. №
3386, v. 183^a—1836)

O'zbekning 92 qavmi ro'yxatini mashhur rus sharqshunos olim
N. V. Xanikov (1819—1878) ham «Описание Бухарского ханства»
degan asarida keltirgan. Ubu ma'lumotni «Nasabnomayi o'zbakiya»
degan asardan olganini aytadi. N. V. Xanikov biz yuqorida tilga ol-
gan «Nasabnomayi o'zbakidan, aniqrog'i, uning boshqa qo'lyozm
nusxasidan foydalangan bo'lishi mumkin. O'xshashligi ko'p, lekin
ayrim tafovutlar ham bor. Bundan tashqari, N. V. Xanikov keltirgan
ro'yxatda qavmlar soni 97 taga yetadi. Lekin bu ro'yxatning afza
tononi shundaki, unda ko'p qavmlarning shaxobchalar (urug'ları)
nomi ham berilgan. Masalan, mang'itlarning to'q mang'it, oq mang'it
va qora mang'it; qo'ng'irotlarning qanqig'ali, oyimli, qo'shtamang'ali,
uvak tang'ali va qir urug'larining nomlari va ularning shoxchalar
berilgan. (H. B. Xanikov, Описание Бухарского ханства, СПб,
1843, 63—65.)

N. V. Xanikov shu qavmlardan Buxoro xonligi o'ramida 28 tasi
istiqomat qilganini ham yozadi. Bulardan mang'itarlar Buxoro bilan
Qarshi atrofida (ba'zilari shahar ichida o'troq tarzda hayot kechir-
ganlar), xitoylar Buxoro bilan Karmana oralig'ida, naymanlar Zyo-
vuddin yonida, qipchoqlar Kattaqo'rg'on bilan Samarqand o'rta-
sida, saroylar Samarqanddan Qarshiga olib boradigan yo'l ustida,
qo'ng'irotlarning bir qismi Qarshi shahrida, boshqa bir qismi Qarshi
bilan Shahrisabz tog'lari orasida, orlotlar — Qarshi bilan Buxoro
o'rtasida, do'rmonlar — G'ijduvon va uning tevaragida (o'troq holda),
yobu — Buxoro tumanida (o'troq holda), bahrinlar — Miyon-
koda istiqomat qilgandir. (H. B. Xanikov, Описание Бухарского
ханства, СПб, 1843, 63—65.)

Asomiyi navadu du firqayı o'zbak

Bu asar ham bir majmua orasida to'rt nafar boshqa asar: «Majimu' al-'uroib» (muallifi Sultan Muhammad ibn Darvish Muhammad ibn Bulhiy), «Solnomayi xoa Abdulhakim Termiziyy», «Tartixchayi nomiy» (Movarounnahming Chingizzon zamonidan to Ashtarxoniy Abulfayzxon davrigacha tarixi qisqa tarzda bayon etilgan) hamda yeti iqdim tarixiga bag'ishlangan muallifi nomalum asar bilan birga keltirilgan. «Asomiyi navadu du firqayı o'zbak» «Solnomayi xoa Abdulhakim Termiziyy»dan keyin keladi.

Mazkur asarda 92 o'zbek qavmining ro'yxati quyidagi tartibda berilgan: ming, yuz, qirq, o'ng, o'nkajot, jaloir, saroy, xitoy, qip-
loq, nayman, chaqmoq, o'rmoq, tudaq (tug'dak), bo'ston, sa-
michiq, qalmoq, qorliq, datag'an, orlot, arg'in, barlos, bo'ytan, ke-
nugus, kelachi, buyrak, uyrat, qist, qo'ng'irot, qong'li, o'z, jilovchi,
julovchi, qodji, o'tarchi, qurlovchi, tuyut, ijz, chilchut (chulchit),
huyuzit, uymovut, keroit, bag'on, ang'it, tang'ut, mang'it, merkit,
burkut, modu, qiyot, o'kalan, olchin, qari, g'arib, shibirg'on, qish-
liq, turkman, do'rmon, taban, tam, tabin, ramadan, mitan, uyshun
(uyshin), bo'lsa, haft, qirg'iz, totor, bochqir (boshqird), suldus, qil-
ovechi, dujar, jurat, badayi, o'g'lon, qurlovut, chinboy, mahdij,
chilikas, uyg'ur, agarqur, nukuz, qora tushlub, yobu, targ'il, ko'hat,
shuvron (savron), shirin, tama, bahrin, kiray, sathiyon, mug'al, qo-
yon (O'ZFASHI qo'lyozmasi, inv. № 4230. v. 1326—133^a).

Har to'rt asarda keltirilgan ro'yxat deyarli bir-biriga o'xshash,
otalarida tafovut juda kam. Lekin bizga faqat «Nasabnomayi o'zbak»ning manbayi ma'lum, xolos. Boshqa nasabnomalar ham
ishu manbagaga asoslanganmi yoki manbalari boshqami, bu haqda ho-
zircha biron fikr aytish qiyin. Bu masalani bo'lajak tadqiqotlar hal
qilib berishi mumkin.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib aytish kerakki, keltirilgan bu
ro'yxatlar o'zbek xalqning kelib chiqishi tarixi va tarkibini o'rgan-
ishda qimmatli manba hisoblanadi.

QADIMIY QONUNLARIMIZ

O'zbekiston Respublikasining milliy mustaqillik va istiqol yo'li ga qadam qo'yganiga to'rt yil bo'layozdi. Biz kelajakda har tarafla ma rivojlangan boy-badavlat va huquqiy davlat qurish, tom ma'nosi bilan demokratik jamiyat tuzish niyatidamiz. Bu — oson ish emas albatta. Bunga, birinchi navbatda, respublikamizda qishiarning — katta-yu kichikking, qaysi xizmatda bo'lishidan qat'i nazar, o'z burchi va vazifasini to'g'ri anglashi, sidqidildan va halol mehnat qilishi bilangina erishish mumkin. Chunki to'qlik va farovonlik ham, erkin huquqiy davlat va demokratik jamiyat ham «Mana men keldim!» deb tayyorgina osmondan tushmaydi. Ularni o'zimiz, o'z qo'llimiz bilan, peshona terimiz bilan yaratishimiz zarur. Bir so'z bilan aytganda, bu respublikamizda bugun istiqomat qilib turган 22 million dan ziyyod fuqaroning birdamlilik bilan, bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilishiga bog'iqli.

Har taraflama rivojlangan jamiyat va huquqiy davlatni ham tuzib oldik deylik. Lekin uni fuqaroning tengligi va haq-huquqini qonunsiz himoya qilib bo'lmaydi. Buning uchun jamiyat va fuqaroning manfaatlarini himoya qilishga qodir qonun kerak bizga. Shunchaki, nomiga emas, tom ma'nosi bilan haqiqiy qonun kerak.

Qonunning nimaligi, nimalarga qodirligi, ayniqsa, jamiyat va fuqaro qiyinchilikka uchraganda bilinar ekan. Sir emas, mana to'rt yillardiki bozor iqtisodiga o'tish davrining murakkabliklari ichiga tushib qoldik. Hayotimizza o'ziga yarasha kamchiliklarimiz bor. Bozor-u do'konlarimizda ba'zan afsus-u nadomatga sabab hollar ro'y bermoqdaki, uning qonuniy, insoniy izohlarini topa olmaysiz. Xo'sh, buning sababi nimada? Shu soha mutaxassislarning e'tirof etishicha, «kamaldagi ayrim qonunlarimiz talabga javob berolmay qoldi». To 'g'risini ayliganda, bu qonunlar avvallari ham talabga javob bermagan. Chunki bu qonunlar o'zbekning qadimiy tarixi, urf-odati, an'analari va boshqa qadriyatlardan kelib chiqqan qonunlar emas, aksincha, chetdan kiritilgan, Rusiyadan olib kelingan qonunlar edi. Shu sababdan ular o'zbekning qoniga singib ketmadи.

Barcha mo'min-musulmon kabi, o'zbekning ham oila va nikoh, yer-suv, mol-mulk, meros massalalari, ijara, shuningdek, davlat bishun fujaro va fuqarolar o'rtaсидаги o'zaro munosabatlarini tartibga ko'lib, boshqarib kelgan qonunlari bo'lgan. Hozirgiday bu qonunlarni himoya qiluvchi maxsus idora (qozixonasi va mansabdorlar; yasovul-hur, mirshablar, muhtasiblar bo'lgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, ilgari uch toifa qozilar bo'lgan: 1) shariat qozisi (shariat ko'rsatmalari asosida ish yurituvchi qozilar, 2) ahdos qozisi mayjud urfatdar asosida ish olib boruvchi qizi) va 3) qozi askar (harbiy audya). Qozilarning qo'tida yirik huquqshunos olimlar (faqihlar) tonidan, yozilgan qo'llannalar (fatvo va majmualar) bo'lgan. Bizzdu hum qadim-qadimdan huquqshunoslik ilmi (ilm al-fiqh) bo'lgan. Al-fiqh (arabcha, chuqur anglash, bilim) muslimonlarning xattiharakatini qonunlashtiruvchi islam ta'limoti, islam asosida tuzilgan qonun hayotda yurish-turish tarzi. Muslimon qonunchiliği al-fiqhning kurtaklari VIII—IX asming birinchi yarmida paydo bo'lib, X asarda mustaqil ilm sifatida shakllandi va u: 1) Allohnin ulug'lash va diniy burchni ado etish (al-ibodat); 2) fuqaro orasidagi o'zaro munosabatlar, davlat bilan fuqaro o'rtaсидаги, shuningdek, davlatlararo munosabatlarini tartibga solish qoidalari o'rganish (al-muonamat) vazifalariga xizmat qildi. Faqihlar (qonunshunoslar) ko'proq al-fiqhning ikkinchi vazifasini takomillashtirishda sa'y-harakat ko'rsatishlari.

Al-fiqh to'rt manbagaga: 1) Qur'oni majid, 2) Sunna (*arabcha* odut, an'ana; xatti-harakat tarzi; payg' ambarimizning barcha musulmonlar uchun qo'llamma hisoblangan kalomi, xatti-harakati, ishlari), 3) Ijmo' (*arabcha* yakdillik, yakdillik bilan qabul qilingan qaror, Qur'on yoki Hadislarda aniq ko'rsatma berilmagan biror huquqiy musalani hal qilishga to'g'ri kelganda faqih va mujtahidlarning to'planib, yakdilik bilan hukm chiqarishi) va niyoyat 4) Qiyos (*arabcha* taqqoslash, biron huquqiy masala Qur'on yoki Sunnada ko'rilmagan taqdirda uni muqoyoya qilish yo'li bilan yechish) asoslangan.

Dastlab, al-fiqhning shakllanish davrida (VIII—IX asrlarda) uning ikki maktabi (yo'nalishi) bo'lgan: 1) Bag'dod yoki mustaqil fikr

yurituvchilar maktabi (ashob ur-ra'y) va 2) Madina maktabi, ya'm hadislar asosida ish yurituvchilar (ashob ul-hadis). Maktablar orasi dagi farq shundaki, birinchisi maktab tarafidori (iroqlik faqihlar) o'z faoliyatida ijihad (masalaga hatsala bilan yondashish, tirishish g'ayrat qilish, aql bilan xulosa chiqarish)dan keng foydalanganlar Madinaliklar esa Qur'on bilan Sunnaga tayanih ish olib borganlar Iroq maktabining asoschisi mashhur faqih Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobit (699—767), Madina maktabining asoschisi esa Malik ibn Anas (721—795)dir. IX—X asrlarda sunna maktabi faqihlarning yangi maktablari — Shofe'tylar, ya'ni Muhammad ibn Idriash-Shofe'tiy (820-yilda vafot etgan) asoslagan va Hanbaliya, ya'n Ahmad ibn Hanbal asoslagan (855-yilda vafot topgan) maktablar tashkil topdi. Shofe'tylar maktabi al-ijtihodga, Hanbaliya maktabi ko'proq Qur'on bilan Hadisga asoslangan.

Abu Hanifa maktabining qarashlari «Kitob zahirat ar-rivoya» («To'g'ri naql etilgan kitob»), «Kitob ul-asl fi-l-furu» («Fiqh bo'yicha asl kitob»), «Kitob uz-ziyodaty» («Kitob ul-asl»ga qo'shima), «Kitob jomi' al-kabir» («Fiqq bo'yicha katta ma'lumotnomma»), «Kitob jomi' as-sag'iy» («Fiqh bo'yicha kichik ma'lumotnomma»), «Kitob siyar al-kabir» («Harbiy huquq masalalari») asarlida o'rifodasini topgan.

O'rta asrlarda va undan keyingi davrlarda fiqhga oid har xil fayolar yozildi. Bular orasida eng mashhurlari Abulhasan Ahmad ibn Muhammad al-Quduriy (1037-yilda vafot etgan)ning «Muxtasar al-Quduriy fi-l-fu'r al-Hanafiya» («Hanafiya qomunshunosligining asoslariboyicha al-Quduriyning muxtasar qo'llanmasi»), Fazriddin ibn Hasan ibn Mansur ibn Mahmud al-O'zgandiy (vafot 1196-yil)ning «Fatavoyi Qozixon», Burhonuddin Ali ibn Abubakr ibn Abduljalil ar-Rishtoniy (1197 yilda vafot topgan)ning «Al-Hidoya» («Qo'llamma»)si hisoblanadi.

Bu favolar mazmun tarafidan, ya'ni o'rtaga qo'yilgan masalalar jihatidan ko'p qirralidir. Ular, odatda, tahorat, ibodat, dafn etish taribi, zakot, ro'za, Makka va Madina ziyorati, savdo-sotiq ishlari, mol-mulk masalalari, meros, vaqf, nikoh va taloq masalalari, qomun-

buzorlikka qarshi ko'rildigan jazo, muslimonlar bilan g'ayridinlig o'rtaasidagi munosabat va, niyoyat, muslimon davlatlari bilan boshqa davlatlar o'rtaasidagi munosabatlari kabi masalalar bo'yicha yo'l-yo'riqlarni o'z ichiga olgan. Bir so'z bilan aytganda, fatvolar, davlat tuzumi va davlatning faoliyati, moliya ishlari va mol-mulk muallalarini hal qilishda, har turli jinoiy ishlarga jazo belgilashda qozlarga muhim qo'llamma bo'lib xizmat qilgan.

Shunday qilib, fiqh ilmi bir jihatdan, muslimon qonunshunosligida nazariy ilm bo'lishi bilan bir qatorda, ikkinchi tarafdan, muslimon jamiyat a'zolari o'rtaasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi amaliy ahamiyatiga ega bo'lgan ko'rsatma hamdir.

IX asrning ikkinchi yarmidan boshib fiqh ilmining jamiyatdagi mavqeyi zaiflashdi. Bunga taraqqiy etgan islam mamlakatlari (Turkiya, Misr, Livan, Suriya, Iroq)da G'arbiy Ovrupo davlatlari qonunlariga taqlidchilik kuchaygani sabab bo'ldi. Respublikamizda ham shunday bo'ldi. To'g'ri, chor Rusiyasi Turkistonda amalidagi sud tartibotiga qo'l tegizmadi, uni daxlsiz qoldirdi. Qozilar fiqh, fatvo, huquq-tartibot masalalariga tegishli majmua va dasturlar asosida ish yuritib keldilar. Lekin «Ulug' Oktyabr sotsialistik inqilobi» deb atalmish davlat to'tarishi (1917-yil 25-oktyabr)dan so'ng eski uddlar (qozilar) tugatilib, Sho'ro sud, tizimi joriy etildi. Shu bilan Turkiston zamimida ming yildan ortiq vaqt amalda bo'lib kelgan sud-huquqshunoslik tartibiga barham berildi. Qisqasi, 75 yiddirki, ovrupocha qonunlar bilan yashab kelayotibmiz. Men huquqshunos emasman, shunchaki manbashunos tarixchiman, xolos. Shu sababdan Ovrupo qonunlari haqida bir fikr aytish imkoniyatidan yiroqman. Lekin har qanday dastur va qonunlarimiz tariximiz, urf-oddalarimiz va milliy an'analrimizi hisobga olgan holda tuzilsa, jamiyat uchun ham, fuqaro uchun ham yaxshi bo'lur edi degan fikrdaman. Chunki xalq o'z ota-bobolari amal qilib kelgan tartib-qoida va an'analarga amal qiladi. Biz turkistonliklarning ham o'z tariximiz, madaniyatimiz, urf-odat va an'analrimiz bor. Aslar davomida shakllangan qonunlarimiz va qonunshunos olimlarimiz ham bor. Ular yaratgan qimmatli asarlar mayjud. Shunday asarlarning juda katta bir qismi

bizning zamonamizgacha yetib kelgan. Mustaqil Vatanimizning qonunlarini takomillashtirish, uni yangilashda huquqshunos olimlarimiz bu asarlarga murojaat qilsalar foydadan xoli bo'lmash edi. Men ulardan ba'zilarini muhtaram huquqshunoslarimizning e'tiboriga havola etmoqchiman.

Ahmad ibn Muhammad ibn Abubakr al-Hanafiy al-Buxoriy (1128-yilda vafot etgan) «Xazonat ul-fatovo» («Fatvolar xazinasi») va «Majmu' al-fatovo» («Fatvolar majmuasi») nomli ikki asar yozib boldirgan. Ikkinci asarda samarqandlik mashhur imom va faqihlar dan Abullays Samarqandiy, Muhammad ibn al-Valid Samarqandiy, Abuhasan ar-Mustag'fariy as-Samarqandiy, Attor ibn Hamza as-Sug'diy va boshqalarning muhim va mashhur fatvolarini jamlagan. «Xazonat ul-fatovo» esa uning ikkinchi tahriridir.

Hisomiddin Umar ibn Abdulaziz ibn Maaz al-Buxoriy (1141-yilda vafot topgan) Saljuqiylardan Sulton Sanjar (1118—1157) davrida Movarounnahning qozi kaloni bo'lib xizmat qilgan edi. Sulton Sanjarning qoraxitoylar bilan Samargand yonidagi Qatavon dashtida bo'lgan urushda o'ndirilgan. Shu sababdan «Sadr ash-shahid» («Shahid bo'lgan sadr») nomi bilan mashhur. Undan muslimmon qonunchiliga oid ikki asar: «Jomi' as-sag'ir» («Kichik to'plam») va «Kitob al-voqeot» («Chigal voqealar sharhi») qolgan. «Jomi' as-sag'ir» mashhur faqih Muhammad ibn al-Hasan ash-Shayboniy (804-yilda vafot etgan)ning «Jomi' ul-kabir» («Katta to'plam») nomli muhim asarining qayta ishlangan va ma'lum darajada izohlangan nusxasi bo'lib, 1112-yil yozib tamomlangan. Ikkinci asarda fiqh masalarining chigal va munozarali o'rinnari sharhlab berilgan.

Nosiriddin Abdulqosim Muhammad ibn Yusuf al-Husayniy as-Samarqandiy (vafoti 1161-yil). Muslimmon qonunchiligi masalarini o'z ichiga olgan «Multaqoti Nosiriy» («Nosiriddinming saylanna kitobi») asari bilan mashhur. Asar 1154-yil yozib tamomlangan va ko'p bor Usrushana (O'ratega) va Samarcandda tahrir etilgan. **Najimuddin Abu Ya'qub Yusuf ibn Ahmad al-Korazmiy** (XII asrning birinchi yarmida o'tgan) ham muslimmon qonunchiligi masalarini ilmiy tadqiq etish ishiga katta hissa qo'shgan olimlar jum-

lidan. «Fatavoyi sag'ir» («Muxtasar fatvolar») degan asar yozib qoldirgan. Unda yuqorida nomi zikk etilgan Hisomiddin Umar ibn Abdoluziz ibn Maaz al-Buxoriyning «Jomi' us-sag'ir»ida ko'tarilgan masalalarga qilgan javoblarini keltirgan va ayrim qo'shimchalar qilgan.

Mujiddin Abulfath Muhammad ibn Mahmud al-Istravshaniy (vafoti 1240 yili) muslimmon qonunchiliga oid «Aqkom as-sag'ir» («Kechik qonunlar») va «Majmu' al-fatavoyi» («Fatvolar majmuasi») nomli ikki asari bilan hissa qo'shgan. Ayniqsa, «Majmuasi» katli ahuniyatga ega bo'lib, uning yagona nusxasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida kutubxonasida saqlanadi.

Hovriddin Hasan ibn Mahmud al-O'zgandiy (1196-yilda vafot etgan). Farg'onmalik bu olim yuqorida tilga organimiz «Fatavoyi qiziqson» — «Qozixixonning fatvolari» degan asari bilan mashhur. Muslimmon qonunchiligi bilan bog'liq barcha masalalarni o'z ichiga olgan. Asarning 1500-yilda ko'chirilgan mukammal nusxasi yuqorida ekr qilingan institut kutubxonasida saqlanadi.

O'shlik faqih **Sirojiddin Ali ibn Usmon al-O'shiy** (vafoti 1173-yil) hujra fiqqa oid ikkita qimmati asar qolgan. Bularidan biri «G'urar al-asbor va durar al-axbor» («Tanlangan xabarlar va ash'orlar duri») deb atilib, muslimmon arboblari haqida aytilgan yuzta fikr-mulohamoti o'z ichiga olgan. «Javohir ul-ahkom» («Qonun-qoida marvaridoti») usari esa fiqq ilmining barcha masalalaridan bahs yuritadi.

Mirza Abdulvahhob Buxoriy (XVII asrda o'tgan). Ashtarxoniyut zamonda qozi askar lavozimida turgan bu olimdan «Risolvayi istisno» («Istisno muomalasi haqida risola») nomli muhim asar yozilgan. Oxund mulla Muhammad Husayn degen shaxsning shahid bilan yozilgan. Asar qozilarning ishida ko'p uchrab turadigan shahid masalalarni yechish yuzasidan o'ziga xos qo'llamma bo'lib xizmat qilgan. Muhimi shundaki, muallit bunday masalalarni yesishda matematik usuldan keng foydalangan.

— Ko'yxatni davom ettirish mumkin, lekin keltirilgan misollardan ko'rib turibdiki, Turkiston zaminidan matematika, astronomiya,

tabobat, falsafa, adabiyot, tarix ilmlarining jahonga dong'i ketg'anoyandalar bilan bir qatorda, zabardast huquqshunos olim ham ko'plab yetishib chiqqan. Afsuski, biz ularni hali yaxshi maymiz, o'rgannaganniz. Shu munosabat bilan men bir amaliy tili ifni o'rtaqa tashlamoqchiman. Respublikaning kelajagi, fuqaroni ahvoli ko'proq har jihatdan yetuk qonunshunoslarning mayjudi bilan bog'liq. Jamiyatning rivoji, fuqaroning xavfisligi esa mukammal qonun yaratuvchi va o'sha qonunlarning ustuvorligini himo qiluvchi huquqshunoslarning bilimi, obro' va mavqeyidan himo oziqlanadi. Biz ularni hozirdanoq zo'r e'tibor bilan tayyorlashimiz zarur. Buning uchun huquqshunoslik institutlari va texnikumlar arab tili va muslimon qonunshunosligi asoslari fanlari o'qitilsa, mqsadga muvofiq bo'lur edi.

Ikkinchisi qism PUBLITSISTIK MAQOLALAR

ABADIYATGA DAXLDOR INSON

Polyaklarning XVII asrda o'tgan Yan Geveliy ismli mashhur munajjim olim bo'lgan. U «Prodromus astronomia» («Astronomiya darakhchisi») degan ajoyib bir kitob yozib qoldirgan. O'sha kitobda Ulug'bek hozirda qazovor ma'lumotlar keltiriladi. Va yana uning siyomosi tushirligam ikkita qimmatli surat (gravyura) ham bor. Suratlardan birida Mirzo Ulug'bek muallimlar xudosi Uraniya va ovrupoliq beshta mashhur munajjim: Yunon Bitlimus (milod. avv. taxm. 170-yil vafot etgan), nemis Gass (1532—1592), daniyalik olim Tixo Brago (1546—1601), italiyalik Jan Baptist Richchioli (1598—1671) va Geveliy (1611—1687) bilan birga tasvirlangan. Surada Ulug'bek munajjimlar xudosi Uraniyaning o'ng tomonida, birinchi bo'lib o'ttribdi. Ikkinchisi suratda u'sha Uraniya va jahon uzra dong taratgan o'n bir munajjim Timuris (mil. avv. III asr), Xipparx (mil. avv. II asr), Bitlimus, al-Batony (852—929), Regiomontan (1436—1476), Volter (1430—1504), Gass, Geveliy, Nikolay Kopernik (1473—1543) va Tixo Ulugolari bilan birga. Bu suratda ham Ulug'bek Uraniyaning o'ng tunida, uchinchi bo'lib turibdi. Ko'rinih turibdiki, dunyo olimlari Ulug'bekni buyuk munajjim va olim sifatida XVII asrdayoq tan olg'on ekan. Ilminujum (astronomiya)ning amaliy va nazariy masalalarini o'z ichiga olgan «Ziji» jadidi Ko'ragoniy («Ko'ragoniyyning ilmi yagonasini malak va qizil qurashishiga qarab kuchimiz») nomli shoh asari tufayli uni dunyo tanigan. Olimlar nujum jadvalini nomli shoh asari tufayli uni dunyo tanigan. Olimlar bu asarni turli tillarga tarjima qilib, chop etdilar, dorilfununlar va risadxonalarda zo'r ishtivoq va qiziqish bilan o'rgana boshladilar. Musalan, mashhur ingliz olimi, Oksford dorilfununing professori John Grivs (1602—1652) 1648-yil «Ziji» jadidi Ko'ragoniyyining bir qismini («Yulduzlar majmuasi va jahondagi yirik shaharlarning egal-ligan o'mi») chop etti. Oradan ikki yil o'tib, 1650-yil, London-

Ulug'bekning zamondoshi, shoir Sakkociy Mirzo Ulug'bekni Amotu, Aflatun singari yirik yunon olimlari, Abu Ma'shar va Ibn al-Nadek Sharqning zabardast olimlari qatoriga qo'yadi. U shunday deydi:

Salotin dunyoda ko'p keldi-yu ketti,
lekin seningdek bir,
Fâlakning gar tili bo'lsa aysunkim qachon kelg'on?

Virk tarixshunos olim Abdurazzoq Samarqandiy (1413—1482) Ulug'bek rasadxonasi, olimning hayoti va ilmiy faoliyati haqidagi hujummatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan, Ulug'bekning buyuk-ligini qoyil qolgan:

Handasa ilmida Ulug'bek mirzodek (olim)ni, Minglab madrasadin ham izlab topmasen.

«Zij Jaunti Ko Iagonly»ga qiziqish Amerika Qo'shma Shtatlarini ham katta. Asar 1917-yil E. B. Nobl tarafidan Washingtonda nashri etildi. Shuni ham ukdirib o'tish kerakki, Tomas Xaydning yuqori da tilga olingan nashri ko'philik olimlarga ma'qul bo'idi. Shuning uchun uning nashri o'tgan asrda yana ikki marta analga oshirildi. Lekin Sharq mamlakattarida Mirzo Ulug'bek o'z zamonasida yoq (XV asrdayoq) shon-shuhrat topdi. Masalan, hazrat Alisher Navoiyning «Fathod va Shirin» dostonida unga ushbhu qimmatli satr lar bag'ishlangan:

Temurxon maslidin sulton Ulug'bek,
Ki olam ko'rmadı sulton aningdek.

Rasadikim bog'lamish zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.

ni Saroymulk xonim (Bibixonim)ning tarbiyasiga topshirdi. O'sha zamonalarning taomili shunaqa edi. Buvalar va katta onalar farzandlarning bolalaridan bitta-ikkitasini o'zlar tarbiyalab voyaga yetkazdilar.

Ulug'bek chaqaloqligidan boshlab bobosining juda ko'p harbi yurishlarida birga bo'idi. O'sha 1394-yil Amir Temur Shirvon bilan Armaniston ustiga qo'shin tortganda hali beshikda yetgan Mir Ulug'bekni ham o'zi bilan birga olib ketdi. 1398-yil Hindiston yunshida, 1399—1404-yillar orasida (yetti yillik yurish) Iroq, Suriya va Turkiya ustiga qilingan yurishlarda ham askar ichida bo'ldi u. Am Temur bolalarimi urush-taloshlarda suyagi qotib, ko'zi pishishini tardi, dunyoni ko'rib chiniqsin derdi.

Mirzo Ulug'bekning yoshligi qanday kechgani, xususan, qandao'qigan haqida yetarli ma'lumotga ega emasmiz. Lekin eski kitoblarda o'sha paytlarda podshohzodalar va xonzodalarning tarbiyalashishi haqida ayrim ma'lumotlar uchraydi. Shunga ko'ra, podshohzodalar va xonzodalalar to'tt yosha to'lishi bilanoq ularning savodini chiqarish uchun o'qitganlar. Shu bilan birga, ularga maxsus muallifi — qissaxonni biriktirib qo'yardilar. Qissaxon ularga qiziqarli koyat va rivoyatlar aytilib, ularning xotirasini va zehnini peshlagan. Maysalan, 1398-yil endi to'rt yosha chiqqan Ulug'bekka Hamza ibn Ali Tusiy degan ziyorak va aqlli bola qissaxon qilib tayinlangan. Hamza ibn Ali Amir Temur qissaxonining jiyani bo'lib, sakkiz yildan begtog'oyisining yonida yurib undan ko'p foydali hikoyat va rivoyatlar ni o'rgangan edi. Hamza ibn Ali Tusiy keyinchalik katta olim bo'lli yetishdi. U qanday qilib Ulug'bekka qissaxon bo'lib qolgani haqidabunday hikoya qiladi: «Men hijriy 800-yil (mildiy 1398-yil) ulug' amir hazrat Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning qissaxonini bo'lgan tog'oyim bilan Qorabog'da erdim. O'shanda Ulug'bek Ko'ragonning xizmatiga tayinlandim. Bir necha yil shahzoda birlan go'dakli va bolalikning nash'-u namosini birga totdik. Unga turli hikoyatlar aytib berdim va u bilan do'st bo'lib ketdim».

Shahzoda va xonzodalalar xat-savodini chiqariib olishgandan keyin, sakkiz yoshidan madrasaga o'qishga berilgan. Shu bilan bir-

bu sunoyda maxsus muallimlar ularga harb ishlari, har xil tabaqada hujj'on kishilar, shuningdek, elchilar bilan qanday muomala qilish, davlatni boshqarish ishlarini o'rgatganlar. O'n ikki yosha kirganchidu ularga otaliqlar tayinlanib, ulus berilgan. Shunga qaraganda, Mirzo Ulug'bek ham shunday tarbiya maktabini o'tagan.

Ulug'bek yoshligidanoq ilm kasb etishga zo'r ishtiyooqini namoyish qildi. Bunga Amir Temur saroyidagi ilmiy muhit ham katiia tu'sir ko'rsatti. Tarixchi ibn Arabshohnning guvohlik berishicha o'sha vaqtarda Samarqandda ilm-fanning deyarli hamma sohanini mukammal egallagan olimlar to'plangan. Fiqh, hadis, tafsir, che'on, falsafa, musiqa, tarix, ilmi nujum (astronomiya) fanlarining yulki numoyandalari mavlono Abdulmalik, Nu'moniddin Xorazmiy, Ali duddin Taftazoniy, Mir Said Sharif Jurjony, Shayx Shamsuddin Muhammad Muhojiriy, hoja Muhammad Zohid Buxoriy, Abdulqodir Marog'iy, mavlono Ahmad va Nizomiddin Shomiy shular jumladidir. Va yana Amir Temurning katta kutubxonasi bo'llib, unda ilm-fanning turli sohalatiga oid juda ko'p kitoblar to'plangan edi. Koltus, Mirzo Ulug'bekdek iste'dodli bola uchun Amir Temur saroyida hamma sharoit mayjud edi.

Amir Temur Xitoya yurish (hijriy 807-yil jumodi ul-aval oyining 24-jum'a kuni, mildiy 1404-yil 28-noyabr) oldidan Ulug'bekka Sayram, Yangi, Ashpara va Jeteni ulus qilib berdi. Sayram, Yangi va Ashpara o'sha kezlarda Temur davlati tarkibida edi-ku, lekin Jeteni, ya'ni Mo'g'ulistondek ulkan mamlakatni bo'ysundirish kerak edi. Uni mana shu urushda qatnashib Ulug'bekning o'zi taxsir qubzasiga kiritishi zarur edi. Amir Temurning odati shunaqa bo'lgan o'zi. U birovga, hatto o'z bolalariga ham, bekorga non bermasdi.

Lekin Xitoya yurish amalga oshmay qoldi. Mana-mana boshlanman deb turgan bir paytda hazrat Sohibqiron yo'lda qazo qildilar. Hujun dunyoni titroqqa solgan bu voqeal o'sha hijriy 807-yil sha'bon oyining 17-kuni (mildiy 1405-yil 18-fevral) sodir bo'ldi. Shundan keyin qo'shin orasida buzilish boshlandi, shahzodalar orasida tojilin barpo etgan imperiyasi parchalanib ketdi. Ana shu kurashlarda

hazrat Sohibqironning nabirasi Halil Sultonning omadi keldi. Am Temurning yana bir to'da amirlari (Xudoydod Husayniy, Yodgor shoh orlot, Shamiddin Abbos, Burunduq barlos va h.k.) unga tanor bo'ldilar va uni taxtga o'tqizdir. Ammo uning hokimiyati faqat Movarounnahirdagi viloyatlar tanidilar, xolos. Hisori shodmagan bilan Xuttalon, Qobil, Qandahor va Xuroson Muhammad Jahongir amirzoda Pirmuhhammad va Shohruhx mirzoning tasarrufi ostida qoldi. Ular Halil Sultonni Temuriylar davlatining oliv hukmdori sifatida olmadilar.

Mirzo Ulug'bek 1405—1409-yillar Xurosonda otasi bilan bing'bo'ldi, uning tez-tsz bo'lib turadigan yurishlari qatnashdi. Shohruhx hujning qolgan ikki bo'lagini Mirzo Ulug'bek shu yurishda maxmirzo o'shanda o'g'liga Kalot, Niso, Obivard, Yazir, Sabzavor va Nishopur viloyatharinini, ya'ni Sharqiy Xurosonni suyurg'ol qilib bordingan. Bu yerlarni Ulug'bek otalig'i — tarbiyachisi amir Shohmalikni yordami bilan idora qildi.

Hijriy 817-yil sha'bon (1409-yil dekabr) oyida, Halil Sulton bilan Turistikonga hokim etib tayinladi. Unga 1415-yildan boshilik Koshg'ar ham bo'ysundi.

Mirzo Ulug'bek bu mamlakatlarni qirq yil idora qildi. Lekin ko'pchilik podshohhurga o'xshab urush va ulusni kengayirishga hujroq ymadidi. U shu katta davr ichida bor-yo'gi ikki marta urush olibordi. Bulardan biri Mo'g'uliston usiga qilingan urushdir. Yuz kundan ortiq (828-yil rabi ul-avval oyining 27-kuni) 1425-yil 17-fevral oyidan — 828-yilsha'bon oyining 10-kuni (1425-yil 27-iyun) davron etgan bu urush Ulug'bekning katta g'alabasi bilan yakunlandi. Mavarounnahr va Turkiston qo'shnlari mazkur yurishda Mo'g'uliston xoni Shermuhammadxonning katta o'r dasi Yulduzgacha bordilar vebhisob o'jja-yu asirlar olib qaytdilar. O'jalar orasida Mo'g'uliston xomining qarorgohidan olingan ikki bo'lak kosh toshi (nefrit) ham bor edi. Bu qimmatbaho toshlarning taqdiri juda qiziq. Bu haqda Abdurrazzaq Samarqandiyning «Matba' us-sa'dayn va majma' ul-bahriya» («Ikki saodati yulduzning tulu' bo'lish joyi va ikki azim degizning tutashish o'mi») degan kitobida bunday deyilgan: «Mirzo

Ulug'bek o'shal kosh toshni atoba birlan dor us-saltanat Samarkandga yetkazish uchun ikki ming chapdast yigitini o'shal mavze'da qoldirdi. O'shal toshni qadimgi podshohhlar Chin tarafdin ushbu joyga keltirgan erkaklar va hazrat Sohibqiron ul toshni Movarounnahrig'ni ko'churmoqchi bo'lib, amir Jahonshohni, bir necha ming yillardan birlan ul yerda qoldirg'on, ammo alar toshni ko'chirib keltirishlari ojizlik qilg'on erkanlar». Bir zamonalr Duva Setsenxon Xisamtoh turflardan olib kelib, mo'g'ul hukmdorlari qarorgohiga qo'ygan tosh, aslida, uch qismdan iborat bo'lib, Amir Temur uning faqat huj qismininga Samarcandga a olib kelishga tuyassar bo'lgan edi. Hujning qolgan ikki bo'lagini Mirzo Ulug'bek shu yurishda maxmura uravalarga yuklatib Samarcandga keltirtirdi. Ulug'bekning amri hujni mohir sangtarosh ustalar ularni taroshlab, bir bo'lagini hazrat Sohibqironning qabri ustiga o'matdilar.

Mirzo Ulug'bek olib borgan ikkinchi urush Oq O'rda xoni Bairokon bilan bo'ldi. Bu urush hijriy 830-yil jumodi ul-avval (1427-yil mart) oyida Sig'noq yonida bo'lib o'idi va unda Mirzo Ulug'bek mug'hubiyatga uchradi. Shundan keyin Ulug'bek urush siyosatidan dumom voz kechdi. Bor kuchi va iste'dodini el-yurtning obodon-chilgi, ilm-fan va madaniyat ravnaqiga sarfladi. Uning raayoning nafohiyati va el-yurtning emm-u omonligi yo'liida olib borgan ishlari ming eng kattasi shu bo'ldiki, u mamlakatda oliq-soliq ishini tartibga soldi, chunki soliq yig'uvchilarning zulmi haddidan oshgan edi. Bu huqqa zamondosh tarixchi olim mana bularni hikoya qiladi: «Otasi Shohruhx mirzo hukmrонligi davrida [Ulug'bek mirzo] qirq yil Samarcand bilan Movarounnahrn idom qildi. Davlatni boshqarish va haq yo'li tutishda maqtovga loyiq yo'sin tutdi. Aytishlaricha, uning davrida to'rt xarvor (to'rt eshak yuki. — B. A.) hosil berishi mumkin bo'igan bir jarib (bir tanob. — B. A.) yerdan 4 dong (vazni 0,8 gr bo'lgan kumush pul. — B. A.) kiroj olingan. Va yana Mirzo Ulug'bek pul islohoti ham o'tkazdi. Chunki tanga-chaqalarning vazni yengillashib, pulning qadri ketib qolgan edi. Mirzo Ulug'bekning amri bilan yangi pul zarb etildi. Bu pul «dinori adliya» va «fiulusi adliya» deb ataldi.

yishtalikning qaror topishi ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan va madamiyatning rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi.

Mirzo Ulug'bek Movarounnahr shaharlarini, aymqsa, uning poytaxti Samarqandni yanada obod qilishga katta hissa qo'shdi. U, biringidan, bobosi hazrat Sohibqiron davrida boshlangan, ammo hui xil sabablarga ko'ra tugallamay qolgan binolar (Shohi zinda, Go'Amir, Shahrisabzdag'i Ko'k gumbaz va h.k.) qurilishlarni oxiriga yetkazdirdi. Masalan, Ulug'bek Go'ri Amir maqbarasiga kun chiqq tarafdan eshik ochitirdi va eshikdan maqbaraga borguncha gumbazlaryon (galereya) qurdirdi (1424-yil). Eshikning tepasi, yon devorlari rango-rang koshimlar bilan qoplandi. Qabrlar atrofidagi marmaralarini ham Mirzo Ulug'bek qurdirdi. Panjaralar binoning ichki manzarasiga o'ziga xos husn bag'ishladi.

Shohi zindadagi bir qator muhtasham binolar (masalan, Xoja Ah. mad, «Noma'lum kishi», Qozizoda Rumiy maqbaralari) Ulug'bek zamonida qurildi. Mirzo Ulug'bekning sa'y-harakati bilan Shohi zindada zo'r arxitektura-rejalashtirish ishlari ham amalga oshirildi. Anvoysi ranglar bilan ishlangan peshtoqli asosiy darvoza (1434-1435) ana shu katta ishlar jumlasidandir.

Mirzo Ulug'bek, ayniqsa, Samarqandning shahar markazini obod qilishga alohida e'tibor berdi. Masalan, shaharning qoq markazidi — Registon maydonida qator ko'rkan binolar: madrasa, xonaqoh, karvonsaroy, hammom va boshqa binolar qurdirdi. «Boburnoma» da bu binolar haqida mana bunday deyilgan: «Ulug'bek mirzoning imoratalaridan Samarqand qal'asining ichida madrasa va xonaqohdir; Xonaqohning gunbazi bisyor gunbazzur, olamda oncha ulug' gunbaz yo'q deb nishon berurlar... Yana bu madrasasing jamub tarafida bir masjid solibdur, masjidi muqatta' derlar, bu jihatin muqatta' derlarkim, qit'a-qit'a yog'ochlardan tarosh qilib, islimiyl va xitoyi naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yo'sunluqtur. Bu masjidning qiblasi birla madrasa qiblasining orasida bisyor tafovuttur. G'oilibu bu masjid qiblasining samti munajjim tariqi bilan amal qilibturlar». Bundan chiqdi, masjidi muqatta' rasadxona qurib

hujiguniga qadar, o'zining asosiy vazifasidan tashqari, sayyora va, umuman, osmon yoritqichlarini kuzatish vazifasini ham o'tagan ikon. Ulug'bek Movarounnahrda bir emas, uch madrasa qurdirdi. Buludan biri Samarqandda (1417—1420-yillar bino etilgan); ikinchisi Buxoroda (1417-yil) va uchinchisi Gijduvonda (1433-yil) qoldi. Ulug'bekning sa'y-qarakati bilan qurilgan binolardan eng kintusi Rasadxonadir. Devorlari koshimlar bilan qoplangan uch osh-yonlik (qavatlilik) bu oliv bino (1424—28-yil qurilgan) Sharq memorligining ajoyib namunalardir.

Eski tarix kitoblarda bu ma'rifatparvar podshohning poytaxt Samirqand tevaragida qurdirgan boshqa binolari haqida ham ma'lumot uchratamiz. Chunonchi, Ko'hak tepaligining kumbotar tarafida qurilgan Bog'i maydon nomi bilan shuhurat topgan chorborg' go'zal va hashamatli bo'igan. Bu bog' o'rtasida bino etilgan hashamatli qustar haqida Zahiriddin Muhammad Bobur mana bularni yozadi: «Ulug'bek mirzo yana Pushtayi Ko'hakning domanasida g'arb sori bog'e solibdur. Bog'i maydonga mavsum. Bog'ning o'rtasida bir oliv imorat qilibtur, Chilstun derlar; du oshyona [ikki qavatlil], ustunlari lumom toshdin. Bu imoratning to'rt burchida to'rt manordek burjilir ko'tariburlarkim, yuqorig'a chiqar yo'llar bu to'rt burjandir. O'zga tamom yerlarida toshtin stulnardur. Ba'zan morpech xiyora qilibturlar. Yuqoridagi oshyonaning to'rt tarafi ayvondur, stulnari toshdir. O'ritacha chordara o'ydur. Imorat ko'rsisini tamom toshdin fursih qilibturlary. Bobur shu Bog'i maydonga yaqin yerda Ulug'bek qudirigan yana bir bog' haqida ham muhim ma'lumot qoldirgan: (Bu imoratin (Bog'i maydonidan. — B. A.) Pushtayi Ko'qak sari domanada yana bir bog'cha solibtur. Anda bir ulug' ayvon imorat qilibtur, ayyomning ichida bir ulug' tosh taxt qo'yibtur; tuli (uzunligi) taxminan o'n to'rt-o'n besh qari (uzunlik o'lchovi, bir qari — 70 yem ga teng) bo'lg'ay, arzi (eni) yetti-sakkiz qari, umqi (balandligi) bir qari. Mundog' ulug' toshni xili yiroq yo'ldin kelturibturlar. O'rtasida darz bo'lubtur. Derlarkim, ushbu yerdha keltirilgandin so'ng bu darz bo'libdur». Demak, Ulug'bek 1425-yil Mo'g'ulistonidan oldirib keltirtirgan ikki bo'lak qosh toshning bir bo'lagini taxt qilib, tarosh-

lanib, shu bog'dagi qasrga qo'yilgan ekan. Bobur davom etib yana yozadi: «Ushbu bog'chada yana bir chordara solibtur, izorasi tamom chiniy, Chinixona derlar. Xitoydan kishi yuborib keltiribdur».

Ulug'bek davrida hunarmandchilik va savdo-sotiq ham nihoyatda rivojlangan. Buni shaharning turli-tuman rastalari, ularga qo'yilgan anvoysi ne'matlar bilan ko'zni kuydirib turgan bozorlardan ham bilsa bo'ladi. Yana Bobur mirzoga murojaat qilaylik: «Samarqand shahari, — deb yozgan edi u «Boburnoma»da, — ajib orasta shahardur, bu shaharda bir xususiyat borkim, o'zga kam shaharda andoq bo'lg'ay. Har xirfagarning (kosisning — B. A.) bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlут emastur, tavr rasmidur. Xo'b nonvo'liliklari va oshpazliklari bordur. Olamda yaxshı qog'oz Samarqanddin chiqar. Juvozi qog'ozlar suyi tamom Konigildin keladur. Samarqandning yana bir matoi qirmizi maqnaldurkim atrof va javonibg'a eltarlar». Samarqand va, umuman, Movarounnahr va Turkiston shaharlari jahoning juda ko'p mamlakatlardan savdogarlar keilar dilar. Movarounnahr va Turkiston shaharlariidan chiqqan savdo karvonlari Xitoy, Hindiston, Eron, Turkiya, Arabiston va hatto Ovrupo mamlakatlarga ham qatnab turardilar.

Ulug'bek ko'proq katta olim va ilm-fan homiysi bo'lgani uchun ham bizga qadrildir. U tom ma'nosi bilan yirik olim edi. Tariixy manbalarning guvohlik berishicha va o'zining bizgacha yetib kelgan ilmiy merosiga ko'ra, Ulug'bek qomusiy olim edi. U handasa (geometriya), riyoziyot (matematika), ilmi nujum (astronomiya), tarix, adabiyot, mantiq va musiqa ilmlarini yaxshi bilardi. Qur'on, hadis va fiqh (musulmon qonunchiligi) ilmlaridan ham xabardor edi. Mirzo Ulug'bekning ilmiy salohiyati, uming ahli qalam va ulamo xususidagi g'amxo'rligi haqida inkor qilib bo'lmaydigan dalil-isbotlar juda ko'p Keling, gapni cho'zib o'tirmasdan shulardan bittasini keltiraylik. Bu — odil podshoh, olimming ustozи va safdoshi G'iyosiddin Jamshid Koshoniying otasiga yozgan maktubidir. O'sha maktubda Ulug'bekning ilmiy salohiyati haqida mana bu e'tiroflarni o'qiyimiz: «...Islam podshosi, Tangri taolo uning davlatini abadiy qilsun, o'zi olim kishidur. Men bu gaplarni hurmat yuzasidan aytayotg'onim

yo'q. Bor gapim shulkim, birlamchidan ul kishi mucaddas «Qur'onning katta qismimi yoddan biladurlar, ani sharhlab bera oladurlar. In kuni xalq oldida andin ikki surani o'qiydurlar, lekin bironta xato qiluv to'g'ri o'qiydurlar. Sarf ila nahvni (etimologiya va sintaksi) ilmini. — B. A.) yaxshi biladurlar, arabchani ko'p chiroyli yozadurlar. Shu bilan birga, fiqhni, mantiqni, ilmi adabni, musiqaning mantiq asoslarini yaxshi biladurlar. Riyoziyot ilmining barcha sonindan keng ma'lumotga egadurlar.

Bu bobda shu darajaga yetishganlarkim, ot ustida o'ltirg'onlari holda 818-yil rajab oyining o'ninchisi birlan o'n beshinchisi o'rtachi shumba kuni, yil fasllarining qaysi ayyomoniga to'g'ri kelishini su'lalib qoldilar. (Hech kim ayrib berolmagach), oning o'zi, otdin tunnugan holda, quyoshning uzunligini daraja va daqiqasigacha hisoblash yo'lli birlan oni yechib berdilar. Haqiqatan ham, hisob-kitob qili'onda raqamlarni yodda tutib qolish lozim. (O'sha paytda) bir idum yoddan hisob-kitob qilishga harakat qilib ko'rdi, lekin xotirasi jahonni emas erkan. U oni daraja va daqiqalargacha hisoblab berolmoli. Yoddan hisob-kitob qilib berish zamondoshlardin Ulug'bek (boshqa) hech kimning ilkidan kelmaydur.

Ushbuni ham qayd etmoqchimanki, Ulug'bek Mirzo ushbu ilm-ihlili (riyoziyot ilmida. — B. A.) tengi yo'qdur. Osmon havodislari sonida asosli dalilar keltiradurlar. To'g'ri xulosalar chiqarishga qoldurlar. Zoti olyylari Nosiriddin Tusiyning «Tazkira»si hamda Qutbuddin Mahmud ibn Mas'ud Sheroziyning «At-Tuhfa ash-Shohiy» usarlari bo'yicha shu darajada zo'r daryo o'qiydurlarkim, ortiqlo'zoqlashtunga muholtijig'i yo'qatur...

Alo hazrat, davlatpanoh kun aro (madrasada) daryo va mashhur o'lolarda ishtirot etadurlar, ishtirot etganlarida ham riyoziyoddin daryo berishini yaxshi ko'radurlar. O'sha mashhg'ulotlarga banda ham qolushatung'on bo'lub qoldim».

G'iyosiddin Jamshid Koshoni Ulug'bek bemonand ilm-fan homiysi, mehribon yo'lboshchi bo'lganligi va atrofiga jamlanishiga ham ota bo'lganligini ayrib o'tadi o'sha maktubda. Hozirgi vaqtida Samarqandda eng mashhur olimlar yig'ilg'on,

— deb yozadi u, — tamom ilmlardin daryo beruvchi mudarrislar ham ko'pdur. Alarning aksariyati riyoziyot ilni birlan bandurlar Bunday olimlar soni 60—70 ga yetadur... Odamlar maoshi ham kasb-u hunari o'zgalardin ortiq bo'lsun, deb zahmat chekadular. Lekin... bunday kishilar ozchilikni tashkil etadur. Alloha shukrkin banda o'z yurtida ko'p vaqt istiqomat qilg'ondin so'ng shundu ko'rkan shaharda olim, donishmand, bilinga havasmandlarini pushti panohi bo'lmish a'llo hazrat, olampanoh tevaragiga uyushgao'limlar orasig'a tushib qoldim...

A'llo hazrat odamlarning taqdiri bilan qiziqmay qo'ygan taqdito egulik — yovuzlik, yovuzlik ersa ezzulikday tuyular erdi. Anno oning tobe'lарidin biron shaxs yo'qkim, ani oly hazrat yaxshi bilmasun...»

Mirzo Ulug'bekdan bizgacha uning ikki asari yetib kelgan. Bulardan biri yuqorida zikr etilgan «Ziji jadidi Ko'ragoniy» Samoil qand rasadxonasining samarali mahsuli sifatida falakiyot ilmining (astronomiyaning) nazariy va ilmiy-amaliy masalalaridan baliyuritadi. Asar muqaddima va ikki qismidan iborat bo'llib, 1437 yozib tamomlangan. Muqaddima to'rt qismidan iborat. Uning yerbobdan iborat birinchisi qismida falakiyot ilmining asosiy ustunidan sanalgan sana va yil hisobi, ya'ni yunonlar, arablar, eroniyuhamda uyg'ular qabul qilgan yil hisoblash usullari, o'sha xalqning milliy bayramlari kabi masalalar bayon qilingan. «Vaqtlar vunga taalluqli nimarsalar» deb atalgan ikkinchi qismida (22 bobdiborat) osmon burjalarining muaddal an-anhor (osmon ekvatori)da og'ishi, hatto ustivo (ekvator)ning chiqish o'mi, yulduzlarining chiqish va botish joylari, nisf al-anhor (meridian) soatining rasad o'mi bo'lmish Samarqand kengligiga nisbati, Shusha, Kayravon, Urmiya Bulg'or, Bag'dod, Basra, Istaxr, Hamadon, Balk, Badaxshon, Gurganch, Besbaliq, Qoraqo'r um, Xo'jand, Axsikat, O'zgand, Shosha boshqa shaharlarning (hammasi bo'llib 683 shahar) koordinatlari yetti iqlim va ularning ma'rifati haqida ma'lumot keltiriladi. O'n ulobonni o'z ichiga olgan Ulug' ulus, Jo'chi ulusi, Chig'atoy ulusi va Eron, Ozarbayjon hamda Iroqni o'z tarkibiga biriktirigan Elxoniylar ulusidu bo'llib o'tgan voqealar bayon etilgan.

Afsuski, «Tarixi arba' ulus»ning to'liq nusxasi bizgacha yetib va o'mi» deb ataladi) yulduz va sayyoralarining quyosh atrofiday

komaki zo't aniqlik bilan ko'rsatib berilgan. «Yulduzlarining doimiy harakati» deb atalmish to'rtinchchi qism astrologiya masalalariga, yu'ni yulduzlarining holati va harakatiga qarab taqdirmi belgilash manziluriga bag'ishlangan.

«Ulug'bek ziji»ning ikkinchi qismi astronomiya va trigonometriyalarning amaliy masalalariga doir bo'llib, 1018 sobita yulduzning holati ko'rsatib berilgan. Asarda ko'tarilgan masalalar shu qadar aniq va yetukki, Ulug'bek va safdoshlarining hisob-kitobi bugun ham o'z qurmatini yo'qotmagani.

Ulug'bek zamonda Samarcanda «Ziji jadidi Ko'ragoniy»dan folsiqari, ilmi nujum va riyoziyot ilmlariga bag'ishlangan bir talay boshqqa qimmati asarlar ham yaratildi, bu asarlar Jahan astronomiya tani rivojiga katta hissa bo'llib qo'shildi. G'iyosiddin Jamshidning «Ziji xoqoniy dar shakli elxoniy» («Elxoniy ziji ni takomillashtirish asosida (tuzilgan) «Hoqony ziji», «Risolayi Muhitiyya» («Muhit haqida risola»), «Miftoh ul-hisob» («Hisoblar kaliti»), «Risola al-vali ul-jayb» («Xorda va sinus haqida risola») kitoblari, Salohiddin Muso ibn Muhammad Qozizoda Rumiyning «Risolayi fi-l-hisob» («Hisob haqida risola»), «Sharh ashkol at-ta'sis» («Shakllar asosi») noitasiga sharh», «Risola al-jayb» («Sinus haqida risola»), Aloudin ibn Muhammad Ali Qushchining «Risola fi-l-hay'a» («Hay'atini haqida risola») «Risola fi xall ashkol al-qamar» («Oy shakllari ni yechish haqida risola») asarlar shular jumlasidandir.

Juda ko'p tarixchi olimlar, masalan, Mirzo Muhammad Haydar (1500—1511), Xondamir (1475—1535), Mahmud ibn Vali (XVII sur) «Mirzo Ulug'bek tarixavis donishmand erdi va «To'rt ulus tarikhni yozib qoldirgan» deb aytadilar. Ha, haqiqatan ham, Ulug'bek hunday asar yozib qoldirgan. Asarda, asosan, Chingizxon zamoniidan to hazrat Sohibqiron Amir Temurning tarix maydoniga chiqqaniga qadar to'rt ulusda, ya'ni Mo'g'uliston bilan Shimoliy Xitoyni o'z ichiga olgan Ulug' ulus, Jo'chi ulusi, Chig'atoy ulusi va Eron, Ozarbayjon hamda Iroqni o'z tarkibiga biriktirigan Elxoniylar ulusidu bo'llib o'tgan voqealar bayon etilgan.

Afsuski, «Tarixi arba' ulus»ning to'la nusxdan qisqartirib olingan to'rtta nusxasi

Angliya, Hindiston va AQSh kutubxonalarida saqlamoqda. Ulug'bekning qabrlari ravshan bo'lsin, to'rt ulus xonlari haqidagi yozgan majmu'asidan olib bayon etildi».

Ulug'bekning adabiyot va musiqa ilmlaridan ham keng ma'lumoti borligi haqida ayrim qaydlar bor. Masalan, o'ttiz yettiqa qimmatli manbaga asoslanib yozilgan bir tarixiy asarda (u «Muhiat-tavorix» deb ataladi) Mirzo Ulug'bek musiqa ilmida ham keng ma'lumotga ega bo'lganligi aytildi va u ixtiro qilgan beshta musiqi asarlарining nomi keltiriladi. Mana ular: «Bulutijiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Usuli ravom», «Ulusiy», «Samariya» kitobining musanifi Abu Tohirxo'ja Mirzo Ulug'bekning ta'bi nazmi ham bo'lganligi, ya ni she'rlar ham ayigan deb yozadi. Uning she'rlaridan bir misrasini keltiradi:

Ey onki mulki husn ba zeri nigini tust,
Sho'xi makun ki chashmi badon dar kamini tust.

Ya hi:

Ey husn mulki sening muhiring ostida bo'lgan,
Sho'xlik qilma, chunki yomonlarning ko'zi senga tuzoq qo'yg'on.

Ha, Ulug'bek yomonlarning ko'zidan boshqalami ogohlan-tirib yurdi, lekin tangnazar va hasadgo'ylar o'ziga ming yerdan tuzoq qo'yib, xavf-xatar chor-atrofdan o'rabi kelayotganimi sezmad. Ulug' bobosi hazrat Sohibqironning mana bunday uqdirishlari berdi: «... kengash ikki turli bo'lur, biri til uchida aytlig'oni, ikkinchi si yurakdan chiqqani. Til uchida aytlig'omni shunchaki eshitardim. Yurakdan aytildan maslahatti esa qalbim qulog'iga quyardim va

«ilmiga joylardim». Va yana: «(Podishoh) majlis ahlidan ogoh va bu qisqartirilgan nuxalarning so'nggi varag'ida (v. 182^a) shunday qayd bor: «Ulug' Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning Xitoy tomon yurishi voqealari alohida kitob qilib yoziladi. Ushbu nusxa «Ulusi arba'y Chingiziy»dir va shu risolada keltirilgan Turkxon ibn Yofas ibn Nuh alayhissalom avlodidan bo'lgan podshohlar hamda Turkiston zamin xonlarining nomlari sayyid as-sulton, mirzoyi shu hid Ulug'bekning qabrlari ravshan bo'lsin, to'rt ulus xonlari haqidagi yozgan majmu'asidan olib bayon etildi».

Ulug'bek bilan Abdullatifni urishitirib qo'yidilar. Ulug' 853-yil sha'bon oyining boshida (1449-yil sentyabrdan) Janubiy-sharqiy tarafiga joylashgan Dimishq qasabasi yonida o'g'li bilan bo'lgan urushida Mirzo Ulug'bek yengilib qoldi. Shundan keyin u Samarcandga bordi, lekin bir umr uning to'hu ichgan Mironshoh qavchinq shahar darvozalarini podshohning yulgu yopdi va uni shaharga kiritmadidi. Shundan keyin u Sirdaryo hujiga yopdi, Shohruxiya qal'asiga bordi. Biroq qal'a qutvoli Ibrohim ibn Tuklod ham Mironshoh qavchinga o'xshash ish tutdi. Shundan keyin Ulug'bek mulozimlari va xizmatkorlari bilan bir-ikki kun Sirdaryo hujriga yordam so'rab bormoqchi bo'idi. O'ylab ko'rib bu fikridan qaydi. Oxiri, «axir, ota-bolalik hummati yarashib olurmiz» degan motohazaga bordi va toj-u taxmi o'g'liiga topshirib ilm va madrasada mudurrislik qilishga qaror qilib orqasiga qaytdi. Lekin bemehr farzand toj-taxtni kuch bilan tortib olgan yetmay, otaning joniga qasd qildi, uni o'ldirdi. Ulug'bek 54 yoshida, ilmi kamolotga yetgan bir payda o'ldirildi. Afsus, u qanchadan qancha kitoblar yozardi, shohedlar chiqarardi. Balkim, ulug' bobosining tarixini ham o'zi yozib berernmidtir?

AMIR TEMURNI YAXSHI O'RGANAYLIK

Amir Temurning tarixdag'i o'mni misliz ekanligini hammamiz bilamiz. U XIV asr o'rtafanida Movarounahrda kuchayib ketgan bodal tarqoqligiga barham berdi, mamlakatni mo'g'ullar istilosidun ozod etib, el-yurtini bir tug' ostiga birlashtirdi va markazlash-

gan feodal davlatga asos soldi. Bu — Amir Temurning Turkiston zamin xalqlari oldida qilgan birinchi katta xizmati bo'ldi. Chunki bir-nik emn-u omonlik va el-yurt farovonligiga garovdir. XIV asrning 80—90-yillari Amir Temur Mo'g'uliston, Oq O'rda va Oltin O'rda feodal hukmdorlariga qarshi kurash olib bordi. Bu bilan u man lakatning shimoli-sharqiy va shimali-g'arbiy tarafdan xavfsizligini ta'minladi. Mehnatkash xalq Mo'g'uliston va Dashti Qipchoq ko'ch manchilarining talon-toroj xurujularidan xalos bo'ldi. Bu — Amur Temurning Movarounnahr va uning xalqiga ko'rsatgan ikkinchi katta xizmati bo'ldi. Amir Temur 1395-yil To'xtamishni va 1402-yil Turkiya hukmdori Boyazid Yildirimni tor-mor keltirib, Bolqor yarim oroli xalqlarini Turkiya feodallari asoratidan xalos etdi. Rus yani esa mo'g'ullar istibdodidan qutilishini hech bo'lmaganda uch asrga qisqartirdi. Bu — Amir Temurning jahon xalqlari, xususan bulg'orlar, serblar, makedoniyaliklar va ruslarga qilgan beqiyos ilo foti bo'idi.

To'g'ri, 1380—1390-yillar Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Gujiston va Hindiston ustiga bosqinchilik urushlari uyuşti. Lekin feodal jamiyat, har qanday sinfy jamiyatga xos, uning tabiatidagi kelib chiqadigan hodisa edi bu. Bunday holni biz nafaqat Shaxxalqlari tarixida, balki Ovrupo, Amriqo va Afrika xalqlari tarixida ham ko'p uchratamiz. Pyotr I ham, Napoleon ham bundan mustashe emas edilar.

Biz turkistonliklar — Amir Temurning vatandoshlari ma'lum sabablariga ko'ra Temur va temuriyalar davri tarixini yaxshi o'rganolmadik. O'sha davr bilan bog'iq ko'p narsalarni bilmaymiz. Shu sababdan Amir Temurni bosqinchchi deganlarida bosh irg'ab tasdiqladi, qonxo'r deb ayiganlarida «To'g'ri aytasiz, taqsir!» dedik, zolim deb da'vo qilganlarida qo'l qovushtirib «Siz haqsiz!» deb aytidik. Achinarli joyi shundaki, boshqa mamlakatlarda, hatto Ingliston, Farangiston, Olmoniya, Amriqo kabi nasroniyalar mamlakatida Temur va temuriyalar haqida ko'p kitoblar bittdi. So'zimizning dalili shunda shuni aytish mumkinki, faqat keyingi to'rt-besh yil ichida Amriqoda J. Buds va Beattritsa Manz, Olmoniyada G. Ryomer, Farangis-

tunda Jan Pol Ru bilan Lyusyen Karenlarning katta-katta kitoblari shoh etildi. Bizza-chi? Professor A. Y. Yakubovskiyning 1946-yil «Hilqorsayi historyi» journalida chop etilgan «Timur (ol'byt kраткой критеристики)» va akademik Ibrohim Mo'minovning 1968-yil fikrkentda «Fan» nashriyotida bosiqan «Amir Temurning O'rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan roli» degan mo'jaz bir kitobchasiidan hoshqa bironta qo'lga ilinadigan asar hozirgacha yozilimagan. Temur va temuriyalar davri Turkiston xalqlari tarixida alohida o'nin tutadi. Bu — zirotchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojligun, ilm-fan va madaniyat gurkirab ravnaq topgan davr. Turkistonliklar tuzgan davlat butun dunyoga shuhurat taratgan vaqt makkoni. Huzur, Parvardigori olamga shukrilar bo'lsinkim, ana shunday buyuk davlat tuzish sari qadam tashlab turibmiz. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov sobitqadamlik bilan katta ishlarni amalga oshirmoqdalar. Lekin o'tmishda mavjud bo'igan mustaqil va quadrati davlat-hamiz tarixini o'rgansak, ularni yaxshi bilsak bu yo'lda oldiniza qo'yan rejalarimiz muvaffaqiyat bilan amalga oshar edi.

ISKANDAR NING O'CHINI SPITAMENDAN OLASIZMI?

Ilni — o'zni bilmakadir.

Millatning qadr-qimmati uning o'tmishi, tarixi bilan o'chana-dil. O'rta Osiyo, balki jahondagi boshqa xalqlar, xususan, forslar, hinddar, xitoylar singari uzoq-uzun tarixi bor o'zbekning ham. Arxeolog va antropolog olimlarimizning ko'p yillik izlanishlari natijesida Xorazm, Surxonaryo, Farg'on'a, qadimiy Shosh viloyatlari o'tamida hamda Inju O'kiz (Sirdaryo)ning quyi oqimi tevaragidagi tumanlardan topilgan ashayoviy dalillar (qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari, manzilgohlari, ularning mehnat va urush qurollari, uylo'zg'or buyumlari, zeb-ziynat mollari, shahar va qishloqlar, mahabbati imoratlar, suv hamda mudofaa inshootlarning qoldiqlari)ning juvohlik berishicha, ajodlarimiz bundan qariyb million yil muqadd-

am O'rta Osiyoning ikki azim daryosi — O'kuz (Amudaryo) va Injibek (Sirdaryo) oraliq'i va ularning tevarak-atrofida yashagan besh-ohti ming yil burun chovchachilik va sun'iy sug'orishga asto langan dehqonchilik bilan baralla shug'ullangan ekanlar. Turkiston (unga Sharqiy Turkiston, Tibet, Mo'g'ulistonning janubi-g'arbiy qismi, Olttoy o'ikasi ham kiradi) deb atalmish bu ulkan mamlakatdagi bundan uch yarim-to'rt ming yil muqaddam bir talyay katta-kichik shaharlar paydo bo'ldi. Samarcand, Buxoro, Marv, Xiva va Toshkent shaharlarining paydo bo'lganiga ikki yarim-uch ming yil bo'ldi. Qadim-qadim zamonalardan Parfiya, Baqriya, So'g'diyona, Qanxu Parkona, Kushon, Toxariston, Haftollar (Eftalitlar), Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniyalar, Temuriylar kabi jahonga dovrug'i ketgani davlatlarimiz bo'lgan.

Afsuski, ko'pchilik bularni bilmaydi. Turkistonzamin atalmish ulug' yurtimizdan jahonga mashhur ko'p olimlar, shoirlar, san'atkorlar yetishib chiqqan. Hadis ilmining yirik namoyandalari Abu Abdulloh Mubammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurahmon ad-Doramiy; falakiyot (astronomiya) ilmining yirik namoyandalari Ahmad al-Farg'onyi bilan Mirzo Ulug'bek, riyoziyot (matematika) fanining asoschilaridan Abu Ja'far Muhammad ibn Muso al-Korazimi; tibb (meditsina) fanining jahondagi yirik namoyandalaridan Abu Ali ibn Sino; qomusiy olimlar Abu Nasr Forobiy bilan Abu Rayhon Beruniy, zabardast tilshunos olim Mahmud Zamashshariy tarix ilmining yirik namoyandalaridan Abu Nasr Utbiy, Abubakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy, Abu Sa'id Abdulkarim ibn Muhammad as-Sa'moni, Shihobiddin Muhammad Nisoviy, Faxriddin Banokatiy; adabiyotshumoslar Nizomi Aruzi Samarcandiy, Nuridin Muhammad Avfiriy Buxoriy, Davlatshoh Samarcandiy; zabardast shoirlar Xoja Ahmad Yassaviy, Atoyi, Am'oq Buxoriy, Qatron ibn Mansur Termiziyy, Rashididdin Votvot, Adib Sobir Termiziyy, Hakim So'zaniy Samarqandiy, Asiriddin Axsikatty, Sayfiddin Isfarangiy Rukniddin Kuboviy, Sayfiddin Farg'onyi, Faxriddin Banokatiy Nosir Buxoriy, Kamol Xo'jandi, Xoja Ismatulla Buxoriy, Xoraz-

miliy Durbek, Sakkoki, Alisher Navoiy, Huvaydo, Mashrab, Firuz, Anubiy, Muqimiy, Furqatlar shular jumlasidandir.

Xo'sh, bu ulug' zotlarni, ular yozib qoldirgan asarlarni hamma qilganimi? Yo'q afsuski, hamma o'qimagan.

Turkistonzamin xalqlari orasidan el-yurtning baxt-saodati deb ming ozodligi va milliy mustaqiligi deb jon fido qilgan To'maris va shiroq, Spitamen, Mahmud Torobiy va Temur Malik, Jaloliddin Monoberdi va Dukchi Eshon singari ko'plab milliy qahramonlar humoil Somoniyy, Mahmud G'aznaviy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va Abdullaxon singari yirik sarkarda va davlat shahslari yetishib chiqqan.

Xo'sh, biz ularni yaxshi bilamizmi? Yo'q, bilmaymiz. Qizillar idomi bizga qora qilib uqdirishgan; zolim, qonxo'r bosqinch deb ozutishgan. Qipchoqlar xoni Kalimi ajdaho qiyofasida tasvirlab, qipchoqlar bilan kurashgan rus bahodirlari Ilya Muromets, Alyosha Popovich va Dobrina Nikitichni oqil, odil, zabardast, botir, alpqomat, quruyigit qiyofasida tasvirlaganlar. Masalan, shunday bir suratni («Buhodirlar» deb ataladi o'sha surat) mashhur rus rassomi V. M. Venetsov (1848—1926) chizgan.

Ota-bobolarimizdan qolgan ilmiy merosimiz ham katta va betak-tilmish. Respublikamizning o'nlab kutubxonalarida ilm-fanning barcha mühüm sohalariga tegishli minglab qo'lyozma kitoblar bor. Muzey arxivlarda tarix va davlat qurilishiga tegishli rasmiy hujjatlar saqlanmadı. Bular bizning qariyb ming yillik tariximiz. Lekin ularning yuzdan bir foizini ham o'rganib chiqqanimizcha yo'q. Uarning soqlanishi-chi? Bir so'z bilan aylganda, saqlanishi yomon. Fojia dundaki kitob va hujjatlar saqlanayotgan binolar qo'lyozma asarlari va hujjatlarni saqlashga mutlaqo moslashtirilmagan. Shu ahvolda bu bebahol boylik avlodlarga qoladimi-yo'qimi, buni xudo biladi. Arnunlar, ozarlar va tojiklar qo'lyozma asarlarni saqlash uchun barcha hujjatlarga javob beradigan zamonalaviy binolarni allaqachon qurib olshagan. O'zbekiston ulardan ming chandon ortiq iqtisodiy qudrat-

Endi aytinq-chi, tarixni, meros va milliy qadriyatlarimizni yoshshi bilmay turib, milliy g'urur va iftixorni shakllantirib bo'tarmiyo Bo'imaydi, albatta.

Buning uchun nimalar qilishimiz kerak? Birinchi navbatda, fuzandlarimizni yaxshi o'qitishimiz, ularga ajoddar tarixini o'qitishimiz, ular qoldirgan meros bilan oshno qilishimiz kerak. Ularning Vatanga, ulug' ajoddarimizga g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashtirish zarur. Bir umr mehnatdan boshi chiqmay, qulga aylanib qolg'an iftixor qilsa va mag'rurlansa arzigulik tarixi, madaniyatidan ajralg'an xalqimizga o'zligini anglashida yordam berishimiz lozim. Bungashart-sharoit bormi? Bu mushkul, lekin xalqimiz ishning uddasidachiqadigan odamlar-chi? Ular bormi? Sharf-sharoit ham bor, malakat kadrilar ham yetarli. Masalan, poytaxting o'zida uchta sharqshunoslik, tarix, til va adabiyot, falsafa va huquq institutlarimiz bor. Hukumat ularga yaxshi-yaxshi joyqlarni berib, mablag' va moddiy-texnik vositalari bilan ta'minlab qo'yibdi. Mutaxassis kadrlar masalasi kelsak, bu borada ham deyarli kamchiligidimiz yo'q. Ilmiy tekshiring va pedagogika bilim yurtlarida, dorilfununlar va dorilmuallimindan, maktab va texnikumlarda chuqur bilimga ega bo'lgan tajribatarixchi olimlar va muallimlarimiz bor. Biz hozir ham ko'p narsani qodirmiz. Maktabni qayta qurishga ham, tarix va madaniy merosunu unumli o'rganishga ham. Lekin bunday qilolmayotibmir. Maktub ahvoli hamon yomonligicha qolib kelyapti, tarix va madaniy meroni o'rganishga oqsab yuribimiz.

Kezi kelganda hisobotlar xususida ham bir-ikki og'iz gapin o'tsam, deyman. Odatda, hisobotlarda mazkur yilda qaysi ilm mavzular ustida ish olib borildi, qancha bosma taboq ish nashr etildi qancha odam dissertatsiya yoqladi, kimlar qayerda va qanday kontrensiyalarda qatnashdi kabi masalalar o'rinn oldi. Lekin o'sha mavzularning qaysi qismi yoki bobi yozilib muqokamadan o'tgan, ulan foydalanimib bo'ladimi, o'sha chop etilgan faloncha bosma taboq ishning qanchasi ilmiy va ilm-fanga hissador, qanchasi shunchak ilmiy-omnabop maqola — buni hech kim surishtirmaydi. Youshlanayotgan dissertatsiyalarning institutda olib borilayotgan ilmiy

o'mlishlarga daxldor yoki daxldor emasligi bilan qiziqilmaydi. Hisobotlarda yangi ilmiy yo'naliishlar haqida ham gap boradi. Lekin ilmiy muammoni institutting bir o'zi yecha oladimi, ilmiy kuchi nomi — bu bilan ham hech kimning ishi yo'q.

Yana bir gap. Odatda, hisobotlarga bag'ishlangan ilmiy keneshlarda, ayniqsa, yuqorida biror rahbar keilib o'tirguday bo'lsa, o'ng'u chiqadigan shtatlari notiqlar — to'fiqshlar bo'ladi. Ular, oson, rahbarlarni ko'klarga ko'tarib maqtaydilar, boshqalarga imbeb bermoqchi bo'ladir. Lekin hech kim «To'xtang, birodar!» di'ngiz bu yil qanday ilmiy asar chop ettirdingiz, nechta shogird huyorladdingiz?» — deb surishtirmaydi.

Yoshlar — kelajagimiz. Ularda millat tuyg'usi, g'urur va iftitor tuyg'ularini biz olimlar, yozuvchilar shakllantiramiz. Bunda muktabda o'qitilayotgan ijtimoiy fanlar, ayniqsa, tarix fanining roli hulhoya katta. Lekin, afsuski, o'qitishning umumiy ahvoli yomon. Ilming asosiy sabablaridan biri talabga javob beradigan darslik va qo'llummalarning yo'qligi.

1992-yil bir gurnih tarixchi olimlarning harakati bilan O'zbekiston hukliga oid yana ikkita kitob nashr etildi. Bulardan biri «O'zbekiston turixi va madaniyati» (tarix fanlari nomzodi, dotsent Shodi Karimov rahbarligi va tahriri ostida) va ikkinchisi «O'zbekiston xalqlari tarixi» (O'ZFA haqiqiy a'zosi Ahmadali Asqarov tahriri ostida) deb nomlidi (baxtga qarshi, kamina beixtiyor ravishda birinchi kitobga hujzchi, ikkinchisiga esa avtordosh bo'lib kirib qolganman).

Shodi Karimov rahbarligi ostida yozilgan kitobda O'zbekiston xalqlarining qadim-qadim zamonalardan to shu kunlargacha bo'lgan tarixi juda qisqa tarzda, o'n yetti lavhaga bo'lib bayon etilgan. Shubhosit, hajm jihatdan kichik bir kitobda va yana o'n yetti lavhada, bo'p ming yillik tarixni to'la-to'kis yoritish qiyin. Shu bois bu kichini men O'zbekiston tarixidan qisqacha konsept deb atagan ho'lurdim. Kitobda ko'p masalalar ko'ngildagiday yoritilmagan, bolki shunchaki qayd qilib o'tilgan, xolos. Masalan, Amir Temur va

uning davriga hammasi bo'lib uch varaq ajratilgan. Iqtisodiy maslalar (savdo-sotiq) va madany aloqalar deyarli yoritilmagan. Bundan tashqari, ayrim noaniqliklar ham bor. Masalan, kitobda yozilganidek, Chingizzxon davrida Xitojoyda Pekin degan shahar bo'Imagan O'sha paytlarda mamlakat poytaxti Djundu, 1153-yildan keyin Dusin bo'igan. 1267-yilda Qubilayxon (1260—1294) uning shimalisharqiy tarafida Xonbaliq degan shahar bунyod etdirgan. Shunday qilib, Chingizzxon kelgan payda (1215-yil) Xitoyning poytaxti Pekin emas, Dasin deb atalgan. Yana bir joyda, ya'ni 1365-yil Samarcanda sarbadorlar harakkati haqidagi hikoya qilingan yerda, harakat ralbarlaridan faqat Mavlonozoda bilan Abubakr Kalaviyarning nomi tiiga olingan, xolos. Vaholanki, ularning orasida Xurdak Buxoriy ham bor edi. Kitobda atoqli joy nomlarini noto'g'ri yozish hollari ham uchrayıdi. Masalan, Ahamoniylar o'miga Ahmoniyalar; Salavkiylar — Selevkiylar. Narxashiy — Norshoxiy, Marokanda — Moroqand yozilgan. Imlo xatolar ham anchea bor.

Ikkinchchi kitob, ya'ni tarix fanlari doktori, professor M. A. Bo-

boxo'jayev rahbarligida bosmada chiqqan «O'zbekiston xalqlari tarixi» («Fan» nashriyoti) kitobi shu nomdag'i ko'p jildlik kitobning bininchchi qismi bo'lib, kitob tarix fanning, xususian, arxeologiyi ilmining keyingi yillarda qo'lg'a kiritgan yutuqlarini ma'lum darajada hisobga olgan holda yozilgan. Unda jiddiy ilmiy yoki g'oyavixato yo'q. Lekin u, baribir, ayrim juz'iy kamechiliklardan xoli emas. Xususan, bir-ikki joyda tarixiy voqeа buzib ko'rsatiyan. Masalan, Iskandar Zulkarnaynning Spitamen bilan bo'igan kurashi hikoya qilingan joyda mana bunday gap bor: «Spitamen esa qamalini (Murokanda qamalini. — B. A.) bo'shatib, Buxoro tarafga chekinadsos'ingra cho'lga chiqib oladi. Arrianning yozishicha, Spitamen Politemit (Zarafshon) suvlarini sug'orayotgan barcha huddularni kezli chiqadi va ortiga qaytgach, minglab xonadonlarni yoqib yuboradala va bog'larini toptaydi, 120 ming aholini qirib tashlaydi» (tarjimaning g'alizligini qarang-a, u aslida rus tilida yozilgan). Haqiqatda esa Politemitdan suv ichgan barcha huddularni kezib chiqqan vitorasiga qaytishda minglab xonadonlarni yoqib, 120 ming aholini

qiljon, ekinzor-u bog'-u rog'larni payhon qilgan Spitamen emas, halki Iskandar Zulqarnayning o'zginasidir (q. Arrian. «Aleksandr Ko'p o'rindorda shaxs va joy nomlarini buzib yozish hollarini uchitamiz. Masalan, N. V. Pigulevskaya o'miga — N. V. Pigulevkiy, Balazuriy — Balozuriy, al-Ma'daniy — al-Ma'daniy, ibn Miskawayx — ibn Miskovayx, Foiq — Faiq, Chag'ribek — Choribek, Jebe no'y'on — Juba no'y'on, Omul — Amul, Oxatur — Axan, Marvarrud — Marvird, Bolosog'un — Balosog'un, Kot — Qi-yot, devoni barid — devoni bird bo'lib ketgan.

Kullasi kalom, dorifunun va dorilmualliminlarni, maktab va o'nin o'quv yurtlarini, qo'yingki, million-million yosh avlodni tarixidan zatur darslik va qo'llannalarsiz qoldirib kelyapmiz. 10-g'risini ayiganda, loqaydlikning oqibati bo'ldi, bu. Bundan liklurida O'zbekiston xalqlari tarixi bo'yicha darslik yaratish manbiiga bag'ishlangan bir-ikki yig'lish bo'lgani esimda. Bir guruh olimlar (kamina, Hamid Ziyoyev va boshqalar) o'shanda mazkur do'stlkni yaratish ishimi yuqori darajali mutaxassislariga: olimlar, o'ttuvchilar va metodistlardan iborat jamoaga topshirish zarurligini aygun edik. Nima bo'lganda ham, «chumchuq so'ysa ham, qassob so'ygani yaxshii» edi. Lekin vazirliklardagi mas'ul o'rtioqlar (respublika o'quv-metodik kengashi xodimlari) gapimizga qulok osig'li kelmadи. «Alternativ tartibda yozishaverishsin, yaxshisini tanlab olmiz», — deyishdi. Shu zaylda bu muhim ish o'zibo'larchiliikka mohibb qo'yildi. Oqibati esa hammaga ma'lum. Talab darajasida bo'Imagan darsliklar har yili chiqib turibdi.

«O'zbekiston xalqlari tarixi»ga o'xshab, Amir Temur, Ulug'bek vi Bobur shaxsi bilan qiziquvchilar ham, xudoga shukur, anchea ko'puvib qoldi. Yaqin-yaqinlarda ko'pchilik ularning nomi qulqoq qo'chalimisi bilan o'zini cheiga olardi. Nima ham deridik, azaldan huyoming o'zi shunaqa. Ko'pchilik nima rasm bo'lsa, o'shaming ko'yiga kiradi. Mana shu kunlarda o'tmisht va mashhur shaxslar ta-tiki, qo'pol qilib aytganda, juda bozorgir bo'lib qoldi. Ayniqsa, Amir

Temur va uning avlodni tarixi rasm bo‘lib ketyapti. Shu bois bilan, bilmagan ham o‘zini shu mavzuga uryapti.

Amir Temur va temuriyalar davri tarixini o‘sha zamonalardan qo‘ng‘ishchili manbalarsiz o‘rganib bo‘lmaydi. Shunday manbuta istagancha topiladi. Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazi larning «Zafarnoma» asari, Hofizi Abruning «Zubdat ut-tavoni» Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla’ us-sa’dayn va majma’ ul-hil rayn» kitobi, Mu’iniddin Natanziyning «Muntaxab ut-tavori» Mixondning «Ravzat us-safo» va Xondamining «Habib us-siyah» asarlar shular jumlasiga kiradi. Va yana Amir Temur va Temuriyaling Ovrupo va Osyo mamlakatlari hukmida bilan olib boru yozishmallari («Maktuboti Temuriya» va b.) bor. Qolaversa, Amir Temur, Mironshoh va boshqa temuriyozdalarni ko‘rgan, bilgan o‘rjinalik elchilar (Klavixo) va katolik missionerlar (Francesko, Isidor) boshqalarning esdaliklari mavjud. Nihoyat, arxiepiskop Ioann 1404-yil yozgan «Dunyoni tanish xususida qo’llamna» va yigina to‘ri bobdan iborat «Temur haqidagi esdaliklar»i bor. Xullas, o‘rganaman degan odamga kitob va hujjatlar ko‘p. Lekin so‘nidan yillardar ichida asl manbalar turib, naql-rivoyatlar asosida yozilgan 1990-yil «Cho‘pon» nashriyotida chop etdirgan Salohiddin Toshkandiyning «Temurnoma»si, ikkinchisi yaqinda «Nur» ijodiy uyuşmasi chiqargan «Zafar yo‘li» kitobidir. «Temurnoma» haqidagi o‘rnida fikr bildirganimiz, «Zafar yo‘li»ga kelsak, bu, aslida, Amir Temurning tarjimayi holiga oid (asli forscha) asar bo‘lib, 1835-yil Qo‘qon xoni Muhammad Alixon (1821—1842)ning topshirig‘i bilan Xo‘jand qozisi Nabijon xatib tomonidan eski o‘zbekchadagi matni Rusiya Fanlari akademiyasi sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘lim kutubxonasida saqlanayotgan nusxasi (tartib raqami D. 193) asosida 1891-yil «Amir Temur», «Обетоительство его жизни, походы остановки, сражения и миры» nomi bilan N. P. Ostromov tafsifidan Toshkentda chop etilgan. Asar shu nashr asosida N. Likoshin tarafidan rus tiliga tarjima qilindi va 1894-yil Toshkentda chop etil-

di Asuning V. A. Panov qilgan tarjimasini (Moskva, 1934) ham bor. «Zafar yo‘li» kitobi (nashriга tayyorlovchi Ashraf Ahmedov) mana shu Nubijon xatibning tarjimasiga asoslangan. Bir so‘z bilan aytadi: «Bu bo‘isak, bu asar noshir aytganday, juda ham original asar emas. U, usida, «Temur tuzuklari», «Zafarnoma» singarti kitoblarga asoslangan. Kitobda keltirilgan ma‘lumot va faktlar haqiqatga aid emas. Kitob Amir Temurning 39 yoshigacha davr ichida bo‘lgan voqeular haqida umumiy tarzda hikoya qiladi.

«Zafar yo‘li»da birnumucha xatolar mavjud. Asarda Amir Temur kurasli olib borgan qandaydir o‘zbeklar haqida so‘z boradi. Aynan shunday gapni biz «Temur tuzuklari»da ham uchratgan edik. «Temur tuzuklari»da ham, «Zafar yo‘li»da ham tilga olingan o‘zbeklar etnik o‘zbeklar emas, balki XIII—XIV asrlarda Dashti Qipchoqning shari‘iy qismi (hozirgi Qozog‘iston)da ko‘chib yurgan turk-mo‘g‘ul qabilalaridir. Turkiston, Eron, Arabiston tarixchilarining asarlarida bu qewmlar «o‘zbeklar», ular ko‘chib yurgan mamlakat esa «O‘zbeklar mamlakati» deb atalgan. XIII asr o‘rtalarida, aniqrog‘i 1251-yildan keyin, Movarounnahr, ya’ni Chig‘atoy ulusi Oltin O‘rda xonlarining ta’siri tushib qoldi. Ana o‘sha yillardan boshlab, to Amir Temur xonligachcha Movarounnahr o‘sha Oltin O‘rdalik o‘zbeklarning siyosiy ta’siri ostida bo‘lgan. Buxoro va Movarounnahring boshqa shuharlariida Oltin O‘rda askarları turgan. Dorug‘alarning ko‘pchiliq o‘sha o‘zbeklardan bo‘lgan. Biz bu masalani 1965 yili Moskvada chop etilgan «Государство кочевых узбеков» dekan monografiyamizda batafsil bayon etgan edik. Bu masalaga A. Y. Yakubovskiy, A. A. Semenov kabi ulkan olimlarning asarlarida ham keng o‘rin berilgan. «Zafar yo‘li» kitobining noshiri ham Amir Temur tarjimasi yoki holida tilga olingan o‘zbeklar tub Movarounnahr o‘zbeklari emas, balki «dasht o‘zbeklari» ekanligini kitobga ilova qilgan «So‘zboshim»sida ham, kitobning izoh qismida ham tushuntirishga hurakat qilgan. Lekin durust tushuntirolmagan. Birinchidan, ularni «dala o‘zbeklari» deb atab yangi chalkashliklar tug‘dirgan (mutaxassis bo‘magandan keyin qiyin). Aslida, ular ilm-fanda «ko‘chmanchi o‘zbeklar» deb ataladi. «Ko‘chmanchi o‘zbek»ni esa hamma yaxshi

biladi. Va yana agarda u bu masala yirik tarixshunos olimlar A. Yakubovskiy, A. A. Semenov, P. P. Ivanov va boshqalar tarafida allaqachonlar ijobjy hal qilinganini aytса, hech bo‘lnasa, bizning yuqorida tilga olingan kitobimizni eslatganda, mutaxassis bo‘lmagan o‘quvchilar orasida anglashmovchilik va e’tirozlarga sababchi bo‘limgan bo‘lur edi.

Kitobda shaxs va joy nomlarini yozishshda ham jiddiy kamchiliklida uchraydi. Masalan, Berkal o‘rniga Bargul, Ijil no‘yon o‘rniga Ajjon o‘yon, Kepakxon — Ko‘ppakxon, Inka Temur — Ingi Temur, Jolbarlos — Chag‘uy barlos, Arsif — Arsaf, Jete — Jata va h.k. yozigan.

Izohlarda Amir Temur bilan Boyazid Yildirim o‘rtasida bo‘lgan muhoraba vaqtı 1402-yilning kuzida deb noto‘g‘ri ko‘rsatilgan. Alida, bu voqeа 1402-yilning 20-iyul kuni sodir bo‘lgan.

Ayrim jug‘rof y nomlar va voqealar ham noto‘g‘ri izohlangan. Masalan, Balkx daryosi deganda «Balkx shahridan o‘tgan shu nomi daryocha» emas, balki Amudaryo anglashilgan. Dashfi Qipchoq emas, noshir aytganday, «Irish daryosidan to Dunay daryosigacha yerlari» emas, balki Balkash ko‘lidan to Volga daryosigacha bo‘lgan yerlari va Janubiy Rus yerlari, to Dneprgacha anglashilgan. Manbalarni nashr etishda bunday xato va chalkashliklarga yo‘qo‘ymaslikka iloji boricha harakat qilish lozim edi. Qisqasi, ko‘hma tarixga, ulug‘ ajoddar xotirasiga bo‘lgan mehnababatimiz, milliy g‘urur va iftixorni uyg‘otishga bo‘lgan ehtiyojarimiz bu jabhada mas’ullik bilan ish tutib, yanada jonkuyarroq bo‘lmog‘imizni talab etadi.

ISLOM — ADOLATLI VA POK TA’LIMOT

Shu kunlarda tub o‘zgarishlarni boshimizdan kechirayotibmiz, Qizil imperiyaning qariyb 75 yıldan beri bir hovuch bolshevik rahbarlarning maqsad-u manfaatini ko‘zlab olib borgan, tub mohiyati bilan esa mehnatkash xalqqa qarshi qaratilgan siyosati pirovardi, oxiri bir paytlar butun jahonga dag‘dag‘a qilib kelgan qudratl Sove-

lliqini siyosiy va iqtisodiy bo‘hron girdobiga uloqirdi. «Tinchlik, demokratiya va sotsializm tayanchi» deb atalgan va jahonda il buyuk davlatlardan biri deb e’tirof etilgan SSSR bugunga kelib jahon-parcha bo‘lib ketdi. Shundan keyin, nimadir bilmadim, avlo do‘konlarining peshtaxtalari birdan bo‘sab qoldi, bozorda narx-navo kun sayin ortib bormoqda...

Biz chor Rusiyasining mustamlakasiga aylanib qolganimizdan huj, 130 yil mobaynidan juda ko‘p qadriyatlarimiz, moddiy boyinligimiz va ma’naviy qadriyatlarimizdan ajraldik. «Ulug‘ Oktyabr inqlobi» deb atalmish davrga qadar mustamlakachilar bizning faqat sonushyo boyliklarimizni tashib ketishga ko‘proq ruju’ qilishgan bo‘llular, o‘zbekni «kikki taraflama ekspluatatsiyadan, ya’ni rus burjutiyasi va mahalliy feodal lar zulmidan ozod qilgan» Sovet hokimiyeti moddiy boyliklarimizga qo’shib, ma’naviy qadriyatlarimizga hujliy xalqni ruslashtirish siyosatini tutdi. Avvalambor, alibomizni o‘gartirib, avlodlarimizni ota-bobolar yaratib ketgan ming-ming yillik madaniy merosimizдан mahrum etdi. Bu ham yetmaganday, subqa ziyo tarqatuvcchi yetuk olmlarimizni, shoirlarimizni, adiblarini zindonband qilib otib tashladilar, ming-minglab otalar Sibir tilib, suyaklarini botqoq va o‘rnonda chiritdilar. Yana bir dahshatli voqeа shu bo‘ldiki, «din — afyundir» degan shiorini ko‘tarib chiqib, hujurni din-u e’tiqodimizdan mosovo qilishga jon-jahdari bilan hujukat qildilar. Shu 75 yil mobaynidan biz Maskov va Rusiyaning hujqa shaharlarida yaratilgan, rus maktablariga mo‘ljallangan darslik va qo‘llannalar asosida o‘qib savod chiqardik, rus adabiyotini ko‘proq targ‘ib qildik, o‘zimiznikini esa yerga urdir. Jahonga Ahmad Farg‘omiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Korazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mashhuri Jahon bo‘lgan buyuk olin va shoirlarimizni, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termizi, Abu Muhammad Abdulloh

ibn Abdurahmon as-Samarqandiy kabi buyuk muhaddislarni voyayetkazgan Islom madaniyati esa reaksiyon madaniyat deb qoralarini ilmiy ateizm deb atalmish fanning Islom dini va Islom ta'limotini o'riadan ko'tarib tashlash uchun qilgan jamiki urchishlari oxir-oq bat behuda ketdi. Odamlarni, nasroniyalarni ham, mo'min-musulmonlarni ham din-u e'tiqodidan qaytarishga qurblari kelmadi ularning. Chunki har qanday g'oya va ta'limotning to'g'ri yoki to'g'inasligini hayotning o'zi tekshiruvdan o'tkazib, hal qilarkan. Xulras, o'zini eng to'g'ri va hayotiy ta'limot deb hisoblab kelgan voolamni tamoman o'zgartirrib yuborish uchun bor vositalarni ishlisolib, yagona dunyoviy ta'limot bo'llib olishga intilgan marksizm leninizm ta'limoti, to'g'risi uning sotsializm va kommunizm haqidagi ta'limoti 100 yil ham umr ko'rmasdi, vaholanki, diniy ta'limot xususan, Islom dini o'n besh asrdan beri buyuk va hayotiy ta'limotisifatida inson qalbidan joy oldi, xalq uning orqasidan ergashdi va ergashmoqda.

Nega shunday bo'ldi? Buning sabablari nimada? Avvalambor, Islom dini ham, boshqa dirlar ham, inson o'rtasida ma'rifat tarqatadigan odamlar orasida xush axloq-u odob, adl-u insof, mehr-oqibat g'oya latimi targ'ib qiladi, odamlarni rostgo'y, diyonatlari, insoffi bo'lishiga chaqiradi.

Biroq ana shu 75 yillik o'tmishning og'ir oqibati o'laroq biz muqaddas Islom asrlar davomida mo'min-musulmonlar o'rtasida joriyegan xush axloqu-odob, adlu insof, mehr-oqibat o'rtadan ko'tarildi. Oramizda odob-axloqi zaif odamlar paydo bo'ldi, o'zini katta tutti yurish-turishda kibr-u havoga rag'bat bergenlar uchraydigan bo'lli qoldi, farzandini ko'proq izzat-ikrom qilib, ularning axloq-odobiya kam e'tibor berish bir qadar kuchaydi. Payg'ambarimiz Muhammed alayhissalomning hadislarida qayd etilgan «Sizlar odamlar mol-u dunyolarining bilan mammun qilomaysizlar, balki ochiq yuva yaxshi xulqlaringiz bilan minmatdar qilishlariringiz mumkin», yoki «Mo'minlarning afzali xulq-atvori yaxshilaridir» degan qimmat-qaydlarini umutayozganga o'xshaysiz, chamasi.

Shu munosabat bilan, Islom ta'limotining yana bir qaydini eslatib o'tmoqchiman. Islomning muqaddas kitoblarida mo'min-musulmonlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeyi barobar ekanligi alohida qoyd qilingan. Masalan, hadis kitoblarida: «Hech kim hech kimdan onliq emas. Ortiqliq faqat din-u diyonatda va solih ishlardida», — deb yozilgan. Baxta qarshi, ayrim mo'min-musulmonlar orasida mol-mulkka hirs qo'yish kayfiyati mayjud. Bu imonning zafligidan, albutta. «Bandaning mol-u dunyoga hirs, — deyiladi hadis kitobida, — ikki och bo'ring qo'y galasiga qilgan tajovuzidan zararliqdirdi».

Islom o'qish, bilim olish, ilm-ma'rifat tarqatish har bir mo'min-musulmonning vazifasi ekanligini alohida ta'kidlaydi, chunki: «Ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farzdir», — deb ukdiriladi hadis kitoblarining birida. Shu kitobda ilm haqida qilingan yana bir ta'kid diaqatga molikdir: «Ilmni o'rganib, so'ng uni boshqalarga o'qutmaslik, — deyiladi kitobda, — go'yoki mol-u dunyoni yig'ib, uni surf qilmay, ko'mib qo'yish bilan barobardir».

Islom ta'limotida, uning muqaddas kitoblarida, shunga o'xshash innuminsoniy qadriyatlar haqidagi fikr-mulohazalar ko'p. Bularning hommasini keltirish, ayniqsa, ularni sharhlab berish kanninaning imkon darajasidan tashqaridit. Shuning uchun ham Islom — adoatlari vi pok ta'limot ekanligini ta'kidlagim keladi.

TARIXNI SOXTALASHTIRIB BO'LMAYDI

O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi va o'rta asrlardagi tarixini o'rganishda tarixshunoslar ancha ish qildilar: ko'p asrlik tarixni o'z ichiga olgan jild-jild kitoblar bitildi, tarixning ayrim sohalari (ta'limoiy-siyosiy, agrar, madaniyat, mamlakatlararo munosabatlar) bo'yicha maxsus monografiyalar yozildi. Lekin, baribir, hali qilaqligun ishlarmiz ko'p, yaxshi o'rganilmagan, yechimini topmagan musatlar taxlanib yetibdi. Yer-suv munosabatlari, hunarmandchilik, sulq harakatlari, etnik tarix va etnik jarayon mana shunday muammolar jumlasiga kiradi.

Men ushbu kichik maqolada ikki muhim masalaga qisqach to 'xtalib o'tmoqchiman.

Birinechisi. Keyingi yillarda ba'zi tarixiy shaxslarga, O'rta Osiyo xalqlari tarixining ayrim davrlariga, xususan, Temur va temuriy davri tarixiga baho berishda bir yoqlamalikka yo'l qo'yilmoqd. Nimagadir hokimiyat tepasida turgan yoki saroy xizmatida bo'lgu shaxslarning ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-adabiy faoliyatni lususida pirganda faqt ularning salbiy, negativ taraflarini ko'ramiz, ijobji tomonlarini bo'lsa xaspo'shab o'tamiz. Boshqacha qilib aytganda, ularning faoliyatiga bugungi kun mafkurasidan kelib chiqib baho berayotibmiz. Bunaqa kayfiyatni M. G. Vabobovning «Pravda Vosto-kax» gazetasining 1986-yil 4-dekabrida e'lon qilgan «Tarix haqiqati» zidi, 1988-yil 21-iyunda shu gazetada chop qilgan «Haqiqat xusu sida, — faqat haqiqat» nomli maqolalarida, — tarix fanlari doktor professor G. Hidoyatovning yana o'sha gazetanining 1988-yil 11-noyaborda bosilgan «Ulug' muallim» deb atalgan maqolasida yaqqa ko'ramiz.

To'g'ri, Temur ham, Bobur ham feodal hukmdor sifatida zulmga qo'l urishgan, boshqa yurtlarga bosqinchilik yurishlari qilishgan Masalan, Temur 1380—1402-yillari Eron, Iroq, Kavkaz orti man'lakatlari, Kichik Osiyo va Shimoliy Hindistonga bosqinchilik yurishi yuvshtirdi, ko'pgina shahar va qishloqlarni xarob qildi, ko'plarini yostig'ini quriddi. Bobur ham shunga o'xshash ish qildi — 1526-yil Shimoliy Hindistonni bosib oldi. Sulton Husayn-chi? U ham qon-to'kkani, ayrim paytarda melmatkash xalqning haq-huquqini topog'an. Biz bu shaxslarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatidagi bu negativ taraflarni qoralaymiz, albatta.

Shu bilan birga, ularning tarix oldidagi xizmatlarini ham e'tirof etish lozim, aks holda, nohaqdlik, adolatsizlik yuz berishi mumkin. Sirasini olganda, haqiqatni, bor haqiqatni aytmaslik ham tarixni solatalashtrishga kiradi.

Temur faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bir-ikki misolga murojan qiyaylik. Ma'lumki, XIV asr o'rtalarida Chig'atoy ulusi, aniqrog'i Movarounnahr, Xorazmning sharqiy qismi va Afgh'onistonning shi-

moly viloyatlarini o'z ichiga olgan uning g'arbiy qismi feodal tarqoqlik iskanjasiga qolgan edi. O'sha vaqtida Chig'atoy ulusida o'nga yotin mustaqilbeklik mavjud edi. Masalan, Shahrisabz viloyatida Yulji barlos, Xo'janda Boyazid jaloi, Saripul va Toshkentda Xizr Yulovuriy, Balkda amir Husayn, Shibirg'onda Muhammad Aperdi nayman, Ko'histonda amir Sotilmish, Arhang saroyda Uljoy Aperdi, Xuttalonda Kayxuslav o'zarini hokimi mutlaq deb e'lon qilib, bir-biri bilan yoqalashar, xalqni talom-toroj qilib, azoblar edilar. Temur 1370—1378-yillarda bu o'inka va viloyatlarni bir davlatga intishirib, feodal tarqoqlikka barham berdi. Bu mehnatkash xalqqa behudik yotib-turishga, tinch mehnat qilishiga imkon berdi: dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan va madaniyatning rivoj topishiga zamin yaratdi. Ha, Movarounnahr va Xuroson Temur va temuriylar davrida 120 yil tinch hayot kechirdi. Temur faoliyatining ko'p ijobji tomonlari bo'lganligini mashhur tarixshunos olim, sobiq SSSR Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi professor A. Y. Yakubovskiy ham ayigan. U Temurning bir tarafdan feodal isyonli va feodal tarqoqlikka barham bergani, ikkinchidan, ulkan qurilishlari qilganimi alohida qayd qilgan edi (Temur, Опыт краткой историографии, «Вопросы истории» журнал, 1946, №8—9, 73-heft).

Yoki Temurning 1391 va 1395-yillar Oltin O'rda xoni To'xtamishga (1376—1395) yoki 1402-yil Turkiya sultoni Boyazid Yildirimga (1389—1402) qarshi uyuştingan harbiy yurishlarini olib ko'raylik. To'xtamishga berilgan qaqshatqich zarba Rossiyaning Oltin O'rda zulmidan qutulishini tezlashtirdi. Keling, yaxshisi, uning ahamiyati haqida mo'tabar olimlarning fikrini keltirib qo'ya qolaylik. A. Y. Yakubovskiy To'xtamishning 1382-yil kuzda Moskvaga qilgan hujumi va uning og'ir oqibatlari haqida bunday deydi. «To'xtamishning xuruji Moskva va Moskva viloyatini og'ir jarohatladi. Kostromadan talon-toroj etilgan Moskvaga qaytib qelgan Dmitriy Donskoy uchun 1382-yilning kuzi uning hayotidagi eng og'ir kunlar bo'ldi, chunki u o'sha kezlarda To'xtamishga qarshi bin chora-tadbir ko'rishdan tamoman ojiz edi» (B. D. Grekov, A.

Y. Yakubovskiy. Oltin O'rdaaning yemirilishi, Moskva-Leningrad 1950, 329-bet). Akademik B. D. Grekovning bu boradagi fikrlari dengiz qoraqalpog'ida maxsus o'rganilgan. Bu o'rinda biz ba'zi tariixchilarning shuningdek, hurmatli o'quvchilarimizga Rossiya armiyasi (Yedigey) Moskvaga Oltin O'rda oldidagi majburiyatlarini eslat elchi yuborganda knyaz Vasiliy Dmitriyevich unga parvo ham qo'madi (O'sha kitob, 245-bet). A. Y. Yakubovskiy Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasiga yuksak baho berdi. U, masalan bunday deb yozdi: «Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi... nafaqat O'rta Osiyo va Janubi-Sharqiy Yevropa uchun, bulg' Rus uchun ham katta ahamiyatga molib bo'ldi» (O'sha kitob, 371-bet). Aynan shunday fikri mashhur rus tarixchisi M. S. Solov'yov (1820—1879) ham o'z vaqtida bildirgan edi (История России в древнейших временах, Т. 34, кн., 11, Москва, 1960, с. 370).

Temurning Boyazid Yildiringa bergan qaqshatqich zarbuham qo'shni mamlakatlar, xususan, Bolqon yarim orolidagi manlakatlarining tarixiy taqdirida muhim rol o'ynadi. 1389-yil Boyazid Serbiyaning Kosovoye pole degan manziliida bir qator Sharqiy Yevropa davlatlarining birlashgan armiyasini tor-mor keltirib, Serbiya bilan Bulg'oriyani bosib oldi; Vengriyaga tahdid sola boshlaadi ostida qoldi. Shunda Vizantiya imperatori Manuel Palsolog, Genuya hukmdori va Fransiya qiroli Karl VI ning Kichik Osiyo va Sulton yadagi noiblari Temurga yordam so'rab yalinib-yolvora boshladilu O'sha yillari Temur bilan Fransiya qiroli Karl VI (1380—1422) va Angliya podshosi Genrix IV (1399—1413) o'rtasidagi yozishmalari ham Temurni qudratli Usmon imperiyasiga qarshi otlanishga chaqiganligidan guvohlik beradi. Shuni ham aytish kerakki, Boyazidning kuchayib ketayotganidan Temurning o'zi ham bir qadar cho'chli turgan edi. Qisqasi, Temur Boyazidni yengish bilan Bolqon manlakatlar xalqlarining usmonli turklar istibdodiga tushib qolish xavfni bir qadar bartaraf qildi.

Bu faktlarni inkor etsak ineofidan bo'lmash.

Qolaversa, Temur katta tarixiy asarlarda, qomuslarda yirik davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida e'tirof etiladi, uning sarkar-

lari mahorati esa Rossiya va Yevropa mamlakatlaring harbiy akademiyalarida maxsus o'rganilgan. Bu o'rinda biz ba'zi tariixchilarning shuningdek, hurmatli o'quvchilarimizga Rossiya armiyasi (Hindistonning xodimi general-leytenant M. I. Ivaninning (1801—1874) 1875-yil chop etilgan «О военном искуществе в званиях императоров и среднеазиатских народов при Чингиз-хане и Баязиде» degan qimmatli kitobini o'qib chiqishlarini tavsiya etdi.

Hoburga kelsak, u iste'dodli shoir va «Boburnoma»dek ajoyib qonusiy asar yaratgan yirik olim sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi. Hindistonliklar Boburni va uning avlodlarini hozirga qadar o'z farzandi hisobida ko'radilar, xotirasini hadrlaydilar. «Bir vaqt hindistonlik bir yozuvchi va olim bilan suhabatlashib o'tirganimizda, — deb hukoya qiladi buyuk qirg'iz adibi Chingiz Aytmamatov, — Bobur haqidagi gap ketdi. Men undan: «Boburni bosqinchchi deb hisoblaysizlarimi yoki madaniyatni rivoj toptirgan namoyanda sifatidami?», — deb ro'figanimda, u: «Biz umi Hindiston farzandi sifatida yuksak darajada qadrlaymiz... faoliyati va ijodiyoti bilan madaniyatimiz rivojiga temisl yordam berdi», — deb aytdi». Sharq tarixini ham, Garb tarixini ham ko'rganimizda olim va shoir bo'sib tanilgan sohibi tojlar ham uchraydi. Bobur va Ulug'bek adapiyot va ihm-fan jahbalarida qolim tebratib, nom qozongan tojorlar juda ham kam.

Sulton Husayn haqida ham shunday deyish mumkin. U shoir va madaniyatlari kishi bo'lishi bilan bir qatorda, ko'plab shoirlar, olimlar, musavvirlar, xattotlar va boshqa hunarmandlarga homiylik qildi. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiydek daholat ham uning zamonida yetishib chiqdilar.

Mavarounnahr va Eron ustidan 136 yil hukmronlik qilgan Temur va temuriylar, 332 yil Hindistonni idora egan Bobur va boburiyalar davri madaniyati jahon tarixida qoldi. Buni ham tarixiy kitoblardan o'qib bilish qiyin emas. Qolaversa, Samarcand, Buxoro, Shahrisabz, Balk va Hirotda qurilgan ajoyib binolardan ba'zilari bugun ham o'zni quvontiradi. Hindistonning Dehli, Agra, Fathpur, Ajmir, Lohur, Ollohobod shaharlari boburiyalar davrida bunyod etilgan qasri-

lar, qal'alar, maqbara va masjidlar, rabotlarni hamda ajoyib bog'rog'larni olib ko'raylik. O'sha davrda yozilgan va jahon kutubxonalarida saqlanayotgan noyob qo'lyozma kitoblar Temur va uniuavlodni ko'p xayrli ishlar qilganligidan dalolat berib turibdi. Xo'sh buni inkor qilib bo'ladimi?

Ikki og'iz so'z professor G. Hidoyatovning «Ulug' muallim atalmish maqolasi xususida. Maqolaning umumiy yo'naliishi umuman to'g'ri, lekin uning qandaydir «tamerlamaniya», «baburo maniya» va boshqa «maniyalar» borligi haqidagi da'volari mutlaq assossizdir. Maqola muallifining Temurning (demak, avlodining ham) kelib chiqishi haqidagi gaplari esa tamoman uydurma. Barloslar Chingizxon davridayoh (XIII asr) turklashib ketganlar. Temur esa Chingizxon istilosidan qariyb 130 yil keyin Zabaykalyedan Qashqadaryoda tug'ilgan. Barloslar XIII asr boshlarida o'zbekning etnik tarkibiga kirdi. Buni arab, fors va turkiy tillarda yozilgan qo'lyozma asarlarni o'qiy oladigan, o'rta astilar tarixidan (Sharo'tu rixidan) xabardor kishilar yaxshi bilishadi. Tarixiy hodisalar va faktlarga bu tarzda yengil-yelpi munosabatda bo'lish yaramaydi. Tarix faqat ulug' muallimgina emas, balki ulug' hakam ham ekanligini unutmaylik.

O'tmish tarixga, tarixiy shaxslarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bir tomonlana yondashuvchilarga mashhur rus yozuvchisi I. A. Goncharovning mana bu fikrlarini eslatib o'tmoqchimiz: «Bunda o'tmishdan birron shaxsni qarmoqqa ilintirib oladilar-da, xuddi bo'zdan eski suratni qirchishlab olganday, uni o'zi yashagan zamonidan ajratib oladilar va o'z asriming shiorlarini, tusini, ruhini, tarbiyasini, urf-odatari va o'zga shart-sharoitini o'zida mujassamlashtirgani ni unutib qo'yib, o'z zamona sinining qonunlari bilan so'zlab jazzog'i tortadilar. Axir, avlodlar davr o'tishi bilan qo'iga kiritilgan bilmlar, tajribalar va kashfiyotlar orqasida ajoddalaridan o'tib ketadilar-kul!» (Sobranie soch. t. 7, Moskva, 1952, 299-bet).

Xo'sh, bunday olimlarning bu gaplardan xabari yo'q deb o'ylaysizmi? Aslo. Yaxshi bilishadi, lekin amal qilgilar kelmaydi. Negaz qo'llari faqat ikki xil: qora va qizil bo'yoq bo'ladi? Birini surtg'an

aslo ikkinchisini surtmaydilar. Axir, surat turli-tuman bo'ng'ular vositasida yaratiladi-ku! Lekin bunaqa «bo'yoqchilar»ni ko'ring'ona ma'qullovchilar ko'p bo'lgandan keyin nima ham qilishsin. Ikk'e qancha biryoqlama bo'lsa, — deb yozgan edi V. G. Belinskiy, ko'pehilik uchun shuncha qulay, chunki ko'pehilik yaxshi hamidio yaxshi bo'lishini, yomon yomon bo'lishini xush ko'radi. Bunday odamlar biron-bir narsa aynan bir vaqtida yaxshini ham, yomon ni hum o'zida mujassam etishimi tan olmaydilar» (Asarlar, t. VIII. Moskva, 1948, 65-bet). Endi o'z-o'zidan savol tug'iladi. Xo'sh, unurni, uning avlodlarini fotih bo'lganligi uchun yomon otliqqa dijuring, O'rta Osiyo xalqlarining katta bir davr tarixini o'rganmayli mi? Yo'q, o'rganish zarur, chunki bu, avvalambor, xalq tarixi. Shu poygacha kim dandir, nimadandir hadiksirab, o'tmish tarixni yaxshi o'qummay kelayotibmiz. Endi bunaqa kayfiyatga barham berish furlidi keldi. Xo'sh, tarixni qanday o'rganish kerak? Bu boshqa gap. Un bir tariffalma emas, chuquq va atroficha o'rganish lozim.

Men aytmuoqchi bo'lgan yana bir gap — bu o'rta va olyiymaklurda O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishning umumiy ahvoli haqida. O'zbekiston ko'p ming yillik tarixga ega bo'isa-da, yoshlomiz o'z yurtning tarixini yaxshi bilishmaydi. Negaki, O'zbekiston xalqlari tarixi o'rta maktabda ham, olyi maktabda ham yaxshi o'qitilmaydi. Birinchidan, O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishga judu kam soat ajratilgan. Ikkinchidan, rahbar tashkilotlarning qatorlo'rsatmalari qaramay, hanuzgacha yaxshi darsliklar va qo'llanmalar yozilgani yo'q. Mavjud darsliklar bo'lsa bugungi talabga joyob berolmaydi. Ularda turg'unlik yillarining salbiy illatlari to'lib-toshib yetibdi. Hozir tarixchi olimlar va tarix o'qituvchilari oldida iрган birdan bir vazifa o'rta maktablar, texnikumlar va olyi o'quv yurtlari uchun puxta darsliklar va yaxshi qo'llammalar yaratishdan borat. Shuni unutmashlik kerakki, maktabga mo'ljallangan kitob imyuqori malakali olimlar va o'qituvchilarga topshirilishi zarur, chunki bilming poydevori, asosan, maktabda qo'yildi. Takror ayitisiga to'g'ri keladi: bu ishga O'zbekiston xalqlari tarixini puxta bilgan olimlar va tajribali o'qituvchilar jalg etilishi zarur.

TONG QORONG'ISIDA

*Cho'ipomning «Kecha va kunduz» romanı haqida
tarixchi olimning ayrim qaydları*

Sirasini aytganda men adabiyotchi emasman, adabiyot muxlis man. Shunday bo'lgach, Cho'ipondek ulkan bir yozuvchi roman ning badiiy jihatlarini tahlil qilish, badiiy mahoratini baholash im komindan trashqariigini aymnasam ham bo'ladi. Shunga qaramay roman xususida bir-ikki og'iz gap aytishga jazm qildim.

Cho'ipomning «Kecha va kunduz» romanı e'lon qilinganiga («Sharq yulduzi», 1988-yil, 2—3-solar) ancha vaqt bo'ldi. Lekin nimagadir asar haqidagi jiddiy bir gap aytigani yo'q. To'g'it Izzat Sulton va Salohiddin Mamajonov «O'zbekiston adabiyoti vs san'ati» gazetasida (1988-yil 3-iyun) Cho'ipon va Fitrat haqidagi maqolalarida, ehtiyojkorlik bilan bo'lsa-da, adib xususida ikki og'i chuchuk gap aytdilar. «Kecha va kunduz» roman esa shunchuk qayd etib o'tildi, xolos. Ehtimol, gazetaga mo'ljallangan maqolada, yana u madaniyatimizning ikki ulkan namoyandasiga bag'ishlangan bo'lgach, adibning ijodiyotini to'la tahlil etish imkonni bo'lmagan. Balki multaram olimlarimiz «Kecha va kunduz» romanini haqidir. Maxsus maqola yozmoqchi bo'lishgandir. Agar shunday bo'lsa, ularning bu xolis niyathariga tilakdoshmiz.

XX asr o'zbek adabiyotini boshlab berganlardan biri bo'lmish yotir. To'g'ri, uming asarlaridan ayrim namunalar matbuotda e'lon qilinib turidi, yozuvchi haqida yaxshi gaplar ham aytilyapti. Lekin abyon-ahyonda noxush, kishini behuzur qiladiganlari ham qulouq chalimib turidi. Qachonlardir kimir uning tarjimayı holi qayd etilgan varaqanining chetiga qora siyoh to'kib qo'ygan ekan, biz hau o'sha qora dog'dan ko'z uzolmay unga, xuddi sirkda masxarabozga mahliyo bo'lib qolgan tomoshabindek tiklib o'tiribmiz...

«Kecha va kunduz» — tarixiy roman. Turkistonning inqilobdan awvalgi, ko'p jihatdan o'lkanning birinchi jahon urushi yillarda

synchli ahvوليunga bosh mavzu bo'lgan. Roman ni yaxshi tush-muhim uchun o'lkanning tarixiy sharoitiga bir nazar tashlab o'tishga o'tir keladi.

Ma'lumki, o'sha vaqtarda Turkiston chor Rossiyasining mustaqasiga aylanib qolgan edi. Rus zavodchilar va fabrikachilarini o'zining muhim xomashyo manbayiga, sanoat mollarini baland maw'larda pullash bozoriga aylantirib olgan edilar. Turkistonning mustumlakalik statusi 1886-yili qabul qilingan maxsus qonun — «funkiston o'kasini boshqarish to'g'risida nizom» bilan belgilandi. Shundan keyin podsho hukumati quyidagi ijtimoiy-siyosiy tadbirlari qurmalga oshirdi:

Rossiyada vujudga kelganim agrar qiyinchiliklarni hal qilish va dehqonlarning g'alayonlarini bostirish uchun o'sha «tinib-tinchma-noma» mujiklarning bir qismimi Rossiyanadan Turkistonga ko'chirishni hohladi. Ular, asosan, Yetisuv, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlariiga joylashtirildi. Mahalliy dehqonlar qadimdan foydalanib kelgan yerlari ekspropriatsiya qilindi. Bu yerlarning egalari esa tog' va cho'ilari qilib chiqarildi. Ularning yerlarini o'sha mujiklar egallab olishdi. Rossiyaning markaziy shaharlardagi to'qimachilik firmalari Turkiyiston shaharlarida o'z vakolatxonalarini, agentliklarini, idora va omborxonalarini ocha boshladilar. Bu agentlik va idoralar Rossiya to'qimachilik fabrikalarida ishlab chiqarilayotgan gazlama va mollurni so'tish va o'z korxonalarini uchun xomashyo (paxta, jun, teri, pillo va hokazo) tayyorlar edilar.

Kavkaz sanoatining eqtiyojlarini qondirish maqsadida shitob bilan temir yo'l (masalan, Orenburg—Toshkent temir yo'lli, 1906-yil) va sanoat korxonalarini qurila boshlandi. Faqat 1900—1910-yillar olibda 223 korxona (paxta tozalash, pillichilik, ko'nchilik, yog'-moy va hokazo) qurib ishga tushirildi. 1914-yilga borib ularning umumiyyati 425 taga yetdi. Sanoat korxonalarining katta bir qismi rus va cheyt ellik kapitalistlar qo'liida edi.

Chor hukumati, ayniqsa, Rossiya to'qimachilik sanoati taraqqiyotining muhim manbayi bo'lgan paxtachilikni rivojlantirishga olibda e'tibor berdi: qadimdan ekilib kelinayotgan jaydari g'o'za

o'miga paxtaning Amerikadan olib kelengan yangi navlari joy qilindi; paxta maydoni tez sur'atlar bilan kengaytirildi. Masalan, paxta ekiladigan yerlar 1900—1915-yillar orasida Farg'ona viloyati 188 ming 400 desyatinden (bir desyatina 1,09 getkarga ten) 250 ming desyatina, Samarcand viloyatida 17 ming desyatindan 29 ming 300 desyatina, Buxoro va Xivada 125 ming 200 desyatindan 146 ming desyatina, hammasi bo'lib Turkiston o'liasi bo'yicha 346 ming 100 desyatindan 496 ming 100 desyatina ko'paydi. Paxta asta-sekin boshqa ekinlarni surib chiqara boshladи. Buni aqto «Kecha va kunduz» romaniga asos bo'lgan Farg'ona viloyati molidi olib qaraydigan bo'lsak, mana bu manzarani ko'ramiz: paxta 1885-yil viloyatda jami ekin maydonining faqat 14 foizini tashkil qilsa, 1915-yilga kelib bu 44 foizga yetdi. Makkajo'xori maydoni shu vaqt ichida 22 foizdan 11 foizga, beda 15 foizdan 8 ga, sholi 16 dan 7 foizga tushib qoldi.

Soliq va jarimalar ilgarigicha qoldi. O'troq aholi xiroj, tanaboni to'lardi, ko'chmanchilardan zakotdan tashqati, o'tov puli undirilishi edi. Dehqonlar borgan sari xususiy yerlaridan ajralib (umi boylar turli yo'llar bilan tortib olardilar), boylarning chorikorlariga aylanish borgan sari qashshoqlashib bordilar.

Shu tariqa, chor amaldorlari va ularning sodiq malayiga aylanib qolgan Yodgorxo'ja va Umaraliga o'xshash boylar, Akbarali mingboshi singari mansabdorlar mehnatkash xalqni bearmon ezar, xo'rlat, tahqirlar edilar. Bu ham yetnagandek, podsho Nikolay II ning 1916-yil 25-jyunda e'lon qilgan maxsus farmoniga binoan ming-ming turkistonlik yigit (1917-yil fevral oyigacha 123 ming kishi) harbiy inshootlar va davlat ahamiyatiga molik og'ir yumushlarni bajarish uchun Rossiya, Ukraina, Belorusiya va Kavkazga olib ketildi.

«Kecha va kunduz» romanida Turkistonning inqilobidan avvalg mana shu og'ir ahvolfi talqin etildi. Yozuvchi, xususan, mazkur ro'anda bir necha ijtimoiy-siyosiy masalani: sinflar va sinfiy kurash, xotin-qizlarning ahvolfi, maktab va maorif kabi masalalarni o'rta qo'yadi va umuman to'g'ri hal qiladi.

Kishilik jamiyati boy-badavlat kishilar va yer-suvsiz, faqat bilok kuchi bilan kun kechiruvchi odamlar guruhiга ajralgandan beri inllar va sinfiy kurash bor. Boy-badavlat kishilar qanday bo'lmashin mol-mulkini yanada orttirish uchun kurashsa, kambag'al-qashshoq in tur mushini yaxshilash uchun ahyon-ahyonda xo'jayinlarga qarshi koltuk ko'tarib chiqdilar. Lekin ularning kurashlaridan ish chiqmadidi, orzu-umidlati ushahhmadidi: tarqoqlik va parokandalik, rahbar siyosiy kuchning yo'qligi bunga imkon bermadi.

«Kecha va kunduz»da ham shu ikki qarama-qarshi kuch orasidagi tortishuvni ko'ramiz. «Farzanddan va eldan mahrum, lekin yir-suv, pul va boshqa boylikka ko'milgan» Akbarali mingboshi, piyumiq, ayyor, ustasi farang Miryoqub, fikr-u xayoli birni mingga, mingni tumanga aylantirish payida bo'lgan Yodgorxo'ja va Umarali boylar, mansabdorlarning qilichini qayrab bergan domla-imom, beshora Turkiston xalqining pushti-panohi hisoblangan oq podsho va uning amri-farmonlarini bexato amalga oshirib turgan hokim to'ralar, hukmron sinif namoyandalari — ekspluatator sinif vakillari; Razzoq no'fi, O'lmasjon, Zebi, Enaxon, Kolmat va boylargacha qarshi isyon ko'targan toshloqlik, qumariqlik va tog'liq kambag'allar mazlum anof vakillaridirlar.

Akbarali mingboshi aslida omi, befarosat, betadbir, ichkilik va ilishga mukkasidan ketgan odam, lekin vazifasini yaxshi biladi hukumatga itday sodiq odam. Shuning orqasida behisob boylik ottingan. Akbarali mingboshi manfaat yo'lida hech narsadan qaytmaydi. U hatto mansabdorlar bilan chiqishib vaqf yerlarni ham o'z ismarrufiga olib foydalanadi, oz yerlik dehqonlarning yeriiga suv bermay qo'yib, to's-to' polon va arizabozlik kuchayganda gumashtasi Miryoqubning yordами bilan aybni boshqalarga to'nkab, xamirdan qil sug'urgandek qutulib qoladi. Akbarali mingboshining kimligini, ichki dunyosini uming qishloq qarz shirkatining inspektori Hasanov bilan subbatidan ham bilsa bo'ladi.

— Urushdan gapiring, abzi! U nima bo'lyapti?

— Men urushni qaydan bilay? Gazer o'qimasam...

— Musulmonning qo'liga yarog' bermaydi bu hukumat. Biz mu-sulmonlar turk bolalari, o'zimiz yarog' olmasak, dushmanimiz o'zi o'z qo'i bilan bermaydi.

— Kim dushman? — dedi mingboshi. Bu savolda endi po'pisu alomati bor edi. Mehmon sira shoshamdan bema'lol javob berdi:

— Sizing dushmaningizni aytayotganim yo'q, dodho afandi Turk-islam xalqining dushmanlarini aytaman...

— Germanni aytasammi?

— Shunday taqsir! Germanni aytaman...

— Unday bo'isa... butun qishloqni yig'ib, qo'liga beshotar berib, germon bilan urushgali jo'natmoqchi bo'iganimga nima deysan?...

— Nima derdim. Islom millati sizing bu xizmatningizni hech unutmas...

— *Hurmatli Bo'riboy aka! Sizing ilmiy jasoratingiz alohida bu mavzu. Shu tufayli chiroylı sifatlashlar-u, qator-qator unvon-luringizni sanab o'tirmadim. Qolaversa, muborak ismi-sharifingiz bugungi kunda maktab o'quvchisidan eng yuqori rahbarlarga cha'lonish. Agar muddaoga o'iadigan bo'lsak, ildizi teran va baquvvat daraxting ko'ri, sababati ham shunga mos bo'ldi deyishadi. Shu ma'moda olib qaralsa, turkiy qavmning tarixi va bugungi borlig'i nufuz jihatdan, betimsol, o'ziga xos. Bu el daholari, buyuklari soni wa o'rnii jihatidan dunyo mezomida ham salmoqi mavqega ega. Soshibqiron Amir Temur tufayli esa biz uncha-buncha xalqqa nasib etmagan baxtga sazovor bo'lgamiz. Biroq voqealar ummonida qalqib turgan dumyoda tog'lar boshami ba'zan tuman qoplaganidek, jahongir bobomiz turli munosabatlar girdobida umrguzarolik qilib, bazingun kunlarimizgacha yetib keldi. Amir Temurga munosabatlar tarixi va uning sabablarini bayon etish bilan subhatni boshlusak.*

— Jahondagi boshqa xalqlar, masalan, arablar, forslar, hindlar va xitoylar singari turkiy xalqlarning ham katta tarixi, madaniya-

ti, dunyo silsilasida o'ziga yarasha tutgan o'mi bor. Turkiy xalqlari juda katta chegarada — shinolda Olttoy, Sibirdan to janubda Mumar va O'rta yer dengizlari, Hindikush tog'lariqacha, sharoqda Xitoy bo'lgan katta muzofotda qadim-qadim zamonalardan beri istiqomati qilib keladilar. Ana shu joylarda ular katta-katta shaharlar bunyod etdilar, o'zlaridan jahonga ko'z-ko'z qilsa arzigudek madaniy ma'naviy yodgorliklar qoldirdilar. Mo'g'uliston, Sibir, Qirg'iziston va Farg'ona hududlaridan todilgan yodgorliklar turklar tarixi ham asrlar qa'riga chuuqur tonir otganidan guvohlik beradi. Muhim shundaki, ular qadimdan mustaqil davlat bo'lib yashaganlar. Misalan, turklarning Turk hoqonligi, Qoraxoniylar, G'aznaviyalar, Saljuqiylar, Jo'chi ulusi, Chig'ato'y ulusi, Temuriylar, Shayboniyu kabi jahonga dovrug'i ketgan davlatari bo'lgan. Abu Nasr Forobiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Xis rav Dehlaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy va Shayboniyxon singari juda ko'p daholar turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan.

Lekin turkiy xalqlarning taqdidi bir qadar boshqacha bo'ldi. Ular xitoylar, hindlar, ingilzlar, franduzlar, olmonlar va ruslarga o'xshab milliy birligini saqlab qololmadiilar. To'g'ri, Kichik Osiyodagi turklar XIV asrga kelib mustaqil davlat bo'lib oldilar, milliy mustaqil ligini saqlab qoldilar. Sibir, Oltoy va Sharqiy Turkistondagi turklar esa Rusiya bilan Xitoyning tasarrufiga tushib qoldilar. O'rta Osyo bilan Qozog'istonda istiqomat qilib turgan turklar esa o'zaro feodal kurashilar oqibatida XVI asr boshida avval ikki davlatga — Buxoro va Xiva xonliklariga ajralib ketdilar; XVIII asr boshida (1709 yil) Farg'ona o'lkasi Buxoro xonligi tarkibidan ajralib chiqdi. Buvdavlat o'zini Qo'qon xonligi deb e'lon qildi. «Bo'linganni — bo'ri yer!» deb bejiz ayrtishmagan ekanlar. XIX asrning ikkinchi yarmida har uchala xonlikni Rusiya imperiyasi bosib oldi. Keyincha, bundan ham battar bo'ldi — asrimizning 20-yillari o'rtalarida bolshovuk paytgacha o'z yurtidagi qadr-e'tibor topmadı — zamonasozlik tu-

nahdilar. Bu bo'laklarga Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, lojiston va Turkmaniston Respublikasi deb ot qo'ydir.

Mustamlakachilikning o'ziga yarasha qonun-qoidasi, siyosati bo'latdi. Davlat deb atalmish ezish mashinasining bir o'zi miltiq va ambarakning kuchi bilan xalqni din-u e'tiqodidan, tarix-u madaniyidan mahrum qilishi qiyin. Birinchi navbatda, yetuk ziyolisini millatchi, xalq dushmaniga chiqarib, mahv etib tashlash kerak. Mustamlakachilar Turkistonda shunaqa siyosat yurgizdilar. Oqibati hujun hammaga ma'lum. Biz turkiyabon xalqlar tariximiz, tilimiz, milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizdan tamoman ajrab qolishimizga bir bahya qoldi. Yaqin-yaqinlarda ham Amir Temurni, Ahmad Yassaviyni, Navoiyni, Boburni har na deb badnom qilib keldik. Sababi ma'lum: oxir-oqibat tariximiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimidan voz kechib, chor bosqinchilarining tarixi, tili, madaniyatini va in'malarini qabul qilishimiz kerak edi.

Varatganga shukrlar bo'lsinki, SSSR degan davlat chilparchin bo'ldi. Uning tarkibiga kirgan respublikalar, shular qatori O'rta Osyo va Qozog'iston respublikalari ham milliy mustaqillik va ishlolyo'liga o'tib oldilar. O'rta Osyo va Qozog'iston respublikalari inbarlarining shu yil 3—4 yanvar kunlari Toshkentda yig'ilishib, Murkaziy Osyo ittifoqini barpo etish to'g'risida qator qilganliklari munim tarixiy voqeя bo'ldi. Tarix orqaga qaytarilmaydi, lekin eski davosat takrorlanib qolishi mumkin. Sababi — ulug' davlatchilik tuyfifikasi hali yo'qolib ketgani yo'q. Shunday siyosat yurgizmoqchi bo'lganlar esa hali bor. Ularning sharpasi ahyon-ahyonda eshitilib turidi...

— *Suhbatimizga qaytitib, chet ellarda Amir Temur shaxsiga murossabatni eslab o'tsak...*

— Amir Temur — buyuk tarixiy shaxs. Virik davlat arbobi, mo'hur sarkarda. Shu bois ham uning tarixda, xususan, Turkiston xalqlari turixida tutgan o'mi va roli benihoya katta. Bu bugun ko'pchilik olinilar, xususan, g'arb tarixchilari e'tirof etgan haqiqat. G'arbdan so'z ketganda faktlarga murojaat qilaylik. Ma'lumki, Amir Temur shu paytgacha o'z yurtidagi qadr-e'tibor topmadı — zamonasozlik tu-

fayli uni tuproq bilan teng qilib keldik. G'arbda esa Amir Temur munosabat tamom boshqacha bo'ldi. Buni, eng awvalo, hazrat Sohibqironning hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bag'ishlangan va o'sha uzoq yurtarda nashr etilgan kitoblardan ham bilsa bo'la Bunday kitoblar Ovrupo mamlakatlariда XVI asidan beri mutazam chiqib turibdi. Forest (1543), Perondino (1553) va Meksika (1560)ning «Buyuk Temur» degan kitoblari, Silvestr De Sasi, Sharmur Elayss-Fermor, Mignapelli, Feridunbey va yana o'nlab boshqarshunos va tarixchi olimlarining hazrat Sohibqironga atalgan asarlar shular jumlasidan. Faqat keyingi besh yil ichida Amir Temur haqida Fransiya, AQSh va Olmoniyada beshta katta kitob chop etildi. Men bu yerda fransuz olimlar Lusyen Karen, Jan Pol Ru, amerikalik sharqshunoslar Beatritsa Forbss Manz, Jon Vuds va mashhu nemis olimi Genri Ryomerlarning kitoblarini nazarda tutayotibnum Yana bir muhim fakt — Ovrupo mamlakatlariда XVI asrdayoq Amir Temur haqida sahna asari yaratildi. Ulug' ingliz dramaturgi, Shekspirning katta zamondoshi Kristofer Morloning «Buyuk Temur» asari o'sha paytdayoq Qirol teatridda sahnalashtirilgan edi. Fransiyahaykaltarooshlari esa Amir Temurning oltindan quyilgan haykalchini yaratdilar. Bizda-chi...

Mana shularni xayoldan kechirib turib, ba'zi paytlarda «Amir Temurni ovrupoliklar tan olishganiga qoyil qolaman. Marhum SSSRda buning butunlay teskarisi bo'lganligiga hammamiz g'ohvomiz. Qonxo'r Stalinning o'zi «SSSR tarixi» darsligidan «Temur davlati» degan bo'limni oldirib tashlagani ham bor gap. Bir gurungda shunday latifanamo voqeа eslandi: BMTning yig'iliishlariдан biringa borgan A. Kosigindan (u SSSR Ministerlар Sovetining Raisi ed o'sha paytda) qandaydir voqeа munosabati bilan (balki Samarcanding 2500 yilligi arafasida) «Sizlarda Temurga munosabat qanday? deb so'rab qolishibdi. Mamlakatimiz hukumatining boshlig'i Amir Temurning nomini ham eshitmagan ekan, dovdirab qolib (yxash) deb yuboribdi. Keyin Moskvaga, KPSS MKga telefon qilib (qandaydir Temur haqida) so'rashganini yetkazzi. Bu mahkama SSSRFanlar akademiyasiga Temur haqida ma'lumotlar to'plashni topsh...

ind. O'z navbatida, bu topshiriq Toshkentga beriladi. Buni iltifot deb tushungan bizning rahbarlarimiz «Biz tomonga ham iliq shahmollar esib qolibdi», degancha quvonib ishga kirisib ketadilar. O'lyozmalar jamlanadi, manbalar o'rganila boshlanadi. Hatto akademik Ibrohim Mo'minov «Amir Temur va uning O'ria Osivo «olqlari tarixidagi o'mi» degan risolasini e'lon qiladi. Oqibati esa im'u'm. «Nodoming aqli tushdan keyin kiradi» degandek, gap nimadilgini sezib qolgan «markaz» hamma narsani taqilaydi, olimlarimizning boshiga ko'plab sho'rishlar tushadi. Mana shu dalilning o'lyoq ko'p narsani anglab olishga yordam beradi. Mustamlakachi-hor bizning ulug' bobokalomimizni tanib, g'ururimiz tuyg'onib qolishidan o'lgudek qo'rqnalar. Bizni mudom boshimizni egib, qu'lueha mehnat qilishga majburlash choralarini izlaganlar.

— Xo'sh, endi munosabat o'zgardimi, bu borada qilinayotgan qonday xayrli ishlarni ta'kidlab o'tishni istardingiz?

— Yana uch yildan keyin, 1996-yilda Amir Temur tavallud topshuni (1336-yil 9-aprelda) 660 yil to'jadi. (Sohibqironning tavallud shulari ba'zi maqolalarda 8-aprel, hatto 7-aprel deb ko'rsatilmoqdi. Bu borada olimlarimiz ertaroq bir to'xtamga kelsalar, yaxshi bo'lardi. — Red.) Bu muborak sanani butun dunyo keng nishon-hydi. Ko'p qatori bizlar ham. Bunga imonim komil. Mazkur katta boyramga tayyorlarlik boshlanganiga ancha bo'ldi. Bunga, shubhahiz, hazrat Sohibqironning hamyurtlari — qashqadaryoliklar jiddiy tayyorgarlik ko'rishayotibdilar. Hazrat Sohibqiron asli shahrisabzlik. Shu ko'hna shaharga qarashli Xoja Ilg'or qishlog'ida (bu qishloq hozir Yakkabog' tumani hududida) tavallud topganlar. Ishonchli mumbalarda, hazrat Sohibqironga uzoq-yaqin zamondosh bo'lgan Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh va Fasih Ahmad Xavofylarning kitoblarida, shuningdek, Kastiliya elchisi Rui Gonsales Klavixoning informomasida shunday deb ko'rsatilgan.

Albatta, munosabat haqida biror gap aytilishdan oldin O'zbekistonda mustaqillikning e'lon qilinganiga juda oz vaqt o'tganmini nuzarda tutish kerak. Ikki yil ko'hna tarix uchun bir soniyadek furg'at. Ammo uzoqni ko'zlab xayrli ishlar qilinyapti. Prezidentimiz

Islam Karimovning Vazirlar Mahkamasi Raisi sifatida Bahoudil Naqshband tavalludining 675 yilligini nishonlash haqidagi qarorini chekkanlari kishida umid uyg'otadi.

Ma'lumki, e'tiqod yurakdan bo'lsa, uni har qanday ta'qib-u to' yiq yo'qota olmaydi. O'sha totalitar tuzum sharoitida ham bazu Sonibqironning chinakam muxlislari mehrlarini darig' tutganlari cho 'chib, qarab o'tirganlari yo'q. Fikrlarimizning isboti — qisqa davr ichida Amir Temur haqida ko'plab kitoblar nashr etildi, asarlari yozildi. Bu 1—2 yilning mahsuli emas, uzoq tayyorgartlik samarasini murakkab, hali biron tilga tarjima qilinmagan Ibn Arabshohning «Ajoib ul-maqdur fi axbori Taymur» degan kitobini o'zbekchulashdirib, izohlar bilan nashr etti. «Turkiston» gazetasi qoshida tashkil etilgan «Amir Temur o'tgan yo'llar bo'ylab» ilmiy ekspeditsiya faoliyat boshtaganda Moskva qilichini qayrab turardi. Bu fidoyda bo'lib, juda ulug' ishlarni amalgalashdi. Poyon Ravshanovning sa'y-harakati bilan 1990-yilda mulla Salohiddin qori Toshkandiynning naql-rivoyatlar asosida yozgan va 1894-yili toshbosma usulida chop etilgan «Temurnoma» asari xalqimiz multiga aylandi. O'tgan yillar hazrat Sohibqironning tavallud kunlari ilk marta ommaviy ravishdi nishonlandi. «Amir Temur» ma'rifiy jamiyatni tuzildi. Qashqadaryo viloyat teatri To'ra Mirzo pyesasi asosida spektakl tayyorladi. Yaponi bilan kitob qilib chiqarildi. Matbuotda, radio-televideoneda ko'plab maqolalar, chiqishlar e'lon qilindi. Albatta, bular katta ishning boshlanishi, xolos. Oldinda ulug' rejalar bor. Biz g'ayrat kamani belga mahkam bog'lab, tayyor bo'lib turishimiz kerak, toki mustaqil mamlakatimizda bobokalonimiz yetaricha izzat-e'tibor topsin, deb eshitigan edik.

— Amir Temur haqida ko'p qismli film yaratish harakati 1988—89-yillari boshlangan. Bu mushkul, lekin xayrli yumushga taniqli kinorejissyor Ali Hamroyev bel bog'ladi va italiyalik ham-

ishlari bilan hamkorlikda ishga tushdi. Lekin har qanday filmning muvaffaqiyati, avvalambor, ssenariyning saviyasiga bog'liq. «Amir Temur» filmining ssenariysi (uni Ali Hamroyevning o'zi olmoniyalik hikorijissyor Fridrix Gorishteyn va italiyalik Anjello de Jenta bilan hukumatining qarori bilan bo'lajak filingga bosh ilmiy maslahatishlari etib tayinlandim. Biz Ali Hamroyev va film muharriri D. D. Bulatov bilan ssenariymi bir necha bor ko'rib chiqdik va unga jiddiy matishlar kirittdik. Filmni suratga olsa bo'ladigandek edi. Lekin Ali Hamroyev bilan yana uchrashholmay qoldik. U ko'proq Italiyada...

Suhbatdosh — Hakimjon Sattoriy, «Xalq so'zi», 1993-yil 10-yanvar

MILLIY TARBIYA SEARCHASHMALARINI

— Assalomu alaykum, Bo'riboy aka! Matbuot maydonida ishlasmaganimizga ham ancha bo'ldi.

— Va alaykum assalom, Abdullajon! Haqiqatan ham ancha bo'ldi. O'n besh yillar chamasi. U paytda siz ishlagan «Guliston» jurnalining domiy mualifi edi.

— Bugun men o'sha «Guliston» an'analarini o'ziga xos davom ettirayotgan «Maktabgacha tarbiya» degan jurnal nomidan keldim. I'shitgandirsiz, ehtimol, yangi jurnal.

— Eshitdin emas, ko'rdim ham. Bir necha kitobchasi qarab chiqdim. Xursand bo'ldim. Ayniqsa, jurnalning 1—2-qo'shma kitobchasi Amir Temur suratini yaxshi topibsizlar.

— Rahmat, domla. Bugun Siz bilan milliy tarbiya, umuman, qulimgi zamonalardagi bola tarbiyasi, xususan, o'zbek millatining yuushgan, yuksakka ko'tarilgan dawlaridan birida. Temur va temuriylar zamonalidagi bola tarbiyasi haqida suhatlashsak, nima deysiz?

— Juda yaxshi, Abdullajon. Gap shundaki, qadimgi o'zbek xoⁿmadoniagi bola tarbiyasi necha o'n yillar mobaynidida bizda huk^m surib kelgan bir yoqlama, ildizsiz, zarpechakka o'xshash bolshevikk^o cha tarbiyadan butunlay farq qiladi. Avvalo, umuman Sharqda, xususⁿan, bizning mintaqada bola tarbiyasi an'anaviy ildizga ega. Odadu^m dehqon va hunatmандлар oqsoqol va imonlarga, ular esa beklar va amirlarga, beklar va amirlar esa podshoh xonadoniga taqidian bol^m tarbiyasi bilan shug'ullaniganlar. Bu — tabniy jarayon, albatta. Zeto^m xalq o'z bolalarining kattaroq odam bo'lishini doimo xohlagen.

— Bizza esa bolshevik mustamlakachilari hukmonlik qilgani^m paytlarda, esingizdami, domla, yoshlarni ham shunga chaqirishardi. Men buot chiqishlarida o'zlarining sut sog'uvchi, suvchi, traktorch^m bo tishlarini aytib, boshqalarni ham shunga chaqirishardi. Men hayron qolardim: nahotki ular orasida olim, siyosatchi, diplomat^m, korxona rahbari bo'lishni istovchilar topilmasa!

— Bular hammasi muayyan maqsadga yo'nalturilgan siyosat edi^m da, o'zi. Rahbarning bolasi rahbar, kolxzochining bolasi kolxzoch^m bo'lishi kerak degan yozilmagan qoida bor edi. Bolaning iste'dod^m bilan hisoblashish — ikkinchi darajali deb qaratardi. Qadimda eng yuksak tarbiya saroyda deb tushunilgan. Misol tariqasida Amir Temur saroyidagi tarbiyani keltirish mumkin: saroydagi bolalar shahzodalar to'rt yoshdan boshlab o'qitilgan. Dastlab, xat-savod o'rnatilgan, keyin 4—8 yoshida ularga maxsus qissaxonlar binintil^m qo'yilgan. Qissaxonlar Abu Muslim, Hazrat Ali qissalari, payg'an^m barlarimiz jangnomalari, Iskandar Zulqarnayn singari xalq qissalar^m va dostonlarini hikoya qiganlar. Shunisi muhimki, tarbiyalanuvchi^m 4 yashar, qissaxon esa 10—12 yashar bo'lgan. Ular bo'sh paytlaridu^m birga o'ymab yurishgan.

Qissaxonlik faqat bolani qahramonlik, sadoqat, poklik rubida^m tarbiyalashgagina emas, balki go'dak xotirasini mustahkamlash vi^m quvvai hofzasini kengaytirish va mustahkamlash uchun ham xizmat qilgan. Masalan 1398-yili Mirzo Ulug'bek 4 yasharligida Hamza de^m gan 12 yashar bola unga qissaxon qilib tayinilanadi. U Amir Temur qissaxonining jiyani bo'lgan. Uning otasi sarbadorlardan ekan. Otasi^m

vifot etib, u tog'asi qaramog'ida qoladi. Keyinchalik Hamza katta olim bo'lib yetishadi — Shayx Ozariy nomi bilan shuhurat qozonib, ko'pdan ko'p ilmiy asarlar yaratadi. Ulug'bek oradan salkam yarim yil o'tgach, u bilan Isfaroyin shaharida (Eron) tasodifan uchrashib qoladi. Darvesh libosidagi Shayx Ozariy Ulug'bek qoshiga bora^m di. Tanirmikin deb sultonga salom beradi. Ulug'bek taniydi: «Sen bobon qissaxonining jiyani Hamza emasmusen?», deydi. O'lurishib, o'tgan bolalik yillarini eslashadi. O'sha kech Hamza — Shayx Ozariy Ulug'bek huzurida qoladi. Ulug'bek unga saroy xizmatiga kirishni taklif qilganda u: «Men ko'pdan buyon podshohlar xizmatini qilmay qo'ygammen», — deb rad javobi beradi.

— Temuriylar; umuman, Sharq hukmdorlari saroyida nabiralar ni tarbiyalash bir an'ana bo'lgan, shekilli?

— An'ana bo'lganda ham har tomonlama puxta o'ylanigan, foydali an'ana. Temur Shohrux Mirzo, Mironshoh mirzolarning o'g'ilurini, Husayn Boyqaro Badiuzzamonning o'g'li Mo'min mirzoni olib tarbiyalaganini ko'philikka ma'lum. Bunda hukmdorlar tomonidan ikki maqsad ko'zda tutilgan: birinchisi — bolaga shoqona tarbiya berish; ikkinchisi — ayrim viloyatlar hukmdorlari bo'lmish o'g'illar o'z farzandlari ota saroyida ekan, podshoh otaga nisbatan o'zboshimchalik qilmaydilar, ya'ni isyon ko'tarmaydilar va buni o'ylanmaydilar ham.

Qissaxonlar keyin, bola 8 yoshga kргanda, uni madrasaga berishgan. Bu madrasalar litseyga o'xshash bo'lgan. Ularda diniy ilmlar bilan dunyoviy ilmlar birga o'qitilgan. Qur'on, Tafsir, fiqh, qiroat o'rnatilgan. Hamma shahzodalar Qur'oni yaxshi bilganlar, yaxshi qiroat qiganlar. Dunyoviy ilmlardan riyoziyot, falakiyot, mantiq, udabiyot, tarix singari fanlar o'tilgan. Shuningdek, musiqa va musiqashunoslik, she'riy nutq va aruz ilmi bilan jiddiy shug'ullanishgan. Chunonchi, Ulug'bekning she'r yozgani ko'philikka ma'lum. Ayni paytda u besh-olti kuy ham bastalagan. Ularning ba'zilari o'ziga xos harbiy marshlar bo'lib, nog'ora va karnay vositasida ijro etilgan.

— *Qadimgi adabiyotlarda — tarixiy asarlarda ham, badiy asar larda ham ov’ — shikor juda ko’p tilga olinadi, tasvirlanadi. Bolalik dan shikorga chiqmagan, yoki unga qiziqmagan shahzodani uchra maymiz. Shu haqda ikki og’iz to xtalsangiz.*

— Ov qilish, xususan, aslzoda bolalarga maxsus o’rgatilgan Negaki, ov qo’shining jang qilish yo’llarini o’rgatuvchi mashhqdek gap bo’lgan, shahzodalarini chiniqtirgan. Ov, odatda, urushdan oldin va keyin uyushtirilgan. Chunki qo’shining oziq-ovqati uzog’i bilan bir oyga yetgan. Demak, ov ozuqa to’plash uchun ham qo’lkelgan.

— *Bundan chiqadiki, shikor shahzodalarining lashkarboshilik mahoratini oshirishda qo’shimcha ta’kim bo’lgan. Endi ayting-chil domla, ana shu lashkarboshilik mahoratini egallash, ya ni harb il mini o’rgatish qanday taskil etilgan?*

— Harb ilmini o’rgatish uchun ham maxsus ustozlar yollangan. Shahzodalar, avvalo, ot minish san’atini o’rganishgan. Keyin nayza otish san’atini egallashgan. Daraxt shoxiga halqa osib qo’yib, o’shan dan nayzani otib o’tkazishgan. Ot ustida chavgon, ya’ni otta chinchokkey o’ynaganlar. Qilichbozlik san’atiga alohida e’tibor berilgan. Shuningdek, poyga qo’yish, ko’pkari chopish singari o’ynilar ham harb ilni doirasiga kirgan. Bularning hammasini shahzodalar yetti-sakkiz yoshdan to 12 yoshgacha o’rganishi kerak bo’lgan. Ayni paytda 12 yoshida har bir shahzoda «Suluk ul-mulk» — «Podsholar uchun qo’llamma» bilan ham tanishtirilgan. Hukumat vazifalarini qayyo’sinda bajarish, amirlarni qanday tayinlash, arz eshitish, hukm chiqarish singari masalalarni o’sha kitobdan o’rganganlar. Amaliy saroy odobi ham puxta o’rgatilgan. O’zga davlat hukmdorlari va elchilar kelganda, shahzodalar salomga kirganlar. Mehmonga bolani tanishtirganlar. Elchi kirganda esa ikki a’yon uni olib kirgan. Shunda podshohning yonida o’ltirgan nevarasi elchidan maktubni olib, podshohga olib borib topshirgan. Xullas, saroyda bolalarning bo’sh vaqt bo’igan emas.

— *Xo’sh, o’n ikki yoshdan keyin-chi?*

— Shahzodalar o’n ikkiga to’lganda ularga viloyat berilgan. Obro’li amir yoxudbeklardan biri unga murabbiy, ya’ni otaliq yoki

mabek etib tayinlangan. U shahzoda o’n olti yoshta yetguncha bola nomidan viloyatni boshqargan. Otaliqlar ko’p hollarda shahzodalar ni hokimiyatdan chetlatishga, hokim bo’lib olishga harakat qilganla. Chunonchi, Shohruux mirzo o’g’li Ulug’bekni 15 yoshida Molalq-shoir Muhammad Solimning bobosi — uni ancha siqishtirib qo’yan. Shunda Ulug’bek Shohmalik otaliq ustididan otasiga arz qilishga mejbur bo’lgan.

Tabaqalar orasidagi tarbiyani zanjirga o’xhatish mumkin. Bir-biri bilan mustahkam bog’liq bo’lgan amirlar, beklar, maliklar qishloqdagagi masjidlar soni ba’zan to’rttagacha yetgan. Qishloq bolalarini ota-onalari kelajakda masjidga imom yoki savodi yo’q odumlargaga attiza yozib beruvchi mirza bo’lar degan maqсадda o’qitganlar. Qishloq maktablarida bolalar xat-savod chiqarganlar, mantiq, hisob darslari o’tilgan, Hofiz, Bedil, Navoiy o’qitilgan.

Oddiy xalq orasida ota kasb masalasi birinchi o’rinda turgan. Kulolchilik, beshikkilik, misgarlik singari kasblar bolalarga bobo-luri-yu bobokalonlardan meros bo’lib o’tib kelgan. Qishloqdagagi har guzarning o’z temirchisi, kuloli, bo’zchisi, mahsido’zi, etikdo’zi, kulla, kosiblari bo’lgan. Bozorlarda rastalar — sahofflik do’kon, xattotlar do’kon, istagan asaringizni ko’chirib beradigan do’konchilar, sahofflik va kitob rastalari bo’lgan. Qishloqlarda Buxoro, Samarrak qabli shaharlarning binokorlariga bo’yoqlar tayyorlab ham berganlar. Demak, qishloqda sanoat bilan shug’ullanishtigan. Siyobda qog’oz juvozi bo’lgan. Charxpalak, aravasozlik singari hunarlar obro’li kasblardan hisoblangan. Bolalar otalariga yordam beriganlar, vonlarni o’rgatish bilan shug’ullanganlar. Hozir biz bolalarimizni qynab qo’yamiz, deb qo’rqamiz. Vaholanki, bolalarimiz ham jismo-

nan, ham ruhan sog'lom bo'lishlari uchun avvalo mehnatda pishishlari lozim.

Qizlar, asosan, bo'lajak xonodon bekasi, arning yordanchisi shafatida tarbiyalanganlar. Ularga erkaklarga baxt bag'ishlovchi zot deb qaralgan. Qo'llari nozik, kiyimlari go'zal, bolalari sog'lom bo'ishi kerak deb hisoblangan. Malikalar biror musiqa asbobni chalishni bilishi, she'r ilmi va nafis san'atning ba'zi turilarini egallashlari shart edi. Zebunisobegin, Gulbadanbegim, Nodirabegin bunga misol Ba'zi aslzoda ayollar, xususan, shohoyimlar saroy ishlariiga aralashganlar. Bibixonim hatto qabul paytida Amir Temurning yonidu o'tirgan. Xullah, qizlar tarbiyasi ham o'g'il bolalarning tarbiyasi o'xshab tabaqalarning bir-biriga taqildi asosida taskhil etilgan.

— Bo'riboy aka, ajoyib suhbatningiz uchun jurnalkonlarimiz no-

midan Sizga katta rahmat. Xudo sizga mustahkam sog'hq va quvvat bersin.

— Sizga ham rahmat, Abdullajon. Jurnalningiz yana ham boobro' bo'laversin.

Suhbatdosh — Abdulla Shej, «Maktabgacha tarbiya», 1993-yil 9—10-sontar

NOMI ABADIY O'CHMAS SHAXS

— Bo'riboy aka, yaqinda matbuotda O'zbekiston Respublikasi Kazirlar Mahkamasining «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida» degen qarori chiqdi. 1996-yilda hazrat Sohibqironning 660 yillik to'ylari xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Xo'sh, yubiley oldidan biz — ihm, ijod ahlining asosiy vazifasini madam iborat bo'ldi?

— Prezidentiniz Islom Karimov imzo chekkan qaror olamshumul ahamiyatga egadir. Xususan, hukumat qarorida Sohibqiron Amir Temurni «Jahon tarixidagi buyuk siymlardan biri, Markaziy Osiyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotiga ul-

kan hissa qo'shgan ulug' davlat arbobi va sarkarda, fan va madaniyat homiyisi», deb alohida ko'rsatib o'tilgani menda faxr tuyg'usini yug'oldi. Haqiqatan ham shunday-da, o'zi. Bunday siymolar tarix sahnasida juda kam. Modomiki, shunday ekan, buyuk bobokanominiqning qutlug' to'yiga munosib tayyorgarlik ko'rish va o'sha ulug' kunlarga munosib tubfalar bilan borish lozim, albatta. Yubiley komissiyasi a'zosi va bir tarixchi olim sifatida tayyorgarlik ishlariida oldimizda ulkan, sharafli vazifalar turganmini hozirdan his qilyapman.

Alosiy masala — Amir Temurning Vatani, xalqi va tarix oldidagi qilgan xizmatlarini xoh adabiyotda, xoh san'atda, xoh ilmda bo'lsin, to'laqonli yaratib berishdir. Bu amcha qiyin masala, albatta. Negativ, matbuotda chiqqan materiallarda fikrlar, talqinlar, munosabatlar urilicha. Ulardan haqiqiyisini topish va e'lon qilish uchun arab va fors tilida bitilgan qo'lyozmalarni bir sidra varaqlab chiqish lozim. — Fikringizga qo'shilaman. Bu borada Sizga o'xshagan Sharq qo'lyozmalari bilimdoni bo'lgan olim-u adiblarda imkoniyat katta. Huning ustiga deng, marksizm-leninizm mafturasi hukmonlik qilib yon sho'rolar zamonida yo'l qo'yilgap barcha xatolarni birgina tadbit bilan tuzatishning o'zi bo'lmaydi. Yozuvchi, birinchi navbatda, Temuriyilar davrini ham chuqur tadqiq etishi darkor. Bir suhbatimizda: «Sinfiy jamiyat sharoitida har qanday shaxs mayjud hukmonning maqsad va manfaatlariiga xizmat qiladi, degen fikri aytgan edingiz.

— Baxtiyor, bu haqiqatni yaxshi esimga soldingiz. Ne ajabki, biz ko'pincha ana shu achchiq haqiqatni unutamiz, to'g'risi, bunday fakt bilan hisoblashingizni keltmaydi. Tarixga binyoqlama yondashish, umi xoxtalashirish hollari mana shular oqibatida yuz bermaydimi?!

— Afsuski, shunday bo'ldi. Masdalaning xuddi shu jihatiga e'tibor hemasdan yirik davlat arbobi, mo'hir sarkarda, ihm-fan va madaniyat homiyisi bo'lmish Amir Temurning sha'niga ko'p bo'lmag'ur suplarni aytil keldik...

— Men Amir Temurning ba'zi ishlarini, xususan, bosqinchilik yurishlarini to'la oqolmayman. Ayniqsa, Hindiston ustiga qilgan hurbiy yurishi (1398—1399-yil apreli) garchi islonni himoya qil-

lish bayrog'i ostida o'tkazilgan bo'lsa-da, uni biron vaj yo sabah bilan oqlab bo'lmaydi. Lekin bir narsani unutmaylik: aslini olganda, Amir Temur ham hukmron feodal sinfiga namoyandas, o'sha sinfiga saylab, taxtga o'tqizib qo'ygan oliv hukmdor edi! Shuning uchun ham u o'z sinfiga xizmat qilishi, uning maqsad va manfaatlarini qo'llidan kelgamicha himoya etishi lozim edi. Aks holda, o'sha sinfiga bunday hukmronni tarix sahifasidan uloqtirib tashlardi. Bunday hodisalar tarixda juda ko'p bo'lган. Misol uchun, mashhur Rim imperatori Gay Yuliy Sezarni (mil. av. 100—44-yillard) olib ko'raylik. Rim aslzodalari va bir guruh eskilik taraflorlariga oxir-oqibat uning faoliyati yoqmay qoldi. Natijada unga qarshi fitna uyushtirib, uni o'idirdilar. Yana bir misol. Sosoniyalar podshosi Xormuzd IV (579—590) bechora dehqonlarning ijtimoiy ahvolini yaxshilashga qo'urib, badavlat kishilarning mol-mulkini musodara qildi... Oxiri, badavlat asizodalar ruhoniyilar bilan qo'shilib, unga qarshi fitna uyushtirdilar va podshohni taxtdan tushirib, ko'zlarini o'yib oldilar. Amir Temur ham, Yuliy Sezar ham, Xormuzd IV ham ma'lum bir hukmron sinfiga yetuk bir namoyandas edi. Demakki, o'sha sinfiga xizmat qilish va manfaatlarini himoya etishi kerak edi. Shuning uchun Amir Temur, ma'lum darajada zulmga erk berdi, boshqa mamlakatlar vilaxalqlar ustiga bosqinchilik yurishlarini uyuştirdi. Chunki feodal sinfigning asl maqsadi shu: faqat boylik! Boylik ortitirishning muhim manbalaridan biri esa urush — bosqinchilik va talonchilik urushi.

— Hali Siz Hindistona qilingan harbiy yurishni oqlab bo'lmaydi dedingiz. Ammo hazrat Sohibqirooning ayrim urushlari oqibatida feodal tarqoqlik va o'zaro ur-yigitalarga barham berilgani ko'pchilik ka sir bo'lmasa kerak.

— Ha, Amir Temurning Yaqin Sharq va Ovrupo davlatlari oldidagi ana shu xizmatini aslo unutmashlik kerak. Iroq-i Shom, Eron-u Ozarbayjon hududlarida Chingizzonning nabirasi Halokuxon asos solgan davlat inqirozga yuz tutganid'n (1335) keyin Xurosodun Sarbadorlar davlati (1337—1381, markazi Sabzavor shahri), Iroq-Kurdiston va Janubiy Ozarbayjonda Jaloiriyalar davlati (1336—1432), Janubiy Eronda Muzaaffariylar davlati (1314—1393), Iroq-

qum va Ozarbayjonning bir qismida Cho'poniyalar davlati (1336—1356), Diyorbakr, Sharqiy Anatoliya va Janubiy Ozarbayjonning bir qismida Oq Qo'yunli davlati (1378—1508), Iroq arab bilan G'arbiy Ozarbayjonda Qora Qo'yunli davlati (1380—1468) hammasi bu birini yeb yotgandi. Buyuk Amir Temur Uch yillik, Besh yillik va Yetti yillik urushlar natijasida bu boshboshoqlik va feodal tarqoqlikka niroyat barham berib, ularni bir davlatga birlashtirdi!

— *Bundan tashqari, bir tarqidan Boyazid I Yildirim ko'plab davlatlanga xayf solib turgandi. Shunday emasmi?*

— Ha, Boyazid I Yildirim (1389—1402) o'z davrida nafaqat Kichik Osyo va Bolqon yarim orolida, balki Markaziy Ovrupoda hum katta harbiy-siyosiy kuchga aylanib qolgan edi. 1389-yil Serhiyamning Kosovoye pole degan yerida va 1396-yili Boyazid Yildirim Dunay bo'yidagi Nikopol shahri yonida Fransiya, Vengriya, Germaniya va Valaxiyaming qariyb 70 ming kishilik tish-tirmog'iga ucha qurollangan Birlashgan harbiy kuchini tor-mor keltirib, butun Itolqon yarim orolida o'z hukmronligini o'matdi. Boyazid Yildirim qozongan bu g'alabalar butun Ovruponi tahlikaga soldi. Shunda Vizantiya imperatori Manuel Paleolog, Venetsiya doji va Fransiya qiroli Karl VI ning Kichik Osyo va Sultoniyadagi elchilari Amir Temur qoshiga yordam so'rab, yalinib-yolvorib keldilar. Angliya, Fransiya va Italiya kutubxonalarida Amir Temur, uning o'g'li Mirronshoh va Ovrupo davlatlari boshliqlari o'rtasida o'sha yillari olib borilgan ana shu yozishmalarning asl nusxalarini saqlamoqda. Bular o'shanda buning dunyo Amir Temurdan najoj kutganidan dalolat beradi. Albatta, Turkiyaning bu qadar kuchayib ketishi Amir Temurni ham ma'lum durajada cho'chitib turgan edi. Ustiga ustak, Boyazid Yildirim Temur davlatining ashaddiy dushmanlari bo'lgan Jaloiriyalar, Qora Qo'yunlilar va Suriya bilan Misr ushidan hukm yuritib turgan Mamluklar (1250—1517) bilan ittifoq tuzib olgan edi.

— *Amir Temurning niyati urush ochish emas, sulh tuzish, do'stlik va hamkorlik rishtalarini bog'lash edi, nazarmida.*

— To'g'ri. Afsuski, Boyazid Yildirim katta xatoga yo'l qo'ydi va uzatilgan qo'lni siltab tashladi. Buning oqibati yaxshilikk olib

kelmadi, albatta. Shu tarifa, Boyazid Yildirim 1402-yil 20-iyulda Ankuriya (Anqara) atrofida bo'lgan urusda tor-mor keltirildi.

— *Amir Temur bilan To'xtamishxon masalasi haqida ham ikki og'iz so'zlab bersangiz.*

— Bu o'zaro munosabatlar ham ayricha davom etdi. Zamoni zaylini qarangki, o'g'il tutingan To'xtamishxon ham shon-shuhun yo'lida o'zligini yo'qotib, Amir Temurdan ko'rigan yaxshiliklarini unutdi va hattio u bilan yovlashdi. 1387—1388-yillari Sohibqironning Mavarounnahrda yo'qligidan foydalanib, bu zaminga bostirilib kirdi va shahar-u qishloqlarini xonavayron qildi. Buning natijasida Temur davlatining Jo'chi ulusi bilan munosabatlari jiddiy keskinlashdi. To'xtamish o'sha yillari Rusiya, Kavkaz va Ozarbayjonga ham tahdid sola boshladi. 1382-yil u Maskovni olib, talon-toroj qildi, so'ng tamoman yoqiq yubordi. Shunda Amir Temur boshqaln qilomagan ishni qildi. 1391-yil To'xtamishxonga qarshi qo'shin tortdi va o'sha yilning 18-iyunida Samara bilan Chistopol oralig'idagi Qunduzcha degan yerda To'xtamishni tor-mor keltirdi. Ammo u bu gal ham qochib qutildi. Oradan sal o'tib, 1395-yil Terak daryosida bo'lgan urushda Amir Temur To'xtamish (Oltin O'rda)ning juda katta armiyasini chilparechin qilib tashladi. Bu zarbadan keyin Oltin O'rda o'zini o'nglab ololmadi. «Temurning To'xtamish ustididan qozongan bu g'alabasi, — deb yozgan edi. A. Y. Yakubovskiy, — nafaqt O'rta Osivo va Jamubi-sharqiy Ovrupo uchun, balki Rusiyu uchun ham nihoyatda katta ahamiyatga molik bo'ldi».

— *Bundan chiqdi, Amir Temur tarix sahnasida o'ziga xos o'rinni tuzgan ekan-da. Siz «Amur Temur» tarixiy romaningizda hazrat Sobibqironning 1381—1404-yillar orasida To'xtamish, Sultan Boyazid Qora Qo'yunlilar bilan olib borgan dahshatlari, lekin xayrli urushlari niyaxshi yoritgansiz. Bu qiyin vazifani udalash og'ir kechqandir* — Tariixa o'tgan buyuk shaxslar — Iskandar Zulkarnayn, Yuliy Sezar, Chingizzon va Amir Temurga o'xshash harbiy-siyosiy aboblar haqida biron so'z aytilish, kattami-kichikmi ilmiy yo badiy asar yozish o'ta mushkul ish. Negaki, ularning hayoti, bosib o'tgan yo'lli o'sha zamonga moslashgan va o'ta ziddiyatlidir... Shuning

nehun bu asarni yozishga uzoq tayyorgarlik ko'rdim. Nihoyat, 1994-yil bahorida uni yozib tugalladim. Men Sohibqiron Amir Temurning huyot va faoliyatiga baho berganda uning qilgan ishlarini aql taro-jiga solib tortdim, o'sha davr sharoitidan kelib chiqib baholadim va albatta. Amir Temurni o'zidan avval yashagan hukmdorlarga nisbatan qilgan ulug' ishlariga qarab hukm chiqarishga intildim. O'zim o'qigan, bilgan behisob manbalar shularga zamin va asos bo'ldi.

— *Bo'riboy aka, bunday zarur, kerakli kitobning tezroq chop tillshini hamma intizorlik bilan kutmoqda... Biz yuqorida Amir Temurning tashqi harbiy yurishlari va uning ahamiyati haqida qilashdashit. Endi Siz hazrat Sohibqiron hamda temuriylar avlodining Mavarounnahr; Turkiston xalqlari oldida qilgan tarixiy xizmatler xususida ham so'zlab bersangiz?*

— Bajonidil. Amir Temurning birinchi xizmati shundaki, u uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan feodal tarqoqlikka barham berib, markaziy feudal davlatga asos soldi va xalqni mo'g'ul istilochilarini zulmidan xatos qildi. Ikkinci xizmati shuki, u mamlakat obodonchiligi, ilm-fan va madaniyatning taraqqiyotiga beqiyos hisob qo'shdi. Amir Temur, xususan, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Yassi kabi shaharlarni butunlay qayta qurish va obod qilish ishiga jo'r'e tibor berdi. Hazrat Sohibqiron nafaqat Mavarounnahr-u Turkiyonda, balki qo'shni mamlakatlarda ham qal'alar (Afg'oniston), duharlar, qasrlar va nahrlar (Eron, Ozarbayjon, Afg'oniston) qurdi, ayrim shaharlarni (Bag'dod, Darband) ta'mirlatib berdi. Hazrat Sohibqiron boshqa podshohlarga o'xshab faqat xazinani to'latish musus, balki mamlakatning kelajagiga poydevor qo'yadigan ilm-fan va madaniyatni ham taraqqiy ettirishda shaxsan jonbozlik ko'rsatdi. Uning davrida Samarqandi Firdavsmonandda mavlono Abdulmalik, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, Xoja Muhammad Zohid Buxoriy, mavlono Ahmad, Abdulqodir Marog'iy, Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abro' kabi ko'pdan ko'p olimlar jam bo'ldilar. Temur ularning boshini siladi. Mavarounnahrda Qur'on va hadis ilmidan tashqari, turix, falsafa, musiqa, riyoziyot, falakiyot, fiqh (musulmon qonun-ehligi) ilmlari juda rivoj topdi. Bu davrda xalq amaliy san'ati: ba-

diy o'ymakorlik, zargarlik, sahhoqlik, zardo'zlik ham rivojlandi. Va, niyoyat, Amir Temurning Vatani, xalqi va tarix oldida qilgan yana bir katta xizmati borki, uni aytmay bo'lmaydi. Hazrat Sohibqiron Vatani va xalqini butun dunyo oldida yuksaklikka ko'tardi. Ulug'iadi! Ispaniya, Italiya, Angliya, Fransiya, Xitoy singari yon davlatlar Amir Temur siyosida Turkiston zaminni tanidilar va tan oldilar. Biz buni o'sha mamlakat podshohlari bilan hazrat Sohibqiron o'rasisidagi yozishmalardan va o'sha zamonalardan qolgan tarix kitoblaridan yaxshi bilamiz. Amir Temur davlatining tashqi yosati va jahonda tutgan mavqeyini bu maktublarsiz tasavvur qilin bo'lmaydi. Ularни maxsus o'rgannoq fursati yetdi deb o'ylayman — *Mana endi, Amir Temur tavalludining 660 yillik to'yi aralida yana hazrat Sohibqironning shaxsiga qiziqish kuchaydi. Hozirdan nashriyotlarimizga ko'plab qo'yozmalar kela boshladi. To bahona deganlariday.. Bu haqda Sizing fikringiz?*

Bilasizmi, so'nggi paytlarda hazrat Sohibqiron haqida kotta-kichik «ilmiy», badiiy yoki sahna asarlari yozadiganlar shuning qayam ko'payib ketdiki, biz tarixchilar o'zimiz ularga yetolmuy qolayapmiz. Axir, faqat biringa niyat bilan tarixiy mavzuda yangi asar dunyoga kelmaydi-da. Bu jiddiy, og'ir ishda «usta ko'magan shogird...» qabiiliда ish tutmasak, shoshqaloqlik qilmasak, yaxshi bo'lardi. Negaki, Amir Temur — abadiyatga dahldor shaxs!

*Suhbattosh — Baxiyor Omon
«Ko'zgu», 1995-yil 12-yanv*

SIBIRGA KETMAGAN O'ZBEK

— Bo'riboy aka, olim mehnatini shamga qiyoslashadi: yonlig' o'zgalar davrasini ravshan qiladi. Bugun Sizni katta-kichik yaxshilanydi. *Taqdiringizdan mammummisiz?*

— To'g'risi, olimning mehnatini nina bilan quduq qazishga o'xshatsa bo'ladi. Olimni ham ilm va ziyo taratgani uchun shangi

qilish mumkin. Chunki undan xudi sham atrofida aylangan payvona o'xshab, ko'plar bahrira oladi. Mening ham boshqalariga ozmi-ko'pmi yorug'im tushgandir. Shogirdlarim bir talay. Ular hodi O'zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda mehnat qilishyapti. Jivonchisi shulki, Qozog'iston va Qirg'izistonida shogirdlarim boshhib, o'z vatanlarida sharqshunoslik markazlari tuzib olishdi. Hamuk, maktab yaratibman. Shunday bo'lgach, taqdirimdan mamnomun. Har holda, hayotda samarasiz, soyasi o'zidan boshqaga uchmaydigan daraxt bo'lib o'tmabman. O'shandaylardan xudo annan!

— *Hoziridan ham yaxshiroq natijalarga erishishingiz mumkin mi? Buning sabablari nima?*

— Men ilm-fan maydoniga ancha kechikib, 36 yoshimda kirganchon. Buning sababi bor, albatta. To'rt yil urushda bo'lidi, frontdan qaytganimdan keyin o'rta maktabga kirib o'qishni qolgan yeridan hujlashga, tirikchilik deb uch-to'rt yil ishslashga to'g'ri keldi, chunlik olimizda kattasi men edim. 1953-yil O'rta Osyo davlat dorilishunining (hozir Milliy universitet) sharq fakultetini imtiyozli diplom bilan tugalladim. Lekin meni Toshkentda aspiranturaga ham, shinga ham olishmadni. Nega deysizmi? Talabalik yillari, xususan, 1950—1952-yillar fakultet partiya tashkilotining kotibi bo'lib ishlo'edim. Buni biladigan odamlar bor. O'sha mash'um 50-yillarning jahida yetuk o'zbek ziyyolilarini turli jazoga tortib quvg'in ostiga olish, qamash, surgun qilish kuchayib ketdi. Men bunga chidolmadim, ochiqdan ochiq qarshi chiqdim. Maskura idoralaridan birining tilbari dorifunumizni tekshirayotgan maxsus komissiyaga boshku, meni idorasiga chaqirtilib qoldi. Ish xonasida o'zidan boshqa yana uch-to'rt odan bor ekan. Shulardan birini menga VKP(b) Murkaziy Qo'mitasidan kelgan mas'ul xodim deb tanishtrishi. Oliqasi, subbat vaqtida, «Bu — o'zbek ziyyolilarini yo'q qilib tashishga qaratilgan harakat», — deb ochiq aytdim. Shu-shu bo'ldi, ko'chada qoldim. Oxiri qishlog'imga qaytib ketishga majbur bo'ldim; 1956-yilning yozigacha o'sha yerda muallimlik qildim. 1956-yilning kuzida bo'isa kerak, O'zbekiston ziyyolilarinin Birin-

chi qurultoyi bo'lib qoldi. O'sha yillari respublika partiya Markaziy

Qo'mitasining birinchi kotibi N. A. Muhiddinov o'z ma'ruzasi

50-yil boshlarida quvg'in va qatag'on etilgan ziyo'lilarimizni oqil
chiqdilar. Shundan keyin mena ham aspiranturaga yo'l ochildi
1969—1974-yillar, ayni doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlab turdi
paytimda meni yana e'tibordan chetlatib qo'yishdi. Ko'p qiyonalidin
Ayniqsa, ruhan... Xalqimizda «Qotninga emas, qadringa yig'lu
man» degan gap bor. Iloj qancha, boshga tushganni ko'z tortar ekun
Chidadim, sabr qildim.

Mana shunaqa gaplar bo'lmaganda ilm-fanda bundan ko'proq
xizmat qilgan, hech bo'lmaganda ikkita kitobni ortiq yozgan bo'
lardim. Shogirdlarim ham uchta-to'rttaga ortgan bo'lardi.

— *Shu o'rinda ilmiy faoliyatningiz va tarjimayi holingizingizni
siy nuqtalarini eslab o'sangiz!*

— Tarjimayi holim va ilmiy faoliyatimning ba'zi taraflari
boya aytdim. Bularga yana nimalarni qo'shish mumkin? Kolxozi
dehqon xomadoniga mansubman. Hayotda ko'p qiyinchiliklar tor
gamman: uch marta ocharchilik, to'rt yil urush, frontda orttirib kel
gan dard-kasallik azobi, keyingi ruhiy hujumlar... Lekin ilm-fan
maydoniga soqol-mo'ylabim ancha o'sib qolganda kргan bo'lsam
ham, ozmi-ko'pmi xizmat qilishga ulgurdim, hayot mashaqqatlari
dan xoli bo'lib kun kechirgan tengdoshlarimdan orqada qolmadim
chog'i. Buning bir omili bor. Hayot meni ko'p yaxshi odamlari
ro'baro' qildi. Jahon sharqshunoslik fanining tanilgan markazlari
dan hisoblanmissiz Sankt-Peterburg dorilfumunda o'qish va o'sha
men uchun muqaddas bo'lgan ilm dargohida ham nomzodlik, ham
doktorlik dissertatsiyalarini yoqlash sharafiga tuyassar bo'ldim
Taqdir meni akademiklar V. V. Struve, I. A. Orbeli, A. N. Kononov
professorlar I. P. Petrushevskiy, A. K. Arends, A. N. Boldirev, V. I.
Belyasov kabi jahon tan olgan zabardast allomalar bilan muloqotda
bo'lish, ulardan saboq olishga tuyassar etdi. 1961-yil Toshkentga
qaytib keldim va shundan beri O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abi
Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida xizmat qilib
kelayotibman.

— *Eshitishimcha, Sibirga ketib qolishingizga ham ozgina qolgan
e'lim...*

Shunga o'xhash gap bo'lgan edi. Hali tangnazar, baxil odam
ni dustidan 1969—1974-yillar bir qadar bee'tbor bo'lib qolganim
ni iyrgan edim. 1970—1972-yillar bo'lsa kerak, kuz paytida, Qo
sop'istondan ikki o'rtoq Toshkentga kelib qolishdi. Shulardan biri
bilan 1948—1953-yillar dorilfumunda birga o'qigan edi. U o'sha
muvida Qozog'iston Vazirlar Kengashida fan bo'limiga rahbarlik
qildi. Ikkinchisi respublika partiya Markaziy Qo'mitasida shun
dov'ir bo'limga boshliq ekan. Ular respublika partiya Markaziy
Qo'mitasi va hukumatining topshirrig'i bilan mutaxassislar axtarib
kelishgan ekan. Olma-ota dorilfumuni qoshida Sharq fakulteti ochib,
Qozog'iston Respublikasi uchun shartqshunos kadrlar tayyorlash ni
yutda ekanlar. Suhbat chog'i da do'stim: «Olma-otaga ko'chib bor
maysizmi?» — deb qoldi. Men Toshkentda tursam nafim ko'proq
tegishimi aytdim. U o'zini tushunmaganga soldi. Keyin qo'lyozma
kor va hujjalat, umuman, ilm uchun zarur bo'lgan material shu yer
diligini ayrganinda fikrimga qo'shilishdi. O'shanda biz qardosh
Qozog'iston uchun kadr tayyorlash bilan bog'liq ba'zi masalalarni
kelishib oldik. Xullasi kalon, men so'zimning uddasidan chiqdim.
Qozog'istoniga bir necha malakali sharqshunos olim tayyorlab ber
dim.

O'sha yillari Sibir haqida ham gap bo'ldi. 1975-yil yozda o'g'il
chan Akbarxonni olib, Sibirdag'i bir shaharga, harbiy xizmatdan
no'ng o'sha yerda oila qurib qolgan kenja ukam Xolmuhammadni
ko'rib kelgani bordim. Mo'jazzma bu shahar akademiya shaharchasini tomosha
bilan tutash ekan. Bir kuni o'sha akademiya shaharchasini tomosha
qilgani bordik. SSSR Fanlar akademiyasi Sibir bo'limining idora va
instituti ham shu yerda ekan. Akademik Okladnikovni surishitirib
o'sha idoraga kirdik. Aleksey Pavlovich O'zbekistonning qadimiy
turixini o'rganish ishiga ulkan hissa qo'shgan olim edi. Uni ziyorat
qilish kerak edi-da. Odatda, u yoz oylarida ekspeditsiyada bo'lardi.
Buni qarangki, bir-ikki kun bo'libdi, zarur ish bilan Novosibirskka
kelgan ekan. Bir soatcha u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirdik. Bir

payt gap Sibirdagi turkiyyabon xalqlariga ko'chganda men unga shu kunlarda ham bu yerda turkiy atamalar, xususan, topomin (joy nomi) va gidronim (daryo nomlari)lar uchrashini aytdim. Darhaqiqat o'sha Berdek shahri Berda (Berdi) degan daryo (Ob daryosining hozirishlari) sohilida joylashgani uchun shunday atalarkan. Bu joyni bular shaharcha ham bor ekan. Shaharning asl nomini blislis qiyin emas — «eski tim» («tim» teplasi yopiq bozor) degani-dan Aleksey Pavlovichning o'zi ham bu xususda ko'p narsalarni aytib berdi va pirovardida: «Sibirga ko'chib kelmaysizmi? Iningiz ham shu yerlik bo'lib qolibdi. Sibirda turkiyyabon xalqlar madaniyatining qoldiqlari ko'p. Shulami o'zingiz tadqiq qilib, bitta-yarimta kitob yozib berardingiz», — deb qoldi. Ikkilandim. «Ishdagagi siquvlar iskanjasida yurgandan ko'ra shu yerga kelib ishlasmaymik?» degan xayolga bordim. Va yana Novosibirskning akademiya shaharchasi go'zal, unda yashash uchun qulayliklar chakki emas ekan. Lekin o'ylab ko'rib fikrimdan qaytdim. O'zbek qozirlab qo'ygan otga o'xshaydi. Kindik qoni to'kilgan masanni muqaddas tutadi). Aleksey Pavlovichga: «Rahmat, o'ylab ko'raman», — deb qo'ya qoldim...

— Ummumani, o'mish haqida to'g'ri gapni aytish lozim. Nima dedingiz?

— To'g'ri gapni aytish zarur. Bilasizmi, ota-oni farzandini das-yorlikka yarab qolganidan boshlab unga rost so'zlashni, yolg'on gapmaslikni o'rgatadi. Bir guruh odam bir umruga shu yo'tig'ni tutib o'tadi. Boshiga qilich kelganda ham rostini so'zlaydi. Bu, fikrimcha, imomning mustahkamligiga, imon ruknlariga (Alloh taologa, Muhammad alayhissalomga, har bir muslimmon uchun muqaddas hisoblangan Qur'on va hadis kitoblariga, taqdir hamda oxiratga ishonishga) sadoqatga bog'iqliq. Imoni borda — insof, insoftida adolat bo'ladi. Bu — masalaning asosiy tarafi. Siz bu yerda qadriyatlar va ko'hna tarixni nazarda tutasigan bo'lsangiz — bu masalaning boshqa tomoni. Ma'lumki, biz yaqin-yaqinlargacha o'mishimiz, ko'p asrlik tariximiz, boy madaniyatimiz haqida bor gapni ayt-

moy keldik. To'g'risi, aytolmadik. Chunki marksizm-leninizm deb nolmish hukmron mafkura tilimizni muhrlab, og'zimizga qufl solib, qo'l-oyog'imizni kishanlab qo'ygandi. Shu mafkura chizig'idan hilmi-bilmaymi chiqqanlar quvg'in ostiga olinib, beayov qatag'on qilindi. Qisqasi, sho'rolar zamonda hamma qo'rqib-pisib qolgandi. — Tarixdan ma'lumki, kimlardir qurgan binoni boshqalar hujagan. Ayting-chi, buzz'unchi kuchlar qanday sharoitlarda dunyo-jon keladi?

— Ha, sho'rolar hukumati davrida, ayniqsa, uning dastlabki yillarda astlar davomida xalq orasida ilm-zivo tarqatib kelgan masjid u madrasalar buzib tashlandi, bitta-yarimta sog' qolGANI bo'lsa imborxon va yotoqxonalarga aylantirildi. Falon podshoh yoki xon qurdirgan deb muhtasham qasrlar va boshqa oliv binolari buzib tashlandi. Afsuslanadigan joyi shulki, bu razil ishni o'zga yurtlardan keilib qolgan odamlar emas, ular yonidagi munofiqlar qilishdi. «Qizil umaki»ga yoqayin deb qilishdi. Chunki «Hoy musulmon, to'xtal!» deb qo'llimizdan tutadigan odam topilmadi o'shanda. Topilmasdi hun. Madrasa yoki masjidni buzayotganlarida, yo bo'limasa salla o'rangan bironsta odamning qo'lini orqasiga qilib, avaxtaga haydab ketayotganlarida boshqalar o'zini ko'rmaganga solib, teskari bo'lib tordilar. Buni nima deb atash mumkin? Qo'rquvni yoki loqaydikni? Loqaydlik bo'lsa kerak. Loqaydlik, gapning sirasini aytadigan bo'lsak, yovuzlikdan ham yomon. Bir donishmand (Bruno Yasenskiy bo'lsa kerak) aytgan ekan: «Kechagi do'sidan cho'chimayman, nari borsa sotadi; dushmanimidan qo'rqmayman, nari borsa o'ldiradi, lekin loqaydlardan qo'rqaman, chunki loqaydlik oqibatida dunyoda ko'p nohaqliklar sodir bo'ladi». Sho'ro tartiblari odamlarni loqaydilib qo'ygandi.

— Ming yil umr ko'igan Rim imperiyasi va 74 yoshini nishonlay olmagan Sovet imperiyasining qismati o'kashashligi qonuniyimi?

— Avval Qadimgi Rim imperiyasi masalasiga oydinlik kiritaylik. U ham yirik mustamlakachi davlat bo'lgan va asosan miloddan avvalgi III asrda shakllangan. Avval Appenin yarim orolimi to'lig'icha egalladi, so'ng Ovro'poning Janubi-sharqiy qismini, Kichik Osiyo,

Afrika, Suriya va Falastinni bo'ysundirdi. Xaritaga bir qarang Qadimgi Rim imperiyasi qanday ulkan davlat, ko'p mamlakatlar xalqlarni o'ziga bo'ysundirgan davlat! Lekin tarixda bunaqa davlatlar ko'p o'tgan. Misol qidirib uzoqqa bormaylik. Sobiq Rusiyalolib ko'raylik. U ham qadimgi Rim davlatiga o'xshagan mustanlakachi davlat bo'lgan. Ularning taraqqiyot jarayoni va taqdiri hədeyarli bir xil. Rusiya ham dastlab Maskov atrofida shakllandi, ya uning yirik davlat bo'lib shakllanishi tarqoq Rus knyazlariini Maskov tevaragiga birlashuvidan boshlandi. Bu Ivan Kalita (1325—1340) davrida edi. Ivan III (1462—1505), Vasilii III (1505—1530) davrida Novgorod, Tver, Pekov, Smolensk va Ryazan yerlari yagona Rus davlatiga birlashtirildi. Ivan IV Grozniy (1533—1584) vaqtida esa Rusiya boshqa mamlakat va xalqlarni asoratga sola boshlad XVI asrning o'rtaida Rusiya Qozon (1552) va Astraxan xonligini rini, asr oxiriga kelib Shayboniylarning Siber xonligini bosib oldi XVII asrda Vogaboyi, Ural hamda Sharqiy Siber egallandi. Pyotr (1672—1725) va uning vorislari Azov atrofidagi yerlarni, Boltiq bo'yiyerlarning bir qismini, Qirim, Janubiy Bug va Dnestr daryolularidagi yurtlarni bosib oldilar. Va, niyoyat, XIX asrda Rusiyakavkaz, Qozog'iston va O'rta Osiyoni o'ziga bo'ysundirib, ulkan bir mamlakat, mustamlakachi imperiyaga aylandi.

Rusiya ham xuddi Rimga o'xshab avval mustabid podshohlik tuzumi, so'ng bir kishining cheklannagan hokimiyati o'mratigau diktatura davrini — sho'rolar hukumati davrini boshdan kechirdi. Qarang-a, har ikkala imperiyaning ham qulash sababları o'xshash Bu — birinchidan, asoratga tushib qolgan xalqlar bilan mustamlakachilar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning tobra ortib borishi ikkinchidan, soliq, jarima hamda ekspluatatsiya zulmi, imperiyatayin ergan hokimlarning o'zboshimchalligi, uchinichidan, xalqlarni asoratda tutish quroli bo'lgan armiya va boshqa jazo muassasalarining ko'paytirilishi, ularga berilgan ortiqcha huquq va imtiyozlar; to'rninchidan: zulm beboshliliklarga qarshi xalq noroziligi vi qo'zg'ololnarning kuchayib ketishi va, niyoyat, beshinchidan, davlat va hokimiyat tepasida turgan turli darajadagi hukmronlarning bun-

dan buyon mamlakat va davlatni boshqarishga qodir bo'lmay qolishi. Sho'rolar imperiyasi 70 yil dunyonı tahlika ostida tutti. Uning qulashi masalasiga kelsak, fikrimcha u; 1) asoratga tushib qolgan qulqlarga qattiqroq zulm o'tkazzi, uni tarixi, madaniyati va hatto un tilidan judo qilishgacha bordi; 2) butun dunyoga hokim bo'llish alyosatimi tutib, shu yo'lda bor-yo'g'ini sovurdi, lekin bunga qurbi yetmadi.

— Tarixning siyosatga munosabati haqida nima deya olasiz?

— Tarixning o'zi aslida siyosat bilan bog'liq fan. Hozir ham, o'tmishtda ham shunday bo'ldi. U hukmron sinif va hokimiyat tephish turgan tuzumming maqsad va manfaatlariha xizmat qilib kelgan. Un shunday bo'lgandan keyin tarixchi ham ma'lum darajada siyosatidan boxabar bo'lishi va uni bilishi start. Busiz davrlar o'zgarishini, jamiyatda sodir bo'lib turadigan hodisalarining mohiyatini angelmaydi. Bu — masalaning bir tomoni. Uning ikkinchi tarafı ham bor. Gap o'sha hodisa va voqealarini to'g'ri anglash, ularga to'g'ri yondashish va ob'ektiv baholashda. Tarixchi biron hodisa yoki voden xususida hukm chiqarishdan awval uni o'zi anglab yetishi lozim. Iushummay, bilmay turib hukm chiqarish ayb hisoblanadi.

— *Ilma olimning ideali bo'ladimi? Xususan, siz kimni «yulduz» deb tanlagandingiz?*

— Boshqa kasb-hunarda bo'lganidek, ilm-fanda ham ideal bo'ladi. Biroq hunar orturishga qasd qilgan har bir odam kimmidir o'ziga ustoz deb tanlaydi, uning ketidan ergashadi. Bu to'g'ri, albatru. Lekin ergashuvchilarning shundaylari ham bo'ladiki, u o'ziga bir emas, balki bir necha murshidi pir tutadi. Masalan, Amir Temurni olib ko'raylik. U bir emas, uch piring: ko'proq Amir Kulol nomi bilan shuhurat topgan sayyid Shamsiddin Faxuriy (1371-yil vafot etgan), xurosonlik Zayniddin Abubakr Tayabodiy (vafot 1389-yil) hamda andxudlik sayyid Barakalarning (1404-yil vafot etgan) etagidan tutgan. Fikrimcha, hazrat Sohibqironning yo'rig'i to'g'ri, chunki dunyoda o'mak olsa, ergashsa arziyidigan odamlar ko'p. Har birining uning faqat bir o'ziga xos bo'lgan yaxshi xulq va xoriq odati bo'jadi. Odam qancha ko'p kishidan o'rgansa, piri-murshidi qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi.

Birinchisi. Hujjalarga qaraganda, bu ish buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini o'tkazish va Samarqand tarixini chuoqur o'rganish uchun qilingan emish. O'zidan savol tug'iladi — Amir Temur avlodni suyaklarining yubiley vi shahar tarixini o'rganishga qanaqa aloqasi bo'lishi mumkin? Xunis surdorlari, Misr fir'avnlari va Kitoy imperatorlarining xilxonalarini o'g'ridan cho'chib yer ostiga juda mustahkam qilib qurilgani, shunchay bo'lsa ham ularning ba'zilari o'g'riming egri qo'llidan qutulib qololmaganligi tarixdan ma'lum. Fir'avnlar va qadimiy Misr podshohlarining qabrida boylik bo'lgan, lekin muslimmonlar orasida murdan boylik bilan qo'shib ko'mish odati yo'q-kul! Har holda, Temur xilkonasi ham bekorga ochilmaganadir. Avlodlar bir kummas-bir kumbuning asl sababini bilib olishar.

Ikkinci. O'sha 1941-yilning 24-iyun kuni hukumat komissiya-sining respublika Vazirlar Kengashining vakili N. A. Ovsyannikov, Samarqand NKVDsi vakili A. K. Klitskiy va boshqalar ishtirokida uzilgan dalolatnomada Temur va avlodining suyaklari, qabrdan topilgan boshqa marsalar atroficha tekshirish uchun olib qoliganing qabrlarini vaqtincha joy-joyiga qo'yilganligi, so'ngra xilxonaning deraza va eshkllari maxsus ishlangan temir panjaralar bilan to'sib,

3 qulq Xalq maorifi komissarligining muhri bilan muhrlanib, mulning o'zi saqlash uchun hukumat komissiyasining kotibi Hodi Zafarovga topshirilgani qayd etilgan. Boshqa ma'lumotlarga qaranganda suyaklar Toshkentga olib kelib tekshirilgan, so'ng qayta joy-joyus qo'yilgan. Yana bir gap: antropolog-haykaltarosh M. M. Gerasimov marhumlarning bosh chanoqlarini o'rganish asosida Amir Temur Shohrux, Mironshoh va Ulug'bekning skulptura suratini yaratgan. Bu bir-ikki oy ichida qilinadigan ish emas, albatta. Buning uchun ko'p vaqt, maxsus laboratoriya kerak. Albatta M. M. Gerasimov bu katta va mushkul ishni Samarqand yoki Toshkentda bajarmaganligi Qolaversa, uning o'zi moskvalik, laboratoriysi ham o'sha shahardagi. Shuning uchun ham Amir Temur, Mironshoh, Shohrux, Muhammad Sulton va Mirzo Ulug'bekning ustixonlari to'la-to'kis o'miga qaytarib qo'yilgаними — hozircha buni aytish qiyin. Men faqat bir narsaga hayronman. 1947-yili Moskvadning 800 yilligi 1953-yil Leningradning 250 yilligi bayram qilindi. Lekin hech kim na Ivan Grozniy yoki Petr I ning qabrimi yo'q. Rus podshohlari hamon Kremlning ichida, Petr I Petrovavlovsk qal'asida yotibdi. Ularning qabridan gulchambarlar hali ham arimaxdi. Uchinchi. Qirg'in-barot urushlar, zilzila va suv toshqinlari va, ni hoyat, shu 70 yil ichida ko'rigan-kechirganlarimiz: har turli «madaniyinqilob»lar, quvg'inlar, ta'qiqlar va qatag'onlar xalqimizni ko'moddiy va ma'naviy qadriyatlaridan judo qildi. Shunga qaramay ota-bobolarimiz yaratib qoldirgan ulkan ma'naviy boylikning bi qismi saqlanib qolgan. Ularni ko'z qorachig'iday asrashimiz, o'ng nishimiz va kelajak avlodga bekam-ko'st uzatishimiz lozim. Bu respublikada istiqomat qilib turgan barcha kishining, birinchi galda rulbarlarimiz, olimlar va ziyo'larning muqaddas burchi bo'lishi kerak. Muzeylarda va kutubxonalarida saqlanayotgan kitoblar, hujatlar va boshqa yodgorliklarni asrash, imkon bo'lganda ko'paytirish yoshlarimizning ham vazifasi bo'lishi kerak. Chunki bular kechagi tariximizdir. Bularsiz tariximizi bilmaymiz. Lekin ming afsuski, ulani saqlash va o'rganish mutlaqo yomon ahvolda. O'sha kutubxona muzeylarni tom ma'nosi bilan muzeysiz va kutubxona deb bo'lmaydi.

Itoblar, xujatlar va eksponatlar har yet-har yerda sochilib yotibdi, ularni esa o'g'irlab ketishgan. O'sha Go'ri Amirdan olingen narbiy ham hozir har yerda. Masalan, Amir Temurning tobuti Samarcanda, hopqog'i Toshkentda yotibdi. Qabrlardan topilgan marsalar bo'lsa Toshkentda, Adabiyot muzeyida. Ularni saqlash esa multaqa shubga javob bermaydi. Darvoqe, qabrlarni ochish jarayoni fotosu shubga ettiligan, suyaklarni o'ziga xos g'urur va surur bilan ko'tarib, injyib turgan odamlarning kimligini, narsalarning kimga tegishligini bilib bo'lmaydi. Suratlar tarixi ham qayd etilmagan. Shunausda yana bir gapni aytish esimdan chiqayozibdi. Go'ri Amirida 1941-yilning 16—20-iyunida olib borilgan qazuv-qidiruv jaroni aks ettiligan 20—25 minutlik kinoplyonka ham shu adabiyot muzeyida saqlanyapti. Muzeylarda joy bo'lmagan sababli ko'p novob eksponatlar zax yerto'lalarda yotibdi.

Qani endi muzeylarimiz ham, kutubxonalarimiz ham shinam, munonaviy texnika usullari bilan jihozlangan binolarda joylashtirilishi. Biz hamon faqat shu orzu-umid bilan yashayotibmiz. Aqvol shu niqqa davom etaveradigan bo'lsa, ijtimoiy-iqtisodiy jabbada bo'lganidek, madaniy hayotda ham qayta qurish bo'lishidan bo'lmasligi miqroqqa o'xshaydi. Bunaqa ko'hna va boy tariximizdan ajralib qolishimiz mungkin.

«Yosh leninchi», 1990-yil 11-dekabr

HAMMA NARSAGA EGAMIZ, AMMO... (Talabalar bilan suhat)

— Amir Temurning harbiy taktikasi xorijiy mamlakatlarning harbiy akademiyalarida dars sifatida o'qitiladi?

— Amir Temur tajribali va tadbirkor davlat arbobi bo'libgina qolmay, balki yirik sarkarda, urushning takтика va strategiyasini yaxshi bilgan odam bo'lgan. Amir Temur biror marta ham kuragi yerga

tegmagan sarkarda sanaladi. Shuning uchun harbiy san'ati inqilobga qadar Rusiya va Fransiya harbiy akademiyalarida maxsus o'qitilgan Uning harbiy san'ati haqida maxsus kitoblar bitilgan. Shunday kitoblardan bittasi mening kutubxonamda ham bor. Kitobni Rusiya armayasi Bosh shtabining mas'ul xodimi, general-leytenant M. I. Ivanov yozgan. Kitob «О военном искусстве в званиях монголо-татар» и среднеазиатских народов при Чингиз-хане и Темур-лане» dehal ataladi. U 1875-yili Sankt-Peterburgda chop qilingan.

— Keyingi yillarda «Boburnoma», «Shayboniyomma» va «Temur nomma» kabi o'rta asrlarda yozilgan kitoblar chop etildi. Ayishlari cha, Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» degan asari ham boyekan. Shu asar ham chop etiladimi?

— O'tminsh tariximizga oid va chop qilinishi zarur bo'lgan qo'ul yozma asarlar kop. Biz hali ularning mingdan birini ham o'rgani ulgurganimiz yo'q. Amir Temur va uning O'rta Osiyo bilan Hindistonni 488 yil (1370—1858) idora qilgan avlodni tarixiga bag'ishlan gan kitoblar esa son-sanoqsiz. Sohibqitoron Amir Temurga bag'ishlangan kitoblarining o'zi ham anchagina. G'iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarcandi, Muhammed Xondamir singari zabardast muarrixar yozib qoldingan kultakatta kitoblar bor. Ularning mazmunini juda kam mutaxassis badi. Afsuski, bu kitoblar hanuzgacha tarjima qilinmadı, vaholani. Amir Temur va uning ajoyib farzandlarining kimligini, ularning haqiqiy qiyofasini, qilgan katta-kichik ishlarini, ular hukmronlik qilgan davda mamlakat va xalqning umumiy ahvoli qanday kechganini yaxshi bilmaymiz. Shu paytgacha faga Abdurazzoq Samurdati yulduzning chiqish o'rni va ikki azim daryoning quyilish joyi) degan kitobining bir qismi o'zbek tilida, G'iyosiddin Alining «Amir Temurning Hindistonga qilgan urushi kundaligi» kitobi rus tilida chop etildi, xolos. Mana, endi Poyon Ravshanovning sa'y-harakati bilan o'tgan yili toshkentlik Salohiddin qori nomi bilan bog'liq «Temurnoma» degan asar nashrdan chiqdi. Lekin Amir Temur tar-

bo'yicha eng ishonarli va qimmatli manba hisoblanmish Nizomiddin Shomiy bilan Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» nomli shoh asarlarini hali ko'philik o'qimagan. Shu yerda bir gapni aymoqchiman. Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»si 60-yillar davroq fors va arab tillarining bilindoni, yaxshi manbashunos olim yunusjon domla Hakimjonov tarafidan forschadan o'zbek tiliga tarjima qilangan edi. Lekin u ham o'sha dog'uli yillarda yorug' shunoslik oliygohiba bu asarni nashr qilish ustida ish olib borilyapti. (Biqilib tayyor oshga sherik ko'paymasa bo'lgani.) Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sin esa biron mutaxassis o'zbekchaga tarjima qilayotgani haqida ma'lumotga ega emasmiz. Bu ajoyib asar bir vuqlar marthuma Y. A. Polyakova tarafidan rus tiliga tarjima qilin edi, lekin afsuski, tarjima qo'lyozmasiyo'qol ganga o'xshaydi.

— Oliy bilimgohlarning tarix bo'limlarida arab yoki fors tili o'qitilishiqa qanday qaraysiz?

— O'zingiz o'ylab ko'ring, VIII asidan to XX asrning birinchi horagigacha bo'lgan, ya'ni qariyb 1200 yillik tariximizning manbalari, asosan, arab va fors tillarida yozilgan. Shu asarlar ichidagi fakt va ma'lumotlarsiz qanday qilib tariximizni o'rganishimiz mumkin? Bundan tashqari, o'zbek tili tarkibidagi so'zlarining ma'lumotini arab, fors va baynalminal so'zlar tashkil etadi, chunki astlar davomida biz o'zbeklar arablar, forsler va boshqa juda ko'p xalqlar bilan iqtisodiyyat, siyosiy va madaniy aloqada bo'lib kelgannamiz. Qisqali, har ikkala tilni — arab tilini ham, fors tilini ham tarix va filologiya fakultetlarida (va hatto matematika fakultetida ham) o'qitishni qo'riyan joriy qiliшимiz lozim deb hisoblayman.

Shu o'rinda men yosh yigit-qizlarimiza yana bir gapni ayтиб qo'ymoqchiman. Sizlar fors va arab tillaridan tashqari, bitta xorijiy ilni — inglizmi, fransuzmi, nemismi yoki ispan tilinimi yaxshilab bilib olishingiz zarur. Bundan tashqari, texnik ma'lumotingizni ham oshirishingiz zarur. Biron texnikaviy kasb-hunarni egallab olishingiz lozim. Busiz kelajakda qynalib qolasiz. Jumhuriyatimizing gapda

emas, amalda to'la mustaqilikkä erishishi ko'p jihatdan sizlam
keng ihmli, yuksak madaniyatli bo'lib yetishishingizoa ham bo'sha

— Manzilgoh, xo'jalik va ko'chalarimizning nomlari ko'pinhusruscha. Bu tarixiga xilof emasni?

— Savolningizda jon bor. Biz ko'pincha inqilobchilar, sho'rodiyatlari va Kommunistik finca rahbarlarining nomini — u odam o'shasini.

yerdə boʻlganmi-yoʼqmi, oʼsha yerni obod qilishga xizmati shingammi-yoʼqmi — bundan qatʼi nazar, shahar, qishloq, tuman, jumoxoʼjaliklari va maktablarni ularning nomi bilan atab kelganimiz. Xilmati singganlar esa koʼpincha chetda qolib ketishgan. Masalan, V

Bartold, V. L. Vyatkin, A. A. Semyonov, V. P. Nalivkinga o'xshash
juda ko'p rus fan arboblari Turkistonda yashaganlar; ular tarixini
o'rganishgan, urf-odatlarimiz, madaniyatimizni hurmat qilishiga
o'lkada ilm-fanni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Lekin
Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Namangandagi biror ko'cha hu
told, Semyonov, Nalivkin nomi bilan atalmagan, Eski joy nomi
masalasida shuni aytish kerakki, shahar, ko'cha ilgaridan qanday
atalgan bo'lsa, uni o'zgartirmaslik darkor. Basharti o'zgartirib yolu
rilgan bo'lsa, darhol o'z nomini qaytarish kerak.

Shu xususda yana bir muhim gap. Institut va universitetlarning tarix va filologiya fakultetlari talabalari, tarix o'qituvchilari joylasning asl nomlarini surishdirib (buni biuvchi qariyalar borgan sarti mayib borayotganini hisobga olgan holda), ro'yxatini tuzib qo'yish lari, o'sha joylarning tarixini so'rab-surishdirib yozib olishlari hozirda zarur. Chunki qadimiy shahar, qishloq va guzarlarimizning haqiqiy nomi yo'qolib ketyapti. Masalan, Andijonda Asaka, Qonisuv, Kampirrabit degan qadimiy joylar bo'lardi. Bu joylar ko'pdum beri Leninsk, Il'ichevsk, Sovetobod deb ataladi. Yana 30—40 yildan keyin bu joylarning eski nomini hech kim ayтиб berolmasligi turun gap. Shuning uchun, birinchidan, joylarning eski nomlarini tikish kerak, ikkinchidan, joy nomlari ro'yxati tuzilishi, ularning tarixi qisqa tarzda bo'lsa ham yozib olimishi zarur. Bu har bir ilmi tolbi yuziyolining burchidir.

Inqilobdan avvalgi adabiyotimizni yo'qqa chiqarib keldik.

— Yo'q, albatta. Bu ish «o'ylamay, bilmasdan qilindi», debbingan bo'ldimi?

Mominayman, aksincha, bilib turib atayin qilindi. Yosh avlodni bobosining tarixidan, madaniy merosidan ajratib tashlash maqoldtu shunday qilindi. Vaholanki, inqilobdan avval yaratilgan asarlar tariximiz va madaniyatimizning o'q ildizi edi. Xullas, ko'rib olibnimiz, buning oqibati yomon bo'idi. Ma'naviy qashshoq bo'lib goldik. O'tmishimizdan ajralib, o'zligimizni yo'qotib qo'yishimizga ur bahva qoldi...

100 *Termiz davlat pedagogika instituti*

talabalari bilan suhabat. «Yosh leninchi», 1991-yil 20-aprel

BIRINCHI MAK TUB

Hazrati olyiyari!

Dilni o'rtaydigan bir gapni Sizga arz qilishga jur'at etdim. Har gal binon xorijiy mamlakatdan kitob olganimda, ayniqsa, o'sha kishi Sizning xavf-xatarga to'la hayotingiz, el-yurtning emm-u omoni ligi va farovonligi yo'lida qilingan ijtimoiy-siyosiy faoliyatizingizga bug'ishlangan bo'lsa, behad suyunaman, ham faxrlanaman. Va, nomini aysam, iztirob ham chekaman. «Nega shunday kitob o'zimizda bitilmaydi va chop etilmaydi», — deb afsuslanaman. Yaqinda Amriqo, Hindiston va Farangistonдан Sizga bag'ishlangan to'rtta kitob oldim. Hajm jihatdan ham, mazmun jihatdan ham ancha mukammal kitoblar ekan, ular. Masalan, Amriqodan olingan kitoblardan biri shartqshunos olima Beatritsa Manzning qalamiga munsub. Men bu iste'dodli ayolni yaxshi bilaman. Bundan 10—15 il muqaddam O'zbekistonga, bizning Sharqshunoslik ilmgohiga molaka oshirish uchun kelgan va Toshkentda uzoq muddat turgan abbi, bu olma. Men o'shanda uning ilmiy mashg'ulotlariga maslahchi va rahbar bo'lgandim. Beattritsa Manzning menga yuborgan kitobida Chig'attyor ulusining XIV asrdagi parokanda ahvoli, Sizning ilusdag'i feodal tarqoqlikka barham berish, markazlashgan davlat turpo etish yo'fidagi sa'y-harakatlaringiz va Siz asos solgan davlat va hushkarning tuzilishi bilan bog'iq masalalar bayon etilgan ekan. Hindistonlik olim Sayyid Jamoliddinning kitobi, shuningdek, Parижdan kelgan Jan-Pol Ru va Lyusyen Karenlar yozgan ikki kitobning mazmuni ham taxminan shunday. Bu kitoblar Movarounnahming XIV—XV asr boshlariagi siyosiy tarixini o'z ichiga olgan. Xul'on, faqat bizning asrimizda Ovrupo va Amriqoda Sizga bag'ishlab o'tuzga yaqin katta-katta kitoblar yozilibdi. Ovrupolik dramaturglar Sizning haqingizda ajoyib sahna asarlari yaratdilar; farangistonlik moykaltaroshlar Sizning oltindan haykalchangizni quyib, ko'pgina muzeylarda namoyish qildilar.

Xo'sh, shunday ishni Siz bilan bizning yurtimizda ham qilbo'larmidi? Bo'lardi, albatta. Bu ishni qoyillatib qiladigan ma-

Assalomu alaykum, Sohibqiron hazratlar!

Ko'p yillardan buyon Sizga timmsiz xatlar yozaman. Ota yurungiz Shahrisabzga, poytaxtingiz Samarqandga, Qorabog', Tabriz Bag'dod va birtalay shaharlarga jo'natanaman deb konvertg'a solman-u, yana o'ylab ko'rib qaytarib papkaga solib qo'yaman. Chunki yetib borolmaydi deb qo'rqaman. Yillar o'tib papkani ochib qarasun ular ancha-muncha yig'ilib qolibdi. Ularni qayta-qayta o'qib chique kanman, o'z vaqtida yubormaganinga bir qadar pushaymon bo'ldim Dildagi ancha gaplar aytilgan ekan, ularda. SSSR deb atalmish qizil imperiyaning chilparchin bo'lishi va O'zbekiston milliy mustaqilliliqtiqlol yo'liga o'tishi arafasida unga hamnafas bo'lib yozilgan ekon bu maktublar. Ba'zi maktublarning o'ta ehtirosiligi shundan bo'lgan ajab emas. Mana endi nafasimizni bir qadar rostlab oldik. O'zbekiston qisqagina to'rt-besh yil ichida ijtimoiy-siyosiy hayotning barochi jahbalarida misli ko'rilmagan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Un noati va madaniyati rivojlangan bir mamlakatga aylanib bormoqdil Rahbar ham, xalq ham Turkistonning Sizning davringizzagi, hazrat Sohibqiron, ulug'ligini tiklash yo'lida astroydil mehnat qilmoqdu Shunday kunlar yaqin. Men bunga aminman.

Miliy istiqloj arafasida va mustaqillikning dastlabki yillardiro dildan kechgan ba'zi ilmiy, ijtimoiy-siyosiy muammolar xususida arz qilingan edi ushbu maktablarda. Papkada qolib ketganidan ne foysda? Ko'p gaplari, hatto shubhalar, e'tirozlar dildan kechgan edunda. Aslini olganda, bu ham tarix — ijtimoiy-siyosiy tafakkur tarixi. Shuni o'ylab, a'lo hazrat, Sizga yozgan o'sha maktablarni jamlab, chop etishga jazm etdim.

lakali, iste'dodli olimlarimiz bor edi. Qo'imizda buning uchun mambalar ham yetarli edi. Axir, xorijdag'i kasbdoshlarimiz o'z kitorlarini bizning kutubxonalarimizda saqlanayotgan yoki faklakungardishi bilan o'sha yurtlarga borib qolgan noyob qo'lyozma kitobani o'qib-o'iganib yozishdi-ku. Lekin ming afsus-u nadomuda bo'lsinkim, bunday kitoblar yozishimizga biza shu paytgacha tushsat berishmadi. «Nega? Kim bunga monelik qildi», — deysizmi? Buning sababi bitta: biz o'zbeklar, turkmanlar, tojiklar, qirg'izlari va qozoqlar 1864-yildan beri Siz o'sha, bir paytalar Oltin O'rda istibdiddidan xalos bo'lishiغا yordam bergan Rusiyaning mustamlakasi aylanib qolgandik. Ana shu mustaplakachilar bunga yo'l berishmu di. Nafaqat Sizning hayotingiz va faoliyatizingizni, hazrat Sohibqitor balki, umuman ko'p ming yillik tariximizni o'rganishimizga monlik qildilar ular. Bizning tarafimizdan bu borada biron xatti-harakatni payqab qolguday bo'lisha, darhol chora-tadbirlarini ko'rdiubizlarni millatchiga chiqardilar, pesonamizga panislomchi, puturkchi degan tamg'alarmi bosdilar. Ha, darvoqe, bu yog'ini aytasani hozir Sizni ham panturkchiga chiqarib qo'ydilar. «Daililing borniye — deysizmi? Bor. Masalan, Maskovda «Drujba narodov» (*«Xalqaro do'stilig»*) degan bir jarida chiqardi. O'sha «Drujba narodov»ning 1990-yil chiqqan to'qizinchisi sonida biz bilan qo'shni respublikada istiqomat qilib turgan hummatli bir akademikning (Sizga tushunarli bo'lsin, deydigan bo'lsak — allomaning kattasi) katta maqolasi e'on qilindi. Hurmatli akademigimiz Sizni «Temur — panturkchi deb ochiq yozibdi. Yo rabbiy! Quruq tuhmatdan o'zing saqla! Si yashagan zamonda «panislomizm», «panturkizm» degan gap yo'ledi-ku! O'sha zamonda turk-u tojik, fors-u arab — barcha mo'min muslimon Siz barpo etgan davlat soyasida bir otaning bolasidel yashashgan-ku! «Panturkizm»ga kelsak, bu g'oyaviy oqim Siz tuyottadan ko'z yumbandan qarib 500 yil keyin paydo bo'lganini hamma biladi. Hatto akademik bo'Imagan odam ham. Agar bu haqiqati kimir bilmasa, hech bo'lmasa barchaga malum qo'llanmalarga murojaat qilsa bo'lardi. Masalan, hatto o'sha «panturkizm»ni kashi etgan sho'ro davrida nashr qilingan qomuslarda ham «panturkizm»

ishunchasi mana bunday izohlangan: «Panturkizm — turk tili to'zlashuvchi barcha xalqlarni Turkiya qo'l ostida birlashtirish to'xusini ilgari surgan g'oyaviy oqim. Panturkizm XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiya burjuapomeshevchik doiralar o'rtasida va Rossiyaning ayrim turkiy xalqlari yashaydigan rayonlarida paydo bo'lgan». (Историческая энциклопедия, Т. 8, с. 403.)

Ahvol mana shunaqa, hazrati olivlari! Bir bechorani malomatga shubha tug'dirgan odamni yo'q qilib yuborish hech gap bo'lmay qolgan edi, yaqin-yaqinlarda. «Dailil-isboting bormi?» — deysizmi? tor, albatta. Uni istagancha kelfirish mumkin. 30—40-yillarda o'tuzilgan qataq'on... Yaqin kunlarda yuz bergan xunuk voqealar... Yana bitta misol keltiraman. Ibrohim Mo'minov degan mo'min musulmon bir ulamo — Tangri taolo uning ruhini shod qilsin — 1968-yil «Amir Temuring O'rta Osyo tarixidagi roli va o'mi» dejan kichik bir risola yozib chop ettrigandi. Hazrati olivlari, uning bu jusrorati ikkala qo'liga kishan urilgan odam o'sha alpozda ekin dub elni to'ydirgandek benihoya savob bir ish edi. Men domla bilan yuqindan tanish edim. Muhtaram domla mazkur kitobcha bilangina hekkanim qolmoqchi emas edilar. Kelajakda o'rta asr tarixini bishulgan odamlarni bir yerga to'plab, Sizning tarixingiz bilan atrofioha shug'ullanish ishimi tashkil etmoqchi edilar. Siz va vorislari opiz davrida bitilgan asarlarni o'zbek va rus tillariga tarjima qildirib, nashr ettrish niyatida edilar. Lekin ul zoti kiromming bu xayrlı niyati unulmay qoldi. Chunki ul tabarruk zotning yo'lini to'sib, o'zimi ur-kaltak qilishdi...

Qisqasi, biz o'zbek tarixchilari ham ko'p narsaga qodir edik, lekin qo'imizni bog'lab, tepamizza kaltak ko'tarib turib oldilar. «Kim», deysizmi. Kim bo'lardi, xalqqa farovon tur mush, baxtli ham yot va'da qilib, uni 75 yıldan beri laqillatib kelgan, million-million kishilarning suyagini Sibir va Uzoq Sharq o'rmonlari, botqoqliklari tihda chiritgan bolsheviklar partiyasi va sho'ro rahbarlari-dal! Tangri taologa ming bor shukrki, ularning kimligi, asl qiyofasi bugun hummaga oshkor bo'ldi. Lekin o'zimizda ham ayb katta. Shu o'tgan

130 yil ichida bizlar tamoman o'zgarib qoldik. Hozir siz bilgan yoki
dil, hamjihat, jangari o'zbek bo'lmay qolgamiz. O'lguncha uer-
takalluf, loqayd, mutega aylangamiz. Timim bilmay mehnat qilib
bola boqishdan boshqani bilmaymiz. Och bo'isak ham, ustimiye yu-
pun bo'isa ham, o'gan kumimizga shukr qilib kun kechiruvchi olo-

monga aylanib qolgammiz. Maskovlik boshliq va uning tepamiz
o'tqizib qo'ygan noiblari «Tur o'mingdan!», desa turdik, «O'tur!»
desa o'tirdik. Oxir-oqibat, hazrat Sohibqiron, mana shunaqa bo'lib
qoldik. Tariximizni, qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni umudli
ona tilimizdan ajralib qolishimizga bir babya qoldi. Mana, qarangu
hozingacha juma kуни emas, balki wakshanbani (bockpeccine
ya'ni lusus Xristos qayta tirligun kun) dam olish kuni deb, shunes
odatlanib qolyapmiz. Vaholanki, musulmonlarning dam olish kuni
— jum'a kuni bo'lган.

Xayriyatki, hazrat Sohibqiron, yaqinda bir zamonalr Sizing
qo'l ostingizda bo'lgan Turkiston zamindagi jumhuriyatlar o'z mulki
mustaqilligini qo'lga kirdilar. Lekin bu, tom ma'nosi bilan, to'liq
ligimiz bor. Bizni faqat xom ashyo (paxta, oltin, qorako'i teri, pillo
bog'dorchilik mevalari va poliz ekinlari) yetishtirrib beradigan xalq
aylantirib qo'yishgan. Bulami arzon bahoga tashib ketishib munshi
na va uskunalarini bizga oltin bahosida sotishgan. Mana shularning
oqibatida mustaqillikkha erishganimiz bilan iqtisodiy qiyinchilikka
iskanjasida qoldik...

Ammo respublikamizning Prezidenti (Biz u kishini oddiyeta
Prezident, ya'ni Yurtboshi deb ataymiz) tashabbusi bilan katta ko-
ta ishlar boshlandi: odamlarga yer berildi, uzoq-yaqin qishloqqa
ga ichimlik suv va gaz olib borildi, kamdaromad odamlar, oilam
ko'p bolaliklar va nogironlar davlat himoyasiga ofindi... Uyuh
gan jinoyatchilarغا, otdan tushsa ham, uzangidan tushmay yurjan
to'rالarga qarshi ayovsiz o't ochildi. Inshoollo, to'qchilik va fuo-
von kунlarga ham yetib qolarmiz. Bu yog'i ko'p jihatdan o'zimiz
bog'liq.

Yana bir dahshatlil ahvol shu bo'ldiki, Sohibqiron hazratlari, bi-
turkistonliklarni 1924-yil bo'lib tashlagan edilar. Shu paytgachda

ba'lak bo'laktigimizcha — O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston,
Turkiston, Qozog'iston bo'lib yashayapmiz. Bu ahvol aslida tili
hit, dit-u e'tiqodi bir, urf-odati bir xalqlarning kelajagi uchun qan-
day bo'larkin? Bu yog'imi xudo biladi. Harholda, «Bo'linganni bo'ri
non degan gap bor...

Nima ham qildik. Inson bolasi doimo orzu-umid bilan yashay-
di. Turkiston zamini xalqlari Sizing davringizza bo'lgani kabi
non bir oila bo'lib yashaydigan zamonalr kelib qolar. Mana, ya-
qinda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston bir iqtisodiy itti-
fiqo uyushdilar, chegaralarni ochib tashladilar. Bu — bozorimizni
nina bo'tishiga katta yo'l ochib berdi. Bilganga bu katta ish! Men
qizok, tojik, turkman, qirg'iz va qozoq xalqlarining aql-zakovatiga
ishonaman. Bu yo'lda bizlarni ilohim Sizing muqaddas ruhingiz
— Hasin, hazrat Sohibqiron.

Muarrix Bo'riboy Ahmedov
Hijriy 1412-yil rajab oy.

IKKINCHI MAK TUB

Assalomu alaykum, hazrati Sohibqiron!

Keyingi yillarda o'zbekning ko'krugiga ozgina bo'lsa-da erk
yil intiqol shamoli tekkanday bo'ldi. «Biz ham xalqimiz, millatimiz,
ko'hua va boy tarixga egamiz», «Amir Temurdek ulug' inson bizlar-
ni bobokalon bo'ladilar», deb aytish huquqiga ega bo'ldik. Xudo-
behisob shukr, shu kунlarga yetkazgani uchun! Endi olimlari-
ni yeng shimarib o'ta qadimiy va ko'hua tariximizni varaqlashga
intindilar. Nihoyat, Sizing tarixingizni ham o'rganishga kirishdik.
Lekin to'g'ri bo'layotibmi, yo aksimi, bilmadim-u, bu ismi bil-
gin hum qilyapti, bilmagan ham. Aksiga olib, Nizomiddin Shomiy,
Hilizi Abro', Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarcandiy,
Mirxon va Xondamirga o'xshagan Siz bilan zamondosh, hamast
intisilar qolib ketib, ba'zi «tadqiqotchilar» Sizing haqingiz-
da turli davrlarda to'qilgan afsonalar va naql-rivoyatlarni ro'kach

qilib, bizni tarixdan o'qitmoqchi bo'lib yuribdilar. Va hatto manbo
aniq bo'lnagan «Temurnoma» degan kitobni ham chop qildirish
hammaga ko'z-ko'z qilib yurishibdi. Dahshatlisi shundaki, ular %
qilmagan va hatto bir umr tushingizga ham kirmagan ba'zi ishl
ni Sizga to'nkayotishibdilar. Hamma balo tarixni, o'sha tarix bil
gan tilni bilmaslikdan deb o'yayman. «Usta ko'rmagan shogird ho
maqomga yo'rg'alaydi» deb bekorga aytishmagan-da! Kullasi ka
ma'nosi bilan Temirchilar!

Misol tariqasida ana shunaqa cho'pchaklardan bir-ikkitasini
rorga kehnaydig'an odatingiz bor.

Birinchi misol: Respublika gazetalaridan birida 1990-yilning
oxirroq 'ida taniqli jurnalning maqolasi e'lon qilindi. Maqola
unuman olganda, yomon emas.

Lekin maqolada keltirilgan bir dalil kishini ajablantiradi. Chunki
u tamoman haqiqatga ziddir. Mualif uni sobiq KPSS (Siz bu qudu
li siyosiy taskiklari haqida eshitigan bo'lsangiz kerak. Sobiq SSSR
va unda istiqomat qilgan barcha xalqlarni, shular qatori o'zba
fosh bo'ldi)ning bosh gazeti bo'lgan «Правда»dan o'qib, saqlan
o'sha «Правда» gazetida, — Anqara qal'asi devorlari yonida Temu
Rivoyat qilishlaricha, Boyazidni asir olib, Temur huzuriga keltirgu
rim g'azabga kelib: «Meni o'ldir, ammo holimga kulma!» — deydi
«Sendan kulayotganim yo'q, — deydi Amir Temur, — buni qaral
bu dunyo qanchalik keng, jozibali. Shunday ajoyib dunyoni tasarru
— debdi. Sulton Boyazidning bir ko'zi ko'r edi. Shunday deya ol
Amir Temur asir sultoni podshohlarga xos izzat bilan oltin qafasi
aravada o'z saltanatiga qarashli mamlakatlarni «tomosha» qildirgin.

¹¹ Sultan Mahmudxon — Chingiziy, faqat nomigaina xon (1388—1402) hisoblangan.

dami, lashkar xususidami, [hammasini] berardim, toki tamkinlik vi
baland martabangni [kofirlarga qarshi] g'aazoga sarf qilg'i va jihod
tiq'i birlan dinsiz shirkarni islon diyoridan surib chiqarish imkon
ga ega bo'lg'il... Sendan ittimosim shulki, qal'alarinigbi bizga taslin
et, qo'l ostingdagi bahodirlarni yuborginki, Qora Yusuf turkmanni
mamlakatdan quvib chiqarsinlar. [Xullas] ahdu paymon bilan o'rt
da sulin turish uchun huzurimga ishonchli odamingni yubor. [Lekin]
shu kichik yurishda tanglik, sarkashlik va o'jarlik qilding. Oqibat
gap-so'zga qolding. Barchaga ma'tumki, bordi-yu ahvoling buning
aksi bo'lganda, hazrati Parvardigor menga baxsh etgan bu qudrat vi
fathlar semiki bo'lur erdi...»

Yildirim Boyazid xijolat va uyat maqomida qolib va xato-kam
chiliklarini e'tirof etib, dedi: «Darhaqiqat, xato qildim, hazratt So
hibqironning so'zlariga qulq solmadim. Shuning uchun [ham]
jazoimni tortib turibmen. Agar podshohona inoyat qilib, gunohim
kechsalar, o'zin va farzandlarim, to tirik ekammiz, oyog'imizni far
monbardorlik va xizmatkorlik tariqidin boshqa yo'lg'a qo'ymagay
mizz». Oliyhimmat Sohibqiron uning yelkasiga podshohlarga mu
nosib chopon tashladilar, turli-tuman siylov va navozishlar bilu
siyladilar. Qaysar [hazrat Sohibqironning] xush axloqini mushhol
da qilib, duo va hamd-u sanolardan so'ng, arz qidi: «Farzandlarin
Muso birlan Mustafao jang paytida yonimda erdilar, yo'qolib qolish
di. Agar ularning holi ahvolini taftish qilib, tirik bo'lsa olib kelish
lari haqida farmoni oliv bersalar, bu [avval ko'rguzgan] iltifotlariga
qo'shimcha bo'lur erdi». Farmoni oliv berildi va tavochilar shu zh
hotyoq ularni qidirib ketdilar. Bir kecha-kunduzdan keyin Muso
topib, Sohibqironning huzuriga olib keldilar. [Hazrat Sohibqiron]
unga podshohona marhamatlar ko'rsatib, uni xos chopon bilan siy
ladilar va otasining qoshiga jo'natib yubordilar».

Xo'sh, keyin nima bo'lgan edi? Siz o'shanda (1402-yil 20-iyol
voqeasidan keyin) Boyazidni qo'yib yubordingiz va 1403-yilning

¹² Ozarbayjon va Iroqning bir qismimi 1380—1468-yillar idora qilgan Qora qo'y
iliar sulojasidan chiqqan hukmdor (1389—1420); zolimligi va yo'llo-sarligi bilan shuh
topgan.

8-martigacha, ya'ni vafotigacha u Oq shaharda¹³ istiqomat qildi.
Yildirim Boyazid vafot etgan paytda Siz yo'lda edingiz. Bu haqa
xabar olinishi bilan marhumming o'g'li Muso Chalabiymi xos cho
pon, murassa xanjar-u kamar, oltin sadoq va 100 bosh nasldor ot
bilan siylab, unga Rummung qadimiy poytaxti Bursa shahrini in'om
qildingiz. Boyazid vafot etgandan keyin o'sha Oq shaharda shayx
Mahmud Hayron mazoriga omonatgina dafn etib qo'yilgan edi. Siz
murhum sultonning jasadini u yerdan Bursaga olib bordirib, tirkligi
du o'zi bino ettirgan maqbaraga dafn ettirdingiz.

Aslida voqeaa mana shunaqa bo'lgan. Oltin qafaslik arava ham
bo'lmagan, Sizga tobe bo'lgan mamlakatlar bo'ylab sayohat
hun bo'lmagan. Oltin qafasli arava haqidagi afsona Kristofer Marlo
va Husayn Jovidning xomxayoli bilan kashf etilgan bo'lishi kerak.

Ikkinchisi misol. Siz, hazratt Sohibqiron, 1381—1402-yillar orasi
du Eronga, Ozarbayjon, Armaniston, Gurjiston, Iroq, Shom va
Hindistonga qo'shin bilan bostirib krigansiz. Natijada o'sha mam
lokatlarga, ayniqsa, xalqiga ziyon-zahmatlar yetgan, ko'p odam
o'lgan. Biz ijtimoiy-siyosiy faoliyattingizning bu tomonini ko'p ham
oqlamaymiz, albattra. Ikkinchisi tarafdan, buning uchun faqat Sizni, bir
o'zingizni qoralamaymiz ham. Chunki davr o'zi shunaqa edi. Faqat
zo'ravonlik asosiga qurilgan sinfiy jamiyat, uning masfkurasi va si
yosati bosz aybdor edi bunga. Siz hukmron feodal sinf namoyandasini
sifutida o'sha sinfning siyosatini amalga oshirishga majbur edingiz.
Aks holda, o'sha hukmron sinf Sizni saltanat kursisidan uloqtirib
toshlandi. Shu bois Sizning taqdiringiz ham Iskandar Zulqarnayn
vi Qujayba ibn Muslim, Chingizzxon va Botuxon, Ivan Grozniy
vi Pyotr I taqdiriga o'xshashdir. Lekin Sizning o'zga yurtlardagi
faoliyatizingizni faqat qora bo'yoda ko'rsatilishiga qo'shilmayman.
Ukrinni isbotlash uchun bir-ikki dalil-isbot keltiraman. Sizni faqat
bosqinchi, buzz'unchi va talonchiga chiqarib qo'yish hollari nafaqat
o'zbekistonda, balki boshqa respublikalarda ham bo'lgan. Ozarbay
jonda yaratilgan «Nasimiy» filmini ko'z oldingizga keltiring-al!

¹³ O'mini aniqlab bo'lmadi. Tariixiy asarlarda keltirilgan voqealar tafsilotiga qaragan
du Muso tarafida bo'lsa kerak.

Dahshat, uydimma va tuhmatdan iborat bu film. Ammo so'nggi yil larda ozarbayjonlik olimlarning o'zları ishonchli qo'lyozma asarlari va manoqiblari sinchiklab o'rganib, tamoman boshqa fikrga keltililar. Masalan, yirik sharqshunos olim A. G. Ragimov «Ozarbayjona»da Temuriylar bilan xurufylarning¹⁴ o'zaro munosabatlari xususida ba'zi fikr-mulohazalar» degan katta ilmiy maqolasida («Ozarbayjona» xulosaga kelgan: «Temur Ozarbayjonga bo'stirib kirib, jiddiy qurishi likga uchramagandan keyin hech qanday onmaviy qirg'in o'tkazmagani, shaharlarni vayron qimagan. Aksincha, vayron bo'lgan shaharlarni tiklash ishlarini amalga oshirgan. Masalan, Shirvoni viloyatini shimol tarafdan (Oltin O'rda tarafdan) bo'tadigan xundan saqlash uchun Darband qal'asining devor va istehkomlarini qo'f fath ettilishiga yo'l qo'ymadidi». Siz, hazrat Sohibqiron, Ozarbayjondan yana boshqa qurilishlar ham qilgansiz, suv chiqarib ancha-muncha yerlarni obod qilgansiz. «Zafarmoma»da Sizning sa'y-harakating bilan mo'g'ullar xuruji vaqtida tamoman vayron etilgan Boylaqon shahri qaytadan bunyod etilgani, Araks daryosidan nahr chiqarilish tevarak-atrofdagi cho'llar obod etilgani haqida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Keling, ana shu ma'lumotlarning o'zini keltni ti Sohibqiron [Gurjiston yurishidan qaytayotib] Boylaqon yontoto xtaganlarida... Boylaqonni ta'mirlash uning muborak xotiridagi. Bu shahar ko'p zamonlardan beri shu qadar xarob edildi, imoratidan asar va na dunyoda bor hasharotdan boshqa narsa qolgan edi, unda. Aholiga joy bo'lmaganidan, ilon-u chayondan bosluq maxluq qolmagan edi; ilon bilan chayon shu qadar ko'pligidagi yerda turish mushkul edi... [Hazrat Sohibqiron] o'sha yerga kelishganlaridan keyin «xavshan ravon muhandislar va ishning ko'li bilgan me'morlar [bo'lajak] shaharning taxkini, devorlari, hundagi, to'rtta bozori, ko'pdan ko'p uy-joylar, hammomi, qasri, bog' bo'stonlari va boshqa [bino]lari bilan qo'shib, tuzsmlar», — deyon.

qo'l'iy farmoyish berdilar. Va uning asosini tuzib, [hurilish ishini] timob-tanoblab shahzodalar va amirlarga taqsimlab berdilar. Lash-kun nom jahd bilan ishga kirishti. Imoratlarning barchasini pishiqlikidan bir oy muddat ichida qurib bitirdilar. Devorlarning uzunligi 60 metr, qurilishga ikki tarafda 2400 gazga, eni 11 gaz, balandligi qaytb 15 gazga barobar bo'lgan. Handaqining satbi 30 gaz, chuqurligi qaytb 20 gaz. [Shahar devorining] har bir burchagida hisor va burjiga qudlilar, [ularning] oralig'iда ham toshdan burjlar bino qildilar. [Dol'uning] ikki tarafiga ikki darvoza ham qurildi. Insof yuzasidan qaytb kerakki, quadrati sultonlar bir yil ichida qurib bitirishi qiyin bo'lgan [bu qurilish] bir oy ichida, yana havo sovuq bo'lib, timimsiz keng in-sochin bo'lib turgan bir paytda qurib bitkazildi...»

Va yana Sizning sa'y-harakatingiz bilan, Sohibqiron hazratlari, o'sha paytda Ozarbayjonda Araks daryosidan katta bir nahr qazib qurilgan edi. Bu hadda ham «Zafarmoma»da ishonchli ma'lumot bo'lib, «Araks daryosi tevaragidagi cho'iga, — deb yozadi Sharafuddin Ali Yuzdiy, — bir zamonalr katta nahr chiqarilgan edi. Vaqt o'tishi bilan u qurib, yo'q bo'lib ketib edi. Ov paytda quadrati Sohibqironning nazari o'sha [qurib ketgan] nahrga tushdi va podshohona markunni qo'zib, uni ta'mir etishni buyurdi. Va Araks daryosining namoyishiga o'tgach, uni ta'mirlash haqidagi farmonga imzo chekdi. Oliy hazratlarning ko'rsatmasi bilan tavochilar ishni amirlar bilan lashkarga taqsimlab berdilar. Bir oy deganda uzunligi 10 farvardin ziyod bo'lgan bir nahri qurib bitirdilarki, unda kemalarning hom suzib yurishi mumkin edi... Nahrga «Juyi barlos» deb ot berilishi.

«Zafarmoma»da yana bir muhim ma'lumot uchratdik, olampa-nohi! «Hazrat Sohibqiron qachonki biron yurtga borib tushganlarida w'zidan yodgor bo'isin deb o'sha yerdagi imorat qurdurganlar», deyilgan. Darhaqiqat, shunday bo'lgan. Demak, Siz faqat buzgan emassiz, qurgan va ko'p yerlarni obod qilgan sohibi bo'stonsiz. Inshoolloh, sohibi bo'stonlik ko'philiqka nasib etgay. Omin!

¹⁴ Shia mazhabi ichida 1386—87-yilda paydo bo'lgan diniy oqim. Asoschisi — Iuloh Astrobody.

UCHINCHI MAKTUB

Assalomu alaykum. Sohijatior hazratlarini

Keyingi yillarda, ayniqsa, 1990-yildan beri (uzr, hazratim, biz) ko'pdan nasroniyarning mana shu yil hisobini yuritib kelayotibni Sizga, Sizning ijtimoiy-siyosiy faoliyattingizga bag'ishlangan meqolalar soni ko'paydi. Shoirlarimiz Sizga atab she'rlar yozishyapti rasson va haykaltaroshlarimiz ham qo'l qovushtirib o'tirishguncha yo'q. Ular Sizning muborak siymongizni tasvirga tushrimoqdalar 1993-yilning avgust oyida el-yurt sevgan Prezidentimiz Islom Alisherovich Karimovning sa'y-harakati bilan Toshkentning en obod joyiga Sizning haykalingiz o'matildi. Ajoyib mo'yalaman sohibi professor Malik Nabihev Sizning suratingizni chizib, ko'pchilikning hummatiga sazovor bo'ldi. Bu yaxshi, quvonchli voqealardagi Vaholanki, bundan o'n-o'n besh yil muqaddam bunday qilolma edik. Hadeb bo'yinimiza turli-tuman yorliqlarni osishaverib, bizning qo'rroq qilib qo'yishgandi, qaddimiz dol bo'lib qolgandi.

Bir-ikki misol keltirib o'tay. Hali-hamon esimda, 1962-yilning «O'zbeklarning kelib chiqishi tarixidan» degan bir risola yozgutuvchisi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining «Fan» nashriyoti chop qilish uchun qabul qilib oldi-yu, lekin ish bosmaxonaga borganda to'xtab qoldi. Meni nashriyot idorasiga chaqiririshib, «asaringizni shu alfozda nashr qilolmaymiz, sabab marksizm-leninizm klassiklarining asarlari, kommunistik partiyalarining qarorlari, partiya rahbarlarining qarorlari va ma'ruzalaridan biron parcha keltirmabsiz», — deyishdi «Xo'sh, endi nima qilay?» — deb so'radim nashriyot boshlig'idan Kitobingizning biror joyiga marksizm-leninizm klassiklari yoki kompartiya rahbarlarning kitob yoki maqolalaridan birorta parcha topib qo'shing», — deb maslahat berdi u. Marksizm-leninizm klassiklarining asarlarini yaxshi bilardim, chunki ulami dorifununda, aspiranturada o'qib yurgan kezlarimiz o'qidik. Shunday bo'lsa ham, dohiylarimizing kitoblarini yana bir karra varaqlab chiqdim. Lekin kitobimga mos tushadigan biror gap topmadim. Chunki ular

“O’zbekni yaxshi bilsarkanlar-ku, lekin uning tarixi va xalq sifatini kelib chiqish masalasini bilishmas ekan-da. Keyin gazeta va jumallarning ikki-uch yillik sonlarini sinchiklab titib chiqdim. Niroyut, kitobimga mos tushadigan parchani «Qizil O’zbekiston» (hujjatiyasinинг bosh kotibi N. S. Xrushchev о’sha yil noyabr oyida paxt bu gazeta «O’zbekiston ovozi» deb ataladi) gazetasining 1961-yil 11 noyabr kungi sonidan topdim. Sobiq Sovet Ittifoqi Kommunistik hujjatiyasinинг bosh kotibi N. S. Xrushchev о’sha yil noyabr oyida paxtongashida bunday degan ekan: «Haqiqatan ham, biz rus kishilarning chor Rusiyasining sobiq chekka о’kkalaridagi xalqlar ravnaq bo’lganligini ko’rish yoqimli va quvonchlidir... Endilikda sizlarning republikangiz tanib bo’lmaydigan bo’lib qoldi. Bu respublikalarning qudratli samoati, yuksak darajada rivojlangan qishloq xo’jaligi, ilor sosialistik madaniyati bor. Sizlardagi kadrlarning o’sganligini qaymaysizmi. Sizlarning xalqlaringiz orasidan ajoyib olimlar, injenierlar, agronomlar, yozuvchilar, rassomlar, artistlar yetishib chiqdi». Prezhami ko’chirdim-u, nashriyot idorasiga qarab chopdim. Boshliq o’z o’rnida ekan, ko’chirmanni uming stoli ustiga qo’ydym. U parcha-ni diqqat bilan o’qib chiqdi-yu, suyunib ketdi. «Mana endi bo’idi, domta. Uzukka ko’z qo’yganday bo’ladi, olib kelganimiz», — dedi ko’chirmanni qo’limga tutqazib. N. S. Xrushchevning so’zlarini kitob xotimasiga kiritdim. Kitobim shundan keyin chop etildi.

Ikkinchchi misol. Sertashvish va semmashaqqat asrimizing 60-yil-lorida, ya’ni bundan qarib 30—35 yil muqaddam Afrika qit’asining ko’pchilik xalqi mustamlakachilar zulmidan qutulib, o’zlarini mustaqil davlat deb e’lon qildilar. Men o’shanda asrlar davomida mustamlakachi davlatlar tomonidan asoratga solingan bu xalqlarning istiqolga chiqishidan quvonib «AQSh va Afrika» degan kitob yozib. O’zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo’mitasining Birlash-jun nashriyotida (Toshkent, 1966) chop ettingan edim. Kitob nashr-lan chiqib, hali o’quvchining qo’liga yetmasdan, meni Markaziy Qo’mittaga chaqirtirishdi. Targ’ibot va tashviqot bo’limining mas’ul kodimi kitobning 29-sahifasini ochib, ko’rsatkich barmog’ini uning bu joyiga qadab: «Mana bu jumlan i o’qing va marhamat qilib men-

ga uni tushuntirib bering!» — dedi va zarda bilan kitobni menin oldinga surib qo'ydi. Rahbar o'rtoq ko'rsatgan joyni hali o'qib ul gurmasimdanoq u: «Siz bu yerda O'zbekistonni nazarda tutayotgan bo'lsangiz kerak?» — dedi istehzo bilan. Elektr toki oyog'imdu urib, miyandan chiqqanday bo'ldi, lekin o'zimni bosdim. «Yo'q aslo, — dedim men unga vazminlik bilan, — bu gapni men aytg'an emasman. Buni Kremlagi qabul marosimida Misr Birlashgan Respublikasining prezidenti Jamol Abdulnosir janoblari aytgan. Hu gapni endigina mustaqilligini qo'iga kiritgan mamlakati haqida ayngan», — dedim. U shunda bo'zarib ketdi va yuzinga tik boqib, yun nimalardir demoqchi bo'ldi. Sumkamdan «Pravda» gazetasini olli stol ustiga yozdim va qalam bilan chizib qo'yilgan yeriغا rabb o'rtoqning e'tiborini jaib qildim. Mana o'sha so'zlar: «Xalqlarini mustaqillikni faqat tashqi ko'rinish — milliy bayroq, davlat gerbi madhiyasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloting a'zosi bo'lish bilan qanoatlanib qolmay, balki bu mustaqillik ma'lum mazmunga o'li bo'lismi ham istaydilar. «Rahbar o'rtoq o'sha satrlarni ko'zdan kechirib, allaqanday bo'lib keidi, lekin u ham bo'sh kelmadи: «Harhol da, bunaqa gapni kelitmamasangiz ham bo'lardи», — dedi, so'ng qo'bilan «ketavering» deb ishora qildi.

Yaratganga shukrki, hazrat Sohibqiron, hozir zamон o'zgarди ahyon-ahyonda o'ylamay-nistmay gapiradiganlar ham uehrab turibdi. Biz olimlar birorta tarixiy voqeа haqida fikr bildirishdan avval uning to'g'ri yoki noto'g'rili игини manbalardan tekshiramiz. O'tgon zamonalardan qolgan kitoblarni sinchiklab o'rganamiz. Bir emas, bir necha asani yonma-yon qo'yib, bir-biriga solishitramiz. Faqo shundan keyin obdan o'yab, aql tarozusida tortganimizdan keyin gina o'sha voqeа haqida fikr bildiramiz. Shunda ham fiqrilar turli bo'lishi mumkin. Bu tadqiqotching fikrlash qobiliyatiga bog'i¹⁴ avvalgi maktublarimda aytilganga o'xshash gaplar. Sizing tarixi ngiz, ijtimoiy-siyosiy faoliyatining ba'zi bir nozik tomonlari yoritishdagi ayrim haqiqatdan uzoq fiqrler xususida Sizga arz-boi

qilmoqchiman, hazrati olivlari. Mendan ko'p odamlar «Amir Temur Maskovni olganmi?» — deb so'rashadi. Qo'limdagи dalillarga asosliib «Yo'q, u faqat unga bir oz yaqinlashgan, uning tevarak-atrofидун qaytgан», — deb javob qilaman. Lekin afsuski, «Maskovni Amir Temur olib, g'orat qilib ketgan», — deb aytuvchilar ham chiqib qoldi. Masalan, «Fan va turmush» jurnalining 1990-yil 8-sonida chop etilgan bir maqolada (muallifining ism-sharifini aytmaganim ni'qul, chunki u menga o'zini yaqin olib yuradijan odam) «men hu gaplarni mashhur muarrix Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sida o'qiganman», — deb yozgan. Darhaqiqat, mazkur asarda (175-bet) shunga o'xshash gap bor: «Hazzrat Sohibqiron, — deyiladi o'sha asarda, — amizoda Mironshoh, Shahonshoh bahodir, [shuningdek] tuman va hazora¹⁵ boshliqlariga buyurdiki, lashkarni olib, lo'chi ulusining barong' orini bossinlar. Bekyoruq o'g'lon va [boshqol] umirlarni tutib o'ldisnilar, yurtlarini g'orat qilsunlar... Shundan keyin hazrat Sohibqiron o'ris shaharlardan Maskovga qarab yurdi, hamom viloyatni, shahar va uning tevarak-atrofini g'orat qilib, jamiyatlarni azobga soldi». Nizomiddin Shomyuning shu nomli asarida ham (158-bet) shunga o'xshash gap bor: «Amir Sohibqiron, — deb yozadi u, — o'rush Mashkov deb atalgan taraifa yurish qildi o'sha viloyatni tamoman g'orat etdi va lashkarlar behisob o'ljani qo'lg'a kiritidilar. Yana bir katta tarixchi olim ibn Arabshoh o'shanda huqut «Temur [askarijining ilg'or qismlari Azoqqacha [Azovgacha] yetdi. U Saroy [Benka], Saroychuk, Hojitarxon va o'sha hududlarni wyrton qildi», — deb yozadi (Ibn Arabshoh «Ajoyib ul-maqdur», 1 kitob, tarjimon va noshir Ubaydulla Uvatorov, Toshkent, 1992, 157-le). Har ikki asarda, Nizomiddin Shomyida ham, Sharafiddin Ali Yazziya ham, «viloyat» so'ziga ko'proq urg'u berilgan. «O'rush Mushkov (O'ris Maskov) tarafiga» deganda, Maskov shahari emas, bulki, umuman, rustar yurti, Rusiya anglashiladi. Bundan tashqachi, sharq tarixchilarining ko'philiyi xorijiy jug'rofiv manzillarni yoxshi tasavvur etolmaganlar. Buni biz Sizning, hazrati olivlari,

¹⁴ Tuman va hazora — qo'shin turlari. Masalan, tuman — tarkibida 10 000 kishi bo'lgan qo'shin; hazora — 1000 kishilik qo'shin.

musulmon bo'lmagan mamlakatlar: Rusiya va Hindistonga qilgan yurishingiz tafsilotida ham yaqqol ko'ramiz. Rui Gonsales de Khrushchevning «Kundallig» ham bunga yaqqol misoldir. Bundan tashqari, Amir Temurning Maskovni o'rganligiga faqat fors tilida bitilgan o'sha ikki asardagina ishora bor. Bunday sharoitda ikkinchi taruning fikrini ham bilish joiz. Masalan, rus manbalari: solnomalari, Klyuchevskiy, Karanzin, Solovyev kabi ulkan tarixchilarining ham fikrini bilish zarur edi.

Rus solnomalarining afzal tomoni shundaki, ularda bo'lib o'tgan voqealar, faqat Rusiyadagi voqealargina emas, balki qo'shni mam lakatlarda bo'lib o'tgan voqealar ham, qisqa lekin aniq bayon etilgan Rus solnomalarida, masalan, «O'rta va Old Osiyoda bo'lib o'tgan voqealarning amiq va to'g'ri tasvirimigina emas, — deb yozgan edi. A. Y. Yakubovskiy, — bu mamlakatlardagi ko'pgina viloyatlu to'g'risida ham aniq jug'rofiy ma'lumotlarni uchratamiz» (B. D. Grekov, A. Y. Yakubovskiy, Oltin O'rda va uning qulashi. Moskva-Leningrad, 1950, 396-bet). Olim fikrida davom etib, yana bunday deydi: «Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazziyning xabur berishlaricha, Temur Mashkov (Maskov) shahari viloyatiga bostirib kirgan va bu yerda hamma yoqni xonavayron qilib, juda ko'p boyliklarni o'jja qilib olib ketgan. Rus solnomalarida Maskov va uning rayonlari tilga olimmagan. Shu sababdan biz bu ma'lumotlarga ishonolmaymiz. Sharq manbalarida Rus yerining jug'rofiy holati xato ko'rsatilib, Ryazan yerini Maskov knyazligining chegara buluslar bilan chalkashtirib yuborilgan. Shuning uchun rus manbalarida aniqroq ma'lumotlarga murojaat qilaylik. «Nikon solnomasi»da aytilishicha, Temur juda katta qo'shin bilan Ryazan yeriga bostirib kangan va Yelts shahrini bosib olib, Yelets knyazini qo'lga tushirgan odamlarini asir qilib olgan, boshqalarini esa o'lgudek kaltaklatgan.

Bu voqeadan xabardor bo'lgan knyaz Vasiliy Dmitriyevich ko'pdan ko'p polklar to'plab, Kolonna shahriga qarab yo'lga chiqqan va Okankeyin janubga qarab yo'l olgan...» (B. D. Grekov, A. Y. Yakubovskiy, Oltin O'rda va uning qulashi. 369—370-betlar).

Yuqorida nomi tilga olingan M. S. Solovyevning rus solnomalari va bir talay muhim arxiv materiallari asosida yozilgan 15 jildlik «Rusiya tarixi» asarida ham bu xususda shunaqa fikr aytilgan: 1395-yil To'xtamish Terak daryosi bo'yida mag'lubiyatga uchradi va qochib Bulg'or o'mmonlari ichiga yashirinmisga majbur bo'idi. Temur esa Rus yerlariga kirib kelib, Yetetsni egalladi, knyazini asir hirdi, tevarak-atrofdagi yerlarni talon-toroj qildi. Bosqin tasodilin yuz bermagan edi. Shuning uchun knyaz Vasiliy Dmitriyevich ushga tayyorgarlik ko'rib olish imkoniga ega bo'ldi. Katta qo'shin to'plab, o'z knyazligi (Maskov knyazligi. — B. A.) chegarasiga, oka daryosining qirg'og'iga kelib tushdi. Lekin dushman kelmadi. Temur Ryazan yerlarida 15 kun turib va Don daryosining har ikkila qirg'og'ida qishloqlarni talab, rus yerlarini tashlab chiqdi» (M. C. Соловьев, История с древнейших с времан. Т. II, Книга 2, Москва, 1960, 369-bet).

Ko'rinib turibdiki, Siz hazrati oliylari, Maskovga kirmagansiz. Agar shunday bo'lganda, hattoki kichik-kichik voqealarni ham e'tiborsiz qoldirmagan rus solnomalari bu haqda yozmay qo'yimagan bo'lur edilar. Axir, Maskov kichkina joy emas-ku! U, aksincha, ulug' rus knyazining qarorgoni bo'lgan.

Hazrat Sohibqiron, agar toliqmagan bo'lsangiz, muborak e'tiboringizni yana bir masalaga tortsam. Bu — Sizning qayerda tavallud topganningiz haqidagi masala. Bu xususda keyingi kunlarda buhs-tortishuvlar boshlandi. Tortishuvlar, asosan, uch taraf — Kesh (Shahrisabz) liklar, Sizni Shahrisabza tug'ilgan desalar, yaklibog'liklar «Sohibqiron Xoja ilg'or qishlog'ida tavallud topganlar, bu qishloq esa hozirda Yakkabog' tumaniga qaraydi», deyishadi. Muborakliklar bo'lsa, Sizni Qozzonxon (1343—1346)ning oly qarorigi bo'lmish Zanjirsaroya (u Muborakdan 10—12 chaqirim nariqda bo'lgan deb taxmin qilinadi) tug'ilgan deb aytishayotibdilar. Toyon Ravshanov bilan Juma Qurbonlar yaqinda nishonliklarning yosini qo'llab, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftanoma-sining 1992-yil 14—28-fevral hamda 20-mart sonlarida katta mafola bilan chiqish qildilar. Maqola, asosan, turli davrlarda yozilgan

naql-rivoyatlardan iborat «Temurnoma»lar («Mujmal-i Fasixiy» kabi bir-likki tarixiy asarlar va muhim tadqiqotlardan ham foydalangan holda), hozirda hayot bo'lgan keksa faxriylarning og'zaki ma'lumotlariiga asoslangan.

Xo'sh, tomonlarning qaysi biri haq? XV asrda o'tgan kattu muarrix Sharafiddin Ali, Yazziy hazrat Sohibqiron «sichqon yilgi» muvoifiq bo'lgan hijriy 736-yil 25-sha'bonda sesshanba kuni kech qurun diikash Keshning tashqarisida, unga yaqin bir mavze'da tovallud topganlar» deb yozgan («Zafarnoma» 192-bet). Nizomiddin Shomiy ham shunday deb yozgan. Ibn Arabshoh, «Uning tug'ilgan joyi Xoja ilg'or deb ataladigan qishloqdir. Xoja ilg'or Keshning qarashli joylardandir», deb aytgan. «Mujmal-i Fasixiy» muallit ham Sizning, hazrat Sohibqiron, Keshda tug'ilganligingizni aylgan: «Amiri Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon ibn amir Tarag'oy ibn Berkal ibn Ilangiz ibn Ijl Tuminaxon ibn Boysung'urxon ibn Qaydixon ibn Alonquva xotin hijriy 836-yil sha'bon oyining 25 kuni Keshda tug'ildi» (Fasih Ahmad Xavofiy, «Mujmal-i Fasixiy» 59-bet). Ko'rib turibsizki, Sharafiddin Ali Yazziy bilan Nizomiddin Shomiy hazrat Sohibqiron Keshga yaqin bir mavze'da tug'ilgan, deydilar. Ibn Arabshoh esa o'sha mavze'ning aniq nomi Xojo ilg'or ekanligini aytadi. Yazdiy bilan Shomiy bu mavze'ning aniq nomini aytishmaganligiga e'tiroz bildirmasa ham bo'ladi. Chunki o'rta asrlarda, odatda, katta-katta joylar, masalan, viloyat va ulkun shaharlar nomi aytilib, ko'p hollarda, ularga qarashli qishloqlarning nomi tilga olinmagani. Masalan, Kesh, Nasaf, Buxoro, Choch Andijon va h.k. Bu birinchidan, ikkinchidan esa, har ikkala olim ham «Hazrat Sohibqiron diikash Keshga qarashli va unga yaqin mavze'da tug'ilgan», deb ochiq yozmoqdalar. Fasih Ahmad Xavofiy esa Amir Temur Ko'ragon Keshda tug'ilgan, deydi. Shunga qamanda, shahrissabzliklarning da'vosi asoslidir. Yakkabog' tumaniga kelsak, bu ma'muriy birlik sho'rolar davrida paydo bo'lgan va yangi ma'muriy bo'linishga ko'ra Xoja ilg'or qishlog'i Yakkabooqqa o'tib qolgan. Bu jihatdan qaraganda, Amir Temur bizga ham yurtdeyishgi yakkabog'liklarning ham ma'lum darajada haqlari bor. Endi, hazzu

Sohibqiron, Muborakda, Qozonxonning Zanjirsaroyida tug'ilgan, degan gapga kelsak, bu bizning fikri ojizimizcha asossiz da'vodir. U halobiddin qorining «Temurnoma»sida (54—56-betlar) keltirilgan ishonaviy rivoyatlarga asoslangan. Siz nima deysiz bunga, hazrat sohibqiron? Nima bo'lganda ham Siz, Sohibqironi a'zam, bиринчи избатда, butun Qashqadaryo vohasining shu jumladan muborakliklarning ham o'g'lonisiz. Qolaversa, Siz butun O'zbekiston, balki ulkan Turonzamminning asl farzandisiz.

Parvardigor yana yurtimizga Siz kabi farzandlar ato qilsin. Omil!

*Muxlisi sodiq Bo'riboy Ahmedov
Hijriy 1412-yil ramazon oy.*

TO'R TINCHI MAK TUB

Assalomu alaykum, Sohibqironi muazzam!

Yana o'sha o'tmishda kechgan ba'zi bir voqealar ustida fikr yuritish, ularga baho berishda yuz berayotgan chalkashliklar xususida sizga arz-hol qilmoqchiman. O'zingiza ma'lumki, o'tmishga baho berishda ehtiros-u havoyi gaplardan qochish va asl manbalarga — ularda keltirilgan ma'lumotlarga suyanilsa, xato balosidan qutulish mumkin. Lekin manbalarda keltirilgan ma'lumotlar turilicha bo'laadi, baxtga qarshi, qalbaklari ham uchrab turadi. Shu bois ularni sinchiklab tekshirish, haqiqisini ikkimchi darajali dalillardan, uy-dirmalardan ajrata bilish darkor.

do yangi an'anani boshlab bergen asar. Bu an'anani mohiyati hundan iboratki, undan avval, shuningdek, keyingi davrlarda ham, musulmon tarixchilarinin ko'philigi umumiy tarix deganda faqat musulmon mamlakatlarining unumiy tarixini tushunganlar. «Jomi' ut-tavorix»da esa musulmon mamlakatlarining tarixi bilan barobar, musulmon bo'lmagan mamlakatlar, jumladan Hindiston va Xitoy tarixi ham bayon etilgan.

Asar qadim zamonalardan to 1307-yilgacha bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi.

Muallif eronlik ulkan olim va yirik davlat arbobi Rashididdin l'azuloh ibn Imoduddavla Abulhayr al-Hamadoniy (1247—1318) dir. Rashididdin elxon G'ozonxon (1295—1304) va O'ljoytuxon (1304—1317)lar davrida bosh vazir lavozimini egallagan. Piroyvardida u elxoniyilar saroyida hukm surgan fitna-fasod qurban bo'ldi. Indigina taxtga o'lirigan Abu Sa'idxon (1317—1335) avval uni egallab turgan lavozimidan chetlashtirdi, oradan bir yil o'tib esa uni o'llinga mahkum etdi.

«Jomi' ut-tavorix» uch qismidan iborat: 1) mo'g'ullar va ular asos solgan davlatlar hamda mo'g'ullar asoratiga tushib qolgan mamlikatlar: Shimoliy Xitoy, Markaziy Osyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari xalqlarining mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan muxtasar tarixi; 2) Sharq mamlakatlari tarixi; 3) Yer kurassi hamda Yetti iqlim mamlakatlarining geografiyasi. Lekin afsuski, asarning uchinchi qismi saqlanmagan.

Rashididdin va uning «Jomi' ut-tavorix» asari ko'pdan beri ilmiy imoatchilikning e'tiborini qozonib kelmoqda. Uning ayrim qismi tiliuri Katrmer, Bloshe hamda Karl Yan tarafidan fransuz va nemis tililariga tarjima qilinib, chop etilgan. Asar to'la ravishda rus tiliga ham turjima etilib, 1946—1960-yillar Leningrad (Sankt-Peterburg)da chop etildi. «Jomi' ut-tavorix»ning Muhammad Ali ibn Darvish Ali Buxoriy (XUPA.) va Solur bobo ibn Qul Ali (XVII asr) taraflaridan qilingan ikkita o'zbekcha tarjimalari ham mavjud.

Asarning turk-mo'g'ul xalqlari tarixini o'z ichiga olgan birinchi qismi hamda Chig'atoy ulusi, xususan, mazkur ulusning Botuxon

(1227—1255) tarafidan Oltin O'rda davlati tasarrufiga kirilishi haqidagi qismlari va ma'lumotlar biz yoritib berishga harakat qilayotgan mavzu' uchun benihoya qimmatidir.

«**Mulhahot as-Suroh**» ([«Javhariyning】 «as-Suroh» asarini qo'shimcha) — payg'ambarlар, podshohlar va ularning ma'rifi lari, Bani Umayiy amirlarning nasabi, Abbosiy xalifalar, imomlari mashhurlari, Somoniy amirlari va sultonlarining mashhurlari, Mavarounnahirda hukm surgan turk hoqonlarining mashhurlari, Garchiston podshohlar, Saljuqiylar, ba'zi mashhur amirlar va valollar, xorazmshohlar, mo'g'ul xonlari, shuningdek, Koshg'ar, Xo'tum Farg'ona, Shosh (Toshkent), Barchinlig'kent va Jand shaharlarini haqida qisqa, lekin o'ta qimmatli ma'lumotlar beradi. Asar 1301-yil yozilgan.

«**Mulhahot as-Suroh**» muallifi Abulfazl Muhammad ibn Umar Xolid bo'lib, ko'proq Jamol Qarshiy nomi bilan mashhur uning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar kam. Otasi Bolosog' bo'lgan. Jamol Qarshiy 1230 yili Olmaliqda tavallud topgan, yaxshi o'qigan va mahalliy hokimlar (Sug'noq takin) xizmatida bo'lgan. Ko'p sayr-u sayohat qilgan. Masalan, Koshg'ar, Ilamish (Andijon dan Talosga boradigan yo'l ustida joylashgan manzilgoh), Shosh, Xo'jand, Barchinlig'kent va Jand shaharlarida bo'lgan.

«**Mulhahot as-Suroh**»ning Qoraxoniylar, XIII asorda Olmaliqda hukmronlik qilgan turk xonlari, Mahmud Yalavoch (1254-yil Xon baliqda vaftot topgan), Mas'udbek (1289-yil vaftot etgan) haqidagi shuningdek, Chig'atoy ulusining ba'zi xonlari haqidagi ma'lumotlari o'ta muhimdir.

Asardan ayrim parchalar V. V. Bartoldning «Түркестан в эпоху Монгольского господства» asarining birinchi nashri (Sankt-Peterburg, 1898)ga kirilgan.

«**Tajziyat ul-amson va tazjiyat al-osor**» («Mamlakatlarning halokuiylar hukmronligi yillardagi (1256—1335) tarixini bu-

ni studi. Asar muallifi Vassof (vasfetuvchi) taxallusi bilan mashhur olib, yuqorida tilga olingan vazir Rashididdinning yordami bilan qo'shimchasi saloy xizmatiga qabul qilinib moliya devonida xizmat qilgan. Olimning hayoti va faoliyatiga oid bosha ma'lumotlar niq'i.

Vassofning ko'pincha «**Tarixi Vassof**» nomi bilan mashhur mazbirari besh qismidan iborat: 1) Ulug' qoonlar: Xubilayxon (1260—1264) bilan Temur qoon (1294—1307) davrida mo'g'ul imperiyasi I Erioning 1256—1284-yillardagi tarixi; 2) Forsning saljuqlar isti-john (1040—1050) keyingi tarixi (1291-yilgacha); 3) Halokuiylar podshohligining davomi (G'ozonxon vafotigacha, ya'ni 1304-yilgacha); 4) Uljoytuxon davri (1304—1317) tarixi; 5) Elxon Abu Sa'id davrida Erioning ijtimoiy-siyosiy ahvoli. Asarning I—IV qismlari 112-yil yozib tamomlangan va vazir Rashididdinning vositachiligi bilan Elxon O'ljaytuxonga taqdim etilgan; so'nggi besinchchi qism 1328-yil yozib tamomlangan.

«**Tarixi Vassof**» og'ir uslubda yozilgan bo'lishiga qaramay, ilomning XIII—XIV asr boshlaridagi tarixi bo'yicha qimmati manbu hisoblanadi. Asar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga oid ma'lumotlarga boyadir. Vassof asarida Chig'atoy ulusining Olg'uy-son (1252—1261), Muborakshoq (1266), Baroqxon (1266—1271) va Duvaxon (1291—1306) davridagi tarixidan muqim tafsilotlar (Haydu va Olg'u o'rtaсидagi kurash), Muborakshoqning o'ldirilishi tafsiloti, Haydu va Duvaxon ittifoqi, Hayduning o'ldirilish tafsiloti va b.) mavjud.

Vassof hazratning ushbu asari 1853-yil Bombay (Hindiston)da libbosma usulida chop etilgan. Asarning bir qismi (uning birinchi jildi) Olmoniyalik mashhur olim Hammer-Purgesshall tarafidan nemis tiliga tarjima qilinib, 1856-yil Vena (Avstriya)da nashrdan chiqqan. Abulfazl Muhammad Daftariy (1579-yil vafot etgan) taraflidan qilingan turkcha tarjimasi Istambul kutubxonalaridan birida nusxamoqda. Bu nusxaning afzal tarafi shundaki, unga Amir Temur vafotigacha (1405) bo'lgan voqealar ham qo'shilgan.

«Tuhfat un-nuzzor fi g'aroib al-amsor va ajoyib al-ansor»

(«Turli shahar va safarlardagi ajoyibotlar guvohi bo'lganlar turlari») — marokashlik mashhur sayyoh ibn Battutaning sayohatnomasi.

Ibn Battuta (to'la ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulla al-Lavotiy at-Tunjiy (1304—1377) jahoning juda ko'p mamlakalarini kezib chiqqan. Yaqn Sharq, Kichik Osyo, Oltin O'rda, Junbiy va Janubi-sharqiy Osyo, Markaziy Osyo, Ispaniya va Afrikamamlakatlarni u borib ko'rgan, o'sha mamlakatlar va ularning xalqlari haqida qimmatli ma'lumotlar to'plagan. Tadqiqotchilarning hisob-kitoblariga qaraganda, Ibn Battuta hammasi bo'lib 75 min (1 li — 576 metr) yo'l bosgan.

Ibn Battuta sayohatnomasida Xiva, Buxoro va O'rta Osyoning boshqa shaharlari, shuningdek, Chig'atoy xonlari o'rtaosida kuchuyi ketgan o'zaro kurashlar haqida keltirilgan fakt va ma'lumotlar e'tiboridan chiqqan. Shular orasida Kepakxonning o'zajali bilan emas, holki inisi yangi ma'lumotdir. Umuman, Oltin O'rda va O'rta Osyo tarixi bilan Ishug'ullanuvchilar uchun Ibn Battutaning assari muhim manbalandir bo'lib xizmat qildi.

Shunga qaramay, Ibn Battuta va uning yuqorida zikr etilgen asari ilm ahliga faqat XIX asr boshlardagina ma'lum bo'ldi. Ovrupo uchun nemis sayyohi U. Zetsen (1767—1811) bilan uning shvysitsariyalik hamkasabasi Y. L. Burkhardt (1784—1817) dastlab kashf etdilar. Ular Ovrupo ilm jamoatchiligin ulug' sayyoh asari ning qo'lyozmasi (al-Bayluniy tahrir qilgan qisqacha nusxasi) bilan tanishтиrdilar. Undan ayrim parchalar 1818-yil nemis sharqshunosligi G. L. Kazegarten tomonidan chop etildi. Asarning al-Bayluniy tubi etgan qisqacha nusxasi 1829-yil Kembrij (Angliya) universitetining professori S. Li (1783—1852) tarafidan ham nasr etildi. «Tuhfat un-nuzzorning O'rta Osyo geografiyası, tarixi va etnografiyası»ni o'z qismi 1941-yil Toshkentda rotoprint usulida bosilgan. Asarning muhim qismlari yaqinda o'zbek va rus tillarida o'zbek sharqshunoni N. Ibrohimov tarafidan chop qilindi.

Chig'atoy ulusi bilan Halokuiylar o'rtasidagi siyosiy munosabalar tarixini o'rganishda Sayfiy Haraviy (Sayf ibn Muhammad ibn Haraviy; 1282 — vafot qilgan yili nomalum)ning «Tarixnomayi illob» asari ham zo'r ahamiyatga ega. Asar Hirot va Xurosonning 1220—1321-yillar ichidagi tarixini qamrab oldi. Biz uchun shahzodasi Yusovur va uning isyomi bilan bog'iqliq qismi muhindir. «Tarixnomayi Hirot» 1944-yilda Kalkutta (Hindiston)da Muhammad Zubayriddiqiy tarafidan chop etilgan.

«Majmu' at-tavorix» («Tarixlar majmuasi»). Asar yana «Zubdut ul-tavorix» Boysunqur (mirzo)ning saylangan nomi bilan ham mashhur. Asar Temuriy Boysunqur mirzo (1433-yil vafot etgan)ning topshiring'iga ko'ra 1423—1427-yillarda yozilb tamomlangan.

«Majmu' at-tavorix» Amir Temur va Shohruhx saroyida katta ijob qozongan yirik tarixshunos olim Hofizi Abru (to'la ismi: Shohobuddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid al-Xavofiy) qulamiga mansub. Bo'lg'usi olim Hirotg'a qarashli Xavof qasabasida tavallud topib, 1430-yil Zanjon (Hamadonning shimal tarafigida) bay — Ozarbayjon karvon ko'li ustida joylashgan shahar)da vafot etgan.

«Majmu' at-tavorix» to'rt qismidan iborat: 1) islomiyatdan oldin o'tgan payg' ambarlar va Eronning qadimgi podshohlari; 2) Payg' ambarimiz Muhammad salollohu alayhi vasallam va arab sultalari; Saljuqiylar va Elxoniylar (Eron mo'g'ullari) tarixi; Temur va Shohruhx tarixi (to 1427-yilgacha). Asarning so'nggi to'rtinchisi original bo'lib, «Tarixi Boysunqur» deb ataladi. Unda Amir qismi original bo'lib, «Tarixi Boysunqur» deb ataladi. Unda Amir Temur tarixi (Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»si asosida, muhim tuzatish va qo'shimchalar bilan) va Shohruhx bilan Ulug'bek davrida Xuroson va qisman Movarounnahrda bo'lib o'tgan voqealar (1427-yilga qadar) bayon etiladi.

Asarning to'rtinchisi qismi o'z vaqtida Abdurazzq Samarqandiy-ning «Matla' us-sa'dayn»ni yozishda asosiy manba rolini o'tagan.

«Majmu' at-tavorix»da Temuriylar davlatining Mo'g'uliston bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari o'z qismatli ma'lumotlar

uchratamiz. Asarning qo'lyozma nusxalarini Toshkent va Sankt-Peterburgda, shuningdek, Angliya, Fransiya, Germaniya, Eron, Afg'oniston, Hindiston va boshqa mamlakatlarning kutubxonalarida mavjud To'la nashri yo'q. Ayrim parchalar Sankt-Peterburg (G. Dron), I. hur (Muhammad Shafi')da chop etilgan.

«Zafarnoma» Amir Temur va Xalil Sulton (1405—1509) toqi tarkibida qismida Chingizzonning mo'g'ul imperiyasi tarkibida tashkil topgan Oltin O'rda, Chig'atoy ulusi, Exxoniy davlati, shuningdek, Movarounnahrning Chingizzon zamonasidun to Amir Temur davlatining tashkil topganiga qadar bo'lgan ijtimoiy siyosiy tarixi qisqa tarzda bayon qilingan. Asarning bu qismi «Tarihi Jahongir», ko'pincha «Muqaddimayi Zafarnoma» deb ham ataladi U «Fathnomayi Sohibqiron», «Zafarnomayi Temuriy» va «Tarihi honkushoyi Temuriy» nomlari bilan ham mashhur.

«Zafarnoma» Nizomiddin Shomiyoning shu nomli asari asosida yozilgan. Uning afzal jihat shundaki, Nizomiddin Shomiy asarida bayon etilgan voqealarning ayrımlari original manbalar asosida yuqorida fakt va dalillar bilan boyitilgan. Va yana voqealar bayoni 1409-yil gacha davom ettiriladi. Uning yana bir muhim qismmati shundaki, u zo'r badiiy uslubda yozilgan. Asar mualifi yirik olim (u ko'pgina ilmlar, xususan, tasavvuf, ilmi nujum, adabiyot, muammo, tarix va falsafa ilmlaridan keng ma'lumotga ega bo'lgan) Sharafiddin Ali Yazziydir (1454-yil vafot etган).

«Zafarnoma»ning asosiy qismi, muallifning avval boshda tuzg'on rejasidan ko'ra, uch qism (maqola)dan iborat bo'lishi mo'ljallangan. Birinchi qismida Amir Temur tarixi, ikkinchi qismida Shohru'mizo tarixi va, niroyat, uchinchi qismida Fors viloyatining hokimi temuriyzoda Ibrohim Sulton (1394—1435) davrida bo'lib o'tgan voqealar bayon etilishi mo'ljallangan. Lekin biz hozir asarning birinchi qismigagina egamiz. Asarning qolgan ikki qismi, fikrimizch'i yozilmay qolgan.

«Zafarnoma»ning bazing davrimizgacha yetib kelgan tahriri 1425-yil yozib tamomlangan.

Aur biz mashg'ul bo'lib turgan mavzuni o'rganishda asosiy mabulardan biri rolini o'tashi shubhasiz. Unda Chig'atoy ulusining urxi, xususan, XIV asarning 40—60-yillardagi ijtimoiy-iqtisadiy ahvoli, Temur davlati bilan Mo'g'uliston o'rtaasidagi siyosiy munosabatlar, xususan, Amir Temurning 1375, 1377, 1383, 1389 1390-yillar Mo'g'uliston ustiga qilgan harbiy yurishlari va Qazanidin, Anqo to'ra va boshqa mo'g'ul feodallari bilan olib borgan hushchi batafsil yoritib berilgan.

«Zafarnoma» jahon ilmiy jamoatchiliginin doimo o'ziga jalb etib halayotgan asarlardan biridir. Movarounnahr, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Arabiston, Iroq, Jo'chi ulusi va Mo'g'ulistonning XIV—XV asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bilan slug'ullanuvchi binari tarixchi «Zafarnomavsi» ish yuritolmaydi.

Asarning qo'lyozma nusxalarini ko'p. Matni Hindistonda (1885—1888-yil mavlono Muhammad Illoqodd), Eronda (1957-yil Muhammed Abbosiy) va O'zbekistonda (1972-yil A. O'rınboyev) chop qilingan. «Zafarnoma»ning ayrim boblari fransuz, ingliz va rus tilida ham nashr etilgan. Asarning uchta o'zbekcha (eski o'zbekcha) tarjiması mavjud. Ulardan biri Shayboniy Ko'chkunchixon (1510—1530)ning topshirig'i bilan Muhammad Ali ibn Darvish Ali al-Buxoriy tarafidan bajarilgan va hozir Turkiyada Nuri Usmoniya kuubxonasiда saqlamoqda. Ikkinchi nusxa noma'lum bir shaxsning qalamiga mansub bo'lib, hozir Istambulda To'pqopi saroy kuubxonasiда saqlamoqda. Lekin noma'lum tarjimon asani ma'lum jihatdan qaytadan ishlagan. Va, niroyat, uchinchi tarjima qisqartirilgan tarjima bo'lib, xivallik Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad so'fi al-Xivaqiy tarafidan mashhur shoir, tarixchi va davlat arbobi Sher-muhammad Munis topshirig'i bilan bajarilgan.

«Tarihi arba' ulus» («To'rt ulus tarixi»). Igari Chingizzon imperiyasi tarkibiga kirgan mamlakatlarning XIV asarning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga olgan muhim tarixiy asar. «Ulusi arba'yi Chingiziy» («Chingizylarning to'rt ulusi (tarixi)») nomi bilan ham mashhur. 1425-yildan keyin yozilgan.

Afsuski, asarning to‘liq nusxasi saqlanmagan, to‘g‘risi hali top magan. Bizgacha uning qisqartirilgan nusxalari yetib kelgan. Ulardan ikkitasi Angliya (Oksford va Londonda); bittasi AQShda (Bank) xalq kutubxonasida) saqlanmoqda.

«Tarixi arba’ ulus» Amir Temurning ardoqli nabirasi, buyuk olim ilm-fan va madaniyat homysi, yirik davlat arbobi Mirzo Ulug‘ (1394—1449)ning qalamiga mansub. Unda Chingizzxon hayotining so‘nggi yillarida tashkil topgan to‘rt davlat (ulus): Ulug‘ yurt, yo‘nalish Mo‘g‘uliston bilan Shimoliy Xitoy, Jo‘chi ulusi, Chig‘atoy ulusi va buyuk jahongirning nabirasi Halokuxon 1256-yil tashkil etgan. Xoniylar davlati (Eron, Iroq, Ozarbayjon)ning XIII—XIV asrining birinchi yarmidagi siyosiy tarixi haqida hikoya qilinadi.

Asarni taxminan muqaddima va yettita bobga bo‘lishi mun-kin. Chig‘atoy ulusi tarixini o‘rganishda asarning to‘rinchi (101^b—114^c) va yettinchi boblari alohida qimmatga egadir. To‘rinchi bob Chingizzxonning Ulug‘ yurt, ya’ni Mo‘g‘uliston va Shimoliy Xitoyni idora qilgan vorislari tarixini o‘z ichiga olish unda O‘gaday qoon (1227—1241) zamонидан to Arik Buqo (1370) avlodи O‘rdoy qoongacha bo‘lgan davrda Ulug‘ yurtda yuz bezmoiyoj-siyosiy voqealar haqida hikoya qilinadi. Boshqa so‘z bilan aytganda, Chingizzxon vafotidan (1227), keyin to Amir Temur monigacha Mo‘g‘ulistonda hukmronlik qilgan 21 xondan 17 nafarining tarixi qisqa tarzda bayon etiladi. Shuni alohida aytish keruldi «Jomi’ ut-tavorix» mualifi (Rashiduddin) ulardan faqat to‘rtini O‘gaday qoon, Guyukxon, Mangu qoon, Xo‘bilay qoonlarning nomini zikr etgan, «Muqaddimavi Zafarnoma» mualifi (Sharafiddin Ali Yazziy) esa ulardan faqat 14 tasining nomini tilga olgan.

Yettinchi bobda esa Chig‘atoy ulusining tashkil topgan davri qadar (1370) kechgan tarixi bayon qilinadi. Ma‘lumki, Chig‘atoy ulusining qariyb 150 yillik tarixi yozilmagan. Shu jihatdan «Turis arba’ ulus»da keltirilgan 33 xon tarixi qisqa bo‘isa-da, ahamiyat ko‘shtadi. Bu material «Tarixi Rashidiy», «Bahr ul-asror» (q.) va boshqa

tarixi manbalarda keltirilgan ma‘lumotlarni qo‘shgan va arxeologik muijqotlar va numizmatika materiallarini jalb etgan holda kelajakda Chig‘atoy ulusining siyosiy tarixini yaratish imkonini beradi.

«Tarixi arba’ ulus»dan ayrim parchalar rus tiliga tarjima etilib, turli ilmiy majmular va tadqiqotlar ichida (B. B. Bartol’d, 1941, с. 162—164; «Сборник материалов, приславшихся к истории Золотой Орды, Часть II, Москва-Ленинград, 1941, с. 262—268); qisqartirilgan inglizcha tarjimasi filkovnik Mayls tarafidan nashr etilgan (London, 1838). Asarning to‘hu o‘zbekcha nashri bir guruh sharqshunos olimlar (B. Ahmedov, N. Norhulov, M. Hasanov) tomnidan amalga oshirildi (Toshkent, 1994).

Mo‘g‘uliston (Chig‘atoy ulus)ning XIV asr o‘rtalaridan XVI asrning 30-yillari gacha bo‘lgan davr ichidagi tarixini o‘rganishda Mir-Muhammad Haydar dug‘lot (1500—1550)ning «Tarixi Rashidiy» nomi muhim ahamiyat kasb etadi. Asar Yorkand xoni Abdurashidxon (1533—1570)ga bag‘ishlangan va 1543—1544-yil Kashmirda, muallif o‘sha o‘lkada hokimlik qilgan paytda yozib tamomlangan.

Asar mualifi Muhammad Haydar ibn Muhammad Husayn ko‘ragon yirik tarixchi olim va davlat arbobi bo‘lib, u 1500-yil Toshkentda tavallud topgan. Muhammad Haydarning hayoti juda lojaviy kechgan. Otasi 1508-yil Muhammad Shayboniyxonning buyrug‘i bilan qatl etilgan. Muhammad Husayn ko‘ragonga sodiq kishilar sakkiz yashar bolani avval Buxoroga, undan Badaxshonga olib borib qarindoshi Sulton Uvays Mirzo (Mirzaxon)ning qo‘liga topshiradilar. Keyin u Kobulga xolavachchasi Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga bordi va 1512-yilgacha u bilan birga bo‘ldi. 1512-yilning kuzida Muhammad Haydar Andijonga yana bir qandoshi (xolavachchasi) Sulton Sayidxon huzuriga keldi, so‘ng u bilan birga Koshg‘arga ketdi va 1533-yilga qadar uning xizmatida bo‘ldi. Lekin o‘zi tarbiyalab o‘stirgan yangi xon Abdurashidxon bilan oxiri murosasi kelishmay qoldi va yana Kobulga, bu gal Komron mirzo huzuriga qo‘olib bordi, u yerdan Agraga Humoyun podshoh (1530—1555; ikkinchi da‘fa 1555—56) huzuriga bordi. 1541-yil

Hunoyun podshohning yordami bilan Kashmirmi bo'ysundirdi uni 10 yil idora qildi. Muhammad Haydar 1551-yil tog'li qabilah bilan to'qnashuv chog'ida halok bo'idi.

Muhammad Haydar keng ma 'lumotli kishi edi. Zahiriddin Mhammad Boburning so 'zlariga qaraganda, u durusgina xattot, som va shoir edi. Nayza va kamon yasovch'i usta ham bo'lgan u

Muhammad Haydardan ikkita asar qolgan, biri «Jahonnom» atalib, ertak janrida yozigan. Mazkur asarning yagona qo'lyozni nuxasi hozirda Berlin (Germaniya) kutubxonalaridan birida saqlan moqda. Olimning ikkinchi muhim asari yuqorida tilga olganini «Tarixi Rashidiy»dir.

«**Tarixi Rashidiy»** ikki qism (daftardan iborat. Birinchi daftari (1544-yil yozib tamomlangan) Chig'atoy nasli haqida bo'lib, Mo'g'ulistonda hukmonlik qilgan xonlar: Tug'luq Temur (1348—1363)dan to Abdurashidxon (1533—1570)gacha o'tish hukmdorlar tarixini o'z ichiga oladi. Ikkinci daftar (1543-yil yozilgan) olimming o'ziga xos esdaliklari bo'lib, muallif tug'ilgan davrdan (1550) to 1541-yilgacha kechgan voqealarni o'z ichiga oladi. «**Tarixi Rashidiy»** Koshg'ar, O'rta Osiyo, Afg'oniston hamda Shimoliy Hindistonning XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI boshlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bo'yicha ko'p qimmatli fakt va ma'lumotlar beradi.

Muhammad Haydarning «Tarixi Rashdiy» assari ko‘pdan ber jahon ilmiy jamoatchiligining diqqat-e‘tiborini o‘ziga jalb qilib kel moqda. Uning juda ko‘p tillarga: uyg‘ur (o‘zbek), rus va G‘arbiy Ovrupa tillariga tarjima qilinganligi bunga dalil-isbotdir. Masalim asardan ayrim parchalar V. V. Velyaminov-Zernov (1834), K. G. Zelenman (1888), Muhammad Shafe’ (1934), K. A. Pishulina (1969), Y. Katrmer (1843), Elliot va Douson (1873), T. V. Arnold (1930) tunc fidan rus, fransuz va ingлиз tillarida (tarjimasi) chop etilgan³⁰. Asosan Y. Denison-Ross va N. Elayes amalgalashuviga oshirgan to‘la inglizchi

1950 yilda «iT» nashriyoti «Qarxi Rashidiy»ni rus tilida nashr etdi. Uni fors (100mln A. O'tribosy, R. Jalilova, L. Yefifanova tarjima qilishgan. (*Tahr.*)

masi (London, 1898) va uchta uyg'urcha (o'zbekcha) tarjimasi
bor. Uyg'urcha-o'zbekcha tarjimatları orasida qashqarlıq kat-
olik, «Tazkirayi azizom» asarının müallifi Muhammad Sodiq
Kohg'ariy (1849-yil vafot etgan) amalgal oshırıgan tarjima zo'r
limmatga molik. Tarjimon Mirzo Muhammad Haydarıning kitobiga
moxsus qo'shimcha yozib qo'shgan. Muhammad Sodiq Koshg'a-
rovning qo'shimchasida 1546—1838-yillarda Sharqiy Turkiyastonda
borılıb o'tgan voqealar o'z aksini topgan.

Chig'atoy ulusi tarixi manbalari haqida gapirganda yana bir
muhim asar — «Bahr ul-asror»ni tilga olmasak bo'lmaydi. Asar-
ning to'iq nomi «**Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor**» («Olijanob
ishlarning jasorati haqidá sirlar dengizi») 1634—1640-yillarda yo-

«Bahr ul-asror» mualifî Mahmud ibn Amir Vali (1396—yil
il tug'ilgan — vafot topgan yili aniqlanmagan)ning ota-onasi asli
long' onanining Kosonidan bo'lib, Shayboniylardan Pirmuhammad-
xon (1546—1567) Balxda hokimligi davrida o'sha yerga borib
qolishgan. Otasi saroy xizmatida bo'lgan. Mahmud ibn Vali o'sha
jorda — Balxda tavallud topgan va yaxshi o'qib, keng ma'lumot ol-
jon. U fiqh, tafsir, tarix, astronomiya, mineralogiya, geografiya, ilimi-
kulub kabi fanlarni atrofichcha bilgan. Yaxshigina shoir ham bo'lgan.
1624—1631-yillar Hindistondan Sarandib (Silon)ga sayohat qilib,
hindistonda yetti yil turgan.

Mahmud ibn Amir Vali ilm-fanning juda ko'p sohalarini, xusu-
sun, tarix, geografiya, astronomiya, mineralogiya, tabiyot bo'yicha
muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan «Bahr ul-asror fi mano-
qib ul-ahyor» nomlik yetti jildlik qomusiy asar yozib qoldirgan. U
undan boshqa «Ravoyinli tayyiba» («Xushbo'y islar»), «Muhab-
batnom», «Najime sohib» («Yorug' yulduz»), «Risolayı bahoriyya»
(*«Bahor haqida risola»*), Axloqi husayniy» (*«Yaxshi xulqlam»*) kab
birtalay ilmiy va adabiy asarlari ham yozgan. Mahmud ibn Vali 50
ming baytdan iborat she'riy asar (devon) ham bitgan. Lekin olim
ning «Bahr ul-asror»dan boshqa asarlari saqlanmagan, to'g'risi hal
idirib topilmagan.

Mahmud ibn Amir Valining faqat «Bahr ul-asror» asarini qo'lyozmalarini (ularning bir qismi Toshkentda, boshqa bir qismi Aqliyada saqlamoqda) bizning zamonomizgacha yetib kelgan. XIII—VII jildlari tarix bo'lib, Markaziy Osyo va boshqa Sharq mamlakatlarining qadim zamonlardan to 1640-yilgacha kechgan tarixni yoritadi. Asarning birinchi jildi tarixiy geografiya, astronomiya mineralogiya va nabotot (o'simlikshunoslik) hamda hayvonot olumhaqidagi ilmlarni o'z o'chiga oladi.

Asarning original va biz uchun qinnmatli qismi VI jildni to'rtinchchi rukni (qismi) bo'lib, unda Markaziy Osyo xalqlarini maxsus Chig'atoy ulusi tarixiga oid ikkinchi bobida Chig'atoy ulusul-asror»ning bu qismi ba'zi jihatlari bilan yuqorida zikr etilgan.

Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus»iga o'xshab ketadi. Lekin «Bahr ul-asror»da voqealar nisbatan kengroq va batafsilroq bayon etilgan. Undan tashqari, Chig'atoy ulusining Jo'chi ulusi ularning Elxoniyalar davlati bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari, Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turk-mo'g'ul qavmlarining Chig'atoy ulusisi ijtimoiy-siyosiy hayotidagi mavqeyi haqida ham diqqatga sazovor ma'lumotlar bor.

«Bahr ul-asror» — kam o'rganilgan asar. U hali-hanuz to'liq tarzda chop etilganicha yo'q. Asardan ayrim parchalar akademik V. Bartold va ushbu satrlar mualifni tarafidan rus tilida nashr qilindil. Shu yerda yana bir muhim manba — «Mu'izz ul-ansob» haqidagi ikki og'iz fikr aytishga to'g'ri keladi. Chingiziyalar yoki Temurylarning naslu nasabi xususida savol tug'ilganda bu muhim manba hamma vaqt tadqiqotchiga qo'l keladi. Sirasini aytganda, busiz ulrixchilarining ishi yurishmaydi. Shu bois nasabnomalar (baxiga qoshi shi ular manbalarning boshqaga turlariga qaraganda juda kam) muhim tarixiy manba hisoblanadi.

«Mu'izz ul-ansob» («Izzat-hurmatga sazovor (kishilar)lar nasabini nomi yuqorida zikr etilgan yirik tarixchi olim Hofizi Abro' yozgan») degan taxmin bor. Chingizzon va avlodiga tegishli qismi Rashidid.

duning «Shu'abi panjona» asaridan olingan. «Mu'izz ul-ansob» mullifi mo'g'ullarga oid qismini tushirib qoldirgan. Rashiddinning so'zboshisini ham bir qadar qisqartirgan; arablar, hindlar, xitoylar va faranglarga tegishli joylarni ham tushirib qoldirgan. O'zidan Temur va temuriylar shajarasini qo'shgan. 1426—1427-yilda yozib tamomlangan.

«Mu'izz ul-ansob»ning uchta nusxasi bizgacha yetib kelgan. Bitonida; uchinchisi esa Istanbulda To'pqopni saroy muzevida saqlanmoqda.

Asarning Temur va Temuriylarga oid qismi 1990-yil Blyuming'on (AQSh)da amerikalik sharqshunos olim Jon Vuds tarafidan (ingilcha tarjimas) chop etilgan.

* * *

Temur bilan Qamariddin o'rtaasidagi munosabatlari — ushbu risolining bosh mavzuyi. Lekin bu munosabatlarning zamanimi ham, ikki o'rta da ko'p yillar davom etgan shafqatsiz urushlarning sabablarni ham Chig'atoy ulusi tariximi bilmay turib tushunish qiyin. Shuni e'tiborga olib mazkur ulus tarixining ayrim taraflariga, xususan, uning fashkil topishi, ikki qisnga ajralib ketishi va XIV—XV asirlardagi umumiy ahvoliga qisqa tarzda to'xtab o'tishni lozim topdik.

Ushbu risola qo'lyozmasini muhokama qilishda qatnashib, asar xususida fikr bildirgan hamkasblarga, xususan, A. Xo'jayev, D. Yusupova, O. Jalilov va O. Bo'riyevlarga mualif o'zining cheksiz minneldorligini izhor etadi.

Birinchi bob

CHIG'ATOY UL USI (XIII—XIV asning 30-yillari)

Jahongir Chingizzon o'limi (1227) oldidan, ya'ni 1224-yilda o'zining ulkan imperiyasini o'g'llariga ulus-ulus qilib quyidagicha taqsimlab berdi:

To'ning ich o'g'il Jo'chixonga (tug'ilgan yili noma'lum — 121) yil aprel oyida, otasidan olti oy avval vafot etgan) Irtish daryosi havzasi va Olttoy tog'lari atrofidag'i yerlarni in'om etdi va: «Dati ti Qipchoqni egallab, ulusingga qo'shib ol!» — deb amr qilin. Jo'chixonning qarorgohi dastlab shu Irtish daryosi bo'yida edi. Keyinchalik u Dashiti Qipchoqning Sharqiy qismimi, ya'ni Sirdaryoni o'rta va quyi oqimidagi yurtlarni — Sig'noq, Barchinlig'kent, Juui kent va Ashans shaharlari bilan, Xorazmning shimali-g'arbiy qismini poytaxt Gurganj shahari bilan qo'shib o'ziga qaratib oldi. Shu paytdan boshlab Jo'chixon qish oylarini Sirdaryoning quyi oqimida yoz va kuz fasllarini esa avvalg'iday Irtish daryosini sohillarida o'tkazdigan bo'ldi.

Ikkinchı o'g'li Chig'atoyxonga (tavallud topgan yili ma 'humemas — vafoti 1241-yil) Yettisuv o'lkasi, Koshg'ar va Movarounahrni to Jayxun sohillari gacha bo'lgan viloyatlar bilan qo'shib ulus qilib berdi. Keyincha hozirgi Afg'onistonning shinoliy qismini Hindikush dovonlariga gacha bo'lgan viloyatlar bilan birga Chig'atoysiga qo'shib olindi. Bu voqeя Chig'atoy ulusida Tormoshin hukmron bo'lган yillari (1326—1335) yuz bergen. Chig'atoyxonga ning qarorgohi — yozligi ham, qishligi ham Ila daryosi bo'yida Maravzuq Ila va Quyosh degan yerda bo'lgan.

Toj-taxt saltanat vorisi bo‘lmish O‘gadayxonga (tug‘lum vaqtiga nomalum — vafti 1241-yil) G‘arbiy Mo‘g‘uliston va hujum bog‘atoy³¹ berildi. O‘gadayxonning o‘rdasi Chug‘uchakda o‘lini lashgan edi.

Jahongirning kenja o'g'li Tuluyxon ga esa ota mulki — Sholmoliy Mo'g'uliston (Xalxa — Mo'g'uliston) tegdi. Tuluyxonning o'rdu si Kerulan daryosi bo'yida edi.

Chig'atoy ulusi haqida so'zlaydigan bo'lsak, boshda uning tarkibida bo'lgan Uyg'uristondan to Buxoro bilan Samarqandga qo'shilgan bo'lgan viloyat va mamlakatlar kirganganligini aymoq lozim. Lekin

³¹) Torbog'atoy — Tyanshan tizma tog'laridan bitining nomi; G'arbiy Mo'lik toni: Qoraxomiylar asos solgan Emil shahari (Chug'uchaq yonida) o'sha Torbog'atoyda jing lashgan edi.

lioni alohida qayd etish kerakki, Olg'uxon hukmronligiga qadar (1261 — 1266) Chig'atoy va uning vorislari oly hukmdor hisoblanib, ularning haq-huquqi oliq-soliqning faqat ma'lum qisminigina bilan cheklangan edi. Kepakxon va Tormoshiringa qadar barbu xonlar o'z o'rdragoholaridan — Olmaliq va Beshbaliqdan nariga

Mohmud Yalavoch, u Xitoya xizmatga yuborilgandan keyin esa ming o'g'i Mas'udbek idora qilganlar. Bu xususda tarixshunos mahdiddinning mana bu ma'lumoti diqqatga sazovordir. «Aytish-hicha, O'gaday qoon zamonda (1227—1241) uning amr-farmo-bilhan (Mahmud) Yalavochning ixtiyorida bo'lgan Movarounnahr viloyatlaridan birini Chig'atoyxon maxsas yorliq bilan kimgadir o'm etibdi. (Mahmud) Yalavoch buni qoonga yetkizdi. Qoon esa shu zahotiyoyq Chig'atoyxonga yorliq yuborib, nima sababdan shu qilganini tushuntirib berishni talab qildi. Chig'atoyxon javob qoldi: «Men bu ishni bilmay qilib qo'yibmen, shu bois nima deb javob qilishimni ham bilmay qoldim...» Chig'atoyxonning javobi qoonga ma'qul tushdi, uni avf etdi va o'sha viloyatni uning o'zi-inju³² tariqasida qaytarib berdi. Shundan keyin Chig'atoyxon (Mahmud) Yalavochni huzuriga chaqirtirdi, so'roqqa tutdi va uni qottiq haqrat qildi. (Mahmud) Yalavoch (qoon huzuridan chiqqach) chig'atoyxonning vaziri (Habash Omid)ga dedi: «Men qoonning nobi eturmen. Chig'atoy sen birlan kengashmasdan meni o'idirol-muydi. Bordi-yu ustingdan arz qilgundai bo'lsam, u semi o'limga mukum etadi. Agar ishimni to'g'ritasang, nur ustiga a'llo nur, aks holda, qoondan semi jazoga tortishini so'rab iltimos qilamen. Agar shu gaplarimni Chig'atoysa yetkuzgundai bo'lsang, u meni qancha jibga olmasin, baribir, hech narsa aytmaymen, sening ersa biron ta'voching yo'q». Xullasi kalom, vazir (Habash Omid) uning ishimi ko'p o'tmay qoon Chig'atoyxon bilan munosabati buzilib qolishi mumkinligini o'ylab, Mahmud Yalavoch-

³¹) Torbog' atoy — Tyanshan tizma tog'laridan birining nomi; G'arbiy Mo'lik ton: Qoraxomiylar asos solgan Emil shahari (Chug'uchaq yonida) o'sha Torbog' atoyda jis lashgan edi.

ni Shimoliy Xitoya hokim qilib yubordi. Uyg'uristonga qaramdi Beshbaliq, Qoraxo'ja, Samarcand va Buxorogacha bo'lgan viloyatlar, Jayxun sohiliqacha bo'lgan orollarni ham qo'shib, uning o'ngi Mas'udbekka berdi. Yuqorida Rashididdinning kitobidan keltirilgan bu parchada haqiqatdan ham Chig'atoy ulusining inon-ixtiyori XII asrning 70-yillariga qadar qoonning qo'lida bo'lib, Chig'atoy va un dan keyin xonlik masnadiga ko'tarilgan vorislari, yuqorida aytilgan madning bir qismigagina egalik qilganlar, xolos.

Chig'atoy ulusining tarixiga o'tishga to'g'ri keladi. Qoonlar, O'gaday qoon ham, undan keyin xon ko'tarilgan Guyuk qoon (1248—1249) ham, Munka qoon (1251—1260) ham qoonlikka munosib haq-huquqqa ega emasdi. Ularning hukmi uluslarga, aymiqsa, Jo'chi ulusiga o'moni Aksinchha, Botuxon (1236—1255) va Berkaxon (1257—1260)³² nufuzi batto Ulug' yurtda ham kuchli edi. Qoonlar Botuxon yoki Berkaxon bilan kelishmay va uning maslahatini olmay turib, biron ish qitolmas edilar. Aksinchha Botuxon, mashhur rus tarixchisi A.Y. Yakubovskiy (1886—1953) juda to'g'ri ayganday, mo'g'ul uluslarning ichki ishlariga aralashib tundi, mo'may daromadni ko'zib ularning harbiy yurishlarida ishtirok etdi. Nafaqt boy o'jha, bishi bosib olingan mamlakatlarning katta-katta viloyatlarini o'ziga qil qilib oddi. Oltin O'rda xonlarining, xususan, Botuxon va Berka xomming, ixtiyorida shunday uluslar, «Tabaqoti nosiriy» (XIII asr) va «Chingiznomma» (XV asr boshi) mualliflari keltingan ma'lumotlarga qaraganda, nafaqt Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan Movarounnahrda, balki qo'shni Eronda ham bor edi.

Endi Chig'atoy ulusi haqida. Uning ijtimoiy-siyosiy ahvollari, hujso'z bilan aytganda, Kepakkonga qadar (1318—1326) barqumi emasdi. Chig'atoyxondan keyin xon etib ko'tarilgan nabirasi Qor Haloku (1241—1247)ning ulusdagi ta'siri ham aytarlik darajuda emas edi. Manbalarda keltirilgan fakt va ma'lumotlar uning ham nomigagina xon bo'lganligi, saltanat jilovi amir ulumaro Qorachon no'yonning (Amir Temurning oltinchi jaddi) iqitorli qo'lida chani-

qulan guvohlik beradi. «Neknom Chig'atoyxondan keyin, — deb nomli Mirzo Ulug'bek, — Sug'u Chechanning o'g'li Qorachor mamlakat va sultanat zabi nasag'ini, raiyat, tamom xalq ni yon mamlakat qo'shishni qo'shishni qo'shishni qo'shishni... qilishi ta'minoti kitoyatini ma'muriy qaror bo'yicha qo'iga oldi... Chig'atoyxon va fotidan bir necha vaqt o'tgach, Qorachor no'yon qyon maslahatiga binoan, Qora Halokxonni xonlikka tanlab, salinot taxtiga uning julusidan ziynat baxsh etdi». Ko'rinish turibdiki, qidu hokimiyyat to'lig'icha amir ul-umaroning qo'lida ekan. Ora-jon ligat bir necha vaqt o'tgach, zamona taqozosi bilan, Qorachor no'yon Qora Halokuni taxtga o'kazibdi. U esa yana o'sha «Tarixi miyati' ulus» muallifining so'zlariga qaraganda, himmatli amiriga bir qurruq qilib kun kechirgan.

Qora Haloku 1247-yili Guyuk qoonning (1246—1249) amr-farmi bilan taxtdan tushirildi va o'miga Chig'atoyxomning beshinchi o'g'li Yesu Munkaxomni taxtga o'tqizdilar (1247—1252). Le'in u davlat ishlariga rag'bat qilmadi, tamom vaqtini aysht-u ishrat va maishhat bilan kechirdi. Hokimiyyat esa amir ul-umaro Qorachor no'yon, vazir Bahoudin Marg'imoniy va xomming xotini Tuqashi-qing qo'lida bo'ldi.

Guyuk qoon vafotidan so'ng (Emildan³³ Samarcandga borayotganda yo'lda vafot etdi) Mo'g'ul imperiyasida siyosiy vaziyat bir qolur og'irlashdi. Yana o'sha Botuxomning aralashuvi bilan qoonlik masnadiga Guyukxonning bevasi Ug'ul G'aymish o'tqizildi. Unga vazir etib esa ilgari O'gadayxomning kotibi bo'llib xizmat qilgan muroni yug'ur Chinqoy tayinlandi. «Sultanatni ilgariday Chinqoy bilan bannaslahat boshqarsinlar, — deb yozgan edi Botuxon Guyukxonning bolalariga, — uning so'zidan chiqmangizlar. Men leksalik, quvvatsizlik va oyoq og'rig'i tufayli joyimdan qo'zg'atol-muy qoldim. Shu sababli siz yosh jiggargo'shalarim ahil bo'linglar va uning so'zidan chiqmanglar». Natijada butun hokimiyyat vazir Chinqoyning qo'liga o'tib qoldi. O'g'il G'aymish bo'lsa davlat ishlariga o'tga boy xushtibiat mavze.

kam e'timod bo'lib, tamom vaqtini shaman rohiblari bilan o'la
ahyon-ahyonda tevarak-atrofdan kelgan savdogarlar bilan uchun
ularning sovg'a-salomlarini qabul qilar edi, xolos. Oxir-oqibat man
lakatta beqarorlik yuz berdi. «Uning o'g'illari Xoji bilan nata
onasidan arazlashib, ketib qoldilar va mustaqillik tug'ini ko'turdil
Shu tariqa mamlakatda uch hukmron o'z maylitcha ish tutdi, eloy
esa qarama-qarshiliklar va taribisizliklar iskanjasida qoldi», — de
yozadi Rashididdin. O'g'ul G'aymish va Chinqoyga qarshi O
o'sha paytdagi oliv hukmori Yesu Munka qo'llab-quvvatladi. Illo
day qoonning avlodni ham bosh ko'tardi. Ularni Chig'atoj ulusining
ga Chig'atoyxonning boshqa bolalari ham qo'shildilar.

Botuxon Ulug' yurtda boshlangan beqarorlik va ko'p hokim
yatchiliikka barham berish maqsadida qurultoy chaqirtirishga qo'm
berdi. Lekin qattiq oyoq og'rig'iga mubtalo bo'lib qolganimi buloni
qiib, Ulug' yurtiga o'zi borolmasligini aytidi; qurultoy Jo'chi ulus
chaqitirdi. O'gadayxon, Guyukxon va Chig'atoyxonning avlod
poytaxti O'nun bilan Keluron³⁴ errur, shu sababdan bizlarning Dush
ti Qipchoqqa borishimizga hech qanday ehtiyoj yo'qduri», — dit
javob qildilar ular. Shahzodalarning shu javobi bilan Qoraho'rum
ning³⁵ ko'zga ko'rigan amirlaridan Temur no'yomni Boni
huzuriga jo'natdilar. Oxir-oqibat, qurultoyni Keluronda to'plulig
qaror qildilar va uni Botuxon nomidan borib Berkaxon o'kazadi
bo'ldi. Tulyuxxonning bevasi Sorkuktani begi va Botuxon qoonlik
taxtiga Tulyuxxonning to'ng'ich o'g'li Manguxonni o'tqizishni ke
lishib oldilar. O'gadayxon, Guyukxon va Chig'atoyxonning avlod
bunga rozi bo'lishmadi. Lekin Sorkuktani begi va Berkaxon, burilij
1251-yil 23-fevral kuni Qoraho'runda bo'lib o'tgan qurultoy Man
sharqiy tarafida; Xongay tog'laridan boshlansadi.

³⁴ O'n on va Keluron — Mo'g'ulistonning azim daryolaridan. Uning shuoni
³⁵ Qoraqo'r um — O'rxun daryosi bo'yida joylashgan shahar. Chingizzon, O'

gusoni taxtga o'tqizishga qaror qildi. Qurultoy o'tgandan keyin
Botuxonning ko'rsatmasi bilan, Berkaxon va Munkaxonning
ishirokida, gardankash shahzodalar ustidan katta sud uyushtirildi va
nata sudning qarori bilan 77 nafar shahzoda va amir yasoqqa yet-
weldilar. Ularning orasida yuqorida tilga olingen O'g'ul G'aymish
va Sheramuning onasi Qadag'ach xotin ham bor edilar. Shundan
keyin Chig'atoj avlodining nufusi sindi.

Va shu yerning o'zida Yesu Munkaning Chig'atoj ulusi taxtidan
mohulgani e'lion qilindi. O'miga yana o'sha Qora Halokuning
indisi. Lekin u ulus markazigacha yetib borolmadı. Yo'lda, Oltoyda
ipso qildi. Shunga qaramay, Qora Halokuning amirlari va lashkari
Chig'atoj ulusining markazi Maravchueq Ilaga yetib bordilar va
Yenu Munqani qo'iga tushirib Botuxon huzuriga jo'natib yubor-
ildi. Chig'atoj ulusi taxtiga esa marhum Qora Halokuning o'g'li
Muborakshoh o'tkizildi. Lekin u hali juda yosh edi. Shu sababdan
ilovlat ishlarini onasi Arg'una xotin qo'liga oldi. Arg'una xotin, Mir-
in Ulug'bekning so'zlariga qaraganda, «g'oyatda viqorli, xushxula
solin edi. Musulmonlarning barcha ishlariga mayl ko'rgizardi. Mu-
slimonlarning mol-u joni riroyati va muhofazasida biror daqiqa ham
kechikmas edi». Ko'rib turibsizki, Chig'atoylar orasida istomga
moyilik aynan Muborakshoh va uning onasi Arg'una xotin zamoni-
du uncha kuchaydi. Muborakshoh davrida nasroniylik va shamanlik
ham kuchli bo'lgan. Uning Ilta vohasida emas, balki Ohangaron-
lu, musulmonlar yurtida, taxtga o'tqazilishi (1266) bunga yorqin
dolildir.

Lekin Muborakshoh to'la hokimiyatga ega emasdi. Hokimiyat
Botuxon va Munqa qoon nomidan hukm yurgizib turgan Mas'ud-
bekning qo'lida edi. Nafaqat Chig'atoj ulusi, balki boshqa uluslar
ham, o'sha yillari Botuxon bilan Munka qoon qo'liga qarab qol-
undi. Bu faktmi tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlar to'la
toidiqlaydi. Masalan, 1253—1255 yillari Mo'g'ulistonda bo'lgan
Hlamandiyalik sayyoh rohib Vilgelm Rubruk (1215—1270) o'sha
puytda tamom Mo'g'ul imperiyasi Botuxon bilan Munka qoon o'rta-
ida taqsim qilib olinganligini aytadi.

Qissasi, o'sha Qoraqo'rum qurultoyidan (1251) keyin Chig'atox (Chig'atox) ulusi ikki qismiga ajralib ketdi. Yettisuv, Sharqiy Turkiston, G'uljohovasi, shuningdek, Farg'onanining shimoli-sharqiy qismi Munko qoonning, Movarounnahr, G'arbiy Farg'ona va Xorazmning janubi g'arbiy qismi Botuxon va Oltin O'rdening ta'sir doirasiga tulili goldi. Botuxon va Munqa qoonga tobe bo'lgan yerlar o'rtasidagi chegara Talos va Chu daryolari oradig'idagi cho'l bo'ylab o'tar edi o'shanda.

Chig'atoxonning nabirasi (Boydorning o'g'li) Olg'uyning ulusining haqiqiy muassisini deb hisoblanishni mumkin. U, hokimiyat tepasiga kelganining dastlabki kunlariдан ulusning mustaqiligi uchun Arik Buqo va Berkaxon bilan kurash olib bordi. Olg'uy amir ul-umaro Ijl no'yoning (Amir Temurning beshinchchi jaddi) ko'magi bilan Arik Buqoga qarshi qo'shin tortdi va uning ustidan g'alaba qozondi. Olg'uyning Chig'atox ulusining Oltin O'rdening harbiy-siyosiy ta'siridan chiqarish yo'ida olib boran kurashi ham unga muvaffaqiyat keltirdi. U Buxoroda turgan chi Vassof ular xomming buyrug'i bilan shahar tashqarisiga, dashtlik ming kishilik Oltin O'rda qo'shini yurtdan haydab chiqardi. Tarkka olib chiqib bitta ham qo'y may qirib tashlanganini aytadi. «(Ulu yozgan) mol-mulki, xotin-xalajji va bolalari musodara qilindi», — deb yozgan edi yana muarrix. Rashiddin bundan ham qiziq voqeani hikoya qiladi. «Olg'o'y, — deb yozgan edi u, — bir marta O'tor yonida Berkaxonning qo'shini bilan savalashishdi va uni talon-toro qildi».

Olg'uyning o'miga rasman xon qilib ko'tarilgan Muborakshoh ham ulus Ijl no'yoning sa'y-harakati orqasida emm-u omonlikda bo'ldi. «Muborakshoh sultonligi davrida, — deb yozgan edi Mirzo Ulug'bek, — Chig'atox ulusi amir Ijl no'yon barlos siyosati vi tutumi saodatidan g'oyatda xush bo'ldi. Mamlakat uning g'ayrat-qamolidan davlati obod, xaloyiq uning himoyasi va riroyasi soyasida to'kin-u shodmon kun kechirdi».

O'sha yili Chig'atox ulusi taxtiga Chig'atoxonning yana bir avloddi Baroqxon (Baroqxon ibn Yesin-Duva ibn Mutugen ibn Chig'atoxon) o'tqizildi. «Tarixi arba' ulus» muallifining so'zlariga qaratganda, «u shahzodalar, amirlar, xomming xotinlari yordamida salutat taxtida qaror topgan» va bunda Ijl no'yoming xizmati katta bo'lgan, «Amir Ijl no'yon ibn Qorachor no'yon barlosning iltijosi hilan,—deb hikoya qiladi shui muallif,—Chig'atox ulusining barcha amirlari va shahzodalar kelib [uning oldida] tiz cho'kdilar. Butun jehkar va raiyat itoat kamarni jon beliga bog'ladilar. Baroqxon taxt qopisiga qonun yo'li bilan emas, balki kuch bilan, zo'ravonlik bilan kelgani haqida manbalarda bundan boshqa ham ishonarli ma'lumot uchradik. Masalan, Rashididdiuning «Jomi' ut-tavorix»ida mana hunday gap bor: «Baroqxon doimo Xubilay qoon (1260—1294) huzurida bo'lib, topshirilgan vazifani munosib ado etardi. Xubilay qoon uni Chig'atox ulusiga yubordi va uni «Muborakshoh bilan birgalikda idora qilinglar», — deb tayinladi. Birimuncha naqt ular bir-birilariga hurmat-ehhirom ko'rsatdilar. So'ng Muborakshohning bitikchi amirlaridan biri va lashkarning bir qismi Baroqxon bilan til biriktirib Muborakshohni taxtdan tushirdilar. Baroqxon ulusning yugona xo'jayimi bo'lib oldi». Muborakshoh Baroqxon taraafidan Xo'jandda asir olindi. Ishonchli ma'lumotlarga ko'ra, Muborakshoh o'shanda Baroqxonning xizmatiga kirgan.

Baroqxonning hukmronligi (1266—taxm. 1271) Qaydu qoon (O'gaday qooning nabirasi), Xubilay qoon va elxon Abaqaxon (1265—1282) hamda Oltin O'rda xoni Mangu Temur (1267—1280) bilan kurashlarda kechdi. Uning davrida Chig'atox ulusining obro'-e'tibori birmuncha kuchaydi.

Baroqxon Xubilay qooning bevosita yordami bilan Chig'atox ulusida hokimiyat tepasiga kelgan edi. Lekin oradan ko'p vaqt o'may, u valine'matning bu yaxshiligidini unutdi. Sharqiy Turkiston ustiga qo'shin tortdi va qoomonning bu yerdagi noibi Mo'g'uloyni quvvib yuborib, o'miga o'z odamini qo'ydi. Xubilay qoon Baroqqa qarshi 6 ming otliq askar yubordi. Biroq ular Baroqxonning bu yerda turgan 30 ming askariga bas kelolmadiar.

Baroqxonning Qaydu va Abaqxon bilan kurashi ham unga mu
vaffaqiyat keltirmadi.

Qaydu — O'gaday qoonning nabirasi, beshinchchi o'g'li Koshin u
farzandi. Xubilay qoon Xitoyda ekanligidan foydalanib, unga tegishli
li ba'zi viloyatlarni (Rashididdin Qayduning ulusi Chig'atoy ulu
ga tutash bo'lgan deydi) o'ziga qaratib oldi. So'ng Jo'chi utsim
hukmdorlari bilan yaqinlashib olib, Xubilay qoonga gardankashli
qidi. Xubilay qoon unga qarshi kurashda Baroqxonning kuchidil
foydalanmoqchi bo'ldi. Baroqxon Xubilay qoonning topshirig'i
lan unga qarshi qo'shin tortdi. Urushda Baroqxonning jossus
keldi. Keyin Qaydu Oltin O'rddan wordam oldi. Mangu Temur yo
danga 50 ming askar bilan shahzoda Berkajorni yubordi.

Ustunlik endi Qayduga o'tdi. Shunga qaramay, bir-biriga qanli
jang maydonida qo'shin safladilar. Ammo urush bo'lmadi. O'gaday
qoonning avlodni Qipchoq o'rtaga tushib, ularni yarashtirib qo'ydi
O'shandan keyin Qaydu bilan Baroqxon endi quda-anda bo'lib oldi
lar. O'shanda ikki o'rtada imzolangan shartnomani va Talosda bo'lgan
qurultoy qaroriga ko'ra, Movarounnahring uchdan ikki qismi bu
roqxonga tegdi. Qolgan qismimi Qaydu bilan Mangu Temur idori
qiladigan bo'lishdi. O'shanda kelasi yili (1267) Baroqxon Eron
qo'shin tortadigan va Abaqxoniga tegishli yerlardan bir qismini
bosib oladigan bo'ldi. Ikki o'rtadagi kelishuvga binoan o'shandan
keyin ular, Qaydu bilan Baroqxon, endi quda-anda bo'lib olishgan
dan keyin Xubilay qoonga qarshi ittifoq tuzdilar. Ular elxoniylar
qarshi ham bingalachib kurashdigan bo'lishdi. Qayduning maqsud
Baroqxonning Movarounnahrdan uzoqlashtirish va biron quadrilater
podshoh bilan urushtirib qo'yib, iloji bo'lsa uni jismoniyo yo'q qilib
tashlash edi. Ayni shu payt Baroqxonning o'zi Abaqxonidan gano
ochib qoldi. U 1267-yil qish faslini Mozandaronda o'tkazib yotgan
Abaqxon huzuriga Mas'udbekni elchi qilib yuborganini Qaydu
aytdi va ko'z qisib qo'ydi. Qayduning asl maqsadini anglati va agor
u elxonga qarshi urush qilish niyatida bo'lsa, qo'shin bilan O'gaduy
qoonning nabirasi Qipchoq o'g'il va Guyukxonning nabirasi Cho
patni uning ixtiyoriga jo'natajagini ham aytdi...

Mas'udbek ayyorlik qildi. Abaqxoniga qoon nomidan inju
huqiqini so'rab kelganini yotig'ida aytdi. Abaqxon bunga ishondi
va vaziri Shamsiddin Xarrahomiyga inju xususida hisob-kitob hozir
lashni buyurdi, Mas'udbekni esa huzurida olib qolib, kecha-yu kun
duz unga anvoysi mulozimatlar ko'rsatdi. Mas'udbek bir haftadan
keyin maxfiy suratda Abaqxon huzuridan jo'nab ketdi. Oradan
bir-ikki kun o'tib ma'lum bo'ldiki, shu orada Amudaryoning narigi
sohiliga mo'r-u malax lashkar to'planibdi. Shundan ma'lum bo'ldi
ki, Mas'udbek yaxshi niyat bilan emas, balki Baroqxonning jossus
sifitida kelgan ekan.

Xullasi kalom, Baroqxon 10 ming otliq askar bilan o'g'li Bek
temir o'g'lonni Naxshabda qoldirib, Xuroson ustiga yurish boshla
di va 1270-yilning yoz kunlaridan birida Marulloqqa ketib qo'ndi.
Qayduxonning amirlari qipchoq o'g'il qo'shini
bilan kelib unga Amudaryo bo'yida qo'shildilar. Lekin ularning ni
yuti boshqa ekan. Qayduxon o'g'lonlar jo'nab ketayotganlarida ular
ga maxsus tayinlagandi: «Baroqxon daryodan (Jayxundan) o'tishi
bilan Tobshin o'g'il nima bo'lsa ham u bilan jangga tutinadi. Shu
puyi biron bahonayi sabab topib orqaga qaytinglar, chunki tez orada
Abaqxon Baroqni da'f qilish uchun shu qadar katta lashkar bilan
koladiki, uni hatto tog' ham to'sib qololmaydi». Ha, biz yuqorida
aytdik, Qayduning asl maqsadi Baroqxonni yo'q qilish edi. Bu gal
Abaqxonning qo'li baland erishmoqchi bo'ldi bunga.

Gapning qisqasi, shu yerda Baroqxonga Hirot hokimi Malik
Shamsiddin Qurt (1245—1278) ham kelib qo'shildi. Toshbin o'g'il
esa Baroqxon bilan to'qnashishdan bosh tortib, Mozandaronga ketib
qoldi va ahvolni Abaqxoniga yetkazdi. Shunga qaramay, tashabbus
buribir Baroqxonning qo'liga o'tmad. Ko'p o'tmay, qo'shini bilan
Qipchoq o'g'il, Hirot tevaragiga yetganda esa paytini topib, Chapat
o'g'il uni tashlab ketdilar. Shunday bo'lsa-da, Baroqxon tushkunlik
ku tushmadi. Yasur o'g'lonni qo'shini bilan Bodhizga, Marg'avulni
Nishapur va Tus yo'lliga qo'yib, o'zi, asosiy kuchlari bilan, Tolqon
du o'rinalashdi. Uning qo'shmlari 1270-yilning 19-may kuni Nisho
purni, so'ng Hiroti bosib, xalqini talon-toroj qildi.

O'sha kunlari Abaqaxon ham katta kuch bilan Iroqi ajam taraf
dan Xurosonga kelayotgani haqida xabar olindi. Qisqasi Bodhizda
Qorasuv yoqasidagi katta maydonda, ikki o'rtada shiddatli unus
bo'ldi. Natijasi Abaqaxomming g'alabasi va Baroqxomming mag'libi
yati bilan tamom bo'ldi. Bu voqealashiq qur
ganda, hijriy 668-yil zulhijja oyining birinchini kuni (1270-yil 22-iyul
kuni) sodir bo'ldi. Baroqxon qolgan-qutgan odami bilan Amudaryo
dan kechib o'tdi va yo'lida falaj kassaliga mubtalo bo'lib yotib qoldi.
Amirlari va sipohi esa to'g'ri kelgan tarafa tarqalib keta boshladi
Masalan, Chig'atoyxomming nabirasi (Bo'rning fazandi) Ahmad
o'g'il Beshbaliqqa³⁶ qarab, Nikpoy o'g'ik(u ham Chig'atoyxomming
nabirasi) esa Xo'jand tarafga qochdi. Baroqxon mushkul ahvolda
goldi va Choch (Toshkent)ga yaqinlashgach, misi Yasor o'g'ulni
yordam so'rab Qayduxomming oldiga jo'natdi. Qayduxomming uni
hamma narsadan xabari bo'lsa-da, o'zini bilmaslikka soldi. Baroqxon
andaning ahvoliga ko'p achindi, taassuf izhor qildi, so'ng elchili
Baroqxonga albatta yordam yuborishga va'da berdi. Lekin o'sha
zahotiyoyq barcha yaqinlarini kengashga to'plab, o'rtaga maslahat
soldi: «Ko'p yillar bo'ldiki, Baroqxon qonimizni zuluk bo'lib so'lib
keldi. Hatto quroq ko'tarib kelib ulusga ko'p azob-uqubatlar yetkasi
di. Qipchoq o'g'il bor san'atini ishga solib bizni yarashitrib qo'ydi.
To'g'ri, o'rtada qasam bilan mustahkamlangan shartnomasi bor — bi
bir-birimizga yomonlikni ravo ko'rnmaslik haqida ahd-paymon qil
dik. Har kim o'z el-ulusi bilan mashq'ul bo'ladigan bo'ldi. Shun
ga qaramay, Baroqxon yomonlik qilishda davom etdi. Soliq yig'ish
uchun borgan odamlarimizni do'poslatib haydar yubordi. 11
hammasiga chidadik. Va hatto Xurosos ustiga yurish boshlaganda
Qipchoq bilan Chapatni yordamga yubordik. Endi ahvoli mushkul
lashib qolganda yana yordam so'rab o'ltribdi. Bu uning navbalduji
makr-hiyasi. Lekin uning ko'kragidan itarsak, Beshbaliqqa borili
xon bilan birikadi va yana el-yurt uning otlari tuyog'i ostida qoladi.

³⁶ Beshbaliq — Sharqiy Turkistomming qadimiy shaharlardan; vayronalari Chuchandian 47 km g'arbda, Jamisar shahriga yaqin yerda.

Yoshisi, elchisini shu yerda tutib qolib, ikki tuman lashkar bilan
o'limiz borib uning ishini bir yoqlik qilaylik». Qayduning masla-
hiti yaqinlariga ham ma'qul tushdi. Ertasi kuni Qaydu ikki tuman
lashkar olib yo'iga chiqdi. Baroqxonga esa «yordam uchun o'zim
borayotibman», deb chopar yubordi.

Qaydu Baroqxomming o'rdasiga qosh qorayganda yetib bordi va
uning atrofida to'xtab, qudasini bundan xabardor qildi. Baroqxon
una unga shunday javob yo'lladi: «Qaydu anda yo'1 azobini chekib,
bekorga o'zini ovora qilibdur. Ahmad o'g'il bilan Nikpoy isyonini
hontaraf etildi. Ertaga yurtimizga qaytib keturmiz. Qaydu anda ham
shunday qilsun». «Ha, tulki. Lekin bu safar bizni laqillatib bo'psan!»
deya Qaydu shu zahotiyoyq ikkala tumanni oyoqqa turgizdi va Ba-
roqxomming o'rdasini chor atrofidan o'rab oldi. Ertalab hujunga
o'lib, uni shu yerning o'zida binyoqlik qilishga azm-u qaror qildi.
Chunki eng xavfi raqibdan qutulishga bunaqa qulay fursat boshqa
kelmasligi mumkin.

Baroqxon bundan xabar topib, vahima va qo'rquv iskanjasida
qoldi, bir dardi chandon bo'ldi va o'sha kechasiyoq omonat jonnini
egasiga topshirdi. Qayduxon bo'lsa uning xaznasi va mol-mulkini
aravalarga ortib o'z ulusiga qaytib ketdi. Baroqxomming yaqin-
ini esa tevarak-atrofga tarqalib ketishdi. Masalan, to'ng'ich o'g'il
Nektemur va o'g'illari Olsu, Cho'pay va Qapqon qoomming huzuri
ketib qolishdi. Muborakshohning o'g'illari va Baroqxomming
misi Yasor Abaqaxon huzuriga borib, uning xizmatiga yollandilar.
Duvaxon vaftidan keyin (1307) shahzodalar bamaslahat o'qil atrofida ulus qurib o'tirgan edi. Kunchakxon Olmaliq yonida Sabiq bolo degan yerda taxtga o'tqizildi. Uning davri ham tinch kechimli Shahzodalarning qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. Bo'riboshi (Yettisuvning g'arbiy nohiyasidagi joy)da ikki o'rtada bo'lib o'tgan urushda avval qo'zg'olonchilarining qo'li baldand keldi. Keyin, Kunchakxon ulular ustidan to'la g'alaba qozondi. O'shanda qo'zg'olonning asosiy yo'lbosheli lardan biri shahzoda Qursabo ham o'dirildi.

Bu urushlar Yettisuv va uning shahar hamda qishloqlariga keltirotiq rivojiga katta zarba berdi. Kepakxon bunga barham berli, mamlakarda, xususan, Yettisuv va Koshg'arda barqarorlikni tiktili maqsadida hijriy 709-yil (miladiy 1309—1310) Chig'ato'y ulusini qurma tarafdagi shahzoda va no'yonlarni qurultoygato'pladi. Quron toy qatnashchilari Kepakxonning to'ng'ich akasi Eson Bugani taxtga o'tqizishga qaror qildilar. Uning yozlik qarorgohi Issiko'l atrofida qishlik o'r dasi esa Talos vodiysida edi. Eson Buqoxon mamlakutini chinchlik va osoyishtalik o'matish uchun kurashdi, lekin buning uydasidan chiqolmadи. Qoon bilan munosabatlarning yaxshilamaganligi bunga sabab bo'ldi. Qobuq va Yesun muren (Ardish daryosini) irmoqlaridan biri) bo'yida turgan qo'onnинг qorovul qismlari bilan bo'lgan to'qnashuv urushga olib keldi. Buning natijasida qo'onnинг katta lashkari ikki tarafдан bostirib kirib Eson Buqoxonning uluni ni talab, ko'plarini asir qilib haydab ketdi. Eson Buqoxon 1215-yil Jo'chi ulusining hukmdori O'zbekxon bilan qoonga qarshi ittiloruzishga harakkat qilib ko'rdi. Ammo bunga erishholmadi.

Eson Buqoxon (bu boshqa Eson Buqo — Duvaxonning o'g'li) befarzand edi. Ulusbegi amir Po'lodchi 1348-yil G'ulja tarofidan Oqsuvga 18 yoshlik Tug'luq Temurxonni oldirib keldi va un Esan Buqoxonning quvg'inlikda tug'ilgan o'g'li deb e'lon qilib taxtga o'tqazdi. Tug'luq Temurxon va uning xonlik masnadiga o'

ishni voqeasi xuddi afsonaga o'xshash qiziq tarix. Masalan, «Taki Rashidiy» kitobida bir rivoyat keltirilgan, mazmuni bunday: «Mo'g'ullar orasida yurgan va ota-bobom hikoya qilib beigan rivojlardan shu ma'lum ravshan bo'l mishkim, Tug'luq Temurxonning yotlari shu ma'lum ravshan bo'l mishkim, Tug'luq Temurxonning etusi Eson Bug'axonning haramida ikki xotini bor ekan. Ulug'iming xotini Sotilmish xotin, ikkinchi harami Minglik xotin. Xonning farzandi yo'q edi. Xon bir zamon lashkar tortib ketdi. Mo'g'ullarning xotimi shunday ediki, haram ixtiyori katta xotinda bo'lardi va uni harami kalon deb atashardi. Harami kalon neni istasa shuni qilardi. Kinnidir astrab-avaylab, kinnidir bitovga xotin qilib berib yubordi. O'shanda Minglik xotindan homilasi bor edi. Sotilmish xotin Minglik xotindan rask qildi; bir o'g'il va bir qiz tug'adi, ularning otasi ulug' amirlaridan biri, deb o'yladi. Xon lashkarkashlikdan qayfib kelgach, Minglik xotinни surishtirdi. Sotilmish xotun javob qildiki: «Men uni bir odunga baxshida qildim», — deb. Xon: «Uning mendin homilasi bor erdi», — dedi va shu sababdan [katta xotinidan] ranjidi... Eson bug'axon olamdan o'tdi. Mo'g'ul ulusida xonlikka munosib kishi qolmagan edi... Ulus xarobalikka yuz tutdi. Amir Po'lodchi dug'lotkin, mening jaddim erur, xon izlab topish taraddudiga tushdi, mulku mamlakatni intizom va tartibga keltirishni o'yladi. Toshtemir degan mamlakatni intizom va tartibga keltirishni o'yladi. Toshtemir bu ishning mushkulbo'lsa o'g'irlab bu yeriga olib kel!» Toshtemir bu ishning mushkuligiga shama qildi, odamlar orasidan olib o'tishga to'g'ri kelishimi aytdi. Amir Po'lodchi u nimaiki talab qilgan bo'lsa berib, uni yo'iga olib yubordi. [Toshtemir] ko'p vaqt Mo'g'uliston tevaragini kezdi. Sherovulga yetishdi va Minglik xotin bilan farzandini surishtirdi. Minglik xotinning o'g'li borligini va yana shu yerlik kishidan ham o'g'li ko'rganligi hozir ikkalasi ham birga ekanligini aytdilar. Kondeb ot qo'yishgan ekanlar.

Qissaqa kelsak, [Toshtemir] ilojini qilib Tug'luq Temurxonning o'g'liga Tug'luq Temurxon, Sherovulning o'g'liga Inju Malik olib qochdi va amir Po'lodchi huzuriga oshiqdi. Amir Po'lodchi oq-

suvlik edi va Chig'atoyxon bir vaqtlar Manglay subani uning jadidi ga in'om etgan edi.

...Toshtemur Tug'lug⁵⁵ Temurxon bilan Oqsuvga yaqinlashgani larida ularga savdogarlar hamroh bo'ldilar. Muzort dovonidin o'tayotganimizda xon tasodifan yaxmalakdan sirg'anib, jarlikka qo'ketdi. Shu payt dovondan o'tib borayotgan karvon shu yerga kelto 'xtadi. Toshtemur savdogarlardan birining oldiga bordi. Uning ismi Bekchik ekan. Xon bilan yuz bergen voqeani unga arz qildi. Savdogar sheriklaridan bir nechasiga voqeani ayтиb berdi. Ular Toshtemur bilan birga o'sha yaxmalak ustiga borgandilar. O'sha Bekchik arqon bog'lab pastga tushdi va xonni salomat yuqoriga olib chiqdi... Shun dan keyin birgalikda uni Oqsuvga, amir Po'lodchi huzuriga olib bordilar. Amir Po'lodchi uni o'sha yerda xonlik masnadiga o'tqizdi. Vaqt o'tib, tamom Mo'g'uliston, balki Chig'atoyxonga tobe bo'lgan yurtlarning aksariyati unga tobe bo'ldi.

Mirzo Muhammad Haydar keltingan bu qissa ko'rinishdan xud

di latifaga o'xshaydi. Lekin Tug'lug Temurxonning uzoq Guljadan topib kelib xonlik taxtiga o'tqizganlilari va bu ishda amir Po'lodching faol ishtirotki bo'lganligi haqiqatdir. Tug'lug Temurxonning esa Chingizzon avlod ekanligi shubhhasizdir. Tarixiy manbalardan uning shajarasini quyidagi tartibda keltingilgan: Tug'lug Temurxon — Eson Bug'axon — Duvaxon — Baroqxon — Yisun Qoraxon — Mutugen — Chig'atoyxon — Chingizzon — Yasugo bahodir — Borton bahodir — Qobulkon — Tuminaxon — Boysunqurxon — Qayduxon Dutum Menenxon — Buqoxon — Buzanjarxon — Alonquva ona, sharhida xon bo'lib ko'tarildi. Ko'p kurashlardan keyin, aymiqsa, amir Po'lodching sa'y-harakati bilan u Mo'g'ulistonning katta qismani birlashtirishga va xon hokimiyatini nisbatan mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi.

XIV ASRNING IKKINCHI YARMIDA MO'G'ULISTON DAVLATI. TUG'LUG TEMURXONNING ISTILOCHILIK YURISHLARI

Shunday qilib, 1348-yil amir Po'lodchi bilan Tug'lug Temurxon Chig'atoy ulusining shimoli-sharqiy qismida tarixda Mo'g'uliston nomi bilan mashhur bo'igan yangi feodal davlatiga asos soldilar. Bu davlat juda katta hududni o'z ichiga olgan edi. Unga qadim-qadimdan o'zining yuksak madaniyati, moddiy va ma'naviy boyliklari bilan shuhurat topgan Sharqiy Turkistondan tashqari, Iritish va Emildan to Tangri tog' (Xitoycha: Tyanshan)gacha va Borsko'dan to Farg'ona bilan Balkash ko'ligacha cho'zilgan o'ramda istiqomat qilib turgan xalqlar va o'lkalar kirgan. Mo'g'ulistonning katta mamlikat ekanligini shundan ham bilsa bo'ladiki, Mirzo Muhammad Haydar keltingan ma'ilumotlarga qaraganda, uning bir chetidan ikkinchi chetiga olti-etti oy yo'l bosib yetganlar. Balkash ko'li (o'rtalarida Ko'kcha dengiz deb atalgan) o'sha zamonalarda O'zbekiston (O'zbek ulusi) bilan Mo'g'uliston o'rtasidagi chegara hisoblangan.

Mo'g'ulistonda mo'g'ul qavmlaridan tashqari, turkiyabzon xalqlardan qalmoqlar, qirg'izlar, qozoqlar va uyg'urlar istiqomat qilganlar. Lekin ularning turmush tarzi bir xil emasdi. Din-u e'tiqodi ham boshqaboshqqa edi ularning. Masalan, Sharqiy Turkiston xalqi (asosan, uyg'urlar) o'troq aholi bo'lib, asosan, dehqonchilik, hurnamandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Din-u e'tiqod bo'yicha muslimmon edilar. Dashtlik va tog'lik yerdalda ko'chib yurgen xalq (mo'g'ullar, qolmoqlar, qirg'iz va qozoqlar) esa, asosan, chorvachilik bilan mashq'ul bo'lib, ularning katta qismi islam va muslimmonchilikdan hali yinoq edilar. Lekin ba'zi xonlar va ularning yaqinlari muslimmon kishilari edilar.

Mo'g'ulistonning ma'muriy-davlat tuzilishi qanday bo'lganligini aniq ayтиб berish qiyin. Manbalarda uchraydigan qisqa va uzuq-yulug ma'lumotlarga tayanib bu haqda qisqa va umumiy bir fikr ayt-

⁵⁵ Muzort dovon — Tyanshan tog' cho'qqilidan biri; G'uljadan Oqsuv VII O'sha olib boradigan yo'l shu dovondan o'tadi. Xitoylar uni Bin-shan deb ataydilar.

sa bo'jadi. Har qanday feudal davlatda bo'lgani kabi, Mo'g'uliston feodal davlatining tepasida ham Chingizxon va Chig'atoyxon nidan bo'lgan xon turgan. Lekin uning hokimiyati shunchaki nomga bo'lib, davlat va mamlakatning inon-ixtiyori dug'lot qavmidan chiqqan va ulusbegi degan yuksak lavozimni egallab turgan amir (Po'lodchi, Xudaydod va b.) hamda ulus-ulus bo'lib o'itigan ko'ch manchi feudallar qo'llida edi. Ayniqsa, ulusbegining davlatni idora qilishdagi roli va nufuzi katta bo'lgan. Zamondosh tarixchilarining so'zlariga qaratganda, taxtga Chingiziyardan kinni o'tqazish, bosh bilan yaqinlashish-u, qay birlariga qarshi urush ochish, kinni quyishlarimi, asosan, o'sha ulusbegi hal qilardi. Lekin mamlakatning o'timoiy-siyosiy hayotida uzoq-yaqin uluslarda o'sitigan mahalliy feodalarning roli ham kichik emasdi. Xon ham, ulusbegi ham o'z faoliyatida yirik qabila va qavmlarning yetakkhilari bilan hisoblashishi majbur edilar. Biz buni o'shanday feudallardan Qamariddin, Ango boshqalarning faoliyatida yaqqol ko'ramiz. Ulardan Qamariddin bi lan Temur uyg'ur hatto xonlarni (Qamariddin — Iljosxo'jani, Temur uyg'ur — Eson Bug'axon uchinchini) taxtdan tushirib, zo'ravonlik bilan toj-u taxtmi egallab oldilar. Bu yerda yana shuni ham aytish kerakki, ko'chmanchi feudallar ziyrak va tadbirkor xonlarni, xususan, muntazam urushlar olib borib, ularni mo'l o'jhalik qilib turadigan o'zlariga munosibini o'tqizganlar.

Mo'g'ulistonning ma'muriy va davlat tuzilishi haqida yana nitegishli bo'lgan (yoki alohida xizmatlari uchun xon tarafidan in'on etilgan) bir yerda ulus-ulus bo'lib yashaganlar. Ulusbegining tepasida o'sha qavm va qabilaning boshlig'i turgan. Ular «biyy», «bek», yoki «o'g'lon» deb atalgan. Qisqasi, Mo'g'uliston tom ma'nosi bijan, markazlashmagan, boshqaruva ma'muriyati kuchsiz davlat bo'lgan.

Mo'g'ulistonga oid tarixiy manbalarda amir ul-umaro, otaliq, bek, bakovul, baxshi, vazir, dorug'a, devon, yasovul, eshik og'aboshi, kotib, qushbegi, qushbegiyi kull, qurultoy, kengash, mirob, miroxur, mirshab, mulozam, muftiy, muhrdor, naqib, navkar, ponsodiy, raiyat, sardor, soliq, solig yetuq, sesadi, sulton, o'g'lon, tavochi, tug begi, ulus, ulusbegi, uchbegi, uchbegiyi barong'or, uchbegiyi javong'or, hazompsonasi, hokim, xon xiroj, haftsadi, shayx ul-islam, yurt kabi atamalarini uchratamiz.

Bu yerda «qurultoy» va «kengash» atamalari, xususan, qurultoy davlatning o'ziga xos oliv organini anglatadi. Xomni saylash va unush e'lon qilishdan tortib davlatning barcha muhim ishlari gacha shu qurultoyda hal qilingan. Qurultoya xon, ulusbegi va o'g'lonlardan tashqari, ulusbegining barcha yo'boschilari qatnashib hal qiluvchi ovozga ega bo'lgan. Kengash esa (changi deb ham atalgan) mavqe-e'tibori bilan qurultoydan kichik bo'lib, zarur paytlarda xon tarafidan chaqirilib turiladigan o'ziga xos davlat kengashi hisoblangan.

«Yurt» va «kulus» atamalariga kelsak, ular biron qavm yoki qabila istiqomat qilib turgan hududi anglatadi. «Bek» va «ulusbegi»lar esa o'sha yurt, ulus va uning xalqi tyopasida turgan hokimlari dirilar.

«Raiyat» — bu umuman soliq to'lovchi xalq, qora xalq. «Mu'lozim» bilan «knavkar» esa xon va feudallarning o'zlarini bilan doimo birga bo'ladigan xos xizmatkorlari dirilar. «Sulton» va «o'g'lon» atamalari esa shahzodalarini, ayrim hollarda umuman qo'shin boshligrini (o'g'lon) anglatadi.

Bir talay atamalar, masalan, vazir, devon, dorug'a, kotib, hakim, mirob, mirshab, muhrdor, sardor, naqib, shayhulislom, muftiy atamalari aholisi o'troq va islam mamlakatlariga, Mo'g'ulistonga nisbatan olganda esa Sharqiy Turkistonga tegishlidir.

Mo'g'ulistonning ko'chmanchi aholi istiqomat qilib turgan viloyat va tumانlarini olganda bu yerlarga otaliq, bakovul, baxshi, yasovul, eshik og'aboshi, qushbegi, qushbegiyi miroxur, tavochi, tug begi, ulusbegi atamalarini tafbiq etish mumkin.

Bu yerda «ulusbegi», «otaliq», «qushbegi», «tavochi», «eshik og'a boshi» lavozimlari davlatning yuqori darajadagi lavozimlaridir.

«Ulusbegi» — u haqda yuqorida aytib o'tildi — o'z o'mi va e'tibor bilan, xondan keyingi ikkinchi yuksak lavozim hisoblangan. Ulusbegini ba'zan amir ul-unaro (amirlar amiri, ulug' amir) deb ataganlari Otaliq (otaka, ko'kaldosh deb atalgan) xonzodalarining tarbiyachilari bo'iishgan va ular balog'a itga yetgunlaricha ularning ulusini idon qilganlar. «Qushbegi» bilan «qushbegi»ga kelsak, ularning arab imlosida yozilishi bir xil. Shunga qaramay, O'rta Osiyo tarixining ba'zi tadqiqotchilari bu atamalar bir ma'noni qushbegi, ya'ni podshoh va xonlarning, shuningdek, amir Po'lodchi, amir Xudaydodga o'sha gan yirik feodalarning ov qushlari va hayvonlariga mutasaddiylik qiluvchi va shikor marosimlarini uyushtirishga mas'ul bo'lgan mansabdorlar deb hisoblab keladilar. Aslida bu fikr «qushbegi» atmosiga nisbatan to'g'ri. «Qushbegi» atamasiga kelsak: «qush» so'zi (turkiycha) — yurish va ko'chish vaqtida xon qarorgohini, «qushbegi» esa o'sha xon qarongohining boshlig'i ma'nosimi anglatadi. «Tavochi»ga kelsak, bu lavozim egasi asosan harbiy yurishlar oldi dan lashkar toplash, uni yurish va urush vaqlarida o'rinalashtirish bilan shug'ullangan. Eshik og'a boshi (eshik og'asi) zimmasisiga esa xonning qabul marosimlarini uyushtirish vazifasi yuklatilgan.

Boshqa lavozimlarga kelsak, «bakovul» — xonning xususiy ospazi, baxshi deb — kotiblar, harbiy bo'llinmalarning hisob-kitobini olib boruvchi, sipohiylargacha maosh beruvchi mansabdorlarni aylganlar. Yasovul esa xonlarning kichik xizmatchilari bo'lib, xonning shaxsiy topshiriqlarini bajargan va o'rdu ni qo'riqlab turgan.

Shuningdek, manbalarda «tug'begin», «sesadiy», «ponsadiy», «uchbegi», «uchbegiyi barong'or», «uchbegiyi javong'or», «haftsa-di», «hazor ponsadiy» kabi atamalar ham uchiraydi. Bular — harbiy atamalar sanaladi. Masalan, «tug'begin» — bayroq dor qism boshlig'i, «sesadiy» — uch yuz kishidan iborat harbiy qismga, «ponsadiy» — besh yuz kishilik, «haftadiy» — yetti yuz kishilik, «hazor ponsadiy» — bir ming besh yuz kishilik qo'shin boshlig'ini anglatgan, «Uch begin», «uchbegiyi javong'or» va «uchbegiyi borong'or» atomalariga kelsak, uni aslida «o'qchung'or» deyiladi. «Tarixi arba' ulus»da aytishchicha, u g'ul (markaz qism) yonida boruvchi bo'llinma

bo'lib, turkiyda chindovul, arab tilida soqa deb ataladi. «O'qchunjor, — deb yozadi Mirzo Ulug'bek, — g'ul yonidan, uning yon tomonidan shunday miqdorda yuradiki, qadam tashlaganlarida chiqqan changni, ularning qorasini g'uldagilar ko'rib turishlari zarur. Ular ham g'ul yurib borayotgan yo'changini yoki g'ul qorasini ko'rib tutishlari lozim». Demak, bunday maxsus qism (uchbegiyi javong'or, uchbegiyi barong'or) qo'shining so'l va o'ng qanotlariga qo'yilgan bo'lib, ularni qo'riqlash vazifasini o'taganlar.

Mo'g'ullarning qo'shin tuzilishi O'g'izzon va Chingizzon davrida mavjud bo'lgan tartibni saqlab qolgan. U, avvalambor, barcha uluslardan to'plangan va tepasida asosan qabila boshliqlari turgan lushkardan iborat bo'lgan. U o'nlik, yuzlik, uchyuzlik, yettiyuzlik, minglik va o'nmimglik bo'llinma (tuman)da tarkib topgan. Uning asosiy qismini otliq askarlar (suvoriyilar) tashkil etgan. Harbiy yurishlar va jang oldidan u quyidagi tartibda yasol (saf) tuzgan: javong'or (so'l qanot), barong'or (o'ng qanot), g'ul (markaz), qorovul (qo'shin oldida va qanotlarda boruvchi qo'riqchi va xabarchi qism), qirovul (ilg'or qism ketidan boruvchi maxsus harbiy bo'llinma), shikovul (qo'shining qanotlarida boruvchi qism) va zaxira qismdan tashkil bo'lgan.

Turk-mo'g'ul xalqlarida quron-yarog' ko'tarishga qodir bo'lgan harbi er kishi sipohiy hisoblangan. Jarchining ovozi eshitilishi bilan u ikki ot, kamida bir oyga yetadigan oziq-owqat va otiga yem, shuningdek, zarur qurol-yaroqlarni olib aytilgan yerga, ko'rsatilgan soatda to'plainishi shart bo'lgan.

Yana shuni ham aytish kerakki, ko'chmanchilar nafaqat bir-biri, ya'ni bir qavm — ikkinchisini talon-toroj qilib turgan, balki ko'proq qo'shni xalqlarini, o'troq o'lka va mamlakatlarining xalqini talaganlar. Harbiy yurishlar ko'chmanchi feodalarga ham, ularning tabaataariga ham behisob boylik keltirgan. Ular ana shu yurishlardan katta o'jha va asirlar olib qaytg'anlar.

Xullasiyalom, Tug'luq Temurxon bilan amir Po'lodchi Mo'g'ulistonning ijtimoiy-siyosiy mavqeysini bir qadar mustahkamlab olganlaridan keyin, istlochilik ko'yiga kirib oldilar, xususan, Chig'atoy

ulusining janubi-g'arbiy qismini bosib olish siyosatini tutdilar. Ulut Mavarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy buhrondan foydalanib, hijriy 761-yilning rabi ul-avval (1360-yilning fevral oyi o'rtalari) oyida katta qo'shin bilan Turkiston va Mavarounnahring o'troq nohiyalariiga bostirib kirdilar. Mo'g'ul qo'shimiga katta amirlardan Ulug' Tuq Temur, Hojibek va qong'li qavmining sardori amir Bekchik bosh bo'lildilar. Sayram va Turkistomning katta yo'l ustida joylashgan shahar-u qishloqlari qarshilik ko'rsatmay Tug'luq Temurxonning amirlariiga taslim bo'lildilar. Oradan bir oy o'tib-o'tmasdan mo'g'ul qo'shimi Sirdaryoning o'ng sohilida paydo bo'ldi. Ular Sirdaryodan hech qanday qarshilikka uchramay o'tib oldilar. Tug'luq Temurxon qo'shimi Xo'jand ro'baro'sidagi Chanq' buloqda to'xtadi. Shu yerda qisqa kengash o'tkazilgach lashkarga bir kecha-kunduz dan berilgandan keyin Mavarounnahring ichkarisiga qarab yurishi davom ettrishga qaror qilindi.

Mo'g'ullar Mavarounnahr ichkarisida ham deyarlik qarshilikka uchramadilar. Xalqning otini minib, nonini yeb tirikchilik o'tkazib yurgan amirlar, uning boshi tashvishda qolgan paytda valine'matini himoya qiliшiga qodir bo'lmadi. Amirlar birlashib, dushmaniga qarshilik ko'rsatishga yaramadilar. Aksincha, ba'zilari to'g'ridan-to'g'i g'anim tarafiga o'tib ketdilar. Shundaylardan biri Xo'jand hokimi Boyazid Jaloir bo'lib chiqdi. U mo'g'ul lashkarining ilg'or qismi Sayxunden kechib o'tishi hamono, o'z qavmi bilan borib yog'iygu qo'shildi va mo'g'ullarga g'ajarchilik (yo'l ko'rsatuwchilik) vazifasini o'tadi. Ko'pnii ko'rgan va suyagi urush-talashlarda pishgan Xoja barlos esa dushman Qarshiga yaqinlashib qolganimi eshitib-oq, ahl-u ayoli va xizmatkorlarini olib Xurosonga qarab qo'echdi. Boshqa amirlar ham el-yurtini tashlab tum-taraqay qochdilar. Lekin el himoya-chisiz qolmadi. Yurtning yukini Temurbek o'z yekasiga oldi. U aql-farosat bilan ish tutdi. Mo'g'ullarning asosiy kuchi Mavarounnahrga ichkarilamasdan turib, ularni to'xtatish va el-yurtni talon-toroj va tahqirlashlardan asrab qolish chorasi qidirdi. Bu waqida mo'g'ul qo'shining ilg'or qismi Xuzorga kelib qolgan edi. O'sha kunlar va o'zining azm-u qarori haqida Temurbekning o'zi bunday

deydi: «Tug'luq Temurxon (katta amirlardan) Bekchik, Hojibek Er-qinit, Ulug' To'q Temur va Jetening boshqa amirlaridan uch favj⁵⁶ qo'shin) tuzib, ularni Mavarounnahr mamlakatini toroj qilish uchun jo'natganligi, o'sha uch favj qo'shin Xuzor degan yerga kelib tushganligi xabari mening qulog'imga yetdi. Shunda Tug'luq Temurxonni borib ko'rishdan avval o'sha ochko'z amirlarni mol-dunyo bilan aldar, Mavarounnahrni qatl-u g'oratdan saqlab qolishga qaror qildim. Tilga olingan amirlarni ko'rganimda ularni haybatim bosdi, shekili, (menga) ko'p pizzat-ikrom ko'rsatib, meni haddan ziyod siyadilar. Ularning ko'zlariga o'xshash ko'ngillari ham tor bo'lganidan, sovg'a-sovrin yo'simida ularga berilgan har turlik tansiq molalar ko'zlariga ko'p ko'rindi va Mavarounnahrni bosib olish, toroj qilish niyatidan qaytdilar. (Shundan so'ng) to'g'ri borib (xon bilan) ko'rishdim. Kon kelishimni yaxshilikka yo'yib (saltanat ishlarida) mendan kengash so'radi. Ko'rsatgan maslahatlarimni to'g'ri topib, hammasini qabul qildi... Amirlarni bundan buyon Mavarounnahringa borishlarni man' etdi» O'shanda Tug'luq Temurxon ota mulk Kesh viloyatini, tote tumanlar va to Jayxun sohillariga gacha bo'lgan yerlar bilan qo'shib, Temurbekka in'om etdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, Temurbek ota yurti Keshga qaytib keldi va asta-sekin tevarak-atrofiga yigit to'plab, qo'shin tuza boshladi. Qisqa vaqt ichida uning tug'i ostiga kattagina lashkar jam' bo'ldi. Xursandchilikka bois bo'ladijan narsa shu bo'lidi, Hizr yasovuriy ham Samarqand lashkarini olib Temurbekka kelib qo'shildi. Lekin oradan ko'p vaqt o'tmay, Jete amirlari orasida ixtilof chiqdi. Tug'luq Temurxon Mavarounnahrda o'g'li Ilyosxo'jani qoldirib, o'zi shoshilinch ravishda Mo'g'ulistoniga qaytdi. Ilyosxo'jaxon otasining yo'lini tutdi. Mavarounnahrni idora qilishda yerlik amirlar, Saripulni qayta in'om qildi. Temurbekni esa huzurida olib qoldi. Ulkan maqsadlarni ko'zlab shu ishni qildi u. Temurbekning harbiy salohiyati va ulusdag'i katta obro'sidan foydalanib, ilgari Chig'atoy

⁵⁶ Favj — umuman, harbiy bo'limma.

ulusiga tobe bo'igan Jayxuning narigi tarafidagi viloyatlar — *Huj*
Badaxshon, *Xuttalon* va *Kobulni ham o'z tasarrufiga kiritib olmey*
chi bo'idi. Xullas, bir haftadan keyin xon uni Xizr yasovur⁵⁶
qo'shib Jayxunning narigi tarafiga jo'natdi. Ketidan esa lashkar
ning katta qismi bilan xonning o'zi boradigan bo'idi. Temurbek II
yosxo'jaxxonning asl niyatini fabmladi. U el-yurtini katta urush g'olib
biga tortmohchi. Temurbek va Xizr yasovurining qo'li bilan Hoj
barlos, Bayon Suldus va amir Husaynga o'xshagan gardankashlari
bartaraq qilmoqchi. Shunga qaramay, Temurbekning xonga «*oxo'*»
deyishidan boshqa iloji qolmagan edi. Amirlarning boshini birkot
rish va birqalashib ulusni mo'g'ullar istibdodidan ozod qilish niyati
ni diiiga tugib qo'ysi. Yo'l-yo'lakay shu haqda o'yaldi. Ikkala amu
Xizr yasovuriy bilan Temurbek Temur qopig'dan o'tganidan keyin
shu yerda amir Husaynni uchratib qoldilar. U yigitlari bilan alloqo
chon Jayhundan kechib o'tib, shu yemi lashkargoh qilib o'tirgin
ekan. Tasodifan yuz berган uchrashuvdan uchalalari ham xursand
bo'ldilar. Chunki faqat birlashibgina mo'g'ullar istibdodidan qutu
lish mumkin edi. Darhol Hisori shodmon, Xuttalon va Badaxshon
ga chopar yuborib, Bayon Suldus, Kayxusrav va Shoh Bahoudinii
Soli saroyga kengashga chaqirtildilar. Ammo ular kelishmadı.

Shu payt Samarqanddan «*Illyosxo'jaxon Movaroumnahmi turk etib, Mo'g'ulistonqa qaytib ketibdur*», degan xushxabar olindi. Temurbek bundan foydalananib, ulusni tuzishga kirishni taklif qildi, lekin amirlarning boshi bu safar ham qovushmadi. Amir Husayn mingbir bahonani ko'ndalang qilib Soli saroyda qoldi, Xizr yasovuriy esa yo'lda Taxti qorachaga⁵⁷ yetganlarida odamlari bilan qochib ketdi. Boyazid jalor bilan yaqinda shu atroflarda paydo bo'igan Hoji barlosni ham ittifoqqa keltirib bo'Imadi. Temurbek 1360-yilning qolgan qismini Soli saroy bilan Termizada kechirdi.

Kelasi yili, hijriy 762-yilning jumodi ul-avval oyi (1361-yilning yanvar oyida) Tug'luq Temurxon katta lashkar bilan yana Moshundan taxminan 43—45 km masofada, Shahrisabz—Samarqand yo'li usida joylasganim.

Yaxonnaharda paydo bo'idi. Yana o'sha bundan bir yil ilgarigi abvol: parokandalik, mutelik. Mo'g'ul qo'shini Sayxundan o'tishi hamono janu o'sha xoin Boyazid jalor xonning qarshisida tiz cho'kdi. Xonning mavkabi Samarqanddan bir manzil⁵⁸ masofa narida to'xtaganli Bayon Suldus bilan Hoji barlos ham ketishib xonning oyoqlarini i'palilar. O'tgan yili esa unga dushmanlik maqomida turgan edilar. Bu Tug'luq Temurxonning esidan chiqmagan ekan, ularni sitab-siyab hu'llug'luq Temurxonning ishi ham o'ngidan o'turmadi. Bunday paytlarda gap tashuvchilarning ishi ham o'ngidan kelidi. Bunaqa odamlar hamma yerda topiladi. Tug'luq Temurxon huanqanda kirib kelishi bilan ular kelib Boyazid jalorimi chaqdidi va xon hamma saroyga to'plangan paytda uni jalloding qo'liga topshirdi. Buni ko'rib, movaroumnahrik beklarni qo'rquv va vahid bosdi. Hoji barlos qabuldan chiqqan hamono Samarqand bilan Keshni butunlay tark etib, Xurosonga ketib qoldi. Temurbek ham himuncha vaqt xonning nazaridan sal naroqda yurdi. Faqat Hamid qabul qildi va yana bosh-oyoq sarupo bilan siylab, mingboshilik lavozimiga tayinladi: Kesh viloyatining hokimligini ham unga berdi. Shunday qilib, Tug'luq Temurxon g'animalrini tinchidi: Boyazid jalor yasoqqa yetkazildi, Hoji barlos yurtidan bir umraga badarg'a qilindi, Temurbekni esa mansab va ulus berib o'z tarafiga og'dirib oldi. Yana bir jiddiy dushtman — amir Husayn qoldi. Ayni paytda uzoqda, Hisori shodmonning musteklam qal'alarini ichiga kirib pisib o'tiribdi. Lekin timch o'tirarmikin? Bunga ishommagan xon qahraton qishning izg'irinlariga qaramay, unga qarshi qo'shin jo'natdi. Ikki o'ttada Vaxsh daryosi bo'yida ikki kun urush-talosh bo'idi. Urushning ikkinchi kuni, amir Husaynning qo'li baland keilib turgan kuni, mo'g'ul lashkarining javong'ori sinib, chekinishga yuz tutib turgan bir paytda, Xuttalon hokimi amir Kayxusrav xoinlik qilib, qo'shin-mo'shimi bilan mo'g'ullar tarafiga o'tib ketdi. Bu — urushning taqdritini hal qildi-qo'ydi. Amir Husayn urush boy beril-

⁵⁷ Taxi qoracha (taxi Qorachon) — Samarqandning janubi-sharqiy tarafidu-

undan taxminan 43—45 km masofada, Shahrisabz—Samarqand yo'li usida joylasganim.

ganini anglab, qolgan-qutgan odami bilan Jayxunning narigi taratish o'tib ketdi. Mo'g'ullar uni Qunduzgacha ta'qib qilib bordilar, lekin qo'lga tushirolmadilar. Mo'g'ullar qishning qolgan qismini Qundo bilan Tolqonda o'tkazib, bahorda yurishni davom ettirdilar va amil Husaynni ta'qib qilib Hindukush dovonigacha⁵⁹ bordilar. O'shanda mo'g'ullar Janubiy Turkistonning yo'l ustida joylashgan qishloq va qasabalarini⁶⁰ beamon toroj qildilar. Lekin ular, baribir, amir Hu nasaynni topolmay, kuz avvalida Movarounnahrga qaytishga majbu bo'ldilar.

O'sha yili kuzda xonning amri bilan Bayon Suldus ham qatl etti di. Xon uni, amir Husayn qochib kelgandan keyin, Hisori shodmon ga hokim etib tayinlagan edi. Ko'p o'tmay u gardankashlik qilgano edi.

O'sha 1361-yil kuzda Tug'luq Temurxon Movarounnahni o'g'li Illyosxo'jaxonga topshirib, o'zi yana Mo'g'ulistoniga qayди. Bu uliga ko'chmarchi feodalarning isyonni va Dashti Qipchoqdag'i ba'z hukmdorlarning g'imillab qolganligi sabab bo'ldi. O'shanda u amil Bekchikni sohib ixtiyor etib tayinladi. Temurbekka esa siphoyigitliki topshirdi.

Lekin xon qaytib ketgandan ko'p vaqt o'tmay, 1362-yil Temur bek bilan amir Bekchikning oralari buzilib qoldi. Bunga mo'g'ul ning o'ta mutakabbirligi, kamisitishlar va fitna qo'zg'atishlar sabab bo'ldi. Bu haqda Amir Temurning o'zi bunday eslaydi: «Ular (amil Bekchik va uning sheriklari). — B. A.) Tug'luq Temurxoniga xal yozib, «Temur bizga qarshi isyon tig'imi ko'tardib», dedilar. Xon bu yolg'on gaplarni chin bilib, meni o'idirib, yo'qotish haqida yorlig yubordi. Bu yorlig' mening qo'limga tushib qoldi. Undan o'limiga mahkum etilganimni bilib oldim».

Xullasi kalom, o'shanda Temurbek eson-omon qochib qutuldi va birmuncha vaqt Xorazmda turkman cho'llarida, Movarounnah va Janubiy Turkistonning ko'zga tashlamaydigan yerlarida yashiri

nib yurdi. Lekin mo'g'ul istilochilar bilan kurashni sustlashtirmadi: utrofiga odam yig'di, kuch to'pladi.

1362-yil Temurbek bilan amir Husayn yaqinlashib qoldilar. Ular uncha-muncha harbiy kuchga ega edilar. Ittifoqchilar bir safar Balk jlg'asida amir Abu Sa'id va Mingli suldus bosh bo'lgan uch ming kishilik mo'g'ul qo'shinlariga qattiq zarba berdilar. O'sha yili Movarounnahrdha yashirinib yurgan chig'atoybeklari ham faollashib qolishgan edilar. O'sha kunlari ulardan ba'zilari: Sulaymon barlos, amir Muso, Joku barlos, Jaloliddin barlos va Hinduka barloslar Temurbek bilan amir Husaynni qidirishib Termizga kelib tushganlari ma'lum bo'ldi. Agar ularning barchasi bir yoqadan bosh chiqarishni, xalqi va yurtini mo'g'ul zulmidan shu yilning o'zida ozod qilish uchun sharoit tug'ilgandi shu payt.

O'shanda ular — Temurbek bilan amir Husayn — mo'g'ullarini yengib Balkni ham egalladilar. Navbat — Movarounnahrga, chunki Toxariston bilan Badaxshonda mo'g'ul lashkari yo'q. Lekin bu yog'iga ularning ishi yana yurishmadidi. Arsifda⁶¹ turqanlarida ham, Daragezda⁶² ham, ular bu yog'iga birgalashib harakat qilish va Chig'atoy ulusini mo'g'ullardan birgalashib ozod qilishga ahd-paymon qilishgan edilar. Balk olingandan keyin amir Husayn o'zgarib qoldi. U tap tortmasdan «biz qubbat ul-islomda⁶³ qolishga qator qildik», — dedi-qo'ydi. Amir Temur bu mutakabbur, tangnazar va shuhratparast odamni yaxshi bilardi. Shuning uchun indamadi. Ikkiyuzlamachiligidini yuziga solib o'turmadi. Qisqasi, o'sha yili mo'g'ulni Movarounnahrdan surib chiqarib bo'lmadi. Temurbek esa ko'proq daryoning narigi sohilida, Xulimda, Tolqonda turdi. Kuzda daryoning o'ng sohiliga o'tib, Puli sanginda⁶⁴ mo'g'ullarning katla qo'shingga qaqshattiqch zartba berdi. 1363-yil u Temur qopug'dan

⁵⁹ Arsif — Balk ko'xistoni (u Elbrus tog'i deb ataladi) joylashgan xushmanzara durdi.

⁶⁰ Dargaze — Balkning janubiy tarafida, undan taxminan to'rt farsax masofada, Balkob daryosi bo'yida joylashgan xushmanzara darta.

⁶¹ Qubbut ul-islo'm — islam qubbasi; Balk shahrining o'rta aslarda fuxriy nomi.

⁶² Puli sangin — Hisor viloyatida Surkob (Qizilsuv) daryosining so'l inrog'i bo'mish Obi hingov ustiga qurilgan tosh ko'pri.

o'tib, yana bir-ikki yerdä g'alaba qozondi. Ayniqsa, uning Keshning orasida qoladigan voqeä bo'ldi. Temurbek 300 sara yigini ulan barloslar ham bor edilar — o'zi bilan birga olib Kesh sari yoldi. Kesh jilg'asiga yaqinlashganda yigitlarni shu yerdä to'xindi va ularga: «Har biringiz otingizing ikki biqning bir bog'da shox-shabba bog'langiz. Shunday bo'lsinkim, uning bir uchi yeda bo'lsin!» — deb buyurdi. Sipohiyalar yo'l chetiddagi daraxtlar va butalarni kesib, shox-shabba yig'dilar va Temurbek aytganday qilib olalarining ikki biqninga bog'ladilar. Yigitlar ham, amirlar ham boildi da buning ma'nosiga tushunmadilar, chunki bunaqasi ilgari hambiy ishlarda ko'rilmagan edi. Bunga otga qamchi bosganlaridan keyin tushundilar. Shox-shabbalar yo'liy shu qadar to'ziddiki, uzoqdani ko'rgan odam «ko'p ming kishilik lashkar kelayotibdi», deb o'yashdi — mungkin edi. Xuldas, uch yuz otning tuyog'idan ko'tarilgan chung'u 'zon yo'q deganda ikki farsax masofani tutdi. Qal'a devori usidu turgan mo'g'ul soqchi ham, uning yonida paydo bo'lgan dorug⁶⁵ bilan kutvol ham buni ko'rib qorqib ketdilar. Bo'lmaganda ikki tuman oltiq askar shahar ostonalariда paydo bo'ldi, deb o'yadililar. Shaharda hammasi bo'lib bir yarimikki ming mo'g'ul askari bor edi. Dorug'a bilan kutvol jang qilishga jazm qilmadilar va ahl uayoli, ko'chko'romni olib, shaharni uzoqdan quyun bo'lib kelayotgan kimmingdir tumonat askariga bo'shatib chiqdilar. Shunday qilib, Temurbek bor-yo'g'i 300 yigit bilan ota yurti Keshni mo'g'ullardan qaytarib oldi.

Temurbek Keshning buzilib yotgan yerlarini ta'mirlash, shahar devorlarini tiklashga kirishti. Shu bilan birga, ulusdagi umumiy vaziyatni taftish qilib kelish uchun Qarshi, Samarqand, Buxoro va Xo'jandga xabargirlar jo'natdi.

Oradan ikki-uch kun o'tib o'sha xabargirlardan biri «Ilyosxo'janon katta qo'shin bilan Keshdan kelib, to'rt farsax narida turibdi» degen xabar topib keldi. Temurbekni bir oz vahima bosdi. Chunki atrofiga to'plangan yigitlari hali mingga yetmagan, amir Husayndan esa darak yo'q edi. Buning ustiga Keshning mustahkam qal'asi yo'q

66. Shuning uchun mo'g'ullar basharti Keshga hujum qilguday bo'lsalar, amir Husayn yoki boshqa birontasi yordanga yetib kelguncha, tevarak-atrofida tog'larga chiqib ketishga qaror qildi. Lekin mo'g'ullar hujum qilmadilar. Qarshidan kelgan savdogar «Tug'luq Temurxon vafot topibdur. Ulug' Tuq Temur birlan amir Hamid Il-yosxo'jaxomni olib Mo'g'ulistoniga jo'nab ketibdur. Toshariqda turgan mo'g'ul lashkari erta orqasiga qaytib ketibdur», degan xabar olib keldi. Temurbek va uning amirlari g'aybdan kelgan bu baxtni Alloh taolloning inoyati deb bildilar.

O'sha kunlari Temurbekning yigitlari borib Xuzorni bosdilar. Dorug'a va uning odamlari ahl-u ayoli va qo'liga tekkan bisotini olib qochib ketdilar. Qo'shinga ikki kun dam berilgandan keyin, Temurbek Kesh va Xuzordan keyingi kunlari to'plangan lashkarlar-ga xo'ja Salbariyni chindovul⁶⁶ etib Jigdalik⁶⁷ mavzeyiga qaytdi va hur jihatdan qulay bu yerni lashkargoh qilib, tevarak-atrofining lashkar to'planguncha bir hafta turdi. Shunda Keshga kelishda Temur qopug'da qoldirilgan qo'shin va bundan qirq kun muqaddam Sher Bahrom boshchiligidä Baljuanga jo'natilgan qo'shin kelib zafar asar lashkarga qo'shildi. Muhibmi o'sha kunlari Balk tarafdandan 2 ming chog'liq yigitini bilan amir Husayn ham Jibdalikka keldi.

Ertasi kuni Temurbek va uning ittifoqchilari qo'shini bilan Jigdalikdan ko'chib, Xuzorga ketdilar. Shu yerdä ikki-uch kun turib choshkarni bekam-ko'st qilib olmoqchi edilar, lekin bo'lmadi. Mo'g'ul lashkarni saflab uni o'sha tarafiga yetaklab ketdilar. Mo'g'ul-suyin lashkarni saflab uni o'sha tarafiga yetaklab ketdilar. Mo'g'ul-lar ham yaso⁶⁸ tuzib jangga shay ekanlar. Uning javong'arida amir Qoraxo'ja bilan amir Homid, barong'orida Tuq Temur bilan amir Bekchik bosh bo'lib turgan edilar. Ikki o'rta ja jang boshlandi. Kartta qirg'in-barot urush bo'ldi. Oxir-oqibat, Temurbek va uning ittihoqchilari mo'g'ul lashkarni ustidan g'alaba qozondilar. Ikki tomon ham kattagina talafot berdi. Mo'g'ullardan o'iganlar orasida amir

⁶⁵ Chindovul (chig'dovul) — qo'shining dum qismi; ayergard.
⁶⁶ Jigdalik — Xuzor bilan Kesh o'rasida joylashgan yet.
⁶⁷ Yasol — qo'shin safi.

Bekchikning birodari Davlatshoh, bahrin umoqining sardori Po'lod va yana ikkita xonzoda bor edilar. Amirlardan Bekchik Iskandar o'g'lon, Homid, Yusufxo'ja asir olindilar. Muhimi shundi niyati boshqa edi — Temurbek bilan amir Husaynni bartaraf qilib keyin Mo'g'ulistoniga qaytmoqchi edi. Mana, felakning gardishi bilan o'zi bir yoqqlik bo'lib turibdi. Lekin Temurbek bilan amir Husayn bo'lgan vafodorlik an'analariga ko'ra, xon asirlikdan ozod etildi — deb yozadi «Zafarnoma» muallifi.

Ertasi kuni Temurbek bilan amir Husayn mo'g'ullarmi ta'qib olib yo'iga chiqdilar va Obi yomda ularning yo'lini to'sib chiqib, kutta talafot yetkazdilar. Shundan keyin Ilyosxo'jaxon va amirlarining qarshilik ko'rsatishga kuchi qolmadı. Mo'g'ullarning qolgan-qutgan odamlari Xo'jand tarafa chekildilar. Ulami Xo'janddan ham surʼi chiqardilar. Keyin mo'g'ullar Toshkentdan ham quvib chiqarildi. Shunday qilib, Temurbek va amir Husaynning sa'y-harakati bilan 1363-yilning kuzida qariyb to'rt yildan beri davom etib kelayotgan mo'g'ul istibdodiga chek qo'yildi.

Biroq hurriyat nashidasi uzoqqa cho'zilmadi. Ilyosxo'jaxon 1365-yilning bahorida katta qo'shin to'plab yana Turkiston bliu Mavarounnahrga bostirib kirdi. Temurbek shoshilinch ravishdi tevarak-atrofga tavochi va jarchilarni yuborib, lashkar jamlashni so dir bo'lgan voqeadan xabardor qildi.

Lashkar uch kun ichida to'plangach Temurbek uni olib o'sha kuniyoq yo'iga chiqdi. Huzorga yetganda amir Husaynning Po'lod Bug'o va Zinda Chashm boshchiligidan yuborgan ikki ming kishi dan iborat askari kelib unga qo'shildi. Samarcand tevaragida (Ipor ko'prigida) ikki kun odamlar bilan chorpolarga dam berilgandan ke yin yana yo'iga chiqib, 20-may kuni Sayxundan o'tip, Chinos atrofi ga kelib tushdilar. Buyruqqa binoan, har bir qo'shin tevarak atrofini to'ralar va chirlar bilan o'radilar; ichkarisidan esa aravalami bir-biri

⁷⁰ zanjirlab, ikkinci mudofaa halqasini hosil qildilar. Lashkarning tevrak-atrofida qorovullar kuchaytirildi. O'sha kuni tun yarimla junda qolgan lashkarini olib amir Husayn ham Chinosaq yetib keldi.

Tong yorishmasdan Temurbek bilan amir Husayn qisqa chang⁷⁰ o'tkazmasdan qo'shin saflarini rostlashbekning o'zi turadigan bo'idi. Barong'orda amir Husayn, javong'orda esa Temurbek, xirovuliga amir O'joytu Aperi, Sher Bahrom, Po'lod Bug'o, farhod Aperi va Malik bahodir tayin etildilar; javong'orming qanbuliga amir Sor Bo'g'o qipchoq, xirovulrga Temurxo'ja o'g'lon qo'yildi. G'ulga keksa, ishbilarmon amirlardan Joku barlos, amir Sayiddin, Murom barlos va Abbas bahodir qo'shimi bilan qo'yildi. Kelishuvga binoan, hamma qismlar: barong'or ham, javong'or ham, g'ul ham, boshqa qismlar ham dushman ustiga bir vaqtning o'zida barobariga tashlanadigan bo'ildilar.

Jang choshgohga yaqin, yarim kechada boshlangan yomg'ir bir oz tingandan keyin boshlanib ketdi. Temurbek mo'g'ullarning Shamg'um no'yon bosh bo'lib turgan barong'orini birinchchi ham-ladyoq surib tashladi. Bu hol mo'g'ul lashkarini sarosimaga solidi. Bunday paytlarda turk-mo'g'ul xalqlari orasida amalda bo'lgan urfiga ko'ra, yadachilarning⁷⁰ yordamiga tayanadilar. Ilyosxo'jaxon ham shunday qildi. Yada ishga solingandan keyin osmonni qora bulut qoplab, savalab turgan yomg'ir selga aylandi, qattiq dovul ko'tarildi. Ko'z ochib-yumguncha jang maydoni botqoqlikka aylanadi. Otar tizzasigacha loyga botib yurishga majoli qolmadı. Shunga qaramay, Temurbekning yigitlari sur'ani bir daqiqa ham pasaytirmay jon olib-jon berib savalashdilar. Lekin amir Husayn tarafidan hun shunaqa dadil harakat bo'lmadi. Aksincha, Ilyosxo'jaxon endi chekinishni ixtiyor qilib turganda, amir Husayn jur'atsizlik qildi. Birinchidan, qo'shnlari mo'g'ullarga o'xshab boshiga kigiz tashlab olib turgan o'midan bir qarich ham siljimadi. Temurbek dadil

⁶⁶ Chang'i — kengash.

⁷⁰ Yada ch'i (jadachi) — kerak bo'lganda maxsus sehl tosh yordamida qor-yomg'irni yog'dirish yoki uni to'xtatish karomatiga ega bo'lgan jodugar.

harakat qilishga undab oldiga ikki marta choper jo'natsa ham foy dasi bo'lmadi, ikkinchi marta borib kelgan choperiga amir Husayn «Yog'iy birlan chopishib o'lishga tayyorma, lekin botqoqqa bo'lib ketishga toqatim yo'q. Temurbekka ham ayrib qo'y, obro' borida urush palosini yig'ishtirsun», — debdi.

Temurbek urush palosini yig'ishtirmadi, aksincha, jangni davom ettirdi. Shu yerdə Ilyosxo'jaxon hiyla-nayrang yo'liga o'tdi. U «Barong» or qism chekinsun», — deb buyruq berdi. Lekin javong'or ning qanbuli, xirovuli va qorovuli o'rinalardan sijimadilar. Bu Temurbek va uning qo'shingga qo'yilgan bir tuzoq edi. Bu ham yetmaganday, ayni o'sha paytda qo'shingga amir Husayn bosh bo'ygan barong'or qismi Sayxun (Sirdaryo) bo'yig'a qarab chekina boshladi. Bunday sharoitda urushni davom ettirib bo'lmashi, albatta. Shuning uchun ham Temurbek amlari bilan ot ustida qisqa kengash o'korzib, urushni to'xtatish va fursatni boy bermay jang maydonini turk etishga qaror berdi. Shunday qilinganda odamlarni ham, chorponi ham, urush anjomlarini ham omon saqlab qolish mumkin bo'lardi. Chunki tushungan odamga tashabbus va g'alaba allaqachon qo'ldan boy berilgan edi. Tarixda «Jangi loy» nomi bilan mashhur bo'lgan bu urushda Temurbek qariyb 10 ming odamidan ajraldi. Zamondosh tarixchining so'zlariga qaraganda, dahshatomuz bu voqeа 1365-yilning 22-may kuni sodir bo'ldi.

Amir Husayn shu qadar qo'rqib ketgan ediki, Temurbek uni Sayxun sohilidan ham, Dizakdan ham, Samarcanddan ham topolmadi. U hech yerdə uzoq to'xtamay to'g'ri Soli saroya qochib boradi. Lekin u shu qadar vahima iskanjasida qolgan ediki, oxir-oqibut u yerda ham qolmadı. Ahl-u ayoli, mulozimlari, xizmatkorlari va kazmasini olib Jayxunning narigi tarafiga o'tib ketdi va ko'p tog'i tosh va dovonlar oshib, to'g'ri Shabartuga⁷¹ bordi. Shu yerni piano qilib, Jayxunning tevarak-atrofiga xabargirlar jo'natdi. Xabargirlar basharti noxush gap topib kelgundai bo'lsalar, Shabartuni ham tarkefib, Hindistonga ketib qohmoqchi bo'ldi amir Husayn.

Temurbek amir Husayn tutgan ishni qilmadi. Odamlarini esmonon Kesiga olib keldi va shaharni bir oz bo'lsa-da mustahkamlash-

vi lashkar yig'ish bilan band bo'ldi. O'sha paytda Keshning mudofaa inshootlari yo'q edi. U Ilyosxo'jaxonday xavfi dushtanning xurujiga bardosh berolmasdi. Shu sababli Temurbek Samarcandga bor-moqchi va o'sha yerdagi bor kuchlarni yig'ib, mo'g'ul bosqinchilari bilan kurashni davom ettirmoqchi bo'ldi. Shu maqsadda Temurxo'ja o'g'lon, Jovurchi, Abbas bahodir va boshqalarni yetti qo'shin qilib Samarcandga jo'natdi. Samarcandda qo'rqib-pisib o'tirgan amirlar Temurbekning odamlari kelganidan xursand bo'ldilar. Temurbekning um-qarori ularning kuchiga-kuch g'ayratiga-g'ayrat qo'shdi. Lekin Jovurchi bahodir bir kuni kayf ustida hech kimning xayoliga kelmagan bir gapni aytib qo'ydi. U hammaning oldida bilib-bilmasdan «Temurbek Dovudxo'ja bilan amir Hindu akani amir Husaynga tutib bermoqchi, biz shunday topshiriq birlan kelgannim», — deb qoldi. Samarcandlik amirlar bu ig'vega uchib, erta tongeda, Temurbekning odamlari qattiq uxlab yotgan paytda, Samarcanddan chiqib ketdilar. Chunki amir Husayning qassobligini yaxshi bilardilar. Ular to'g'ri Ilyosxo'jaxonning oldiga bordilar. Ilyosxo'jaxon ularni qo'shining mung'uloy qismiga g'ajarchi qilib tayinladi.

Mo'g'ullar yo'l-o'charda ham, Samarcandga yaqinlashib qoljumlarida ham qarshilikka uchramadilar. Samarcandlik amirlar esa mo'g'ullarning qorovul qismi yaqinlashib qolganimi eshitib shaharni tushlab qochdilar. Yuz bergen bu voqeа tez fursat ichida Kesh bilan Huzorga ham tarqaldi. Temurbek amir Joku barlos va boshqalar bilan kengashib noiloj el-yurtimi tark etdi va Jayxundan o'tib, Balxda quror topdi.

Shu tariqa, bir umr xalqning nonini yeb otini minganlar, el-yurt boshiga og'ir kunlar kelganda bu safar ham o'z huzur-halovatini o'ylab, juftakni rostlab qoldilar.

Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, o'sha paytlarda Samurqandning ham mustahkam devori va qal'asi yo'q edi. Shahar-ning mudofaa inshootlari 1220-yil, Chingizzon xuruji paytda, vayron qilngan edi. Shundan beri Samarcandni hech kim tiklamadi. Shaharning chor atrofi ochiq, buning usfiga o'sha kunlari u yerda iskar ham yo'q edi. Ilyosxo'jaxonning amirlari uni nayzaning uchini

⁷¹ Shabartu — Hindukushdag'i dovonlardan birining nomi.

og' ritmasdan egallah niyatida edilar. Lekin umidlari puchga chiqdi. Xayriyat, Samarcandni ham, xalqini ham himoya qiluvchilar bo'ekan. Ular xalq yo'liga, el-yurt ozodligi yo'liga jonimi fido qilib boshimi tikkani odamlar ekanlar. Tarix kitoblarda ular sarbadorlari ya'ni boshini dorga tikanlar deb ataladilar. Sarbadorlar aholining uch toifasi: ziyorilar, hunarnandlar va harbiylar orasidan chiqqan kishilar bo'lib, o'zlarining ma'lum harakat dasturiga ega edilar. Ulus mamlakat va mahalliy xalqni qariyb 145 yildan beri ezib kelayogun mo'g'ul bosqinchilar va ularning mahalliy xalq orasidan chiqqan malaylari: katta yer egalari va yirik savdogarlar zulmiga qarshi bo'ish ko'tarib, mamlakatda xalq hokimiyatini o'matish uchun kurashgan odamlar edilar.

Shaharni yana mo'g'ul lashkari tarafidan bosib olish xavfi kuchaygan ana o'sha og'ir kunlarda hokimlar emas, balki sarbadorlar mehnatkash xalqning joniga oro kirdilar. Mo'g'ul lashkari qorovlining qorasini ko'rinishi bilan o'sha sarbadorlarning boshliqlari Samarqandagi madrasalardan birining mudarrisi Mavlonozodu, naddof⁷² Abubakr Kalaviy va mengan yigit Xurdak Buxoriylar Si-marqand va samarqandliklarning ko'ksiga qalqon bo'lishdi.

Sarbadorlarning yetakchilari o'sha zahotiyoyq yig'ilishib shaharni mudofaa qilish va bostirib kelayotgan dushma bilan kurashish ro-jalarini tuzdilar, xalqni qurollantirdilar; hammani safarbar qilib, ke-chasi bilan ishlab shaharning kirish-chiqish yerlarini mustahkam-ladilar. Katta-kichik ko'chalarni u yer, bu yeridan to'sib, yoniga tosh va temir parchalarini uydilar. Ertasi kuni namozi bomoddan keyuu Mavlonozoda va uning o'rinosbasarlari muhim bir qarorni xaloyiq qa e'lon qildilar. Usibbu qatorga ko'ra, shaharda hokimiyat o'shu kundan e'tiboran xalq qo'liga o'tadi: boj-u⁷³ xiroj⁷⁴ va boshqa oliq soliqlarning hajmi birmuncha kamaytiriladi. Islom dini qabul qilin-ganiga 700 yil kechganiga qaramay, xalqdan undirib kelinayotgan jizya solig'i bekor qilindi. Qul mehnati bir qadar yengillashtirildi.

⁷² Naddof — paxta tituvcchi.

⁷³ Boj — hunarmandlar va savdogar ahlidan olinadigan soliq turi.
⁷⁴ Xiroj — daromad solig'i. U asosan dehqonlardan olingan va ko'pincha daromadning uchdan bir qismini taskhil etgan.

O'sha kuni choshgohga yaqin mo'g'ullar shaharning Shohi zinda urafida shoh ko'chada paydo bo'ldilar. Ular shaharni bo'm-bo'sh firaz qilib, bamaylixotir kelar edilar. Ko'chaning boshlanishi yeri-da, uning ikki tarafiga qo'yilgan pistirma sezdirmay ularni o'tkazib yubordi. Mo'g'ullar to'sib qo'yilgan to'siqlarga duchor bo'ldilar. Ana shunday to'siqlardan biri Chorsuda edi. Mo'g'ullar to'siqqa o't qo'ymoqchi bo'ldilar. Lekin ko'chaning ikki tarafidan otilgan o'q yomg'iriga duchor keldilar. Ularning ko'pchiliigi otan hulab to'siqlar oldida yer tishladilar. Mo'g'ullarning kumbotar tarafidan bostirib kirgan boshqa guruhi ham ko'zlagan maqsadiga erisholma-di. Ertasi kuni mo'g'ullar shaharni manjaniqlardan⁷⁵ o'qqa tutdilar.

O'shanda ko'p uy-joylar vayron bo'idi, qurbanlar ham berildi. Lekin Samarqand va samarqandliklar taslim bo'imadilar. Uning ertasiga undan ham shiddatiroq urush bo'ldi. Mo'g'ullar baribir murod-maqsadiga yetolmadilar. Buning ustiga, xalqning qargishi va Xudoning qahriga uchradilar — otlari va chorpolariga o'lat kasali tegib, ko'p ot-ulovidan ayrıldilar. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazziy-ning so'zlariga qaraganda, o'shanda to'rt suvoriydan faqat bittasida ot qoldi, xolos. Mo'g'ullar o'sha kuniyoq bor lashkarlarini yig'ib, shaharni tashlab qochdilar. Ular nafaqat Samarqandni, balki tamom Movarounnahri bo'shatib chiqisiga majbur bo'ldilar, o'shanda. Shunday qilib, mo'g'ullarning 1360, 1361, 1365-yillari Chig'atoy ulusining bu katta va muhim qismini o'z hukmiga itoat ettirishga qaratilgan bosqinchilik urushi barbod bo'ldi.

To 'rtinchchi bob TEMUR VA QAMARIDDIN

Ulusbegi Po'lodchi Tug'luq Temurxonidan sal oldin vafot etdi. Ammo nimagadir uning mansabini Qamariddinga berishmadi. Bu oliv mansab qarindoshi amir Xudoydodga nasib bo'ldi. Amir Qamariddin xonning e'tiborli amirlaridan edi. Shuning uchun xonning huzuriga kirib tiz cho'kdi va amir Xudoydodning hali yosh ekanli-

⁷⁵ Manjaniq — tosh ottuvcchi maxsus qurilma.

gi, siyosatda tajribasizligi, aslida esa, ushbu lavozim shar'an qonun bo'yicha unga tegishli ekanligini yotig'i bilan tushuntirdi. Baribir, Tug'luq Temurxon uning so'zlariga e'timod qilmadi. Amir Qamariddin xondan norozi bo'idi, lekin boshda buni pinhon tutdi, hech kimga bildirmadi. Ilyosxo'jaxon (1363—1369) davrida esa dug'luq amirlari bilan xon o'rtasidagi munosabat keskinlashdi. Oqibatda xon dug'lat amirlarimi davlat ishlaridan chetlashtirdi. Bu ish xon va uning hukumatiga zarar keltirdi. Xondan norozi bo'igan no'g'ul amirlarining soni tobora osha borib oxiri 1367-yil xonga qarshi ochiq kurash yo'liga o'tdilar. Hatto ular Mo'g'ulistonning Olmalih, Beshbaliq kabi shaharlari ustiga bosqin uyuştirira boshladilar. Amir Qamariddin mamlakatdagi beqarorlikda ustalik bilan foydalandi va 1369-yil Ilyosxo'jaxomni o'idirib, Mo'g'uliston hokimiyatini qo'lija oldi. «Tarixi Rashidiy» muallifi keltingan bir rivoyatga ko'ra, amir Qamariddin bir kunda xondan boshqayana o'n sakkiz nafar xonzoda va xonning yaqinlarini o'ldirgan. Ulardan bittasi tirik qoldi. Amir Xudoydod Tug'luq Temurxonning Oqa bika nomli xotinidan tug'ilgan sag'ir o'g'li Xizrxo'jaxomni asrab qoldi, xolos.

Qamariddin tinib-tinchib ketmadi. U Chig'atoy ulusining g'arbiy qismini, ya'ni Movarounnahr va uning tevarak-atrofidagi yerlini ham o'ziga qaratib olishga, yana bus-butun Mo'g'ulistonni barpo qilishga bel bog'ladi. Chig'atoy ulusini tiklashni Amir Temur ham o'ziga maqsad qilib olgan edi. Shu bois 1370—1389-yillarda Amir Temur bilan Qamariddin o'rtasida katta urushlar boshsan ketdi. Bir-birlarining mulkiga qilib turilgan xurujlar, Mo'g'ulistonning katta-kichik vodiylari va jilg'alarida bo'lgan urushlarni haqiqatan ham muxoliflar o'rasisidagi hayot-mamot urushi deb atasa bo'ldi. Qisqasi, har ikkala taraf bir-birining harbiy-siyosiy sindirish, Chig'atoy ulusini eski asliga keltirib, o'z hukmronligini o'matish, jilla bo'lmaganda, uning ustidan o'z siyosiy ta'sirini o'tkazishni o'z oldiga maqsad qilib oldilar. Shu maqsad yo'lida jon olib-jon berilishdilar.

Amit Temur o'n yil mobaynidagi Mo'g'uliston ustiga yetti marta harbiy yurish uyuştirdi.

Birinchi yurish hijriy 772-yil (1370—71) bo'ldi. Bunga amir Qamariddinning Toshkent ustiga qilgan xuriji bahonayi sabab bo'ldi. O'sha yili ulla beklardan Kenak, Temurbek, Sher Avvalbek, Hojibek bilan birikib Toshkent ustiga xuruj qildi va shaharni tasarrufga kiritib oldi. Lekin oradan ko'p vaqt o'tmay, oralarida nizo chiqib, Qamariddin Toshkentni tashlab ketishga majbur bo'ldi. Amir Temur bunga javoban mo'g'ullarga qarshi qo'shin yubordi va ular dushmanni Qo'chqor mavzeyigacha ta'qib qilib bordilar.

Ikkinci yurish oradan to'rt yil o'tib, hijriy 775-yil oxirida (milodiy 1374-yil may oyida) boshlandi. Amir Temur qo'shimi bilan Sirdaryodan o'tishi hamono Munhaz va Avrang Temur eli itoatga keldi. O'shanda Toshkent hokimi Bahrom jaloir ham Suyurg'atmishxon bilan Amir Temur hokimiyatini tan oldi. Lekin Munhaz va Avrang Temur etiga ham, ularning yo'lboshchilariga ham ishonib bo'lmasdi. Va yana o'sha Mungaz va Avrang Temur eli tepasida turgan Kepak Temur bilan Bahrom jaloir bir-birlariga teskari bo'lishgan edi. Bundan jun bo'limasa ertaga urush chiqib qolishi ham ikki emasdi. Bundan tushqari, jaloiriyarning o'zlarini orasida ham kelishmovchiiklar mavjud edi. Bahrom jaloirning Sada eshon va Tezakchi bahodir bilan munosabati ham yaxshi emasdi. Bunday sharoitda Tezakchi bahodir yoki Sada eshonning Kepak Temur bilan til biriktilib, jaloiriyarning ichida urush-talash boshlanib ketishi yoki Toshkent ustiga bosqin yuvshtirishlari yoki amir Qamariddingga qo'shilib ketishlari xavfi tug'ilgan edi. Amir Temur mana shulami hisobga olib, har ehtiimolga qarshi, bir necha amirni — Abbas bahodir, Shayx Ali bahodir va Xitoy bahodirlarini qo'shin bilan Toshkent atrofida qoldirib, o'zi Samarqandga qaytdi.

Amir Temurning shubhalarini to'g'ri bo'lib chiqdi. Samarqandga qaytganidan ko'p vaqt o'tmay, Kepak Temur tabaalarini olib Mo'g'uliston tarafga qochib ketdi. Abbas bahodir, Shayx Ali bahodir va Xitoy bahodir, Bahrom jaloirni o'zlariga qo'shib, Kepak Temur va odamlarining orqasidan tushdilar va Oysha xotin ko'prigina unga yetib oldilar. Mo'g'ullarning katta kuchi ham o'sha yerda turgan ekan. Ikki o'rtada qatqiq urush bo'ldi, lekin taraflarning bi-

rontasi ustunlikka erisholmadi. Ular ertasi kuni yana safga tizoli lar, biroq ahvol urushgacha borib yetmadi. Urush boshlamusdin oldin Temur amirlarining qarorgohiga mo'g'ullarning elchisi keldi.

Amir Temur sulhdan xabar topib amirlaridan bir qadar ranjidi va bir oy tayyorgarilikdan keyin lashkarni o'zi olib Mo'g'uliston ustiga otlandi. Yangi (Qozog' istomming hozirgi Jambul shahari)dan o'tgan dan keyin dushman lashkarining qorasi ko'rindi. Shu yerda mo'g'ul lar hivla-nayrang ishlatdilar. Yo'ning ikki tarafiga pistirmalar qo'yil va asosiy kuchini o'sha yerda qoldirib, o'zlar oz kuch bilan cheklana boshladilar. Amir Temur turklarning O'g'izzon zamoniidan qol gan bu rasm-odatni yaxshi bilardi. Shuning uchun mo'g'ullarning nayrangiga uchmadidi. Bir qism lashkarni chekinuvchilarning ketidun jo'natib, o'zi qo'shining asosiy qismi bilan, mo'g'ullarning o'sha yerda turgan qismlari va pistirmalarining payiga tushdi. Pirovardida, Amir Temur mo'g'ullarning o'sha yerda turgan qo'shinchilarni bireyoqliq qildi-yu, yurishni shu yerda to'xtadi. Bunga Amir Muso bilan Zinda chashmlarning fe'l-atvori va kayfiyatidagi nosozlik sabab bo'ldi. Hazrat Sohibqiron haq bo'lib chiqdi. Turkistonga, Adin ko'zi degan bir manzilga yetganlarida ularning hazrat Sohibqironga qarshi fitna uyushtirganlari ma'lum bo'idi. O'sha kechasi uning chodini tevarak-atrofdan qattiq tirboron etilib, tilka-pora qilindi. Bu paytda Temur chodinda yo'q edi. U, yaqinlarining maslahati bilan, barvaq boshqqa chodirga ko'chib olgan ekan.

Amir Temur o'zini hech narsa bilmaganga soldi. Samarqandga

borganlarida fitnachilar sardori amir Muso, Zinda chashm, Hizr Yulov, Shayxulislom mavlono Abullaysiy hibsga olindilar. So'roq-taftish lardan keyin Zinda chashnni suyung'ol mulkidan mahrum qilinib, uni Xudovandzoda Abdulmaoliya qo'shib yurtdan chiqarib yuborildi. Fitna boshlig'i amir Muso esa o'limga mahkum etildi, lekin qu-

indoshi Saroymulk xonim o'rtaga tushib, jallodning qo'llidan qutqalib oldi.

Mo'g'uliston ustiga uchinchi yurish hijriy 776-yil sha'bon oyining birinchi kuni (1375-yilning 5-yanvarida) boshlandi va, umuman olganda, muvaffaqiyatl tugadi. Amir Qamariddinning asosiy kuchilari Jorun, Ko'k toma va Burka ruriyonda tor-mor keltirildi. Amirkoda Jahongir bosh bo'lgan ilg'or qismlar esa Ila daryosining narigi tarafiga o'tib, mo'g'ullarga qaqshatqich zarba berdi. Bu yurishda Temur qo'shimi Qamariddinni Poyi toqqacha quvib bordi. Biroq shu yerga kelganda amir Qamariddin ko'zdan g'oyib bo'ldi. Amirkoda Jahongir uni tutib kelish uchun yuborildi.

Amir Temur Poyi tog'da ellik uch kun turdi. Shu vatq ichida imirzoda Jahongir Qamariddinmi ko'p qidirdi, topolmagach, oxirni Uch karmondan katta o'ja va asirlar olib qaytdi. Asirlar orasida Qamariddinning og'asi amir Shamsiddinning qizi Bayon og'a bilan uning qizi Dilshod og'a ham bor edilar.

Oliy o'rdu va qo'shin Poyi tog'dan ko'chib, Qora qismiq yaylovi, Otbosh orqali Arpa yoziga kelib tushdilar. Amir Temur Tangri tog'ning mana shu diukusho manzilda katta to'-yu tomosho berib Dilshod og'oni xotinlikka oldi. So'ng qo'shinchil Yassi dovondan Farg'onaning O'zgandiga kelib tushdiar. O'zgand yaqinida Amir Temurni madh ulyo Outlug' Turkon og'a, qarindoshlari va xizmatkorlari bilan kelib, kutib oldilar.

Amir Temur Qarshiga borganda lashkarni yurt-yurtiga tarqatib yubordi va 1375—76 yil qishini Qarshining g'arbiy tarafida, undan taxminan ikki kunlik yo'lda joylashgan marhum Qozonxonning Zanjir saroyida kechirdi.

O'sha qishda Xo'jand va O'rategada turgan beklar Odilshoh (Bahrom jalorning o'g'li), Shayx Muhammad (Bayon Sulodusning o'g'li) va Sor Bug'a qipchoq Amir Temurga qarshi isyon ko'tardilar. Avval Oq O'rda⁷⁶ xoni O'russxon (1361—1375) huzuriga, so'ng,

⁷⁶ Hazrat Xudovandzoda Abdulmaoliy — Termiz sayyidalaridan. Amirkodagi Saroymulk xonim o'rtaga tushib, jallodning qo'llidan qutqalib oldi.

Temur ularga bir umr homiylik qilgan.

uning vafoitiдан keyin Mo'g'ulistoniga, Qamariddinning oldiga qo'chib bordilar. Qamariddin bu voqeadan o'zgacha xulosa chiqaradi. Amir Temur saltamatida buzilish paydo bo'ldi, degan fikrga keldi vi 777-yilning qish o'rtaida (1376-yilning yanvar oyida) Sohibqironning Xorazmda ekanligidan foydalanib, Farg'ona viloyatiga yurish qilib Andijonni bosdi. Buning ustiga, qozoq hazorasi o'sha payt da Farg'onada hokim bo'lib turgan Umarshayx mirzodan arazlub, mo'g'ullar tarafiga o'tib ketdi. Ustiga ustak, Umarshayx ham lashkarni uy-uyiga tarqatib yuborib, kam sonli cherik bilan qolgan o'shu sovuq kunlati ahl-u oilasi, mulozim va xizmatkorlarini olib Andijon bilan O'sh oralig'idagi toqqa chiqib kedi.

Andijonda sodir bo'lган bu xunuk voqeadan tashvishga tushgan Amir Temur tez fursaita tevarak-atrofning lashkarini yig'ib Farg'ona ustiga otlandi. Amir Qamariddin Temurning lashkar bilan o'zi kelayotganini eshitib Andijon, Koson, O'sh va O'zgandni talab Otbosh tarafga chekindi. U Amir Temur buni jazosiz qoldirmasligini bilardi. Shuning uchun Otboshga kelib tushishi hamon ahl-u oilasini lashkarning bir qismiga qo'shib, Mo'g'ulistonning ichkarisiga jo'natib yubordi, o'zi bo'lса 4000 otlitq askar bilan Otboshdan chiqaverishda, yo'lining ikki tarafida, pistirmalar qo'yib yotdi.

Amir Temur Qamariddinni Otboshgacha ta'qib qilib bordi. U qurgan pistirmadan bexabar holda qo'shining katta qismini amir zoda Jahongir boschchiligidan mo'g'ullamni ta'qib qilish uchun yubordi. Uning yonida 200 yigit, Xitoy bahodir va Shayx Ali Bahodirdan bo'lak odami qolmagan edi. Har ehtimolga qarshi, mudofa. choralarini ko'rib qo'ydi. Lashkargoh tevaragini aravalar bilan to'sib, bir-biriga zanjirlatib qo'ydi; tevarak-atrofda qorovullarni kuchaytirdi.

Bu safar amir Qamariddinning xursandligi cheksiz edi. Nihoyat, Temurbekday yengilmas sarkarda tuzoqqa ilindi. U ozgina kuchi bilan qopqonga tushib o'tiribdi. Otboshning kirish-chiqishini to'ssu bas, bu yog'i amiq — Temurbek mahv etilajak! Qamariddinning ko'pdan orziqib kutgan g'alabaga ishonchi baland edi.

Tuzoqqa iilanganini Amir Temur ancha keyin payqadi. Lekin hazzat Sohibqiron ham, odamlari ham vahimaga tushmadilar, aksinchalik bir jon-bir tan bo'lib harakat qildilar. Ilk saharda qurshovni yorib chiqib, mo'g'ullarning yo'l ustida turgan qismini tor-mor keltirdilar. To'satdan qilingan hujum Qamariddinini dovdiratib qo'ydi. Amir Temurga yordamchi kuchlar yetib keldi, deb faraz qilib, chekinishni buyurdi. Temurning askarlari Sangyog'ochda bo'lган urushda ham g'olib keldilar. Amir Uchqora Qamariddinni ko'zdan qochirmayin qilib bordi. Yo'l ustida bo'lган yana bir to'qashuvda Qamariddinning otiga o'q tegib o'ldi, o'zi esa bir necha yerdan zahmdor bo'ldi. Shunga qaramay, jonini onon saqlab qola bildi. Qisqasi, bu gal ham Qamariddinni qo'iga tushurolmadilar.

Sohibqiron amirzoda Jahongirning o'limi tufayli Samarqandga qaytishga majbur bo'ldi. Ta'ziya marosimlari o'tgandan keyin, o'sha 1376-yil mo'g'ullarga qarshi urush davom etirildi. Hazrat Sohibqiron lashkar bilan Qamariddinga qarshi amirzoda Umarshayx, amir Oqbo'ga va Xitoy bahodirni jo'natdi. Ular zo'r sur'at bilan harakat qilib, amir Qamariddinga Qoratepaning etagida yetib olib katta shikast yetkazdilar. Lekin Qamariddin qolgan-qutgan odami bilan yana qochib qutuldi. Temuriy amirlar katta o'jja va asirlar olib qaytdilar.

1377-yil bahor fasilda Amir Temur Mo'g'uliston ustiga to'rtinchibor harbiy yurish yusushtindi. Nihoyat, ashaddiy raqibini tamom o'radian ko'tarib tashlashga ahd qidi u. Katta qo'shining mang'uloy⁷⁸ qismiga amir Muso, Abbas bahodir va amir Oq Temur tayinlaydilar. Ular kecha-yu kunduz timim bilmay yo'l bosib, Issiiko'lning Bug'an degan yerida amir Qamariddinga yetib oldilar. Birinchi to'qnashuvdan keyin oq mo'g'ullar mag'lub etilib, chekinishni ixtingor qildilar. Temuriy amirlar shu yerda katta o'jjalik bo'ldilar. Hazrat Sohibqironning o'zi bosh bo'lib, Qamariddinni Qo'chqorgacha quvib bordi. Shu yerdan Samarcanddan chopar To'xtamish o'g'lon O'russxondan mag'lub bo'lib oliv ostonaga bosh urib kelganligi haqida xabar keltirdi. Amir Temur shu Oq O'rda tarafidan xavfsirab

⁷⁸ Mang'uloy — ilg'or qism; avangard.

yurgan edi. Bu xabar uning tashvishiga tashvish qo'shdi. Demak, O'rdada toj-u taxt uchun ko'pdan beri borayotgan kurashda O'russining qo'li baland kelidi. Kim bilsin, balki u endi Movarounahr yoki Xorazmga ko'z tikar. Qamariddin bilan biriksa-chi? Undi endigina oyoqqa turib kelayotgan saltanati yana xavf-xatar ostidi qoladimi?! Nima qilib bo'lsa ham O'russxonni o'zaro kurash girdi. Biqqa tortib o'z-o'zi bilan ovora qilib qo'yish kerak. Buning uchun yurishni shu yerda to'xtatishga va Samarcandga qaytib To'xtamish o'g'lon va Oq O'rda masalasi bilan mashg'ul bo'lishga qaror berdi. O'zi borguncha xonzodani ovuntirish tursin uchun Tuman Temur o'zbekni uning istiqboliga jo'nardi. Hazrat Sohibqironning o'zi ham O'ynog'u va O'zgand orqali Samarcandga qaytdi.

Temur saroyida To'xtamishxonga zo'r izzat-qurmat ko'rsatdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay unga kerakli quroq-aslaha, oziq-ovqat, ot-ulov, javohir va naqdinolar berdi va bayroq hamda naqora⁷⁹ bilan ta'minlab, Oq O'rda qaytarib yubordi. O'shanda To'xtamish o'g'lon Amir Temurning katta yordami bilan Sarbon bilan Sig'noq da mustahkam o'mashib oldi.

Mana shu to'rt yurishdan keyin amir Qamariddinning qanoti sindi, Mo'g'ulistonning harbiy kuchi tor-mor etildi. Mo'g'ulning endi birmuncha vaqt Farg'onha yoki Turkistonga ko'z olaytirishga majoli qolmadi. To'g'ri, hali Anqo to'ra va Hojibekka o'xshash katta amirlerdi. Hali ular shu kuniarda katta harbiy kuchga ega, lekin oralarida ittifqochilik yo'q. Agar birga bo'lganlarida To'xtamish ham, Mo'g'uliston ham shu kunlarga qolmagan bo'tur edi. To'xtamishxonjon olib-jon berib kurash olib borayotgan mahalda, aksincha, Anqo to'ra bilan amir Hojibek Amir Temur bilan sulh tuzib, Yassi, Sabron, Sayram va Toshkentga, umuman, Movarounnahring narigi tarafida viroyatlarga boshqa ta'diy va bosqin qilmaslikka so'z berdi. O'russxon tarafidan bo'llishini hisobga olib, Mo'g'uliston yurishini

Issiqko'lda to'xtatib, Samarcandga qaytdi. Bu safar ham u yurtiga O'zgand, O'sh, Andijon, Marg'ilon va Xo'jand orqali qaytdi.

Amir Temur O'russxon va Xuroson tashvishlaridan foriq-bo'lgach, hijriy 785-yil (1383) amirzoda Alini katta qo'shin bilan Mo'g'uliston ustiga otantirdi. Bu uning Mo'g'uliston ustiga qilgan beshinchchi yurishi edi. «Nima bo'lsa ham fitnachi Qamariddinni tutib kel!» — deb buyurdi u amirzoda. Biroq amirzoda Ali topshiriqning uddasidan chiqmadi. Yo'lda mo'g'ullarning pistirmasiga uchrab, ko'p odamidan ayrıldi va orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Hazrat Sohibqiron endi Mo'g'uliston ustiga tajribali amirlarni: Sayfulmuluk, Sotilmish hamda Arg'unshoh axtachini tumanlari bilan yubordi. Oradan ko'p vaqt o'tdi. Ular bedarak ketishdi. Shundan keyin ularning orqasidan amir Jahonshoh, Elchi Bug'o, Shamsudin Uchqora va Soin Temur bahodir 10 ming sara otiq askar bilan yuborildi. Otaqumga yetganlarida amir Sayfulmuluk, Sotilmish va Arg'unshoh axtachini⁸⁰ qo'shnlari bilan shu yerda uchratdilar. Ular bahrin elini tor-mor keltirib va tamom xalqini talon-toroj qilib qaytgan ekanlar. Amir Jahonshohga hazrat Sohibqiron amir Qamariddini tutib kelishni qattiq buyurgan edi, Issiqko'ldan o'tib, u o'sha paytda o'rdu qurib o'lirigan Kultepagacha bordi. Afsuski, Qamariddinni u yerdan ham topolmadi.

XIV asming 80-yillari oxirida To'xtamishxonning agressiv siyosati boshhqacha tus oldi. «Hazrat Sohibqironning cheksiz inoyatlari va haq-huquqlarini unutish kayfiyat peshonasiga yozilgan ekan, kurni ne'matlik vodiyisiga qadam qo'ydi», deb yozgan edi tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy. Agar u Mo'g'uliston beklari bilan — Anqo To'ra, Hojibek yoki Qamariddin bilan til topishga harakat qilib qoldugunday bo'lsa-chi? Unda nima bo'ladi? Amir Temurning ko'ngildan shu fikr kechdi-yu, fasod gazak olmasdan burun Mo'g'uliston amirlarini bartaraf qilishga ahd qildi. Shu payt Mo'g'ulistonda qiziq bir voqeа sodir bo'ldi. Yuqoriqda ulusbegi Xudaydod bilan amir Qamariddinning oralari buzilib qolganligi, u mamlakatda hokimiyatni egallab olgach raqibolaridan ayovsiz o'ch o'lganligini aytilib o'tgandik.

⁷⁹ Bayroq va kaqora — oliv hokimiyatga egalik belgisi.

⁸⁰ Axtachi — podshoh, xon oxonasining xizmatchisi. U diliyanq side 'o'maq'

Shundan keyin amir Xudaydod uning ko'zidan nariroqda bo'lli
 ni ixriyor qildi va Oqsuvda o'mashib olib, yaxshi kunlar kelishdi.
 Lekin vaqtini bekorga o'kazmadi. Ulusbegi o'shanda Tug'il
 Temurxonning sag'ir o'g'li Xizxo'jani Qamariddimning qilishi
 damidan quitqarib, Koshg'ar bilan Badaxshon oralig'idagi bir toqqa
 yashirgan edi. Ma'lum vaqt o'tib, xonzodani u yerdan boshqa yev
 ko'chirdi, chunki xavfsizlik chorasi shuni taqozo qillardı. Shundan
 qilib xonzoda amir Xudaydodning ishonchli odamlari nazorati o't
 da yana o'n ikki yil mamlakatning jamubi-shareqiy hududlarida, no
 susan, Lo'bno'r ko'li bo'yida yashirinchha kun kechirdi. Qarang-o,
 xuddi latifaga o'xshaydi bu tarix. Agar esingizda bo'Isa, otasi
 Tug'ilq Temurxonning tarixiga o'shab ketadi. Ulusbeginning oto
 si amir Po'lodchi Tug'ilq Temurxonni shu tarzda yashirgan, soni
 odam yuborib oldirib kelib xonlikka ko'targan edi. Xullas, 1387-yil
 Xizxo'ja ismlik bir shaxs Mo'g'uliston taxtiga o'tqazildi.
 Hazrat Sohibqiron hijriy 791-yil (1389) katta qo'shin bilan yo'lli
 chiqib, Ol-qo'shun, Bo'riboshi va Tepalik qirq orqali Uztog' dovo
 niga ko'tariidi. Otlar bag'oyat charchab qolgani sababli, har o'n of
 liqdan uch kishimi piyoda Samarqandga qaytarib, otlarini boshqalru
 ga olib berdilar. Yurish juda og'ir kechdi. Otin suriga yetgunlarichu
 suv bo'lindi va lashkar suvsizlikdan ko'p aziyat chekdi. Yo'l ustida
 quduq qazishta majbur bo'lidi va suv topib sipoziylar ham, choppo
 ham o'zlarini qondirdilar. To'gra o'tloq degan yerda farmoni olyi
 binoan shikor uyushtirildi. Ayg'ir yoli sahosida ham shikor mo'l
 bo'idi. Shundan keyin zafar asar lashkar yo'iga chiqib, O'lan jarliq
 sahrosidagi Chopar ayg'ir mavzeyiga kelib qo'ndilar. Shu payt o'shu
 sahroda bahrin qabilasini qidirib yurgan Anqo to'raning lashkaridni
 Avlun Bug'o va Ankajaq bir ming oftiq askar bilan zafar asar lash
 kar o'ng qanotida qorovullik qilib turgan Mirak elchi bilan Pir Ali
 tozlar bilan to'qnashib qoldilar. Oxir-oqibat, mo'g'ullar chekinishiga
 majbur bo'lildar. Ulardan bir kishimi asir olib darhol oliy ostoni
 ga jo'natdilar. Hazrat Sohibqiron asirdan so'rab-surishtrib, Anqo
 to'raning umumiylahvolini bilib oldi. Ma'lum bo'lismicha, Anqo
 to'ra o'sha payida Urang yerni lashkargoh qilib o'tirigan ekan. Haz...

mat Sohibqiron darhol uning tepasiga Shayx Ali bahodir bilan Ikki
 temurni lashkarning ilg'or qismi bilan otantirdi, o'zi esa qorong'i
 tun bo'lishiga qaramay, lashkarning qolgan qismini olib yo'lga tush
 di. Ammo buning oqibati xayrli bo'lmadi. Ertalab ma'lum bo'ldi
 ki, g'ajarchi^{si} ularni yo'ldan ozdirgan ekan. O'sha kuni kun bo'yil
 Quyon qori yo'ldan yurib kechki payt Ko'k soliga kelib tushdilar.
 Biz chamasi uch kumlik yo'ldan adashdik, — dedi u, — yog'iyo esa
 shoyad bundin voqif bo'lib, tevarak-atrofqa tarqalib ketgan bo'lsa.
 Binobarin, dushmanqa qarshi ikki tarafdin borganimiz ma'qul».
 Shundan keyin, lashkarning bir qismi amirzoda Umarshayx bosh
 chiligida bir tarafdan yuborildi. Mo'g'ulistonlik amir Homidning
 o'g'li amir Jalil unga g'ajarchi qilib tayinlandi. Lashkarning ikkin
 di qismi bilan hazrat Sohibqironning o'zi Shira, Shabartu, Qo'yama
 roq', Ko'ragon va Buyurlag'u yo'lli bilan Qorag'ujurga qarab yo'l
 oldi. Amirzoda Umarshayx Anqo to'raga Qobuq soyining bo'yida
 yetib oldi. Ikki o'rtada qattiqjang bo'ldi, lekin g'alaba nasimi amir
 zoda Umarshayxning bayrog'i sari esdi. Anqo to'ra Qoqma bur
 jo'yga, undan Ardish (Irish) daryosi sari qochdi. Umarshayx katta
 o'ljalar bilan olyi o'rduqa qaytdi. Keyin u Olako'l vodiyisini yana bir
 bor tintib chiqdi. Qorag'ujurda lashkarga bir necha kun dam berildi.
 Io'plangan o'lya hazrat Sohibqironning amr-farmoni bilan lashkarga
 taqsimlab berildi. Shundan keyin amir Jahonshoh bilan Uchqora ba
 hodir 30 ming askar bilan Ardish tarafga, Anqo to'raga qarshi yubo
 rildi. Hazrat Sohibqironning o'zi esa Emil g'ujurga yo'l olib Saroy
 o'rda borib tushdi. Bu yer Mo'g'uliston xonlarining asosiy qaror
 gohlaridan biri edi. Temur lashkarning qolgan qismini Mo'g'ulis
 toming janubiy hududlariga yubordi. U mamlakatni shu safar to'la
 bo'ysundirmoqchi bo'ldi. Farmoni olyiga binoan, mamlakatning
 tevarak-atrofiga yuborilgan barcha qo'shinlar Mo'g'uliston xonlari
 ning bosh qarorgoh Yulduzga to'planadigan bo'ldi.

^{si} G'ajarchi — yo'l ko'rsatuvchi.

Amir Temur o'shanda Turkistonda, Mo'g'uliston bilan O'zbekiston (O'zbek ulusi) o'tasida turgan qo'shinlarni ham harakutlari soldi. Ular oldindan belgilab berilgan rejaga ko'ra, Ur dovon, illar daryosidan o'tib Suyutko'l (Sayram) va Chechaklikni g'orat qilishlari, so'ng Yulduzga qarab yo'l olishlari kerak edi. Turkistonlik amirlar hazrat Sohibqironning buyrug'ini to'liq ado etdilar, Yulduzga qarab borayotganlarida esa yo'lda Xizrox o'jaxon bilan to'qnashib qoldilar. Ikki kun urushdilar, unda tomonlarning birontasi usluri kelolmadi; shundan keyin ikki o'rta da bitim imzolani, tarqalib ketishdi.

Dmir Jahonshoh bilan Uchqora bahodir boshliq Anqo to'ru qarshi yuborilgan qo'shinlar esa umi Ardish daryosi bo'yidan topshunga katta talafot yetkazdilar. So'ngra katta o'lia-yu asirlar bilin Yulduzga, Amir Temur ho'zuriga qaytdilar.

Hamma qo'shinlar yig'ilgach, Amir Temur o'lia va asirlarni Samarkandga jo'natdi. So'ng, yana birmuncha vaqt Xizrox o'jaxonning orqasidan tushib, Cholish (Qorashahar) gacha quvib bordi. Umar Shayxga esa Farg'onaga qaytishga ijozat berdi. Shundan keyin hazroq Sohibqironning o'zлari ham Samarcanda yo'l oldilar va 1389-yilning avgustida poytaxtiga kirib keldilar.

Hijriy 792-yil (1390) Temur Qamariddini Ardish taraflari qochgan deb gumon qilib (uning bir yil muqaddam o'lib ketganidagi bexabar edi) va Anqo to'ra bilan qo'shilib ketishidan cho'chib, Shimaliy Mo'g'ulistoniga yana askar yubordi. Uning qo'shinlari Tosh So'ng Ila va Qoratol daryolaridan o'tib, Ardishga chiqdilar. Lekin Qamariddinni ham, Anqo to'rani ham topolmay, mo'g'ul uluslarini talab Balxash orqali orqaga qaytdilar. Amir Temur so'nggi yurishlari da katta g'alabani qo'liga kiritdi. Mo'g'ulistonning yana bir nufuzli amiri Anqo to'rani kuch-qudrati sindirildi. Xo'sh, Qamariddingu nima bo'idi? Biz uni ko'zdan g'oyib bo'iganini (sal yuqoriroqda uni anir Jahonshoh quvib borib, Kultepada ko'zdan hochirganimi) aytgan edik. Tarixchi Muhammad Haydar amir Qamariddinning bin-

muncha vaqt tevarak-atrofda kezib yurgani, so'ng istisqo kasaliga⁸² mubtalo bo'lib, o'lib ketganimi aytadi. Lekin Anqo to'ra sindirilgani, amir Qamariddin o'lib ketgani bilan Mo'g'uliston, baribir, bu safar ham bo'ysundirilindi. Bundan keyin mustaqillik uchun kurash bayrog'ini Xizrox o'jaxon qo'iga oldi. Ammo surunkasiga urush bo'lmadi. Aksincha, tez orada har ikkala davlat o'tasida yaxshi munosabatlar o'matildi. Xizrox o'jaxonning shu maqsadda Samarqandga jo'natgan o'g'i Sham'i Jahon Amir Temur bilan sulh tuzib qaytdi. Xizrox o'japon bilan Amir Temur qarindosh bo'ib oldilar — Xizrox o'jaxon qizi lo'kal xonimni Amir Temurga xotinlikka berdi.

Shunday qilib, o'n yil mobaynida olib borilgan qurolli kurash, baribir, Chig'atoy ulusi ikkala qismining birlashishiga olib keldi. Mo'g'uliston — Mo'g'ulistonligicha, Movarounnahr — Movarounnahrigicha qoldi. Lekin Issiqko'l atrofidagi yerlar Temur davlatiga qo'shib olingan bo'ishi kerak, chunki 1402-yildan keyin Kichik Osiyodan ko'chirilgan qora totorlarni u Issiqko'l atrofidagi yerlarga o'mashtirdi. Xitoya yurish oldidan esa Amir Temur Mo'g'ulistonning shimaliy qismini Toshkentga qo'shib uni Mirzo Ulug'bekka ulus qilib berdi, Sharqiy Turkistonni esa Farg'onaga qo'shib Ibrohim Sultonga berdi. Lekin bu yerlarni hali bo'ysundirish kerak edi. Xitoya yurish esa hazrat Sohibqironning vafoti tufayli (1405-yil 18-fevral) o'ida-jo'ida qoldi.

Beshinchibob

MO'G'ULISTON XV ASRDA. CHIG'ATOIYLAR BILAN TEMURIYLAR MUNOSABATI

Xizrox o'jaxon bor-yo'g'i uch yil hokimiyat tepasida turdi va 1389-yil vafot topdi. Mamlakat yana Chig'atoylarning toj-u taxt uchun kurashi iskanjasida qoldi. Kurash, asosan, marhum xonning tojt o'g'i: Sham'i Jahon, Muhammad o'g'lon, Sherali o'g'lon va Shoh Jahon o'g'lon o'tasida kechdi. Bu voqeal tez orada tevarak-atrofda gi mamlakatlarga yoyildi. Sharafiddin Ali Yazdiy bundan hatto yetti

yillik urush (1399—1404) payfida G'arbiy Eron va Ozarbayjon tunlardacha turgentur Amir Temur ham xabar topganimi aytadi. Masalan, o bunday deb yozadi: «(O'sha paytda sodir bo'lgan voqealardan) yangi shulki, Jete mamlakatining hukmdori Xizixo'ja o'g'lon valo topdi; o'g'illari Sham'i Jahon o'g'lon, Muhammad o'g'lon, Sherali o'rtasida fisq-u fasod va isyon chiqishiga sabab bo'ldi». Farg'onuni idora qilib turgent Umarshayx mirzoning farzandi Mirzo Iskandor bundan foydalaniib, Andijon lashkari va amirlardan Pirmuhammud Tag'oy Bug'o barlos, Nurak barlos, Bayon Temur bekchiklarni olli Koshgar ustiga yurish qildi. Buni eshitib, Mo'g'uliston sarhadida qo'shin bilan turgent Berdibek, Xudaydod Husayniy, Shamsiddin Abbos, Dodmailik barlos, Siddiq tobos kabi amirlar ham harakatga keldilar. Mazkur amirlar amirzoda Iskandarga Koshgar'da boril-qo'shildilar. So'ng birgalikda mamlakatning ichkari rayonlariga yurdilar. O'shanda ular Yorkandgacha bordilar va uni talon-toroj qildi. Undan Soriq qumash, Kalpin, Olako'l, Yerqo'ig'on, Chohartoq Kiyik boqqa yetib toroj qildilar. Uch shaharini bo'ysundirdil va o'sha tarafalarda yurt qurib o'tirgan el-u ulusning bir qismini ko'chirib Oqsuvga qarab yurdilar. Oqsuvning bir-biriga tutash uchta mustahkam qal'asi bor edi. Amirzoda uni qirq kun davomida qamol qildi. So'ng shahar boyonlari peshkashlari bilan chiqb qal'an uyo taslim etdilar. O'shanda shaharda katta karvon bilan turgent Xitoy savdogarlarini ham tamom mol va karvoni bilan olib chiqb shahzada Iskandarga topshirdilar. Shundan keyin Temuriyodanining qo'shi ni Boy va Kavsonga yurib ularni toroj qildilar. Shu yerda turgent amir Xizrshohning harami Hoji Mulk og'a va uning qizi Eson mulk aslo olindilar. O'shanda amirzoda Iskandarning qo'shinkari Torimni han olib, xalqini ko'chirib olib ketdilar. So'ng ular Xo'tandan to Xon baliqacha bo'lgan yerlarni bosdilar. Amirzoda o'sha yilgi (1399 yil) qishmi Xo'tanda o'tkazdi.

Xizixo'jaxonning o'g'lonlari o'rtasidagi kurash qanday kechgani tafsiloti haqida aniq ma'humot yo'q. Lekin o'shanda amirlar kelishib, marhumming to'ng'ich o'g'li Sham'i Jahon o'g'lomi

da bo'lgan to'ng'ich faizanding haq-huquqi va imtivozi Muhammadi o'g'lon, Sherali o'g'lon va Shoh Jahonni shu qonun-qoidaga topdi; o'g'illari Sham'i Jahon o'g'lon, Muhammad o'g'lon, Sherali o'rtasida fisq-u fasod va isyon chiqishiga sabab bo'ldi». Farg'onuni idora qilib turgent Umarshayx mirzoning farzandi Mirzo Iskandor bundan foydalaniib, Andijon lashkari va amirlardan Pirmuhammud Tag'oy Bug'o barlos, Nurak barlos, Bayon Temur bekchiklarni olli Koshgar ustiga yurish qildi. Buni eshitib, Mo'g'uliston sarhadida qo'shin bilan turgent Berdibek, Xudaydod Husayniy, Shamsiddin Abbos, Dodmailik barlos, Siddiq tobos kabi amirlar ham harakatga keldilar. Mazkur amirlar amirzoda Iskandarga Koshgar'da boril-qo'shildilar. So'ng birgalikda mamlakatning ichkari rayonlariga yurdilar. O'shanda ular Yorkandgacha bordilar va uni talon-toroj qildi. Undan Soriq qumash, Kalpin, Olako'l, Yerqo'ig'on, Chohartoq Kiyik boqqa yetib toroj qildilar. Uch shaharini bo'ysundirdil va o'sha tarafalarda yurt qurib o'tirgan el-u ulusning bir qismini ko'chirib Oqsuvga qarab yurdilar. Oqsuvning bir-biriga tutash uchta mustahkam qal'asi bor edi. Amirzoda uni qirq kun davomida qamol qildi. So'ng shahar boyonlari peshkashlari bilan chiqb qal'an uyo taslim etdilar. O'shanda shaharda katta karvon bilan turgent Xitoy savdogarlarini ham tamom mol va karvoni bilan olib chiqb shahzada Iskandarga topshirdilar. Shundan keyin Temuriyodanining qo'shi ni Boy va Kavsonga yurib ularni toroj qildilar. Shu yerda turgent amir Xizrshohning harami Hoji Mulk og'a va uning qizi Eson mulk aslo olindilar. O'shanda amirzoda Iskandarning qo'shinkari Torimni han olib, xalqini ko'chirib olib ketdilar. So'ng ular Xo'tandan to Xon baliqacha bo'lgan yerlarni bosdilar. Amirzoda o'sha yilgi (1399 yil) qishmi Xo'tanda o'tkazdi.

Xizixo'jaxonning o'g'lonlari o'rtasidagi kurash qanday kechgani tafsiloti haqida aniq ma'humot yo'q. Lekin o'shanda amirlar kelishib, marhumming to'ng'ich o'g'li Sham'i Jahon o'g'lomi uxtga o'tkazdilar. Turk-mo'g'ul xalqlari o'rtasida qadimdan amalda bo'lgan to'ng'ich faizanding haq-huquqi va imtivozi Muhammadi o'g'lon, Sherali o'g'lon va Shoh Jahonni shu qonun-qoidaga bo'yunishga majbur etgan.

Sham'i Jahon chamasi Mo'g'ulistonda barqatorlik o'matishga muyassar bo'lgan, chunki Amir Temur vafotidan keyin Movarounahr ustiga yurish taraddudiga tushgan. Chunki mamlakat notinch bo'lqanda bunga jazm qilolmas edi. Sham'i Jahon bunga hatto Xitoyni ham tortmoqchi bo'lib, shu maqsadda 1407-yil Xonbaliqqa elchi yuborgan. Xitoy imperatori bunga nima javob qilgani bizga nomalum. Ammo 1408-yil Sham'i Jahon vafoti sababli bu yurish umalga oshmay qoldi.

Sham'i Jahonning o'mini inisi Muhammadxon egalladi. U qattingo'l va siyosatdon odam edi. U mamlakatda tartib-intizom o'matdi, xususan, hali muslimmon bo'Imagan mo'g'ullar orasida islomi yoyishda sa'y-harakat ko'rsatti. Bunga itoat etmaganlarga qattiq choralar ko'rdi. Muhammad Haydarning so'zlariga qaraganda, Muhammadxon mo'g'ullarni salsa o'rab yurishga majbur qildi, bunga itoat qilmaganlarni esa muhtasiblar tutib olib boshiga mix qoqdilari. Muhammadxon Haydarning qisbatan ustomonlik bilan siyosat yurgizdi. Masalan, boshda Hirotga elchi yuborib, Shohrux mirzoga tobelik va xizmatkorlik izhot etdi, hatto ular quda-anda utindilar. O'shanda Sham'i Jahoning qizi Mehr Nigor xonimi Muhammad Jo'kay mirzoga xotinlikka olib berdilar. Lekin isyonchi amir Xudaydod Husayniy Xalil Sultan ni asir olib (1409-yil 30-mart kuni), Movarounmahrga hokimlik da'vo qilib yurgan yillari (1403—1410) uni qo'llab-quvvatlab, Shohrux Mirzoga gardankashlik qildi. «Muhammadxon, — deb yozadi tarixchi Abdurazzoq Samarcandy, — birodari Sham'i Jahonni amir Xudaydodning iltimosiga binoan yordam uchun yubordi. (Sham'i Jahon) Toshkent atrofiga yetgach, amir Xudaydod uni zo'r xursandlik bilan kutib oldi va (hurmat ehtirom hamda) xizmatkorlik shartlarini bajo keltirdi». Xudaydod Husayniy shundan keyin Movarounmahrga qo'nga kirdi, deb faraz qildi va Samarqand ustiga yurish taraddudiga tushdi. Biroq uning bu orzusi

ushalmay qoldi — Sham'i Jahon yordam o'miga xalaqit berdi unga. Sham'i Jahon aslida hushyor va keng mulohazali yigit edi. Birodovi Muhammadxonning amr-farmoni bilan bu yerlarga kelishga kel, qo'ydi-yu, keyin yana o'ylanib qoldi. Abdurazzoq Samarqandiyning aytishicha, «(amir) Xudaydod mojarosi xususida yaqinlarini kengashga to'plab: «Sohibqiron hazratlari qanchadan qancha inoyatlar ko'rsatganligiga qaramay, amir Xudaydod uning farzandlariga nisbatan nima vafodorlik qildi?», degan savolni o'rta ga tashladi. Maslahattan keyin esa uni qatnga yotkizdi va boshini amir Shohmalikning huzuriga jo'nadi. Bu payt amir Shohmalik lashkar bilan Ko'janddi turgan edi.

Muhammadxon keyinchalik ham Temuriylar davlatining ichki ishlariiga aralashishda davom etdi. U Shayx Nuriddin Ulug'bek bilan Shohruuxga qarshi isyon ko'targan yillari (1411—1412) Shayx Nuriddin riddimi qo'llab-quvvatladi. Muhammadxon amir Shayx Nuriddin so'ziga kirib, uning huzuriga har ikkala davlat o'rtaida yaxshiqo'smichilik munosabatlarni o'rnatisht maqsadida Mo'g'uliston kelgan Mirzo Ulug'bekning elchilarini hibsga oldi. Shayx Nuriddin ga yordam uchun esa qo'shin bilan yana o'sha inisi Sham'i Jahonni yubordi. Mo'g'ullar Temuriylarga qarashli Sayramni qamal qilgach Sirdaryo bo'yiga yuzlandilar. Ulug'bek ularga qarshi amir Shohna lik va amir Shoyastamni katta qo'shin bilan yubordi. O'shanda Shohmalik, tarixchi Abdurazzoq Samarqandiyning so'zlariga qaranga, mo'g'ullarga qarshi bir tadbir ishladi. U amir Shoyastamni 2000 otiq askar bilan Yangi viloyati⁸³ ustiga yubordi. «Shoyastam, jamlik to'shagida g'aflat tuyqusida yolkан holda topdi, ul to'dani talon-toroja yekkazib, uy-joylarini yer bilan barobar qildi va amir Shohmalik huzuriga 6000 ot va boshqa o'ljalari bilan qaytdilar». Shundan keyin Sham'i Jahon bilan birga kelgan mo'g'ullar tevarak-atrofga tarqalib ketdilar.

Muhammadxon hijriy 818-yilgacha (1415) hukmronlik qildi, 1412—1416-yillar orasida mo'g'ullar bilan Temuriylar bir-birlari

ning yurtiga bosqin qilgani haqida manbalarda ma'lumot yo'q. Ak-sincha, Muhammadxon obodonchilik ishlariiga ko'proq qo'l urdi. Manbalarda, masalan, «Tarixi Rashidiy»da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, xon Chodirko⁸⁴ dovonning shimaliy tarafida, xarsang toshlardan ulkan bir rabot⁸⁵ qurdirdi. Uning peshtoqi yigirma gaz, katta gumbazlik edi. Mana shunday rabot faqat Kashmirda bor edi. Muhammadxon mamlakatda barqarorlikni tiklash uchun ko'pkurashdi, musulmonchilik asoslarini birqadar mustahkamlashga muyassar bo'ldi. Lekin, baribir, o'zaro feodal kurashni bartaraf qilolmadi.

Muhammadxonning so'nggi taqdiri bizga ma'lum emas. Hijriy 819-yil (1416) Mo'g'uliston taxtini Sham'i Jahonning o'g'li Naqshi Jahon egalladi. O'sha yili uning elchilar sovg'a-salomlar va Mo'g'ulistonning tansiq mollari bilan kelib hoqoni sa'idga, ya'ni Shohruuxga itoatkorlik izhor etishadi. Bu yerda bizga ikki narsa qorong'i. Birinchisi — Muhammadxonning so'nggi taqdiri, ikkinchisi — otasi Sham'i Jahon tirk turib, nima uchun taxtga o'g'li Naqshi Jahon o'tkizildi? Shuhbalarimizni «Tarixi Rashidiy» muallifi bирqadar oydinlashtirib beradi. Asarda mana bunday ibora bor: «Mo'g'ullar orasida ma'lum va mashhurkim, amir Xudaydod olti xonni taxtga o'zi o'tqizib, o'zi tushirgan». Ko'rinib turibdiki, Muhammadxonning toj-u taxtdan ajralishida ham, otasi tirk turgani holda Naqshi Jahonning xonlik masnadiga chiqishida ham ulusbegi Xudaydodning qo'li borga o'xshaydi. Bunda mamlakatda uzusiz davon etib turgan o'zaro feodal kurashlarning ham ta'siri yo'q emas, albatta.

Ulug'bek Mo'g'ulistondag'i beqatorlikdan foydalanim, buyuk bosi vafotidan keyin qo'ldan ketgan Koshg'armi qaytarib olishga qator qildi. Bu yurtda o'shanda Ulusbegi Xudaydodning nabirasi amir Said Ali hukm surib o'ltirgan edi. Koshg'ar Ulug'bekka suv bilan havodek zarur edi o'sha yillari, chunki Farg'onani ulus qilib o'ltirligi 20 verstdan sal oriq.

⁸³ Yangi viloyati — O'tror viloyatining o'rta asrlardagi nomlaridan.

gan temuriyzoda Mirak Ahmad unga bo'y sunishdan bosh tordi, amir Said Ali esa Mirak Ahmadni har taraflama qo'llab-quvvatlab turdi. Hatto amir Said Ali 1415-yil Mirak Ahmadga qo'shilib Farg'on ustiga qo'shin tortdi. O'shanda ittifoqchilar Andijon bo'sag'asida Ulug'bek mirzoming amirlaridan Muhammad Tobon bilan Muso aka boshchiligidida o'sha yerda turgan qo'shinalarni tor-mor keltirdilar va Farg'onani xo'b talab, katta o'jya-yu asirlar bilan Koshg'arga qaytdilar.

Mirzo Ulug'bek bu yovuzlikka javoban 819-yil (1416) Koshg'ar ustiga Siddiq bahodir, Ali takrit va Ali Tag'oyi boshchiligidida katta qo'shin yubordi. Temuriylar qo'shimi Koshg'armi deyarlik talofatsiz bo'yusundirdilar. Abdurazzoq Samarcandiy bu voqeani batarsilroq bayon qilgan. Uning so'zlariga qaraganda, Mirzo Amirak Ahmad «(hoqoni saidning chaqirig'i bilan) Xurosonga jo'nab ketayotganida amir Shayx Ali tog'oyini o'z noibi qilib Koshg'arda qoldirgan edi (Lekin) amir Shayx Ali tag'oyi (Mirak Ahmadga sodiq qolmadi.) o'g'lini Samarcandga jo'natdi va ulug' amirning (Amir Temurining) ruhini shafe' keltirib, Mirzo Ulug'bekdan gunohlaridan o'tishlarini so'rattirdi va Koshg'arga odam yuborsa unga mamlakatni topshirib o'zi Samarcandga borajagini ma'lum qildi. Mirzo Ulug'bek Siddiq bahodir va Ali takritlari (Koshg'arga) jo'natdi va Shayx Ali tag'oyi Koshg'armi ularga topshirib, o'zi Samarcandga qaytdi.

Sharqiy Turkiston shu tariqa 1416-yil qaytadan Temuriylar davlatiga qo'shib olindi.

Naqshi Jahon Sharqiy Turkistomning qo'dan ketishi masalasida boshqalaraga o'xslab kuyinmadni, aksincha Temuriylar davlati bilan yaxshi munosabat o'madi. Hatto o'sha kunlari Temuriylarga qarsi ittifoq tuzishmi taklif qilib Mo'g'ulistononga kelgan Badaxxon elchisiga rad javobini berdi.

Ammo, baribir, mamlakat notinchiligidcha goldi. Bu yerda Xizr xo'jaxonning avlodni o'rtasida toj-u taxt uchun zimdan kurash bo-rayotgani haqida Hirot bilan Samarcandga bir-biridan tashvishli xabarlar kelib turardi. Shuni hisobga olib, Mirzo Ulug'bek 1417—18-yilning qishini Xo'jand daryosi (Sirdaryo) bo'yida ke-

chirdi, Kurosandan tumani bilan Muhammad Jo'kiyni ham so'ratib oldi. Xoqoni Said bilan Ulug'bekning tashvishlari o'rinsiz emas ekan. Hijriy 821-yilning rabi ul-avval oyida (1418-yil aprel oyida) «Siddiq bahodirning navkari Koshg'ar tarafdan kelib, Uvays o'g'ilon⁸⁶ Jete xoni Naqshi Jahonni qatnga yetkizib, mo'g'ullar orasi ga g'ulg'ula tushganligini arz qildi. Mirzo Ulug'bek bu voqeанин tafsilotini surishtirib bilib kelish uchun Mo'g'ulistononga ishonchli bir odamini jo'natdi va 1416-yildan beri Samarcand arkida qamoqda yotgan mo'g'ul amirlarini darhol bo'shatib yubordi. Shu payt Samarcandda faxriy mahbus sifatida istiqomat qilib turgan sobiq Koshg'ar hokimi amir Said Ali ham qochib ketdi. Lekin hochirib yuborildi deb aytilsa to'g'ri bo'ladi. Mo'g'ulistonda yuz bergen keyingi voqealar shuni ko'rsatdiki, Mirzo Ulug'bek bu yerda tobora kuchayib borayotgan o'zaro封建 kurashga aralashish maqsadida shu ishni qilgan, albatta. Darhaqidat, oradan ko'p vaqt o'tmay, Mo'g'ulistonda ur-yiqitlar avjiga mindi. Hijriy 822-yil rajab oyining oxirida 1419-yil avgust oyining 20-larida) ulusbegi amir Xudaydod boshliq bir guruhi dug'lat amirlari Vaysxonga qarshi bosh ko'tardilar. Aftidan, kurash ancha jiddiy bo'lganga o'xshaydi. Abdurazzoq Samarcandiy bu kurashda hatto ayollar ham chetda qolmaganini aytadi. Uyozadi: «Amir Xudaydodning qizi podshohga qasd qilib, mo'g'ullar orasida tartibsizlik sodir bo'lib turganligi haqida (822-yil) rajab oyining oxirida (1419-yil 22-avgust kuni) Koshg'ardan xabar keldi». Va yana «Andijon tarafdan Abullays kelib, Sher Bahromning o'g'li Jetedan qochib, Koshg'arga kelganligi, uning ketidan esa boshqa bir guruh izma-iz yaqinlashib kelayotganligi xabarini arzga yetkazdi. Shundan keyin, sha'bon oyining oxirida (1419-yil 20-sentyabr kuni) Ulug'bek Arslonxo'ja taxxon, Yodgor barlos, Mahmud taxxon va yana bir necha ko'zga ko'ringan amirlarini tumani bilan olib, Mo'g'uliston ustiga yurish boshladi. Lekin yurish Toshkentga barganda to'xtatildi. Mirzo Ulug'bek Mahmud taxxonni tumani bilan Koshg'ar ustiga yuborib, o'zi Samarcandga qaytdi. Shunga qaramay,

⁸⁶ Uways o'g'ilon — Sheralixomning o'g'il; Xizrojaxonning nabirasi. 1418—1421 va 1425—1428-yillarda Mo'g'uliston xoni.

Vaysxon bilan dug'lot amirlari o'rtasida boshlangan kurash tashabbuskori Ulug'bek ekanligi ko'rniib turibdi. Ulug'bek Vaysxonning raqiblarini qo'llab-quvvatlashda davom etdi. Masalan, 1421-yilning yoz kunlari Samarqandga yordam so'rab ulusbegi Xudaydodning o'g'li amir Qulmuhammad va amir Qamariddinning o'g'li Jahonshoh kelishdi. Ko'rimb turibdiki, Vaysxon bilan kurashda ulusbegi Xudaydod yolg'iz emas ekan. Xon bilan kurashga uning ashaddiyraqibi bo'igan amir Qamariddinning avlodni ham bel bog'lagan ekan. Ularni birgalikda, abdashib harakat qilgan deb bo'lmaydi. Bu guruhlarining har biri o'z holicha, mustaqil harakat qilishganligi tarixiy manbalardan ma'lum. Ulug'bek mirzo, umuman, Vaysxonga qarshibo'lgan, u bilan kurashda bor imkoniyatini ishga solgan, vacqi-vaqti bilan qo'shimi bilan Mo'g'uliston hududida paydo bo'lib, dug'loj amirlarining kurashiga ko'mak berib turgan. Uning hijriy 824-yil jumodi al-oxit oyining o'rtasida (1421-yil 17-iyun kuni) Mo'g'uliston ustiga uyuştingan harbiy yurishi ham shu maqsadni ko'zlab qilingan. O'shanda Mirzo Ulug'bek Qorabuloqqacha borib yetdi va o'sha yerda amirlardan Hariy Malik bilan Iskandarni mang'uloy⁸⁷ tariqida oldinga yuborib, o'zi asosiy kuchlar bilan, oyning oxiriga 30-iyul kunlari) Vaysxonning raqibi Shermuhammad o'g'lonning elchilarini Malik Islom bilan Sadr Islom Qorabuloqqa, ikki davlat o'rtasida tinehlik ahndini tuzish taklifi bilan kelishdi. O'shanda ikki o'rtada shunday ahndoma tuzilganniyo'qmi bu haqda biz bilgan tarixiy manbalarda biron gap aytilmagan. Lekin bor gap shulki, Mirzo Ulug'bek Mo'g'ulistonga yurishni shu yerda to'xtatib, Samarqandga qayigan. Ammo Shermuhammad o'g'lonning elchilariga qaytishlariga ijozat bermagan va ularni o'zi bilan birga Samarqandga olib ketgan. Ularga faqt o'sha yil zulhija oyining 13-kuni (1421-yil 10-dekabr kuni)gina yurtiga qaytishga, shunda ham Koshg'ar orqali qaytishlariga ijozat berilgan. Afidan, o'sha yili Vaysxon, akademik Bartoldning so'zlariga qaraganda, raqiblari ustidan g'alaba qozongan va Mo'g'uliston taxtidan mustahkam o'mashib olgan.

⁸⁷ Mang'uloy — qo'shining ilg'or qismi; avangard.

Mirza Muhammad Haydar va Mahmud ibn Valining kitoblarida Vaysxon bilan Shermuhammad o'g'lon o'rtasidagi kurash qanday kechgani haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar uchratamiz. Vaysxon nomi nafaqat mo'g'ul qabilalarining ko'philik boshliqlari, hatto ulusbegi Xudaydod bilan Said Ali ham qo'llab-quvvatlaganlar. «Tarixi Rashidiy» mualifining so'zlariga qaraganda, Vaysxon bilan Said Ali bir kun kechasi Shermuhammad o'g'lonni Qongli degan yerda bosqin qilganlar va uni tor-mor keltirganlar. Shermuhammad o'g'lon o'shanda yana Samarqandga, mirzo Ulug'bek huzuriga qochib bordi. Ko'p o'tmay, Samarqandga amir Xudaydodning o'g'li Qulmuhammad ham qochib bordi. Har ikkalalari qariyb to'rt oy mobaynida Samarqandda istiqomat qildilar. Mirzo Ulug'bek 824-yil zulhija oyining 16-kuni (1421-yil 10-dekabr kuni) Shermuhammad o'g'longa Mo'g'ulistoniga qaytishga ijozat berdi. Lekin faqat Koshg'ar orqali qaytishi shart qilib qo'yildi. Bundan tashqari, Mirzo Ulug'bek Shermuhammad o'g'lonni qo'llab-quvvatlash haqida Farg'onha hokimi amir Abullaysga hamda Koshg'ardagi noibi Pir Ali takritlarga ham ko'rsatma berdi. Shermuhammad o'g'lon bilan Vaysxon o'rtasidagi kurash shundan keyin yana to'rt oy davom etdi va bu gal endi Shermuhammad o'g'lon raqibi ustidan g'alaba qozondi. Hijriy yil jumudi ul-avval oyining boshida (1422-yil 23-aprelda) Shermuhammad o'g'lon, Mirzo Ulug'bekning atrofichcha yordami bilan, Mo'g'uliston taxtini egalladi.

Shu taripa Ulug'bekning 1416-yildan beri qalbiga tugib yurgan orzu-istagi ushaldi. U Mo'g'uliston taxtiga o'z odamini o'tqizishga muvaffaq bo'ldi. Ammo baribir, Shermuhammadxon ko'p o'tmay, valine'matini unitdi, uning yuziga oyoq qo'yidi. U Mirzo Ulug'bek dan norozi bo'lib Mo'g'ulistoniga qochib borganlarga boshpana beribgina (masalan, Pir Ali takritning o'g'liga) qolmay, balki Temuriyalar davlatining ichki ishlariiga ham aralasha boshladi. Natijada har ikkala davlat o'rtasidagi imunosabatlari yana keskinlashdi. Mirzo Ulug'bek 827-yil zulhija oyining boshida (1424-yilning 25-oktyabr kuni) ixtiyoridagi bor qo'shimi olib Sirdaryo bo'yłariga qarab yo'lgatushdi. Humoyun mavkab Shohruxiyaga kelib qo'ngach, shu atrofda

qishni o'tkazib, kelası yili erta bahorda Mo'g'uliston ustiga yurish ni davom ettirishga qaror qildi. Mirzo Ulug'bek «tevarak-atrofshu» lashkari shu yerga to'plansin» — degan buyruq bilan viloyatning tavochi va jarchilar yubordi.

Lashkarning o'ng qanoti katta amirlardan Harimalik va Shuya Abu Sa'id boshchiligidä Andijon atrofida, Sulton Uvays barlos, xolja Yusuf va Tavakkal barlos bosh bo'lgan so'l qanot O'ttor atrofidi vii Qorasomonda qishlaydigan bo'ldi. Lashkarning g'uli (markaz qisi) Ulug'bekning o'zi boshchiligidä Shohruhiyada turadigan bo'ldi Yurish, avvaldan belgilab qo'ygan rejaga binoan, hijriy 828-yil rabi ul-avval oyining 27-kuni (1425-yil 17-fevral kuni) boshlandi. Toshkentda lashkarning o'ng va so'l qanoti g'ulga kelib qo'shildilar.

O'sha kezda Ashparada turgan mug'ullar Temuriylarning bar-kentga to'plangamidan ogoh bo'lgan mo'g'ullarning ilg'or qismi Ibrohim ibn Tuq Temur boshchiligidä Talos (Yangi Taroz⁸⁸) ga qo'shab harakaqiga keldi. Mirzo Ulug'bek ularga qarshi 30 ming kishilik askar yubordi, ammo ular mo'g'ullarni qo'qqisidan bosishga tuyassar bo'lolmadilar. Amir Ibrohim ibn Tuq Temur xabar topshiri hamono Issiqko'l tarafga qochib ulgurdi. Ulug'bekning amirları yo'lda uchragan ba'zi ovullarni talab, Olyi o'rduga qaytdilar. Mirzo Ulug'bekning o'zi o'sha Ibrohim ibn Tuq Temurning orqasidun tushdi. Rabi ul-oxir oyining 11-kuni (1425-yil 3-mart kuni) Bug'omdarasi atrofida, Qizilsuv degan yerda mo'g'ullarga yetib oldi. Lekin urush bo'lmadi. Mo'g'ullar Ulug'bek qo'shimi yaqinlashgach, lashkargohni tashlab qochdilar. Ko'p o'tmay amir Ibrohim shu Bug'omdarasida Qamariddinming o'g'li Jabonshohni uchratib qoldi. Ikka-lalari qo'shilishib kurashni davom ettirishga ahd qildilar. Ular 1425-yil 5-mart kuni Oqsuv yonida turgan Temuriy qo'shinarining ilg'or qismi ustiga tashlandilar. Iki o'rinda shiddati urush bo'ldi. Ikkala taraf ham katta talofat ko'rdi. Unda Mirzo Ulug'bek amirlarinining qo'li baland keldi. Amir Ibrohim va uning ikki o'g'li urushda halok shahari.

bo'ldilar. O'sha kuniyoq Mirzo Ulug'bek lashkarning qolgan qismi bilan Oqsuvga kelib tushdi va o'n kun mobaynida shu yerda turdi. Bu yo'l bilan — favqulodda va mayda jaangler bilan kuzatilgan maqsadga erishib bo'lmashdi. Dushman mayda-mayda kuchlarga bo'linib olib o'ziga qulay sharoitda urush olib borayotgan edi. Buroyiga urushti yaxshilab rejalashtirib olish kerak edi. Abdurazzoq Samarcandiyo o'sha kumlari Mirzo Ulug'bek Oqsuvda katta kengash o'tkazgani va mo'g'ullarga qarshi kurashning bundan buyog'idagi rejalarini atroficha muhokama qilib o'ganini hikoya qiladi. So'ng Cho'ng keminda amir Jahonshoh bosh bo'lib turgan mo'g'ullarga qarshi Arslonxo'ja taxxon boshchiligidä 10 ming kishilik qo'shin yubordi. Qo'shining yana bir qismi Ketmontepa tarafga, Shermuhammad o'g'longa qarshi yuborildi.

Arslonxo'ja taxxon amir Jahonshohmi Cho'ng kemindan topolmadi, u allaqachon Issiqko'l tarafga qochib ulgurgen edi. U dushtmami ta'qib qilishni istamadi, chunki bu holda tog'-u tosh orasiga ichkarilab ketib asosiy kuchlardan uzilib qolardi. Bu esa oxir-oqibat yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Arslonxo'ja taxxon qaytishda, bir dovon ustidan o'tib, Chilik degan yerda mo'g'ullarning shu yerda turgan bir qismini tor-mor ketirdi va shu atrofida Ulug'bek bosh bo'lgan asosiy kuchlarga kelib qo'shildi.

Chilikdan Abish, Burolg'u va Qo'shbuloqqa yurdilar, lekin mo'g'ullarni uchratmadilar. Qo'shbuloqda Mirzo Ulug'bek huzuriga ulusbegi amir Xudaydodning elchisi amir Shayx Darvish ko'kaltosh kelib ulusbegining bo'ysunish va xizmatkorlik haqidagi ahdomasini topshirdi. Ulug'bek bundan mammun bo'ldi va elchiga hurmat-elhitrom ko'rsatib, sovg'a-salomlar berib, ketishga ijozat berdi. Arpa yoziga yetganlarida amir Jahonshohdan xabar topdilar. U Issiqko'lda Sadr Islom bilan Malik Islomni kutib o'tirgan ekan. Basharti qo'shilib ketgundai bo'lsalar, unda ijiddiy kuchga aylanar edilar. Mirzo Ulug'bek bunga yo'l qo'ymaslikka qaror qildi va Sadr Islom bilan Malik Islomning yo'lini to'sish uchun Sangtosh dovoniga qo'shin yubordi. Amir Jahonshoh ham ittifoqchilarini qarshi olish uchun o'sha Sangtosh dovoniga ilg'or qism yuborgan edi.

⁸⁸ Yangi Taroz — tarixda Yaig' va Taroz nomlari bilan mashhur bo'lgan o'tra

Ulug'bekning qo'shini uni shu yerda tor-mor keltirdi. Mo'g'ul⁸⁹ dan ko'p odam o'ldi, qolganlari asir olindilar. Mirzo Ulug'bek Arpi yozidan o'tib, Chorin soyimi kechib o'tdi va Toshbo'ymoq orqali Qizil suvga kelib tushdi. Shu yerda Mirzo Ulug'bekning huzuriga ulu begi Xudaydodning o'zi keldi. Ulug'bek uni ko'pdan beri kutardi. Shuning uchun unga haddan ziyod hummat ehtirom ko'rsatdi.

Qizilsuvda turganlarida Sadr Islom bilan Malik Islomdan han xabar topildi. Chig'atoxykoning Ila daryosi sohilidagi Oq quyosni deb atalgan O'rduisida turgan va zo'r berib Shermuhammad o'g'lon ni qidirib yotgan ekanlar. Ulug'bek ularga qarshi 20 ming kishidan iborat otliq qo'shinni yubordi. Sang-toshda ularga 3 ming kishilik qo'shin kelib qo'shildi. Lekin mo'g'ullar vaqtida otini qamchilub qolgan ekanlar, Tekas soyidan o'tib ham dushmanidan asar topmadilar. Shu yerda ulusbegi Xudaydodning odamlari soqchilar kuzatuvida Samarqandga jo'natib yuborildilar, ulusbegini esa Mirzo Ulug'bek yonida olib qoldi. Chunki ko'pmi ko'rgan, Mo'g'uliston va uning odamlarini yaxshи bilgan bu odamning kengash va maslahatlari kerak bo'lib qolishi mungkin edi. Shu yerda Shermuhammad o'g'lon va uning ittifoqchilari bilan bo'ladigan kurash rejasini yaxidan, har tomonloma muhokamadan o'tkazildi. Kutilmagan tasodiflar yuz bermasligi uchun mo'g'ul sardorlariga qarshi kuchaytirilgan (20 ming odamdan iborat) xabarchi (razvedka) qism yuboriladigan bo'ldi. Yuqorida tilga olingan Shayx Darvish ko'kaltosh shu qismiga g'a jarchi etib tayinlandi. Ko'p vaqt o'tmay, xabarchi qism Shermuhammad o'g'lomning qayerda turganini aniqladi. U ahl-u oilasini Takas soyi orqasiga o'tkazib yuborib, o'zi lashkar bilan hamon o'shu Ketmontepada turgan ekan.

Ketmontepada har ikkala lashkar o'rtasida hijriy 828-yil jumodi ul-oxir oyining 15-kuni (1425-yil 5-may kumi) qattiq urush bo'ldi. «Matla' us-sa'dayn»da bu urush quyidagicha tasvirlangan: «Janob Mirzo Ulug'bek o'n beshinchchi jumodi ul-oxirda lashkarga tartib berishga kirishdi. Amir Arslonxo'ja tarxon va uning birodari amir Mahmudni javong'orga, amir Buzurgni uning qabuliga tayinladi. Barong'orga amir Luqmon va amir Hariy Maliklar tayin etildilar.

Lashkarning g'uli esa Mirzo Ulug'bekning muborak zoti bilan bezatildi. Amir Iskandar Hindu Buqo, Ibrohim Ikki Temur, Uvays qavochin, xoja Yusuf va Murod qavchinchalar g'ulning qoravuli etib tayinlandilar. Mukammal bir necha qo'shin ko'mak uchun zaxiraga tayin etildi... Dushman tarafdan barong'orda Poyanda Buqo, javong'orda Malik Sadr; g'ulda Shermuhammad o'g'lon turdilar.

Ikki lashkar xuddi moviy dengizga o'xshab jo'sh-u xurtushga kelib, bir-birlari ustiga tashlandilar. Qahr-u g'azab bulutidan nayza va kamon o'qlari chaqmoq bo'lib otilib chiqdilar. Ish tiru kamon (otish)dan tig'-u mayza sanchish va yoqalashuvgacha borib yetdi. «Hayo-hayo!», «ur, ha, ur!» na'ralari ko'tarildi. Shermuhammad o'g'lon to'g'ridan to'g'ri to'qashish bilan biron ish chiqmasligini anglagach amirlar bilan (kengashib): «Barongor va javong'orlar birlashsinlar va kutilmaganda bir tarafga hujum qilib, o'q (yomg'irini) yog'dirsunlar. Agar biror natija chiqsa — bu aynan kutilgan mudao, chiqmasa chekingan va qoqchagan taqdirda ham uzrlik bo'лади», — degan qarorga keldi. Shunga binoan, hammalari jam bo'lib, yulduzlardan ham, ya'juj (va ma'juj)⁹⁰ to'dalaridan ham ko'p bir lashkar zafar shior qo'shining javong'origa birdan hamla qildi. Amir Arslonxo'ja (tarxon) tog' singari barqaror bo'lib turgan o'mini himoya qildi va dushman har qancha harakat qilmasin, uni (o'midan) siljita olmadi. Mirzo Ulug'bek bu ahvolni mushohada qilib ko'rib, «qoraqul va zahiradagi tumanlar g'ul oldidan aylanib o'tib javong'origa qo'shilishinlar», — deb amr qildi. G'alaba yor lashkarning saflari «Albatta, Alloh, O'zing yo'lida go'yo tutash binolardek bir safga tizilganlarida jihod qiladigan zottarni sevadi»⁹¹ (deyilganidek) mustahkamlangach, janob mirzo Ulug'bek suron⁹² solishga buyurdi: nog'ora sadosi va karnay ovozi yangradi, urush do'mbirasining gumbirashi va surmay nolishidan tog'larga zilzila tushdi va zafar panoh lashkar aksanaviy xalq;

⁸⁹ Ya'juj va Ma'juj — yo'lida nima uchrasa yemirib va kemirib ketuvchi bir

⁹⁰ Qur'on, «Saf» surasi, 4-oyat.

⁹¹ Suron — jang paytida qilinadigan mahsus chaqiri.

barobariga hujumga o'tdi... Olam shahzodasi Ulug'bek Ko'ragon-niñg bayrog'i ilohiy qudrat va rabboniy ko'mak tufayli barallü etildi, fath-u nusrat ofobi inoyat matla'idan balqidi va o'sha kuni (erta tongdan) to kechgacha g'alaba yer lashkarning urish, tutish va o'ldirishdan bo'lak boshqa biron ishi bo'imadi. Qorong'i tushgandu osmon hashamatli sipoh Boybot va Taqiqu mavzeyiga to'plandilar. (Shu yerda) «amir Dowud va Elchi Buholar qochganlar ketidan 10 ming otliq askar bilan quvib borsinlar», — degan humoyun farmon sodir bo'ldi. Ul janob (Mirzo Ulug'bek) osmon qadar bedovni o'shu yerlardagi yaylovlarning eng yaxshisi bo'lgan va ul mavsumda rayhonlarning xilma-xilligi bilan oliv behishtning gulzori tusini olgani Yulduz yaylovi tomon ilg'or tarzida harakatga keltirdi. Zafar shor lashkarning qo'liga ko'p o'ljalar tushdi».

Shunday qilib, Mirzo Ulug'bek shu urushda mo'g'ul hukmdori Shermuhammadxon ustidan g'alaba qozondi. O'ljalar va asirlar Ulug'bekning qarorgohiga olib kelindi. «Mo'g'ullar yaqin orada o'zini o'nglab ololmasin», — deb ularning mol-mulki va chorpolari fortib olindi. Shundan keyin humoyun mavkab Yulduzdan ko'chib, mo'g'ul xonlarning bosh qarorgohi bo'lmish Qarshiga keldi. Lekin Ulug'bek Mo'g'ulistonning janubiy yurtlariga bormadi va shu yerdan Movarounnahrga qarab yo'l oldi. Har ikkala tarafa katta kulfattlar keltirgan bu urush 100 kundan ortiq davom etdi. Mirzo Ulug'bekning amirlari katta o'jja va asirlarni haydab qayidilar. O'ljalar orasida Mo'g'uliston xonning bosh qarorgohidan, ya'ni Qarshidan olingen ikki bo'lak katta kosh toshi (nefrit) ham bor edi. «Mirzo Ulug'bek, — deb yozadi tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy, — o'shal kosh toshni (maxsus) arava birian dorussaltana Samarqandga yetkazish uchun 2 ming chapdast kishimi o'sha yerdida qoldirdi. Bu toshni qadim podishohlar Xitoy tarafidan (bu yerga) kellegan va hazrat Sohibqiron ul toshni Movarounnahrga ko'chirmoqchi bo'lib, amir Jahonshohni bir necha ming kishi bilan u yerdan qoldirgan, ammo ular toshni ko'chirib keltirishdan ojiz qolib, hazrat Sohibqiron: «Nega u toshni keltirmadilar?», — deb taassuf bildirgan edilar». Bir zamonalr Duva Setsenxon Xitoy taraflardan olib

keltirib, mo'g'ul hukmdorlari qarorgohiga o'matgan bu tosh asida uch qismidan iborat bo'lib, Amir Temur faqat uning bir qismininga Samarcandga oldirib keltirishga tuyassar bo'lgan ekan. Toshning qolgan ikki bo'lagini Mirzo Ulug'bek maxsus aravalarga yuklatib, Samarcandga oldirib keltirdi. Uning bittasini Ulug'bekning amr-farmoni bilan mohir sangtarosh ustalar taroshlab hazrat Sohibqironning qabri ustiga o'matdilar.

Mirzo Ulug'bek Samarcandga hijriy 828-yil sha'bon oyining 10-kuni (1425-yil 27-iyun kuni) qaytib keldi. «Tarixi jaddayi Toshkand» (*«Toshkentning yangi tarixi»*) kitobi mualifi keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, Mirzo Ulug'bek Mo'g'uliston yurishidan qaytishida Soybo'yı qal'asi bilan Jizzax oralig'ida joylashgan Ilon o'ti (Ilon o'tdi) degan tor bir yerdan o'tayotib qoyatoshga mana buso'zlarni yozdirib qo'ygan ekan: «Ulug' Tangrining... qo'llab-quvvatlashi bilan ulug' sulton, jamiy podshohlar hukmdori, Tangri taoloning yerdagi soyasi, islam dinining yalovbardori, din homiysi Mu'inuddin Ulug'bek Ko'ragon — Tangri uning saltanatini poydon qilsin — Jete va Mo'g'ulistoniga yurish paytidu ushbhu yerdan o'tgan. Hijriy 878-sana».

1425-yilgi urushda Mo'g'ulistonning harbiy-siyosiy va iqtisodiy qudratiga putur yetdi, lekin, baribir, u bu safar ham Temuriylar davlatiga bo'yusummadи.

Oradan ko'p vaqt o'tmay Shermuhammadxon vafot topdi. Uning o'mini yana o'sha Vaysxon egalladi. Bundan tashqari, Jahonshoh ham uzil-kesil tor-mor etilmay qoldi. Hatto u Ulug'bekning Samarcand tarafa ulusbegi Xudaydodning odamlarini qo'riqlab borayotgan qo'shnlariiga Santosh dovonida hujum qilib, uni tor-mor keltirdi. Ulug'bek unga qarshi Arslonxo'ja tarxonni bir tarafdan, amirlardan Iskandar, Muhammad va Shoh Valmi ikkinchi yo'ldan yubordi, bir roq ular Jahonshohni Santoshdan topmadilar. U allaqachon Issikko'l tarafa o'tib ketgan ekan. Arslonxo'ja tarxon izidan tushdi, lekin u Qo'chqor va Jung'al orqali kunbotish tarafa qochedi. Ulug'bekning amirlari uni ko'p qidirdilar, lekin topolmay qayidilar.

Vayssxon 1428-yilgacha podshohlik qildi. Uning davrida feudal tartibsizliklar, toj-taxt uchun kurash, ayniqsa, qalmoqlarning ketma-ket hujumlari kuchaydi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Vayssxon qalmoqlar bilan oltmish bir marga urushgan, lekin faqat bir marta g'abalabaga erishgan. Ikti marta asirga tushib qolgan va bir safar katta tovon to'lاب, ikkinchisida esa singlisini qalmoqlarning sardori Eson toyshiga xotinikka berib qutilgan. Oxiri bo'lmagach, Vayssxon poytaxtni Beshbaliq (Sharqiy Turkiston)dan Ilibiliq (Yetisuv)ga ko'chirishga majbur bo'ldi.

1428-yili Vayssxon yana bir toj-taxt da'vogari — Sotuqxon bilan bo'lgan kurashda halok bo'ldi. Lekin Sotuqxon Mo'g'uliston taxtida o'mashib olomnadi. O'ndirilgan xonning taraffordlari uni mamlakatdan quvib yubordilar. Sotuqxon o'shanda Koshg'arga qochib bordi, amno u yerda ham jon saqlab qolmadi.

Aftidan, 1434-yilgacha mamlakada feodal kurash va ur-yiqitlar davom etgan. Toj-taxt vorislari esa hali sag'ir edilar. Kurash, asosan, ikki feodal guruh o'rtasida borgan. Birlari Mo'g'uliston taxtiga marhum Uvaysxonning to'ng'ich o'g'li Yunusxonni (u o'sha vaqtida 13 yoshda edi) o'tkizmoqchi bo'lishdi, ikkinchilari esa xonning kenja o'g'li Eson Bug'oxonga tarafguzarlik qildilar.

Oxir-oqbat Eson Bug'axon taraffordarinning qo'lli baland kelib uni taxiga o'tqizdilar. Zahiriddin Muhammad Bobur yozadi: «Vayssxonning voqeasida mo'g'ul ulusi ikki fariq bo'ltur. Burnuroq Yunusxonning egachisini Ulug'bek mirzo (o'g'li) Abdulaziz mirzog'a olib erdi. Ul munosabat bila Erazan bahrin tuman beklaridin Mirak turmankim, charos tumanbeklaridin erdi, xonni uch-to'rt ming uyluk mo'g'ul ulusi bila Ulug'bek mirzog'a kelturdilarkim, ko'mak olib yana mo'g'ul ulusini olg'aylar. (Lekin) Mirzo muruvvat qilmadi, ba'zisini asir qildi, ba'ziharini viloyatg'a parishon qildi... Xonni (esa) Iroq sari o'tkazib yubordi». Va yana o'sha Bobur mirzoming so'zlariga qaraganda, ushbu voqeas taxminan hijriy 837-yil (1434) sodir bo'lgan. Ko'rniq turibdiki, Mirzo Ulug'bek bu safar Mo'g'ulistonning ichki ishlariiga aralashgisi kelmagan. Shu sababdan ham shu ishni qilgan.

1434-yil Mo'g'uliston taxi Eson Bug'axonga qoldi. U hali bulog'at yoshida emasdi. Shu sababdan hokimiyat uni qo'llab-quvvat lab taxtga o'tkazgan amirlar qo'llida qoldi. Bu ham yetmagandek, Ulug'ko'l atrofida o'tirigan dug'lot amirlari o'z yurtida mustaqillik e'lon qildilar va Eson Bug'axon hokimiyatini tan olmay qo'ydlar. Oqsuv va Qushpoy hukmdorligini amir Sa'id Ali tortib oldi. Choras va bahrin kabilalarining boshliqlari o'sha kezlarda Chu vodysida ko'chib yurgan qalmoq toyshisining xizmatiga kirdilar; qoluchi va bo'lg'ochi qabilalarining yetakchilari esa ko'chmanchi o'zbeklar xoni Abulhayrxonga qo'shilib ketdilar. Balog'atga yetmagan xonga vasiy etib tayinlangan Turfon begi Temur uyg'ur esa hokimiyatni tamom o'z qo'liga oldi.

Tariixchi Mirzo Muhammad Haydarning ma'lumotlariga qaranganda, Mo'g'ulistonda feodal tarqoqlik shu darajaga borib yetgan ediki, zodagon va bayonlar o'z holiga qo'yib berigan bo'lib, ko'plari o'zini tamom mustaqil deb biardilar. Shundaylardan biri ulusbegi Xudaydodning o'g'li Mir Muhammadshoh Otbosha, amir Mir Karimberdi — Olabug' ada, Mir Haqberdi bekchik Qo'ysuva o'zlarini hokimi mutfaq deb e'lon qildilar. Lekin ular o'z uluslarida tinch o'tirmadilar. Mir Karimberdi Farg'onaga, Mir Haqberdi Turiston va Sayram ustiga talonchilik yurishlari uyushtirib turdilar. Aynan o'sha yillari Ulug'bek Koshg'ardan ayrılib qoldi. Uni o'sha ulusbegi Xudaydodning o'g'li amir Said Ali bosib oldi. XV asrning 40-yillariga kelib, Eson Bug'axon o'z mavqeyini birqadar mustahkamlab oldi. U ham ba'zi-ba'zida Farg'on austa bosqin qilib turdi. Masalan, Mirzo Ulug'bek podshohligining so'ngigi yillari u Farg'onani bosdi. «Ulug'bek mirzoning va o'g'illarining g'avg'osida, — deb yozgan edi Bobur, — Eson Bug'axon fursat topib kelib Farg'ona viloyatini Qandibodomgacha chopib va Andijomi olib, elini tamom asir qildi. «Chamasi, Eson Bug'axonning Temuriyalar yurtiga bosqini XV asrning 50-yillarida ham davom etgan va Sultan Abu Sa'id (1451—1469) unga qarshi yurish bilan javob bergan. «Boburnoma»da o'qymiz: «Sulton Abu Sa'id mirzo taxt olg'annda cherik tortib borib, Yangidan beri Ashparada Eson Bug'axonni

yaxshigina bosdi». Lekin shundan keyin ham mo'g'ullar tinib-tinchimaganlar. Natijada Sulton Abu Sa'id Yunusxonni Iroq ajamdan chaqirtilib olgan, unga zatur yordam ko'rsatib Mo'g'ulistoniga, Eson Bug'axongiga qarshi yuborishga majbur bo'lган. «Uning (Eson Bug'axonning) daf'iga Sulton Abu Sa'id mirzo Yunusxonni... Iroq va Xurosondin tilab va to'ylar qilib, do'stlar bo'lub, mo'g'ul ulusida xon qilib yuborg'a anda Sag'richi tuman beklari tamom ul fursatda Eson Bug'axonning yomonlab Mo'g'ulistoniga kelib edilar, bujarning orasig'a keldi. Ul fursatda Sag'richi beklarinining ulug'i Sher Hojibek erdi, aning qizi Eson Davlat beginni oldi. Mo'g'ul to'rasi bila xonni va Eson Davlatbegimni bir oq kigiz ustig'a o'lting'uzub xon ko'tardilar». Yunusxon yordam evaziga Sulton Abu Sa'idga Movarounnahrga talabguzarlik qilmaslikka so'z berdi. Mirzo Mo'hammad Haydarning so'zlariga qaraganda, bu voqeа 860-yil (1456) sodir bo'igan. Yunusxon Sog'richi va boshaq qavmlar, shuningdek, Mir Karimberdi va Mir Haqberdining o'g'li Mir Ibrohimlarning yordamiga suyanib, Eson Bug'axongiga qarshi urush ochdi. Lekin nomlari tilga olingan amirlar jang oldidan uni tashhab ketdilar. Ikki o'rтada bo'lgan urushda Yunusxon mag'lubiyatga uchragach qochib borib Farg'onan bilan Yettisuv chegarasida joylashgan Jetikentga borib o'rinalashdi va to Eson Bug'axonning vafotiga (1462) qadar shu yerda turdi.

Shundan keyin Yunusxon Mo'g'ulistonning g'arbiy qismida o'z hokimiyatini o'matishga muvaffaq bo'ldi. 1468-yil Oqsuv va Koshg'arni, 1471-yil Turfonni ham egalladi. Qisqasi, 1472-yil Yunusxon Mo'g'ulistonning to'la xo'jayiniga aylandi. Shu yerda, ta'bir joiz bo'lsa, Eson Bug'axon hukmronligi yillarida sodir bo'lgan bir muhim tarixiy voqeani eslatib o'tmoqchimiz. Bu — Eson Bug'axonning qozoq xonligiga asos solinishidagi xizmatidir. Bu voqeanning tafsiloti «Tarixi Rashidiyya»da quyidagicha bayyon etilgan: «O'sha paytda (1455—56) Abulhayrxon⁹² butun Dashti Qipchoqqa podshoh bo'ldi va Jo'chi najod sultonlarni tamom tor-

mor keltirdi. (Lekin) ulardan ikkitasi: Jonibekxon bilan Girayxon Mo'g'uliston tarafiga qochdilar». Mahmud ibn Vali Girayxon bilan Jonibek Sulton bu ishni Abulhayrxonga nisbatan norozilik sifatida qilgan deb aytadi. Masalan, u bunday deydi: «To'qay Temurxonning⁹³ ba'zi avlod, masalan, Girayxon bilan Jonibek Abulhayrxonga gardankashlik qildi va o'z yurtini tashlab ko'chib ketdi». Eson Bug'axon ularni yaxshi qarshi oldi va Mo'g'ulistonning g'arbiy qismida joylashgan Chu va Qo'ziboshi o'kalarini in'om qildi. Eson Bug'axon Mo'g'ulistonning ichki yurtlarini qalmoqlar va ko'chmanchi o'zbeklarning bosqinidan himoya qilish uchun shunday qilgan, albatta. Xullas, keyinroq G'arbiy Mo'g'uliston Abulhayrxondan qochgan qabilalarga makon bo'lgan. Mirzo Muhammad Haydarning ma'lumotlariga qaraganda, Jonibek va Girayxon huzuriga qochib kelganlar soni tez orada 200 ming kishiga yetgan. Xuddi shu yerda — Chu bilan Qo'ziboshida bo'lgisi qozoq xonligiga asos solingan. Uning asoschilari deb esa o'sha Jo'chiy najod sultonlar: Girayxon bilan Jonibekxonni, xonlikka asos solingan yil deb esa 1465—66-yilni hisoblamoq lozim.

Yunusxonning Mo'g'ulistonnda hokimiyatni qo'lga kiritishi oson bo'lindi. Dastlab Temurriy sulton Abu Sa'id va Sher Hojibek (Sog'richi qavmining boshlig'i)ga o'xshagan hukmdor va amirlarning qo'llab-quvvatlashi bilan Mo'g'ulistonning g'arbiy qismida o'mashdi. So'ngra unga Mir Karimberdi, Issiko'da o'lirgan marhum Mir Haqberdining misi Mir Ibrohim kabi mo'tabar amirlar qo'shildilar. Mo'g'ullar ko'p vaqt mustaqil yashashga o'rganib qolganliklari sababli mulozimlik va xizmatkorlik lavozimini o'miaga qo'ymadilar. Xon bundan birqadar qisildi va Koshg'arga borib qal'asini qamal qildi. Amir Said Ali bu vaqtida ulug' yoshda edi. U Eson Bug'axonning odam yuborib, o'zi Koshg'ar qal'asiga kirib yashirindi. Iso Bug'axon bu payt Mo'g'ulistonning sharqiy qismida joylashgan Yulduz yaylovida turgan edi. Amir Said Alining choparidan bu xabarni eshitib, darhol olti ming otliq askar bilan Koshg'ar

⁹² A b u l h a y r x o n — Shayboniy; ko'chmanchi o'zbeklar davlati (1428—1468)ning asoschisi va boshlig'i.

⁹³ To'qay Temur — Jo'chixonning o'n uchinchi o'g'li. Bouxon va Berkaxon zamonida Hoji taxkonda xon bo'lgan.

yo'liga kelib qo'shildi. Koshg'ardan uch farsax narida, uning Oqsuv tarafida joylashgan Xonsolor degan yerda ikki o'rtada — Yunusxon bilan Eson Bug'axon o'tasida urush bo'idi. Unda Iso Bug'axon bilan amir Said Ali Yunusxon ustidan g'alaba qozondilar. Yunusxon qochdi, ahl-u ayoli esa amir Said Alining qo'liga tushdi. Yunusxon o'shanda Mo'g'ulistoniga qochib bordi. Lekin baxti kelishmadi. Shu yerda odamlari uni tashlab, tevarak-atrofga tarqalib ketdilar, xon bo'isa ko'chini Mo'g'ulistonda qoldirib, o'zi Xurosonga, Sulton Abu Sa'id mirzo huzuriga qochib bordi. Mirzo Muhammad Haydar: «Xon shu qadar xarob edi, hatto sultonga peshkash uchun arziguday biron narsa topolmadni», — deb yozadi. O'shanda Mirzo Sulton Abu Said Andijon nohiyasidan bir yermi xonga in'om qildi. Shu yer dan xon keyimcha Mo'g'ulistoniga o'tdi, ilgari tevarak-atrofga tarqalib ketgan odamlari asta-sekin uning atrofiga yig'ildilar. Shu payt Mir Said Ali Koshg'ard 1457-yil vafot etdi. Bu Yunusxoniga kela-jakda Koshg'ar va Mo'g'ulistoniga yo'l ochib berdi.

Mir Said Alining ikki o'g'il bor edi. To'ng'ichi — Sonsiz Mirzo. Onasi charoslardan. Ikkinchisi o'g'il Muhammad Haydar⁹⁴ mirzo. Onasi O'rung Sulton begin Yunusxonning ammasi edi. Turk-mo'g'ul odati bo'yicha otasining o'mini to'ng'ich o'g'il Sonsiz mirzo egal-ladi. Sonsiz mirzo xalq va amirlarning onasiga bag'oyat hurmatlari zo'r bo'lgani uchun Muhammad Haydar mirzoga Koshg'ar bilan Yangi hisorni berdi, o'zi esa Yorkandni poytaxt qildi. Mirzo Muhammad Haydarni otasi Eson Bug'axonning qizi Davlat Nigor xonimiga uylantirgan edi, shuning uchun u bo'lg'usi kurashlarda Iso Bug'a-xomming tarafini oldi. Sonsiz mirzo yordam so'rab Yunusxoniga mu-rojaat qildi. Shu sababdan Mirzo Muhammad Haydar Koshg'arda turohmadi va Oqsuvga, Do'stimuhammadxonning huzuriga qochib bordi.

Sonsiz mirzo otasidan keyin yetti yil Koshg'arda hukmronlik qildi va 869-yil (1465) shikor paytda otdan yiqilib vafot topdi. Undan o'nta o'g'il qoldi: kattalari Mirzo Abubakr bilan Umar Mirzo.

Eson Bug'axon 1462-yili o'z ajali bilan o'idi. O'rniga o'g'il Do'stimuhhammadxonni podshoh qildilar. Taxtga o'itirganda 17 yoshda edi. U hammasi bo'lib yetti yil podshohlik qildi. Do'stimuhhammadxon o'z davrida Yorkand bilan Koshg'ar ustiga lashkar tortib, Koshg'arni g'orat qildi. Undan Oqsuvga bordi. Shu sababdan Muhammad Haydar mirzo undan ranjib Yunusxonidan yordam so'radi. Do'stimuhhammadxonning qilgan yana bir yomonishi shu bo'ldiki, u otasining harami muhtaramini ulamoning qarshiliiga qaramay, nikohiga oldi. Muhammad Haydar: «Xon qarshilik ko'rsatgan ulamoldardan yetti nafarini o'ldirdi, oxiri mavilono Muhammad Attorga qilich o'qtalib, nikoh marosimini bajarishga majbur qildi», — deb yozadi. Do'stimuhhammadxon shuning kasriiga uchrab hijriy 873-yil (1468—69) 24 yoshida vafot topdi. Undan keyin xalq orasida g'alg'ovur boshlandi. Do'stimuhhammadxonidan Kepak Sulton ismlik bir o'g'il qoldi. U o'ziga qarashli odamlardan bir qismini olib Turfon va Cholish taraffarga ketib qoldi.

Shundan keyin Yunusxon Oqsuvga kelib xalqini o'z tasarrufiga oldi. Voqeaming tafsiloti quyidagicha: uni bu safar ham Sulton Abu Sa'id mirzo qo'llab-quvvatladi. Bu gal uning omadi yurishdi. Tamom Mo'g'uliston xalqi uning atrofiga jam bo'ldi. Uning g'alaba qilishiga ma'lum darajada Muhammad Haydar mirzo bilan Sonsiz mirzo va avlodni o'tasidagi kelishmovchiliklar sabab bo'ldi, albatta. Muhammad Haydar mirzo Oqsuvga kelib Do'stimuhhammad mirzoga qo'shildi, Sonsiz mirzo esa Yunusxonning oldiga yordam so'rab bor-di. Shundan keyin Yunusxon Oqsuvga keldi, lekin Kepak Sultonni ko'pchilik qo'llab-quvvatlab turganini hisobga olib, uni ta'qib qilib o'tirmadi va odamlarini olib Mo'g'ulistoniga bordi. O'sha vaqida Mo'g'ulistonni Eson toyshining o'g'il Omonsochi toyshi boshliq qalmoqlar egallab turgan edi. Ma'lunki, bir paytlar Uvaysxon qal-

moqqa asir tushib qolib, jon omonlig'i deb singlisi Maxtum xonimi Eson toyshiga xotimlikka berishga majbur bo'lgan edi. Mahtum xonim unga muslimmon bo'lishni shart qilib qo'ydi va shundan keyingina uning nikohiga o'tdi. Eson toyshining Mahtum xonimidan ikki o'g'il va bir qizi bor edi. O'g'illaridan birining ismi Ibrohim,

ikkinchisining ismi Iljos edi. Qizini Mir Karimberdining o'g'li Mir Qodirberdiga uzaqtgan edi. Oxiri aka-ukalar bilan Omonsochi toyshi o'tasida raqobat sodir bo'ldi va Omonsochi toyshi llada turolmay

Mo'g'ulistoniga qochib keldi. Muhammad Haydarning ayishicha, uning ixtiyorida 30 ming askari bor edi. O'shanda Ibrohim bilan Iljos ham qalmoq xoni bilan kelishholmay Xitoy tarafga ketib qoldilar. Bu voqeа Do'stimuhammadxon vafotidan awal sodir bo'lган edi. Do'stimuhammadxonning vafoti hijriy 873-yil aka-uka Ibrohim bilan Iljoslearning Xitoy hududi sari qochishi voqeasi esa bundan avval sodir bo'lgandi. Aka-ukalar Xitoyda vafot topdilar.

Yunusxon o'shanda Mo'g'ulistoniga sig'madi. Chunki u shahar madaniyati va o'troqlik tarafdori edi; mo'g'o'l amirlarining ko'pchiligi esa hamon ko'chmanchilik hayot tarzini ma'kul ko'rardilar. Shu sababdan ular Yunusxonni o'sha og'ir kunlarda qo'llab-quvvatlamadilar.

Omonsonchi toyshi Ibrohim va Iljosdan judo bo'lib, Mo'g'ulistoniga kelgandan keyin Ila daryosi bo'yida Yunusxon bilan to'qnashib qoldi. Yunusxon o'sha ja jangda mag'lub bo'ldi, amirlaridan ko'pchiligi esa o'sha urushda shahid bo'ldilar. Yunusxon qolgan-qutgan odami bilan Turkiston tarafiga qarab qochdi va Sirdaryo bo'yida, Qoratuy degan yerda qishladi. Mirzo Muhammad Haydar keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, o'shanda Yunusxon bilan birga shu yerga ko'chib kelgan mo'g'ullar 8 ming uylik bo'lganlar.

Shu yerda Yunusxon ko'chmanchi o'zbeklarning hujumiga duchor bo'ldi. Tarixiy manbalarda («Tarixi Rashidiy», «Abdullahon-ma», «Bahr ul-asror») voqeа batafsil bayon etilgan. Uning tafsiloti qisqa tarzda bunday: qirchillama qish edi. O'shanday kunlardan birlida Yunusxon shikor qilmoq uchun daryoning narigi sohiliga o'tdi. Shu payt ko'chmanchi o'zbeklar Buruch o'g'lon ismlik bir xon-zoda boshchiligidagi qilmoq uchun daryoning narigi sohiliga o'tdi. Yunusxon darhol ovni to'xtatib shoshilinch ravishda o'z qarorg'higa — Qoratuyga qaytdi. Bu paytda Buruch o'g'lonning odamlari talon-toroj va maishat bilan band edilar. Yunusxon ularni qo'qqisidan bosdi va ko'pchiligini qirib tashladi. Buruch o'g'lonning o'zi esa

asir olindi va Yunusxonning amr-farmoni bilan shu yerning o'zida qatl etildi.

Bahor kelishi bilan Yunusxon Qoratuydan Toshkentga qarab yo'ldi. Shu payt Toshkentni sulton Abu Sa'id mirzo nomidan Shayx Jamol ismlik amir idora qilib turgan edi. Bu payt Sulton Abu Sa'id Iroqda halok bo'lub (1469), Xuroson taxtida Sulton Husayn mirzo, Samarqand taxtida esa Sulton Ahmad mirzo, Hisor, Qunduz va Badaxshonda Sulton Mahmud mirzo, Andijon va Farg'onada Umarshayx mirzo hokim bo'lub o'itirgan edilar. Yunusxon kelgusida ularning ikkitasini — Sulton Ahmad bilan Umarshayxni o'ziga kuyov qilib qaratib oldi (Mehr Nigor xonimni Sulton Ahmadga, Qutlug' Nigor xonimni mirzo Umarshayxga, uchinchisi Xub Nigor xonimni esa dug'lot mirzolardan Muhammad Husaynga bergan) va Temuriyalar davlatining ijtimoiy-siyosiy hayotiga o'z ta'sirini o'tkazadigan bo'lib qoldi. Yunusxon Toshkentda bir yil asirlikda hayot kechirdi. O'sha yili amir Karimberdi dug'lotning inisi Abdulquddus Shayx Jamolini o'ldirib xonni asirlikdan ozod qildi. Bu yaxshiligi uchun Yunusxon Mo'g'ulistoniga qaytgach, amir Abdulquddusni go'rgon qildi va dug'lotlarning mansabini unga in'om qildi.

Shu payt qalmoqlar Mo'g'ulistonni xoli qoldirib yurtlariga ko'chib ketganlari haqida xabar olindi. Yunusxon g'aybdan kelgan bu baxidan o'zida yo'qxursand bo'ldi va odamlarini olib Mo'g'ulistoniga qaytdi. Mirzo Muhammad Haydar: «To mo'g'ul ulusi u bilan xushlashib ketmagunga qadar xon biron shahar va mamlakaiga bormadi», — deb yozadi. Afidan, Yunusxon mo'g'ul feodalлarining ko'chmanchilik tarziga bo'yinsunish haqidagi shartini vaqtincha bo'lsa-da qabul qilganga o'xshaydi. Ko'p o'tmay, Koshg'arni itoat etib turgan Muhammad Haydar xonga itoatkorlik va xizmatkorlik izbor qildi. Kepak sultoni esa yaqinlari Turfonda o'ldirib, boshini Yunusxon huzuriga jo'natdilar.

Shunday qilib, 1472-yilga kelib Yunusxon Mo'g'ulistonni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi.

Temuriylar bilan quda-anda tutinish Yunusxonning qo'lkeldi. Bu unga o'z mulkini Farg'ona, Toshkent va Turkiston hisobiga kengay-

trish imkonini berdi. Ayniqsa, Umarshayxdan ko'p naf ko'rdi. Mirzo Umarshayx unga Aksi, Marg'imon, O'sh va Sayramni (1482), 1485-yil Toshkentni in'om qildi. Buni Umarshayx xon Sulton Ahmad mirzo bilan bo'lajak kurashida yordam beradi deb qildi. Lekin Yunusxon har safar Umarshayx mirzo chaqirtirganda lashkar bilan Farg'onaga kelib turdi, lekin Sulton Ahmad mirzo bilan urushga bormadi, chunki Sulton Ahmad mirzo ham Umarshayxga o'xshab unga kuyov edi. Balkim, xoja Ubaydulloh Ahror bilan Marg'imonda bo'lgan tarixiy uch rashuv bunga sabab bo'lgandir. Chunki Xoja Ahror o'zaro urush va nizolarga qarshi odam edi.

Yunusxon 70-yillarning o'rtalaridan (XV asr) Koshg'arda Abu-bakr mirzo bilan Muhammad Haydar mirzo o'rtaosida boshlang'an o'zaro feodal kurashga ham aralashdi.

Ma'lumki, Abubakr mirzo (Sonsiz mirzoning to'ng'ich o'g'li) boshda Koshg'arda Muhammad Haydar mirzo bilan birga edi. Keyimroq undan ranjib Yorkandga qochib bordi va u yerda hokimiyatni qo'liga oldi. Shunday bo'lsa-da Muhammad Haydar huzuriga odam yuborib, unga itoat etishini ma'lum qildi. Muhammad Haydar buni qabul qidi va uning oldiga 3 ming sara yigitini yig'ib Yorkandga yubordi. Abubakr mirzoning nisi Mirzo Umar ham ular bilan birga ketdi. Shundan keyin og'a-ini Yorkand va unga qarashli yerlar zabitida sa'y-harakat ko'rsatdilar. Yorkandda mustahkam joylashib olganlaridan keyin esa Xo'tan xususida fikr qila boshladilar. Bu paytda Xo'tanda Xizrshohga avlod bo'lgan ikki og'a-ini: Xon Nazar mirzo bilan Qul Nazar mirzo hukmfarmolik qilib o'itirgan edilar. Xon Nazar mirzo keyinchaligi Koshg'arga itoat etmay qo'ydi. Muhammad Haydar buning uchun aka-ukalardan ranjidi. Ayni shu payda Abubakr mirzo undan Xo'tanni so'rab qoldi va Muhammad Haydar jon deb uning iltimosini qondirib Xo'tanni unga xat qilib berdi.

Mirzo Abubakr ikki bor urinishdan keyin Xo'tanni idora qilib turgan Xon Nazar mirzo bilan Qul Nazar mirzoni turli yo'llar bilan o'rtadan ko'tarib tashladi. U Xo'tanni deb o'z nisi Mirzo Umar ni ham aymadi. Undan shubhalanib, ko'ziga mil tortdirdi. Qisqa si, Mirzo Abubakr tez oradan Xo'tan viloyatining ham to'laqonli

hokimi bo'lub oldi. Mirzo Abubakr borgan sari quvvatlani, Yorkandni bosib oldi va Koshg'arni orzu qila boshladi. Muhammad Haydar mirzoning amirhari shubhalanib, xonni hushyorlikka da'vat qildilar. Lekin xotini Cho'moq og'ani riyo qilib (u boshda Sonsiz mirzoning xotini va Abubakr mirzoning onasi edi; Muhammad Haydar unga keyin uylangan), amirlarning andishasiga bee'tibor bo'ldi. Bunda Cho'moq og'aning ta'siri ham katta bo'ldi, albatta. U: «Amirlarni ko'rolmasdan sodiq farzandi bilan urushtirishmoqchi», — deb turib oldi. Ikkinchit tarafdan esa o'g'li Abubakrni ogohlantirib qo'ydi. Muhammad Haydar xotini va o'gay farzandi Abubakr mirzoning so'zlariga kirib, katta amirlarini o'zidan uzoqlashtirdi. Oqibatda kuchsizlanib qoldi. Mirzo Abubakr esa bundan foydalanib, Koshg'ardan qochub kelib uning xizmatiga yollangan kuyovi amir Abdulquddusni lashkar bilan Abubakr mirzoning ustiga yubordi. Shu payt Mirzo Abubakr Yangi hisor tevaragini toroj qilib turgan edi. Abdulquddus Abubakr mirzo bilan to'qnashib, mag'lubiyatga uchradid. Abdulquddus nomus qilib, qaynotasi Muhammad Haydarning oldiga bormadi va 300 odami bilan Badaxshonga, Sulton Mahmud mirzoning huzuriga bordi. Sulton Mahmud mirzo unga hurmat-ehtirom ko'rsatdi va Xust viloyatini in'om qildi. Abdulquddus ko'ragon o'sha taraflarda Katur kofirlarining qo'llida shahid bo'ldi.

Shundan keyin Abubakr mirzo Koshg'ar va Sharqiy Turakistan-da katta kuchga aylandi. Muhammad Haydar oxiri uni daf' qilishga qasd qildi va otlig' piyoda bo'lub qarriyb 30 ming kishidan iborat lashkar to'plab mirzo Abubakr ustiga yurish boshladi. Mirzo Abubakr ham taxminan shuncha lashkar bilan uning muqobiliga chiqdi. Baxtga qarshi, Muhammad Haydar raqibniy yengolmadı, aksincha o'zi mag'lub bo'lub Koshg'arga qaytdi. Lekin, baribir, Abubakr mirzo bilan kurashni davom ettilish fikridan qaytmadi va ulug'xon Yunusxonidan yordam so'radi. Yunusxon Muhammad Haydarning iltimosini qabul qildi va 15 ming askar olib Abubakr mirzo ustiga yurdidi. Muhammad Haydar ham lashkarini tartibga solib xonga kelib qo'shildi va ular birgalikda Yorkand ustiga yurdilar. Mirzo Abubakr

Yorkand qal'asini mustahkamladi, qamal urushlariga hozirlik ko'rib qo'ydi. Yunusxon qo'shinlari bilan Yorkand qal'asining kunchiqish tarafiga kelib tushdi. Shu yerda ikki o'rtada qattiq urush bo'idi. Abubakr mirzo bu safar ham g'alaba qozondi. Yunusxon bilan Muhammad Haydar yengilib, Koshg'arga qochib bordilar. Xon Muhammad Haydarga: «Bu yil lashkar jamla va viloyating zabitida mashg'ur bo'i, inshoollo kelasi yili borib uni, albattra, bartaraft eturniz», — deb tasalli berib, o'zi Mo'g'ulistonaga qaytdi.

Kelasi yili, ya'ni 885-yil (1480) Yunusxon 60 ming kishilik lashkar bilan Koshg'arga keldi. Muhammad Haydar urushga o'tgan yildagiga qaraganda yaxshiroq tayyorgarlik qilib o'ltirgan edi. Ikka-lalari qo'shilib, ya'ni Yorkand ustiga yurdilari. Ittifoqchilarning ixtiyoridagi bu safar 90 ming kishilik piyoda-yu ottiq askar jam bo'lgan edi. Ular Yorkand qal'asini tevarak-atrofdan qurshab oldilar. Xon o'rduси bilan Yorkandning kunchiqish tarafidagi Qolug' och mavzeyiga qo'ngan edi. O'sha kuni namozi peshin paytda qal'adagilar ham otlib chiqdilar. Ikti o'rtada janglar boshlanib ketdi. Xonning o'zi ham jangga kirdi. Jar (handaq) yoqasida ikki o'rtada qisqa, qat-tiq jang bo'idi. Bir saat ichida xon mag'lubiyatga uchrab orqaga chekindi va Koshg'arga qaytib bordi. Xonning askari Mo'g'uliston tarafaga ketib qoldi. Muhammad Haydar: «Xon Koshg'arda qolomadi va 5000 xonadomi ko'chirib Oqsu tarafga ketdi. Yunusxon ham u bilan birga ketdi. O'shanda Koshg'ar xalqining ko'philigi Andijonga ko'chib ketdi...» — deb yozgan. Shu taripa Koshg'ar mirzo Abubakr uchun ochiq qoldi. Bu voqeа 885-yil (1480) sodir bo'ldi. Shu paytda tarixchi Muhammad Haydarning otasi Muhammad Husayn (Mir Muhammad Haydar dug'lotning o'g'li) 12 yoshda edi. Uni Yunusxonning to'ng'ich o'g'li Sulton Mahmudxon huzuriga Mo'g'uliston tarafaga berib yubordilar.

Yunusxon o'sha qishni — 1480—81-yilning qishini — Oqsuvda kechirdi. Oqsuvning chuqur, o'r, jar yoqasida joylashgan ikkitu qal'asi bor edi. Ularning birida Muhammad Haydar, ikkinchisidi Yunusxon o'rinishdilar. Bahor kelishi bilan xon Mo'g'ulistonaga qaytdi, Muhammad Haydar zirotat qilib Oqsuvda qoldi. Ittifoqchilar

yaylov barq urib, otlar semirgandan keyin mirzo Abubakr ustiga yana yurish qiladigan bo'ildilar. Shundan keyin, Koshg'arda bir-birlari bilan qo'shiladigan bo'lib tarqalishdilar. Biroq fitna qo'zg'atuvchilar: «Xon Mo'g'ulistonaga qaytishi oldidan uning mo'g'ullari el-yurt-ning talaydi», — deb Muhammad Haydarni ham o'z tomonlariga otasidan ajratdilar va qal'aga kirib mustahkamlanib xonga qarshi berkitib oldilar. Sulton Ahmad otasiga xiyonat qildi va Muhammad Haydar huzuriga qochib o'tib isyonchilar bilan qo'shildi. Yunusxon Muhammad Haydarning huzuriga odam yuborib, uni shayton ozdir-gan yo'ldan qaytarmoqchi bo'ldi, lekin foyda chiqmadi. Shundan keyin ko'chish niyatidan qaytib, o'zi ham qal'a ichiga kirib yashirindi. So'ng Mo'g'ulistonaga, Sulton Mahmudxonga odam yubordi. Oradan o'n yetti kun o'tganda u 30 ming askar bilan otasiga yordanga yetib keldi. Ikti o'rtada har kuni og'ir janglar bo'lib turdi. Ota-bola qo'zg'atganlar qochib qolishdi. Lekin Sulton Ahmad ular bilar ket-madi. Tavha-tazarru' qilib otasining huzuriga ketdi. Ko'p urinshlardan keyin Muhammad Haydarni ham tutib xonning huzuriga olib keldilar. Yunusxon uni itobga⁹⁵ oldi, ko'p dashnom berdi va uyal-tirdi, lekin o'idirmadi. Aksincha, unga Oqsuvni berdi, ixtiyoriga uch-yuz bosh ot ham berdi. So'ng uni o'zi bilan birga Mo'g'ulistonaga olib keldi.

Bahor poyoniga yetishi bilan Yunusxon yana Koshg'ar ustiga qo'shin tortdi. Shu ahvol asnosida Temuriy Sulton Ahmad Farg'onagan qasd qilib, Samarqanddan qo'shin bilan chiqqani haqida xabar olindi. Buni Umarshayxning chopari olib keldi. Umarshayx mirzo iltijo qilib Yunusxonдан yordam so'rabi. U og'asi xavf solganda hamma vaqt Yunusxonni Farg'onaga chaqirtirardi. Yunusxon kuyoviga yordam berish uchun Andijon ustiga qarab yurdi. Xon og'a-ini o'rtasida nizo chiqib, urushga aylanishini istamas edi. Shuning uchun ham kuyovlarini yaratshirib qo'yardi. Umarshayx mir-

⁹⁵ I to b — do'q-pisa va siyosat bilai so'roq qilish.

zo xonni Andijon ostonasida kutib oldi. O'shanda Umarshayx O'sh viloyatini xonga in'om qildi. Xon o'sha qishni O'shda kechirmoqchi bo'ldi, mo'g'ullarni esa Sulton Mahmudxonqa qo'shib, Mo'g'ulistonga qaytarib yubordi. Ammo qish kelishi bilan O'shda Muhammad Haydarni qoldirib, o'zi ham Mo'g'ulistonqa qaytdi. Umarshayx bo'lsa og'asi Sulton Ahmad tug'dirgan xavf-xatardan qutilib qoldi. Shunda Muhammad Haydar o'g'li Muhammad Husaynni xondan tilab oldi.

Umarshayx mirzo Yunusxon Mo'g'ulistonqa qaytib ketgandan keyin O'shga o'z dorug'asini⁹⁶ jo'natdi. Muhammad Haydar esa Mo'g'ulistonqa ketolmas, O'shda ham qololmasdi. Shuning uchun o'g'ilari Muhammad Husayn bilan Said Muhammadlarni Umarshayxning oldida qoldirib, o'zi Koshg'arga jo'nab ketdi. O'yadiki, Abubakr mirzo qarindoshlik va farzandlikni rioya qilib u bilan yara shadi, unga qasd qilmaydi. Lekin mirzo Abubakr uni dahrhol qanab qo'ydi va Muhammad Haydar bir yil qamoqda yotdi. So'ng Abu bakr mirzo uni Badaxshon tarafga o'tkazib yubordi. O'sha paytda Badaxshon sulton Abu Sa'idining o'g'li Sulton Mahmudning qo'ida edi. Muhammad Haydar Badaxshondan Samarqandga o'tdi va hazzrat xoja Nosiriddin Ubaydulloh Ahror⁹⁷, mirzo Sulton Ahmad⁹⁸ bilan ko'rishdi. Mirzo Sulton Ahmad unga ko'p iltifot-u navozishlar ko'rsatdi. So'ng Sulton Mahmudxon uni Toshkentga chaqirtirib oldi. Ma'lumki, Shayx Jamol o'ldirilgandan keyin Sulton Ahmad mirzo Toshkentni Umarshayx mirzoga bergen edi. O'shanda Shohruxiya qal'asi ham Mirzo Umarshayxning zabitiga o'tdi. Keyinchashu ikki viloyat ustida og'a-ini o'rtasida nizo chiqdi. Sulton Ahmad Toshkentga taarruz qilgandan keyin Umarshayx yana yordam so'rab Yunusxonqa murojaat qildi. O'shanda Umarshayx mirzo Sayramni ham Yunusxonqa in'om qildi.

Yunusxon Sayranga jo'nab ketgandan keyin shahar va o'troqlikni ixtiyor qilib yurgan mo'g'ullar xonning kenja o'g'li Sulton Mahmudxonni yoqlab Mo'g'ulistonqa qochib ketdilar. Tarixchi Mirzo Muhammad Haydarning so'zlariga qaratganda, tamom Mo'g'uliston shunday kayfiyatda bo'ldi. Illoj qancha? Xon Sulton Ahmad xonni Mo'g'ulistonqa yuborib, o'zi o'sha qishni Sayranda kechir-di va Umarshayx mizzoning iltimosi bilan to'ng'ich o'g'li Sulton Mahmudxonni 30 ming askari bilan Sulton Ahmad mirzoga qarshi yubordi. Farg'onan tarafdan 15 ming askar bilan Umarshayx mirzo yo'iga chiqdi. Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmudxon va Umarshayx mirzo boshliq uch lashkar Shohruxiya atrofida bir-biriga qarsi saf tortidilar. Lekin qutblar qutbi hazrat xoja Nosiriddin Ubaydulloh Ahror Samarqanddan kelib, urushga yo'l qo'ymadilar va tarafguzarlarni bir kigiz ustiga o'tqizib, yarashtirib qo'yidilar. Uchashla podishoh suh tuzib, ahd-u paymon bilan uni mustahkamladilar. Shundan kevin Sulton Ahmad mirzo Samarqandga, Umarshayx mirzo — Farg'onaga va Sulton Mahmudxon Toshkentga jo'nab ketdilar. O'shanda (1485-yil) Umarshayx mirzo Yunusxonqa Toshkentni ham berdi.

Oqsiasi, Yunusxon 1480-yildan keyin Mo'g'ulistonqa bormadi va Oqsuv Koshg'ar, O'sh, Marg'inos, Sayram va Toshkentda is-tiqomat qildi. Yunusxon 1487-yil Toshkentda vaftot etdi va Shayx Xovand Tahir⁹⁹ mazoriga dafn etildi. Shundan keyin xonlik mas nadiga uning to'ng'ich o'g'li Sulton Mahmudxon o'tqizildi. Lekin u ham ko'chmarchilik hayot tarzini qabul qilmay, Toshkentda qolbo'ldi. Mamlakatning markaziy va sharqiy qismida esa Sulton Ahmadxon hukm yurgizdi. Koshg'ar bilan Sharqiy Turkistonda esa Abubakr mirzo mustaqililik bayrog'ini tiddi.

⁹⁶ Dorug'a — mo'g'ullar va ko'chmarchi o'zbeklar davrida shahar va viloyat hokimi.

⁹⁷ Xoja Nosiriddin Ubaydulloh Ahror — Naqshbandiya tariqatining ko'ziga ko'ringan namoyandalardan, elparvar inson (1404—1490)

⁹⁸ Sulton Ahmad — Temuriy Sulton Abu Sa'idining to'ng'ich o'g'li; Movarounahr hokimi (1457—1494).

⁹⁹ Shayx Xovand Tahir — Toshkentlik mashhur shayx; Shayx Umarmening 761-yil (1359) vaftot etigan va hozir ham uning nomi bilan ataladigan dafn etilgan. Mozori muqaddas joy sanaladi.

XULOSA

Chingizzon Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Movarounnahrni ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonga maxsus yorliq bilan ulus qilib ber-gan bo'lsa-da, bu ulus ma'lum mustaqil davlat darajasiga ko'tari-lolmadi. Chig'atoyxon va uning avlodи XIII asr mobaynida, ya'ni barcha uluslar qoon hukumatiga bo'yungan davrida — O'gaday qoon, Guyuk qoon, Munka qoon va Xubiloy qoon zamonida — undan faqat inju¹⁰⁰ sifatida foydalandilar. Yoso va yusupga ko'ra, ya'ni turk-mo'g'u'l xalqlari orasida amalda bo'lgan tarib-qoida va odatga binoan, davlat ham, uning qaramog'iда bo'lgan yer-suv, mamlakat va xalqlar ham xon va avlodining mulki hisoblangan, ularning inoni-ixtiyorida bo'lgan. Qoon esa viloyat, o'ika yoki mamlakatni, uning yer-suvi va xalqi bilan qo'shib, o'g'illari va qarindoshlariga inju si-fatida tortiq qilgan. Lekin uluslar, tom ma'nosi bilan, qoon huku-matiga bo'yungan va u tayin qilgan noiblar tarafidan idora qilingan. Masalan, Chig'atoy ulusining g'arbiy qismi bo'lgan Movarounnahr va Turkistonni 1227—1289-yillari mashhur xorazmlik boyon Mah-mud Yalavoch¹⁰¹ va uning o'g'li Mas'udbeklar idora etganliklarini bilamiz. Inju sohiblari esa, siqrimizcha, ulusdan to'planadigan daro-madning bir qismini olish bilan kifoyalanganlar. Uning ichki ish-lariga aralashish huquqiga ham ega emas edilar. Biz buni yuqorida, Rashididdinning «Jomi' ut-tavorix» kitobining ikkinchi jildida hi-koya qilingan Chig'atoy bilan O'gaday qoon o'rtasida bo'lib o'lgan qyl-u qollar misolda ham ko'rgan edik. Boshqa so'z bilan aytgan da, Chig'atoyxon qoondan so'roqsiz ulusdan bir viloyatni kimgadir in'om etib qo'ygan uchun O'gaday qoon undan izohnomha, ya'ni yozma tushuntirish xati talab qilgan edi. Tariixy manbalaridan olin-gan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Muborakshoh, Kepakxon, Tor-moshirin va Qozomxonidan boshqa barcha Chig'atoy xonlar Mo-

varounmahrga ko'chib kelmay, ota yurtlarida istiqomat qilgantilklari ham Chig'atoy ulusi, tom ma'nosi bilan, mustaqil davlat bo'limanligidan dalolat beradi. Chig'atoyxonning vorisi Qora Haloku Chig'atoy ulusining poytaxti Movarounnahrndan yana Yettisuvga ko'chirib ketiliishi faktlari ham bunga yorqin misoldir.

1251-yildan so'ng ulusdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol o'zgardi. Bunga mo'g'u'l imperiyasida boshlangan qo'shhokimiyatchilik sabab bo'ldi, albatta. Qoraqo'runda o'itirgan qoon endi davlatni Iti bo'yida o'itirgan Botuxon, undan keyin taxtga noyl' bo'lgan Ber-kaxon bilan maslahat va ko'rsatmali bilan boshqaradigan bo'lishdi. 1251-yilda Qoraqo'runda bo'lgan qurultoydan keyin Chig'atoy ulusining katta bir qismi, xususan, Movarounnahr bilan Turkiston Oltin O'rdanining harbiy-siyosiy ta'siriga tushib qoldi. To'g'ri, Chig'atoyxonning nabirasi Olgu (1261—1266) Oltin O'rdaliklar ning ta'sirini sindirish va Chig'atoy ulusining mustaqilligini bir oz bo'lsa-da ta'minlashga muvaffaq bo'ldi. U o'shanda Jo'chi ulusining Movarounnahr va Turkistonda turgan harbiy qismi lariga qaqshatqich zarba berdi. Oltin O'rdanining bu mamlakatlarda o'itirgan noiblarini yurtdan quvib chiqardi. Lekin ko'p o'tmay, Oltin O'rdan xonlari qaytadan o'zlarining Chig'atoy ulusida harbiy-siyosiy mavqe'ini tiklab oldilar. To Amir Temur hokimiyyat tepasiga kelgunga qadar bu yerda o'zlarining azm-qarorini o'tkazib keldilar. Bunga tarixiy manbalar-da ishonchli ma'lumotlar bor. Masalan, «Temur tuzuklari»da Amir Temur hokimiyyat tepasiga kelgan dastlabki yillarda «Turonzanni o'zbeklar torifikasi qoldiqlaridan tozalash uchun kurash olib borgani» haqida hikoya qilinadi. Bu yerda «o'zbeklar tofasi» deganda Botuxon davrida Oltin O'rdan lashkarining o'ng qanotini tashkil etgan va Sirdaryoning quyoi oqimi, O'rol, Tobol, Tura daryolari bo'yları hamda Tumanida ko'chib yurgan turk-mo'g'u'l qavmlari anglashiladi. Ular XIV—XV asrlarda fors va arab tilida yozilgan tarixiy kitoblar da «o'zbek» nomi bilan atalgan. O'tamish Hojining «Chingiznomas» asarida ham bu haqda qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

¹⁰⁰ Inju — sep, erga uzatilayotgan qizga beriladigan mol-mulk; shahzoda va xonzo-

dalarga beriladigan yer-suvi, mol-mulk.

¹⁰¹ Mahmud Yalavoch 1239-yil O'gadayxon tarafidan Xityoga rojb qilib tu-yinlandi, 1254-yil vafot topgan va Xonbaliq (Pekin)da dafn etilgan.

Chig'atoy ulusi Duvaxon, Eson Bug'axon va Kepakxon davrida birmuncha rivoj topdi. Masalan Duvaxon, Qayduxon bilan ittifoqda Eron va Ozarbayjoni idora qilib turgan Halokuiylar va Jo'chi ulusi hukmdorlarining Chig'atoy ulusiga o'tkazib turgan tazyiqini vaqtincha bo'lsa-da to'xtadi, shahar qurilishiga (Andijon, Buxoro) e'tibor berdi, tarqoq mo'g'ul uluslarini federatsiya shakkida bo'lsa-da bir davlatga birlashtirish g'oyasini ko'tarib chiqdi. Eson Bug'axon davrida Chig'atoy ulusida feudal urushlar to'xtadi, mamlakat bir-muncha yuksaldi. Kepakxon esa bir qator muhim islohotlar o'tkazib, ulusning ma'muriy tuzilishini takomillashtirdi, mamlakatning iqtisodiy-moliaviy ahvolini mustahkamlashga katta hissa qo'shdi. Eng muhim, bu davrda mamlakatda islam tantana qildi.

Ammo Chig'atoy ulusi, baribir, markazlashgan davlat darajasiaga ko'tarila olmadidi. Aksincha, Kepakxonidan keyin u yana feudal urushlar va Chig'atoyxon, O'gadaxxon avlodni o'rtaida toj-taxt tashishlar iskanjasida qoldi.

To'g'ri, Qozonxon buni bartaraf qilish va ulusning birligini tiklashga harakat qildi, bitroq buning uhdasidan chiqolmadidi.

O'zaro feudal kurash — biz bu xususda yuqorida batafsil to'xtalib o'tdik, — asosiy ikki feodal guruh: ko'chmanchi feodallar bilan o'troqlik hayot tarziga mayl ko'rsatgan, shahar va o'troq xalq turmushi, madaniyatini yoqtirib, u bilan yaqinlashishga intilgan, islam diniga rag'bat bergen va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intilgan feodal guruhlar o'trasida bordi. Birinchi guruhga, ya'ni ko'chmanchilik turmush tarzi tarafdarları guruhiga Guyuk qoon, Chig'atoyxon, Yasovur, amir Qazag'onga o'xshagan feodallar kirishgan. O'gaday qoon, Munka qoon, ulus xonalaridan Muborakshoh, Baraqxon, Kepakxon, Qozonxon va Yunusxon ikkinchi guruhning ko'zga ko'rning namoyandalaridan edilar. Lekin baxtga qarshi, o'troqlik hayot tarzini yoqlovchilar g'alabaga erisholmadilar. Bu kurashda ko'chmanchi feodallarning qo'lli baland keldi. Chunki ular ko'philik edilar. Eng yomoni, bu kurash mamlakat va raiyatga ko'p ziyon-zahmat yelkazzi. Oxir-oqibat, Chig'atoy ulusi XIV asrning 40-yillarida ikkiga ajralib ketdi. Uning sharqiy qismida amir

Po'lodchi bilan Tug'ilq Temurxon Mo'g'uliston (u Jeté deb ham atladi) davlatini tuzib oldilar. Ulusning G'arbiv qismi (Movarounnahr, Turkiston va Balx) sakkizta mustaqil feodalbeklikka bo'linib, feodal kurashlar iskanjasida qoldi.

Shu o'rinda yana bir muhim gapni aytil o'tish joizdir. Mazkur risolani Chig'atoy ulusining mufassal tarixi deb hisoblamaslik kerak. U shunchaki bu yo'lda qo'yilgan dastlabki qadam, mazkur ulus tarixidan kichik bir lavha bo'lib, unda, asosan, biz muhim siyosiy voqealarga, shuningdek, Temuriylar bilan Chig'atoylar o'rtaida XIV asrning so'nggi choragi va XV asrda bo'lib o'tgan munosabatlar tarixiga qisqagina to'xtalib o'tildi, xolos. Chig'atoy ulusining mufassal tarixini yozish esa hali oldinda. Buning uchun juda ko'pmambalarni, xususan, turli tillarda bitilgan qo'lyozma asarlar, arxeologik, numizmatik mambalarni topish va qunt bilan o'rGANISH talab qilinadi.



O'zbekiston Respublikasi
O'RTA MARKAZIY TOSHKENT VILYOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

17000

Ahmedov, Bo'riboy

A98 Amir Temurni yod etib. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2018.

— 392 bet.

ISBN 978-9943-19-430-4

B o' r i b o y A h m e d o v

AMIR TEMURNI YOD ETIB

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

«Fan» nashriyot davlat korxonasi

Toshkent—2018

1753

Nashriyot litsenziyasi AI № 266, 15.07.2015-y.
100047 20.10.2018-yilda bosishga ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi $60 \times 84 \frac{1}{16}$. «Times New Roman» garniturasi.
ITX Kegli, 12. Sharli bosma tabogi 16.0. Addi 700 nusxa.
Bahozi shartnomma asosida.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
«Fan» nashriyot davlat korxonasida nashha tayyorlandi.
100047, Toshkent sh., Yahyo G'ulomov ko'chasi, 70-uy.
Ushbu korxona
«Dizayn-Print» MCHJ O'CHIK bosmaxonasida chop etildi.
100054, Toshkent sh., Cho'pon ota ko'chasi, 28-a uy.